355,77
R-11

H.X. RAZZOQOV,
SH.A. MAMASOV

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI



TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

H.X. RAZZOQOV, SH.A. MAMASOV

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 210906

TOSHKENT – 2019

UO'K: 331.4:636(075.8)
KBK 68.9ya7
R 18

R 18 H.X. Razzoqov, Sh.A. Mamasov. Hayot faoliyati xavfsizligi –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 288 bet.

ISBN 978-9943-6153-1-1

O'quv qo'llanma zootexniya va veterinariya sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, mehnatni muhofaza qilishning nazariy, huquqiy va tashkiliy masalalari, chorvachilikda sanitariya-gigiyena talablarining umumiy masalalari, qishloq xo'jalik hayvonlarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlik choralari, texnika xavfsizligi talablari va qoidalari, elektr va yong'in xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari, favqulodda vaziyatlarda aholi va atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy va tashkiliy masalalari, biologik turdagi favqulodda vaziyatlar turlari va ulardan himoyalanish choralari va jarohatlanganlarga shifokorgacha yordam berish usullari kabi mavzularni qamrab olgan.

O'quv qo'llanmadan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida chorvachilik va veterinariya sohasida ta'lim olayotgan talabalar va mutaxassislar foydalanishlari mumkin

***

Учебное пособие составлено на основе требований программы дисциплины «Безопасность жизнедеятельности», утвержденной для студентов бакалавриата по направления зооинженерной и ветеринарной медицине, в которой учитываются теоретические, правовые и организационные вопросы здравоохранения и охраны труда, общие вопросы санитарно-гигиенических требований в сфере жизнедеятельности, меры безопасности при обслуживании сельскохозяйственных животных, требования и правила техники безопасности оборудования, меры электрической и пожарной безопасности, правовые и организационные вопросы защиты населения и окружающей среды в чрезвычайных ситуациях, виды биологических чрезвычайных ситуаций и меры защиты от них, способы оказания первой помощи пострадавшим.

Учебное пособие может быть использовано студентами и специалистами в области зоотехнии и ветеринарного образования в высших и средних специальных учебных заведениях.

***

The study guide was compiled on the basis of the requirements of the program the "Life Safety" disciplin, approved for students direction of bachelor degree in zooinjeniring and veterinary medicine, whiches contentet theoretical, legal and organizational issues of health and occupational safety, general issues of sanitary and hygienic requirements in lifestoc, safety measures for the servises of agroculturial animals, requirements and safety rules of equipment, electrical and fire safety measures, legal and organizational issues of protection of the population and the environment in emergency situations, types of biological emergencies and protection measures against them, methods of rendering first aid to victims.

The study guide can be used by students and specialists in the field of zooengineering and veterinary education in higher and secondary special educational institutions.

UO'K: 331.4:636(075.8)
KBK 68.9ya7

Taqrizchilar:

I.T.Ergashev –texnika fanlari doktori, professor;
U.Q.Izbosarov – qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

ISBN 978-9943-6153-1-1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri – barcha sohadagi ishchi-xizmatchilarning, ayollar va balog'at yoshiga yetmagan yoshlarning xalqaro andozalarga mos mehnat sharoitlarini yaratish, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash va zamon talablari asosida ishlab chiqarish vositalari bilan jihozlashdan iboratdir. Ayniqsa, bugungi kunda respublikamiz korxonalarida mehnat qilayotgan ayollar va o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida» hamda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan va respublikamiz hukumati tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarda, hayot, erkinlik, mehnat va shaxsiy daxlsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi – bo'lajak mutaxassis rahbarlar-talabalarni ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligini chuqur o'rganish, bilish, tashviqot qilish va kishilarni xavf-xatardan himoya qilish bilan birga turli xususiyatli favqulodda vaziyatlarda aholi muhofazasini tashkillashtirishni o'rganish masalalari asosida tarbiyalashdir. Buning ilmiy zamini esa ishlab chiqarishda shikastlanish, zaharlanish, kasbiy kasalliklarni kelib chiqishi, yong'in halokatlari sabablarini har tomonlama tahlil qilish, mehnat jarayonida qo'llaniladigan asbob-anjomlarning xavfsizlik va zararlilik darajasini o'rganish, qishloq xo'jaligida og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni hamda favqulodda vaziyatlarda aholi va atrof muhit muhofazasini tashkillashtirish va ta'minlash kabi jarayonlar va holatlarni baholashga asoslangan.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani mazmun va mohiyati jihatidan «Ergonomika», «Muhandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish», «Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigiyena», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Sanoat ekologiyasi», "Atrof muhit muhofazasi va ekologiya" hamda mutaxassislik fanlari bilan uzviy bog'langan.

INVENTAR № 1769. 18-mart
" " 20 yil.

1-§. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI

1.1. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri –fuqarolarni ishlab chiqarish jarayoni va boshqa holatlarda mavjud yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli xavfli va zararli omillar ta'siridan himoyalash, ularning ijtimoiy himoyasini qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ta'minlash hamda sanitariya va gigiyena talablariga mos mehnat sharoitlarini yaratib berishdan iboratdir.

Ishlab chiqaruvchilar va mehnatni muhofaza qilish davlat organlari hamda ilmiy tekshirish institutlarining izlanishlari va ishlab chiqarishdagi tajribalar natijasidan, inson faoliyati uchun xavfli va zararli bo'lgan omillar va sharoitlar aniqlanib, me'yoriy hujjatlar va tadbirlar ishlab chiqariladi va ishlab chiqarishda xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida hukumat qarorlari asosida joriy qilinadi.

Respublikamizda ish beruvchi va ishlovchi o'rtasidagi munosabatlarni xalqaro andozalarga mos holda tashkil etish maqsadida Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilqan konvensiyalardagi mehnat kelishuvi, qirq soatlik ish haftasi, bayram kunlari ishlagani uchun haq to'lash, onalik huquqini himoyalash, majburiy mehnatni yo'q qilish, bandlik va faoliyat to'g'risidagi kelishuv, ishchilar vakilligi va mehnatni taqdirlash kabi masalalar chuqur o'rganilib, Respublikamizdagi amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ayniqsa, respublikamiz mustaqilligi e'lon qilingandan keyin Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalarini ratifikatsiya qilinishi, respublikmizning xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamladi va jahon andozalariga mos keladigan mehnat qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Faoliyati davomida inson xavfsizligini ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha muhim masalalardan biri bo'lgan va bo'lib kelmoqda. 1990-yil sentyabr oyida Germaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan birinchi xalqaro kongressda "Hayot faoliyati xavfsizligi" fan sifatida qabul qilindi va mustaqil fan sifatida shakllanib o'z nazariyasi, uslubi va prinsiplariga ega bo'ldi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnatni ilmiy tashkil qilish, mehnat fiziologiyasi, mehnat gigiyenasi, antropometriya, ergonomika, texnikaviy estetika, huquqshunoslik, iqtisodiyot, sanoat ekologiyasi, tibbiyot, geologiya va boshqa mutaxassislik fanlarining yutuqlariga asoslanib, ushbu fanlarda o'rganiladigan obyektlarning turi, ya'ni, "Inson-mashina", "Inson-muhit", "Inson-mashina-muhit" va "Inson-mashina-muhit-chorva" tizimlari bilan farq qiladi.

Mazkur qo'llanma ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash asoslari (mehnatni muhofaza qilishni nazariy, huquqiy va tashkiliy masalalari, chorvachilikda sanitariya-gigiyena va xavfsilik texnikasi, texnika xavfsizligi, elektr va yong'in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarda aholi va atrof muhitni muhofaza qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, biologik turdagi favqulodda vaziyatlar va ulardan himoyalanish va jarohatlanganlarga vrachgacha yordam ko'rsatish kabi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

1.2. Fan haqida asosiy tushuncha va atamalar

2016-yil 22 sentabrda amalga joriy etilgan «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun»ga asosan fan bo'yicha quyidagi atama va tushunchalar mavjud:

Mehnatni muhofaza qilish — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

Mehnat sharoitlari — mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi;

Ishlab chiqarish faoliyati — mahsulot ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish chog‘ida amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi;

Sog‘liqni saqlash – ishchi xodimlarni ish joylarida ishlab chiqarish muhiti yoki jarayoni hamda vositalar ta’siri natijasida ruhiy va jismoniy kasallanishlardan himoya qilish tadbirlari;

Xavfli ishlab chiqarish omili — ta’siri xodimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish omili;

Xavfsizlik - ishchi xodimlarni ish joylarida ishlab chiqarish vositalarining ta’siri natijasida jismoniy jarohat olish xavflarini oldini olish uchun amalga oshiriladigan himoya tadbirlari.

Ish o‘rni — mehnat faoliyati jarayonida xodimning doimiy yoki vaqtinchalik bo‘lish joyi;

Qulaylik – bu ishchi-xodimlar faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan ish joylaridagi xotirjamlik, ya’ni ish joylaridagi mikroiqlim, shaxsiy himoya vositalari, maxsus ust bosh va birinchi yordam ko‘rsatish bilan ta’minlanganligi hamda ish joylarini yoritilganligi;

Noqulay ishlab chiqarish omillari — zararli ishlab chiqarish omilining va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilining mavjudligi;

Mehnatda mayib bo‘lish — ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi;

Shaxsiy himoya vositalari — xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta’sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalanish uchun foydalaniladigan texnik va boshqa vositalar;

Jamoaviy himoya vositalari — tuzilishi yoki vazifasi jihatidan ishlab chiqarish binosi va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan, xodimlarga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta’sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan texnik va boshqa vositalar;

Kasb kassaliklari yoki ish bilan bog‘liq kasallanish xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili ta’siri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turg‘un yo‘qotishiga sabab

bo‘lgan o‘tkir yoki surunkali kasalligi. Kasb kassaliklarining fizik (kasbga aloqador karlik, vibratsiya kasalligi, nur kasalligi, kesson kasalligi, balandlik kasalligi va b.), biologik (infeksion va parazitar kasalliklar: brutsellyoz, kuydirgi) va kimyoviy omillar ta’sirida (zaharlanish), ba’zi changlar ta’sirida uzoq vaqt nafas olinganda (pnevmokonioz, bronxit va b.), shuningdek, jismoniy zo‘riqqanda yoki shikastlanganda (nevrit, bursit) vujudga keladi. Kasb kassaliklarining kelib chiqishiga organizmning o‘ta toliqishi va kasallikka qarshi kurasha olish faoliyatining pasayishi ham sabab bo‘ladi.

Faoliyatga bog‘liq tana a’zolarining shikastalnishi. Bo‘yin, yelka, qo‘l, tirsak, bilak va barmoqlarga ta’sir etayotgan omil sifatida, titrash, zo‘riqishlarning davriyligi, ish joydagi o‘tirish va boshqarishdagi bir xillilik holatlari orqali xarakterlanadi. Jumladan, barmoqlarning tinimsiz harakati, bukilishi, qotishi va qizish holatlari chilangarlarda bolg‘alash jarayonida namoyon bo‘ladi. Ishga bog‘liq tana a’zolari shikastlanishining simptomlari bel, bo‘yin va yelkalarning ozroq shishganligi bo‘lib, bu esa ish jarayonida me’yordan ortiqcha ishlash natijasida, qo‘l oyoqlardagi shishlarni ko‘karib qolishlari yuzaga keladi. Bu holat esa kishilarning harakatlanish a’zolariga ta’sir qilishi mumkin. Agar kasallik o‘z vaqtida davolanmasa yoki oldi olinmasa, ya’ni og‘ir ishlar takrorlanaversa, qo‘llar, barmoq va tirsaklarda qon aylanishi jarayoni buziladi.

Atrof muhitni muhofaza qilish - ish joyining atrof-muhitga (o‘simlik, hayvonot, suv, havo va tuproqga) o‘z ta’siri bo‘lgan faoliyat mexanizmlari va sog‘liqni saqlash va ishchilari va boshqalar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Bunday tadbirlar atmosferaga chiqindi va chiqindi suv va zararli chiqindilarni tashlashdan oldin yo‘q qilishni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo‘lishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o‘tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo‘lgan hodisa;

Xatolik - ishlab chiqarishda turli xatoliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli voqeaga olib keluvchi holatdir.

Xavfli hodisalar - deyarli jiddiy jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan xato. Ehtiyotsizlik tufayli yuzaga kelgan jarohatlar, kasalliklar va xavfli voqealar uchun belgilangan qoidalarga muvofiq ijro etuvchi hokimiyat organlari oldida ish beruvchi javobgar bo'ladi va hisobot beradi.

Xavf va xatar, bu kishilarning faoliyati davomida yuzaga keluvchi zararli omillardir. Xavf manbai va xususiyati jihatidan turli shakllarga egadir. Xavflar ta'sir darajasi va xususiyati jihatdan o'zgartishi mumkin va ular kimyoviy, biologik, fizikaviy yoki aralash holatda namoyon bo'lib, kishiga bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'ngilsiz hodisalarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Mehnatni muhofaza qilishni o'rganishdan maqsad – ishlab chiqarish jarayoni xavfsizligini chuqur o'rganish, bilish, tashviqot qilish va odamlarni xavf-xatardan himoya qilish masalalari asosida tarbiyalashdir. Buning ilmiy zamini:

- ishlab chiqarishda shikastlanish, kasbiy kasalliklar, yong'in va halokatlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish;
- mehnat jarayonida qo'llaniladigan asbob-anjomlarning xavfsizlik va zararlilik darajasini o'rganish;
- chorvachilikda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish jarayonlarini asoslash va baholash kabi ishlar asosida yaratiladi.

Mehnatni muhofaza qilish ishlab chiqarish korxonalari, axborot texnologiyalari kompaniyalari, sog'liqni saqlash xizmati, ta'lim muassasalari va dam olish maskanlari, sanoat va savdo tashkilotlariga tegishli bo'lgan muhim masaladir. Ushbu qismning maqsadi inson salomatligi va xavfsizligini ta'minlashda samarali bo'lgan boshqaruv tizimi asosini yaratishdan iboratdir.

Ish joyidagi xavfsizlik va sog'liqni saqlash faoliyatning barcha turlariga taalluqli bo'lib, quyi va yuqori xavf turlariga guruhlanadi. Quyi darajali xavflarning nazorati vakolatli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilsa, yuqori xavflar esa faqatgina maxsus bilimga ega

bo‘lgan vakolatli shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta’minlash va uni samarali boshqarishga quyidagi yo‘llar orqali erishish mumkin:

- kasbiy kasallanishlar va jarohatlanishlar ko‘rsatkichlarini kamaytirish maqsadida xavfsizlikni ta’minlovchi boshqaruv tizimini joriy etish;
- xavfsizlik va sog‘liqni saqlash masalarining muhimligiga alohida e’tibor berish;
- sog‘liqni saqlash va xavfsizlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha hisobotlarning oshkoraligi va ularning bajarilishi, tashkil etilishi va maqsadlari haqida ma’lumotlar bilan ta’minlash.

1.3 Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorldigi

Insoniyatning uzoq o‘tmish va amaldagi hayotiy tajribasidan «Har qanday faoliyat xavfli, ammo faoliyatsizlik ham xavfsiz emas» aksiomasi yuzaga kelishiga asos bo‘ldi.

Albatta, bu tasdiq aksiomaviy xarakterga egadir. Ammo, shu bilan bir qatorda kishilar sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfli bo‘lgan omillarning ta’sir darajasini boshqarish mumkin, lekin, qanday holatda bo‘lmasin mutloq xavfsizlikga erishib bo‘lmaydi. Xavfsizlikni ta’minlash eng avvalo faoliyat jarayoni davomida yuzaga keladigan xavfli omillarlarning manbaini o‘rganishni talab etadi. Tarixiy, ilmiy manbalar tahlilidan faoliyat xavfsizligini ta’minlash borasidagi tadqiqot ishlari eramizdan oldingi-yillarda ijod qilgan Aristotel, Gippokrat va boshqa olimlar asarlarida o‘z aksini topgan.

1493-1541-yillarda yashab o‘tgan Paratsels faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli va zararli omillarlarni o‘rganib chiqib, «Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir, faqat bir me’yor ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi me’yor esa uni dori-darmonga aylantiradi» degan xulosani bergan. Shu bilan birga Nemis olimi Agrikol (1494-1555 yy), italyan vrachi Ramassin (1633-1714yy), rus olimi M.V.Lomonosovlar (1711-1765yy) o‘z asarlarida faoliyat xavfsizligi masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini vujudga kelishiga va rivojlanishiga ishlab chiqarishning rivojlanishi jarayonida inson faoliyati uchun xavfli bo'lgan omillar va sharoitlar aniqlanib, ularni oldini olish zarurati sabab bo'ldi.

Ulug' bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, zamondoshlarimizdan N.D.Zolotnitskiy, N.V.Solovev, D.A.Kelbert, V.L.Gantillo, M.I.Grimitlin, M.N.Nabiyev, P.V.Uchastkin, T.I.Iskandarov, O'.Yo'ldoshev, O.Qudratov, T.G'aniyev va boshqalar fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shishgan va qo'shib kelishmoqda. Ulug' mutafakkir va tib qonunlari asoschisi Abu Ali ibn Sinoning ***"Agar havoda chang va tutun bo'lmasa edi, kishi ming-yil yashagan bo'lar edi"*** degan so'zlari hozirgi kunda o'z tasdig'ini topmoqda. Ayniqsa, kishilarning kun davomidagi fiziologik qobilyatini hisobga olgan holda ish vaqtini belgilashda F.F.Erisman, ishlab chiqarish jarayonida sog'liqni ta'minlash borasida N.A.Semashko, Z.P.Solovyov, G.V.Xlopin, nurlar ta'siridan himoyalashni N.F.Galanin, pestitsidlardan zaharlanish va uni oldini olishni L.I Medved, dunyoda birinchi bo'lib gaz niqobni yaratishga N.D.Zelenskiy, zoogigiyena faniga akademik K.I.Skryabinlar asos solgan. I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlar yorug'likni ishlab chiqarishda tutgan o'rni to'g'risida, S.I.Vavilov va boshqa olimlar yong'inni vujudga kelishi va xavfi to'g'risidagi nazariyaning yuzaga kelishiga katta hissa qo'shishgan.

Ilmiy izlanishlar va ishlab chiqarishdagi tajribalar natijasida inson faoliyati uchun xavfli bo'lgan omillar va sharoitlar aniqlanib, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqarilib, xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida hukumat qarorlari va qonunlari asosida ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda.

1.4. Inson faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhit to'g'risida tushunchalar

Faoliyat - bu inson oldida kundalik hayot ehtiyoj va talablaridan kelib chiqadigan har qanday muammo va masalalrni yechimiga qaratilgan aql-idrok, tafakkur va jismoniy harakatlar mahsulidir. Umuman olganda inson faoliyatini aqliy va jismoniy

turlarga bo‘lish ko‘p jihatdan shartli hisoblanadi. Aqliy faoliyat markaziy asab tizimiga sezilarli darajada zo‘riqish bersa, jismoniy faoliyat esa insonning mushaklari, skelet va yurak-qon tomir hamda boshqa fiziologik tizimlariga zo‘riqish beradi.



1.1-rasm. Inson faoliyati muhitlari

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari jismoniy faoliyatga nisbatan aqliy faoliyat ulushining oshib borishi bilan xarakterlanadi. Bunday holatlar aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi odamlarda semirish, qon tomir kasalliklari, umurtqa pog‘onasi, oshqozon-ichak va boshqa organlar kasalliklarini keskin rivojlanishiga olib keladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishni turli kasblar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qiyidagicha guruhlash mumkin:

- jismoniy;
- mexanizatsiyalashgan (operator-mashinist);
- avtomatlashgan (Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimli (ASU))
- aqliy mehnat.

Keyingi-yillarda fan-texnika va texnologiyalarni rivojlanishi bilan birga jismoniy ish o'rinlari qisqarib bormoqda. Mos ravishda ishlab chiqarishda yuqori malakali va bilimli mutaxassislarga va xizmat ko'rsatish sohasidagi kasblarga bo'lgan talab kengaymoqda. Ammo, ishlab chiqarishda yuqori mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini taminlash uchun aqliy va jismoniy faoliyatni ma`lum darajada birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir. Inson faoliyat korsatadigan muhitda mehnat xavfsizligini ta'minlash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

✓ gomosfera va nokosferani fazoviy va vaqt bo'yicha bir-biridan ajratib qo'yish, ya'ni xavfli va zararli bo'lgan texnologik jarayonlarni masofadan turib boshqarish, avtomatlashtirish va robotlashtirish;

✓ xavflarni to'liq yoki qisman bararaf etish yo'li bilan nokosferani me'yorlashtirish. Ya'ni ishchilarning shovqin, gaz va changlardan jarohatlanishining oldini oluvchi shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish;

✓ ishchilarni, ularning tegishli ishlab chiqarish muhitiga moslashishlariga hamda himoyalanish darajasini ko'tarishga xizmat qiluvchi, sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus parhez oziq-ovqatlar bilan ta'minlash;

✓ Ish joylaridagi xavflarning turi va xususiyatiga qarab, ularga mos holda xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun ishchining jinsi, ijtimoiy holati, yoshi va ish vaqtini cheklash (me'yoriy hujjatlar asosida).

1.5. Fanni o'rganishda «Inson – mashina – muhit» tizimining tasnifi

Hodisalarni o'zaro bog'liq ravishda bir to'plam tariqasida o'rganishga *tizimlash tamoyili* deyiladi. Tizim tamoyili, bu ikki va undan ko'p elementlardan tashkil topgan bo'lib, undan olinadigan natijalar muhitni yakuniy baholashda, ya'ni mos kelish yoki kelmaslik to'g'risida xulosa qilishda keng qo'llaniladi. Tizimda bor sifat uning elementlarida bo'lmaydi. Bu tizimning muhim xususiyati bo'lib, xavfsizlik masalalari tahlili asosida joylashgan. Ko'ngilsiz voqealarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash va ularni

kamaytirishga qaratilgan tadbirlar, xavfsizlik tizimi tahlilining asosiy maqsadidir.

Xavflarni o'rganish tartibi, ma'lum va amalda qo'llanilib kelinayotgan uch bosqichda amalga oshiriladi:

1- bosqich - xavflarni oldindan tahlil etish;

2-bosqich - xavfli holatlarning ketma-ketligini aniqlash, ya'ni hodisa va xavflar «daraxti» (shajarasi)ni tuzish. Bunda xavflar «daraxti» yuqoridan pastga qarab quriladi va barcha sabablari hisobga olingan holda tugaydi;

3-bosqich - oqibatlarini tahlil qilish.

Xavfsizlik tizimi - xavfsizlikning murakkab masalalarini hal qilish yo'llarini tayyorlash va asoslashda foydalaniladigan metodologik choralar yig'indisidir.

Tahlil usuli - xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, ko'ngilsiz voqea ro'y berishidan oldin (aprior) yoki keyin (aposterior) tahlil etish mumkin bo'lgan usul.

Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida, xavf yuzaga keladigan mihit tarkibiy qismlarga ya'ni tizim elementlariga ajratiladi. Ishchilarni jarohatlanishdan saqlash maqsadida «Inson-mashina» tizimida mashina, har xil ko'rsatkichlarga qarab optimallashtiriladi. Ishlarni me'yorga solish va qonunlar asosida belgilab berishda ergonomika fani ko'rsatmalaridan keng foydalaniladi. Ergonomika so'zning asl ma'nosi –lotinchadan ergon-ish va nomos–qonuniyatni bildiradi. Bu fan inson faoliyatini «inson-mashina–muhit» tizimida o'rganadi. Bu tizimda mashina deb texnik vositalar yig'indisiga aytiladi va ulardan inson o'z faoliyati jarayonida foydalanadi. Tizimdagi muhit - inson yashash va ishlab chiqarish hududidagi mikroiqlim va boshqa sanitariya va gigiyenik holatlar ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Shaxsning ergonomik xususiyatlari esa, uning antropometrik, fiziologik, psixofiziologik va gigiyenik jihatlari bilan belgilanadi. «Inson-mashina» tizimining o'zaro mosligi, faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Jumladan, «Inson-muhit», «inson-mashina», «inson-mashina-muhit» va boshqa murakkab, ko'p tarkibli tuzilmalarga ajratilib o'rganiladi. Aniq faoliyat sharoitlarida, tashkil etuvchi elementlar soni yana ortishi mumkin bo'lib, xavflar to'g'risida olinadigan ma'lumotlar yanada ravshanlashadi, masalan, «inson-chorva», «inson-mashina-muhit-chorva».

Ergonomika fanining asosiy maqsadi - ishlab chiqarish muhiti, uskuna va qurilmalarni hamda mashinalarni inson qobilyatlariga mosligini ta'minlanishni amalga oshirish bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini qulayligi va mehnat xavfsizligini yuqori darajada ta'minlab berishdan iboratdir. Ergonomika fani antropometriya, fiziologiya, muhandislik psixologiyasi va mehnat gigiyenasi fanlari negizida vujudga keldi. Insonni ko'rish, eshitish va sezish qobilyatlari hisobga olib, mashina va uskunalarning boshqaruv tizimida ovozli, turli rangli yorug'lik beruvchi signallar qo'llanilishi evaziga, ishlab chiqarish jarayonida mashinani boshqaruv jarayonini yengillashtiradi va xavsizligini ta'minlaydi.

Ayniqsa, kishilarning jismoniy, ruhiy va biologik holati xususiyatlarini o'rganish, ishlab chiqarish vositalari va foydalanadigan buyumlarning xavfsizlik darajasi oshishini. ta'milashga asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ishchilarning sog'lig'ini saqlash, yuqori ish unumiga erishish va ularning o'zlarini yaxshi his qilishlari, mehnat sharoitlarini yaxshilanish va ish joylarini tashkil etish bilan bog'liq hisoblanadi. Turgan va o'tirgan hollarda bajariladigan ishlar, kishi tanasining o'lchamlari inobatga olinadigan ergonomika talablari (ГОСТ 12.2.032-78. Davlatlararo standart. Mehnat xavfsizligi standartlar tizimi. O'tirgan holatda ishlagandagi ish joyi. Ergonomikaning umumiy talablari) asosida amalga oshirilishi lozim (1.2 va 1.3-rasmlar)



a b d e

1.2-rasm. "Inson-mashina–muhit" tizimi:
a) ish joyidagi noqulaylik; b) to'g'ri tashkil etilgan ish joyi;
d) yukni ko'chirishda noqulaylik; e) yuklarni uzatishda qulay ish o'rni.



1.3-rasm. O'rta bo'yli odamni boshqaruv a'zolarini joylashtirish uchun harakatlar maydoniga yoyish doirasi va ish o'rni:

a) va b) – o'tirgan holatda vertikal va gorizontal teksilikda yoyish doirasi; d) va e) – tik turganda vertikal va gorizontal tekislikda yoyish doirasi; f) – kompyuter operatorinig ish o'rni geometrik o'lchamlari: 1 – tez-tez ishlatiladigan va muhim boshqaruv organlari joylashuvi; 2 – tez-tez ishlatiladigan va muhimligi kam bo'lgan boshqaruv organlari; 3- kam ishlatiladigan boshqaruv organlari.

Ishda bajarilayotgan jarayonlar tez va juda tez doirada va harakatlantiruvchi maydonning eng qulay chegarasida amalga oshiriladi. Operatsiyalarning bajarilish tezligini - 1 daqiqada ikki va undan ortiq operatsiyalar amalga oshirilganda «juda tez», 1 daqiqada ikki operatsiyadan kam, ammo 1 soatda ikki operatsiyadan ko'p bo'lganda «tez», 1 soatda ikki operatsiyadan ko'p bo'lmaganda «kamdan-kam» deb qabul qilinadi. Axborot va boshqarish pultlarining kanali shularga muvofiq ravishda joylashtiriladi. Bundan tashqari, ish o'rinlarini ish turiga qarab metall stol, stellaj, qutilar, uskuna va soz asboblar bilan ta'minlash, xavfsiz ishni tashkillashtirishda va samaradorlikni oshirishda asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.



1.4-rasm. "Inson-mashina–muhit" tizimining tarkibi va mazmuni

Olimlarning ta'riflashicha "Mashina - inson qo'zg'alishi" yoki kishining mashinaga mos kelishi, bu jismoniy va aqliy qobilyatga

aloqador bo‘lib, ishni samaradorligi va qulayligini ta’minlash demakdir. Ergonomika ishchilarning o‘z faoliyatlari davomida chegaralanmasliklarini, aqliy idrok va boshqa shaxsiy imkoniyatlarini to‘la ochish maqsadida maxsus tizimlarni qo‘llashni amalga oshiradi. Buning uchun ishchilarning “Mashina-Muhit” tizimidagi munosabati o‘rganilib, ish joylari ularning qobilliyatiga moslashtiriladi.

Ergonomika fanining mazmuni va mohiyati juda keng qamrovli bo‘lib, quyidagi masalalarni keng va chuqur o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan:

- Ishchilarning shaxsiy, jismoniy, aqliy va intellektual qobilyati, tana o‘lchamlari va talab qilingan topshiriqlarni amalda oshirishda harakat samaradorligini;
- Operatorlarning ish joyida nazorat panel qurimalarining holati, o‘rindiqlar tartibi va boshqaruvdagi qulayligini;
- Ishchi va jarayon o‘rtasidagi munosabat, ya’ni mahsulot sifati va miqdorini;
- Jarayon to‘g‘ri tashkil etilganligi va tez almashinadigan bo‘lmasligini.

Ergonomik zararlanishlar – ergonomik holatni yetarli joriy etmaslik natijasida kelib chiqadi. Ular umumiy harakat a’zolari zararlanish kategoriyasi va qo‘l bilan ishlatiladigan asbobolarning noqulayligi, faoliyat davomida og‘ir yuklar bilan ishlash va bunday ishlarning takroriy bajarilishi natijasida yuzaga keladi.

Ergonomika sohasining asosiy maqsadi bu inson tomonidan foydalaniladigan har bir predmet va ish qurolining kishilarga nisbatan xavfini kamaytirish, ish jihozi yoki ish joyini ishchiga mos keladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Bunday talablarni ta’minlash jarayonida yangi ta’limot ya’ni inson va uni tana harakatini o‘rganuvchi antropometriya fani yuzaga keldi.

Antropometrik omillar (insonning jismoniy va fiziologik ko‘rsatkichlari), ergonomik talablarni va shaxsni buyumga nisbatan antropometrik xususiyatli munosabatini aniqlaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Hayot faoliyati xavfsizligi fani nimani o‘rganadi?

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
INVERTAR № 1762
17
“18” mart 2020 yil.

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 219906

2. Hayot faoliyati xavfsizligi faniga qachon asos solingan?
3. Xavflarning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
4. Xalqaro mehnat tashkilotining vazifasi nimadan iborat?
5. Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalari manbalari nimadan iborat?
6. Mehnatni muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
7. Mehnatni muhofaza qilishni o‘rganishdan maqsad nimadan iborat?
8. “Inson-Mashina–Muhit” tizimi nima?
9. Ergonomika tushunchasi nimani anglatadi?
10. Antropometriya nima?
11. «Xavfsizlik» deganda nimani tushunasiz?
12. Hayot faolyati xavfsizligi fanining rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar kimlar?
13. Faoliyat xavfsizligi aksiomasini aytib bering.
14. Inson faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhit nimadan iborat?

2-§. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

2.1 O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa xalqaro me’yoriy hujjatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari

O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular asosida tartibga solinadi va boshqarib turiladi. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan kishilarni, ayniqsa ayollar va o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan yoshlarni og‘ir va sog‘liq uchun zararli bo‘lgan ishlardan ozod qilish, qisqartirilgan ish kuni huquqi qonun bilan belgilab qo‘yilishi, homiladorlik ta’tili, bola tarbiyasiga beriladigan ta’tilning uch yilgacha uzaytirilishi va boshqa imtiyozlar, ijtimoiy muhofazani ta’minlanishining yaqqol dalilidir. Ayniqsa, Respublikamiz mustaqqillikga erishgandan keyin, Mehnat munosabatlaridagi qonunchilikga xalqaro andozalarga mos keluvchi qonun va boshqa me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqaish va amalga joriy etish maqsadida **Xalqaro Mehnat Tashkilotining** haqiqiy a’zosi bo‘lib, ushbu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan konvensiyalarning ayrimlarini ratifikatsiya qilinishi, Respublikamizning Mehnat qonuchiligi sohasidagi xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga olib keldi.

Respublikada sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, davlat ahamiyatiga molik ish bo‘lib, sharoiti og‘ir va zararli ishlarda ayollar va o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan yoshlarning mehnatidan foydalanish taqiqlanadi. Homilador ayollarning tunda va ishdan tashqari vaqtda ishlashlari cheklangan. Qonunda, sharoiti zararli bo‘lgan ishlarda, shuningdek, alohida harorat sharoitida bajariladigan yoki muhit ifloslanishi bilan bog‘liq ishlarda ishlaydigan ishchi-xizmatchilarga belgilangan me’yorlarga muvofiq bepul korjoma, maxsus poyabzal va boshqa turdagi shaxsiy himoya vositalari, sut yoki uning o‘rnini bosa oladigan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari berilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37- moddasiga binoan:

37-modda. *«Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.*

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi».

Ushbu moddada ko‘rsatilgan ijtimoiy muhofaza kafolati va adolat barqarorligini amalda qo‘llash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 6 maydadagi № 839-XII sonli buyrug‘iga asosan *"Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun"* qabul qilindi va ushbu qonun *2016-yil 22 sentyabr* oyida qayta ko‘rib chiqilib 36 moddadan iborat yangi tahrirda qabul qilindi.

Respublikamizdagi qonunshinoslar va hukumat a’zolari tomonidan rivojlangan davlatlarning amaldagi mehnat qonunchiligi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ishlab chiqilqan me’yoriy hujjatlarni o‘rgangan holda, respublikamizda amaldagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muhitdan kelib chiqilib, hamda qonunchilikning xalqaro talablar andozalariga mos holatda Respublikamizda ushbu qonun va boshqa me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqdilar. Jumladan Respublikamiz Hukumati tomondan Xalqaro Mehnat Tashkilotining quyidagi:

- Majburiy mehnat to‘g‘risidagi 29-konvensiyasi (O‘zR Oliy Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 492-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

-Qirq soatlik ish haftasi to‘g‘risidagi 47 konvensiyasi (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zR Oliy Majlisining 1995-yil 6 maydagi 83-I-son Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

-Haq to‘lanadigan ta’til to‘g‘risidagi 52-konvensiyasi (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zR Oliy Majlisining 1995-yil 6 maydagi 84-I-son Qaroriga muvofiq qo‘shilgan);

-Jamoa muzokaralarini tashkil etish va yuritish huquqi prinsiplarini qo‘llash to‘g‘risidagi 98-konvensiyasi (O‘zR Oliy

Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 496-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

-Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi (qayta ko'rib chiqilgan) 103-konvensiyasi (O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zR Oliy Majlisining 1995-yil 6 maydagi 85-I-son Qaroriga muvofiq qo'shilgan);

-Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi 105-konvensiyasi (O'zR Oliy Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 498-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

-Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risidagi 111-konvensiyasi(O'zR Oliy Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 499-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

-Ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat to'g'risidagi 122-konvensiyasi(O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zR Oliy Majlisining1995-yil 6 maydagi 86-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

- Bajarilgan Mehnat uchun bir xil maosh to'lovi to'g'risidagi 100-konvensiyasi(O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zR Oliy Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 493-Ison Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

- Mehnatkashlarning vakillari to'g'risidagi 135-konvensiyasi (O'zR Oliy Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 494-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan;

-Eng kichik yosh to'g'risidagi 138-konvensiyasi(O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 4 apreldagi O'RQ-140-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

-Jamoa muzokaralarini olib borish to'g'risidagi 154-konvensiyasi (O'zR Oliy Majlisining 1997-yil 30 avgustdagi 495-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan);

-Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi 182-konvensiyasi(O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8 apreldagi O'RQ-144-son Qonuniga muvofiq ratifikasiya qilingan)

-Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi 87-konvensiyasi(O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 12 oktabrdagi O'RQ-412 son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan) konvensiyalarini ratifikatsiya qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31 mayda «2018-2020-yillarda xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» qabul qilingan 407-sonli qarori Respublikamizda mehnat munosabatlariga bo‘lgan kuchli e’tibor namunasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga ish beruvchi va ishlovchi o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosini belgilovchi qonun, 1995-yil O‘zbekiston Reslublikasi Oliy Majlisining 21 dekabrdagi 161-1 sonli qarori asosida tasdiqlangan va 1995-yil 21 dekabrdagi 162-1 sonli qaror asosida 1996-yil 1 aprelidan amalga joriy qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi“ hisoblanadi.

Mazkur qonun 16 bob va 294 moddadan tashkil topgan bo‘lib, 13-bobi (211-223-moddalar) mehnat muhofazasiga oid masalalarga bag‘ishlangan.

Ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat munosabatlarini tartibga solishni me’yoriy asosi quyidagicha o‘z aksini topgan:

1-modda. Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Kodeks, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari va Jo‘g‘ori Kenges qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining qarorlari, davlat hokimiyatining boshqa vakillik va ijroiya organlari o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlardan iboratdir.

Mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning

mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

211-modda. Mehnatni muhofaza qilish talablari

Barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Mehnatni muhofaza qilish talablari ushbu Kodeks, mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek texnik standartlar bilan belgilanadi.

Ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 29-56 va 72-113-moddalariga asosan mehnat munosabatlarini tartibga solish uchun jamoa va mehnat shartnomalari tuziladi va ma'muriyatga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- Sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlash;
- Kasb kasalliklari va jarohatlarning oldini oluvchi zamonaviy xavfsizlik texnika vositalarini tatbiq qilish;
- Ishchi xizmatchilarni bepul korjoma va himoya vositalari bilan ta'minlash;
- Zararli ish sharoitlarida sut va maxsus ovqatlar bilan ta'minlash;
- Tibbiyot ko'riklarini o'z vaqtida o'tkazib turish;
- Yo'riqnomalarning barcha turlarini o'z vaqtida o'tkazib turish.

29-modda. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarining tushunchasi va maqsadi

Jamoa shartnomasi — korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatdir.

Jamoa kelishuvi — muayyan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi me'yoriy hujjatdir.

Jamoa shartnomalari va kelishuvlari xodimlar bilan ish beruvchilarning mehnatga oid munosabatlarini shartnoma asosida

tartibga solishga va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam berish maqsadida tuziladi.

72-modda. Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari

Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar.

Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo'shimcha holatlar (tanlovdan o'tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Xodim o'rindoshlik asosida ishlash to'g'risida, basharti bu qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan bo'lsa, mehnat shartnomalari tuzishi mumkin.

Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish mehnat kodeksida quyidagicha o'z aksini topgan:

100-modda. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish.

Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli bo'lishi shart.

Quyidagi sabablardan birining mavjudligi mehnat shartnomasini bekor qilishning asosli ekanligini bildiradi:

1) texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi;

2) xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishiga noloyiq bo'lib qolishi;

3) xodimning o'z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi. Avval mehnat vazifalarini buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilgan kundan e'tiboran bir-yil mobaynida xodim tomonidan takroran intizomga xilof nojo'ya

harakat sodir qilinishi mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzish hisoblanadi;

4) xodimning o'z mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzishlarning ro'yxati:

ichki mehnat tartibi qoidalari;

korxona mulkdori bilan korxona rahbari o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi;

ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan intizom haqidagi nizom va ustavlar bilan belgilanadi.

Xodimning o'z mehnat vazifalarini buzishi qo'pol tusga egaligi yoki ega emasligi har bir muayyan holda sodir qilingan nojo'ya harakatning og'ir-yengilligiga hamda bunday buzish tufayli kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga qarab hal etiladi;

5) o'rindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi munosabati bilan, shuningdek mehnat shartlariga ko'ra o'rindoshlik ishi cheklanishi sababli o'rindoshlar bilan mehnat shartnomasining bekor qilinganligi;

6) korxona rahbari, uning o'rinbosarlari, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'lmagan taqdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mulkdorning almashishi sababli bekor qilinganligi. Mazkur asos bo'yicha mehnat shartnomasini korxona mulk qilib olingan kundan boshlab uch oy mobaynida bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri, mehnat to'g'risidagi qonunlar hamda boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan vaqti, uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan boshqa davrlari bu muddatga kiritilmaydi.

Xodim vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrida va mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan davrida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, korxona butunlay tugatilgan hollar bundan mustasno.

(100-moddaga O'zbekiston Respublikasining 12.05.2001 y. 220-P-son Qonuniga muvofiq o'zgartishlar kiritilgan).

2.2. O'n sakkiz yoshga to'lmagan yoshlar va ayollar mehnatini muhofaza qilishning huquqiy asoslari

Respublikamizda o'n sakkiz yoshga to'lmagan yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, ularni ishga joylashtirish masalalariga alohada e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, o'n sakkiz yoshga to'lmagan yoshlarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar va imtiyozlar mehnat kodeksining 239-moddasida quyidagicha belgilangan:

239-modda. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar

Belgilangan minimal ish joylari hisobidan ish joylariga ishga joylashtirish tartibida mahalliy mehnat organi va boshqa organlar tomonidan yuborilgan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni ish beruvchi ishga qabul qilishi shart.

Belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga qabul qilishni rad etish taqiqlanadi va bunday rad etish ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan barcha shaxslar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina ishga qabul qilinadilar va keyinchalik ular o'n sakkiz yoshga to'lgunlariga qadar har-yili majburiy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turilishi kerak.

240-modda. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnat huquqlari

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'ladilar, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat shartlari sohasida ular uchun mehnat to'grisidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadilar.

Mehnat kodeksiga binoan, 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar uchun bir ish haftasidagi ish soati 36 soatgacha, 15 - 16 yoshda esa 24 soatgacha qisqartirilgan (242- modda). 18 yoshga to'lmagan o'smirlarni ish vaqtidan tashqari dam olish kunlari ishlarga jalb qilish mumkin emas (245-modda).

16-18 yoshdagi yoshlar uchun tashiydigan va siljitadigan yukning og'irligi o'g'il bolalar uchun 13 kg, qizlar uchun 7 kg dan ortiq bo'lmasligi kerak. O'smirlar uchun uzluksiz tashiladigan va siljitadigan yukning miqdori 4,1 kg dan ko'p bo'lmasligi lozim, 14-15 yoshdagi o'smirlar uchun esa me'yor 2 martagacha kamaytiriladi (SanQ va N №0116-01).

O'smirlar doimiy ishga 16 yoshdan qabul qilishga ruxsat etiladi, ayrim hollarda 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi (vasiy) shaxs tomonidan yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin. Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'lim maktablari, litsey yoki kasb – hunar kollejlari o'quvchilarini 14 yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan o'smirlarning voyaga yetishi va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni, o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi va bu holat mehnat kodeksining 77-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan:

77-m o d d a. Ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladigan yosh

Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. O'n besh yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quvchilarini o'n to'rt yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning roziliga bilan bolalarning sog'lig'iga va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtlarda bajarish uchun ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni ishga qabul qilish ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

18 yoshga kirmagan shaxslarni og‘ir, zararli va xavfli mehnat sharoitlarida ishlatish mumkin emasligi, mehnat kodeksining 241-moddasida quyidagicha o‘z aksini topgan :

241-modda. O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan ishlar

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatidan shu toifa xodimlarining sog‘lig‘i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazilishi mumkin bo‘lgan mehnat sharoiti, noqulay ishlarda, yer osti ishlarida va boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning belgilab qo‘yilgan me’yordan ortiq og‘ir yuk ko‘tarishlari va tashishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ishlar ro‘yxati va o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar ko‘tarishlari va tashishlari mumkin bo‘lgan og‘ir yuk me’yorlarining chegarasini O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va ish beruvchilarning vakillari maslahatini olgan holda belgilaydi.

Ayniqsa, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan yoshlarni chorvachilik tarmoqlarida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 29 iyulda 1990-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2009-yil 26 iyun, 33Q/B-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘n sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo‘llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro‘yxati” asosida, veterinariya sanitari, vetsanchiqindilarga ishlov beruvchi, bakteriya va virusli preparatlar ishlab chiqarishida, produsent hayvonlarni parvarish qilishda, inifitsirlangan kasal hayvonlarni parvarish qilish va xizmat ko‘rsatishda, silos ichkarisi, bunker va texnologik sig‘imlardagi ishlarda,-yilqichi va yirtqich hayvonlarga qarovchi kabi kasblarga ishga jalb etish man etiladi.

Xotin-qizlar mehnatini muhofaza qilish. Ayollar mehnatini taqiqlaydigan noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro‘yxati va yuklarni ko‘tarishda, hamda kuzga-qishga me’yorlashtirilgan yuklarning sanitariya me’yorlari, homilador ayollarni yengil

ishlarga yoki ish soati to'liq bo'lmagan ish joylariga o'tkazish mehnat kodeksi va mehnat muhofazasi bo'yicha qonunlar va *O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5 yanvarda 865-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Ayollar mehnati to'liq yoki qisman qo'llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxati"* talablarga javob berishi shart.

225-modda. Ayollar mehnatini qo'llanish taqiqlanadigan ishlar.

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda, shuningdek yer osti ishlarida ayollar mehnatini qo'llanish taqiqlanadi, yer ostidagi ba'zi ishlar (jismoniy bo'lmagan ishlar yoki sanitariya va maishiy xizmat ko'rsatish ishlari) bundan mustasnodir.

Ayollarning ular uchun mumkin bo'lgan normada ortiq yukni ko'tarishlari va tashishlari man etiladi.

Ayollar mehnatini qo'llanish taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay ishlarning ro'yxati hamda ular ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan yuk normalarining chegarasini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va ish beruvchilarning vakillari maslahatini olgan holda tasdiqlaydi.

226-modda. Homilador ayollarni yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazish.

Tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish me'yorlari, xizmat ko'rsatish me'yorlari kamaytiriladi yoki ular avvalgi ishlaridagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkaziladi.

Homilador ayolga yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan xoli bo'lgan ish berish masalasi hal etilgunga qadar, u ana shu sababdan ishga chiqmagan barcha ish kunlari uchun o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim.

228-modda. Tungi ishlarda, ish vaqtidan tashqari ishlarda, dam olish kunlaridagi ishlarda ayollar mehnatini qo'llanishni va ularni xizmat safariga yuborishni cheklash

Homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Ish vaqti va dam olish. Ish bilan ta'minlovchining farmoyishi bo'yicha ayrim xodimlarni alohida hollardagina, jamoa shartnomasi tuzilib, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib, amaldagi qonunlar doirasida dam olish kunlari ishga chiqishiga ruxsat etiladi.

114-modda. Ish vaqti tushunchasi

Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi.

120-m o d d a . Ish haftasining turlari. Ish vaqti rejimi

Ish haftasining turi (ikki kun dam olinadigan besh kunlik ish haftasi yoki bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi) va ish vaqti rejimi (kundalik ish vaqtining (smenaning) muddati, ishning boshlanish va tugash vaqti, ishdagi tanaffuslar vaqti, sutka davomidagi smenalar soni, ish kunlari hamda ishlanmaydigan kunlarning navbat bilan almashinishi, xodimlarning smenadan smenaga o'tish tartibi) korxonada ichki mehnat tartibi qoidalari, boshqa lokal me'yoriy hujjatlar bilan, bu hujjatlar bo'lmaganda esa, — xodim bilan ish beruvchining kelishuviga binoan belgilanadi.

Xodimni surunkasiga ikki smena davomida ishga jalb etish taqiqlanadi.

126-modda. Dam olish vaqti tushunchasi

Dam olish vaqti — xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir.

128-modda. Kundalik dam olish vaqtining muddati

Ishning tugashi bilan keyingi kuni (smenada) ish boshlanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati o'n ikki soatdan kam bo'lishi mumkin emas.

130-modda. Dam olish kunlarida ishga jalb etishning cheklanishi

Dam olish kunlarida ishlatish taqiqlanadi. Ish beruvchining farmoyishi bo'yicha ayrim xodimlarni dam olish kunlari ishga jalb etishga alohida hollardagina, jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, — ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilangan asoslar bo'yicha va tartibda yo'l qo'yiladi.

Xodimlarni ular dam oladigan kunlari ishga jalb etish ushbu Kodeksning 220-moddasi beshinchi qismida va 228, 245-moddalarida belgilangan cheklashlarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Dam olish kunlarida bajarilgan ish uchun kompensatsiya va haq to'lash ushbu Kodeksning 157-moddasiga binoan amalga oshiriladi.

Xodimlarni dam olish kunlari ishga jalb etish (mehnat kodeksi 120, 132, 245-moddalari) belgilangan cheklanishlarga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda texnik va boshqa sabablarga ko'ra ishni to'xtatib turish mumkin bo'lmagan hollarda, aholiga xizmat ko'rsatish zarurati bo'lgan ishlarda, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan ta'mirlash va yuk ortish tushirish ishlarida bayram kunlari ishlashga ruxsat etiladi (132-modda). Dam olish va bayram kunlari bajariladigan ishlar uchun kompensatsiya va haq to'lash mehnat kodeksining 157- moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Korxonalar va ayrim ishlab chiqarishlarda ish turiga qarab, kundalik yoki haftalik ish kuniga rioya qilib bo'lmaydigan toifadagi ishchilar va xizmatchilarga, kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda ish kunini jamlab hisobga olish (123-modda) usulini kiritishga yo'l qo'yiladi.

Chorvachilikda, mavsum ishlarining qizg'in pallasida, ish kunini 12 soatgacha uzaytirish va mavsumiy ishlar kamayganda yoki qish vaqtida ish kunining davomiyligini 5 soatgacha qisqartirishga ruxsat beriladi. Bunda faqat-yil mobaynida ish vaqtini

jamlab hisoblashga rioya qilinadi. Hamma ishchi, xizmatchi va o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi, o'rtacha ish haqi saqlangan holda-yillik mehnat ta'tilini berishi lozim (133-modda). Uning muddati mehnat kodeksining 134,135-moddalarida aks ettirilgan.

Zararli mehnat sharoitlarida ish bajaradigan ishchi va xizmatchilarga qo'shimcha ta'tildan tashqari (137,138-moddalar), qisqartirilgan ish kuni joriy etiladi (117,118- moddalar). Korxonalarda qo'shimcha ta'til olish huquqini beruvchi ishlar, kasblar va lavozimlar ro'yxati, ta'tillarning muddati, ularni berish tartibi va sharoitlari tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarida belgilab qo'yiladi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish bilan ta'minlovchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib olingandan keyin belgilanadi.

2.3. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi

Yangi texnologik jarayonlarning yaratilishi, yangi ashyolarning qo'llanilishi, yangicha yondashuvni, mehnat xavfsizligini ta'minlashning yangi usullari hamda vositalarini ishlab chiqarishni, shuningdek, ana shu masalalar bo'yicha yangi me'yor turlarini yaratishni taqozo etadi. Shu sababli mehnat muhofazasiga doir me'yoriy hujjatlarni tartibga solish zarurati paydo bo'ldi. Bu hujjatlar davlat standartlashtirish tizimining tarkibiy qismiga aylandi. Davlat standartlari mehnat sharoitini va mehnat muhofazasini yaxshilashning zaminidir. Har qaysi korxona davlat standartlarining umumiy talablariga qat'iy amal qilgan holda o'zining tarmoq standartlarini ishlab chiqadi, bu standartlarda tarmoqdagi mehnatning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Mazkur hujjatlar asosida ilmiy-sanoat birlashmalari, zavod va fabrikalar, korxonalar uchun standartlar yaratiladi va bu standartlar har qaysi bo'linma ish o'rni uchun mehnat xavfsizligi bo'yicha fan va ilg'or tajribalar asosida tavsiyalar beradi.

Mehnat xavfsizligi, mehnatni ilmiy tashkil qilish, sanoat sanitariya va gigiyenasi, standartlari tizimi O'zDSt 12.0.001:2005 (MXST) bu o'zaro bog'liq standartlar to'plamidan iborat bo'lib, quyidagi beshta guruhdan tashkil topgan:

Tashkiliy-uslublar standarti;

1. Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillariga doir xavfsizlik talablari standartlari;

2. Ishlab chiqarish jihozlariga doir xavfsizlik talablari standartlari;

3. Ishlab chiqarish jarayonlariga doir xavfsizlik talablari standartlari;

4. Ishlovchilarni himoyalash vositalariga doir talablar standartlari;

5. Qurilish va inshootlarga doir talablar standartlari;

6-9. Zaxira.

«O'zstandart» davlat agentligi standartlarning amal qilish vaqtini besh yil muddatga belgilaydi va ushbu muddat o'tgandan so'ng ular yangilanadi va qayta ko'rib chiqiladi. MXST standartlari umumdavlat, tarmoq, respublika miqyosida bo'lishi mumkin. Ushbu standartlarda ko'rsatilgan talablar va qoidalarni barcha vazirliklar, idoralar, xo'jalik va muassasalar bajarishga majbur. Ularga amal qilmaganlar qonun yo'li bilan jazolanadilar.

MXST faoliyat turlaridan kelib chiqqan holda xavfsizlik talablari, me'yorlari va qoidalaridan iborat bo'lib, ish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash hamda kishilarning ish qobiliyatini va sog'lig'ini saqlashga yo'naltirilgan tizimdir. Tizim shuningdek, umumdavlat, tarmoq va korxonalar standartlarini o'z ichiga oladi. Asos bo'ladigan davlat standartlar tizimida atamalar ta'rifi va tushunchalar berilgan bo'lib, mehnatni muhofaza qilishda:

- ishlab chiqarishdagi hisobga olinadigan zararli omillarning tasnifi;
- ishlab chiqarish uskunalari va jarayonlaridagi himoyalanish vositalari tasnifi;
- bino va inshootlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari me'yorlari bayon etilgan.

MXSTning mazmuni, tizimi va vazifasi, shuningdek tuzilishi, standartlar mazmuni va kelishuvi *O'zDSt 12.0.001:2005* da ifodalangan bo'lib, bunda:

- birinchi ikki son (12) shu *O'zDSt* ni MXST ga qarashli ekanligini;
- uchinchi son (0) — tizim «ost» (tarmoq) shifrini;

➢ keyingi uch son (001) — «ost» (tarmoq) tizim standartining tartib raqamini;

➢ va oxirgi tortta son (2005) — standartning ro'yxatga olingan-yilini ko'rsatadi.

Tarmoq standartlari (TS), *O'zDSt* standartlari negizida yaratilgan bo'lib, mehnat muhofazasi qoida va me'yorlariga aniqlikni ushbu tarmoq sharoitiga muvofiq kiritadi. Masalan, tarmoq standarti TS 46.0.12682. «Qishloq xo'jaligida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitishlarni tashkil qilish»ning yagona tartibini o'rnatadi.

Barcha standart va qo'llanmalar fan va texnikaning eng yangi yutuqlariga asoslangan holda, o'zgartirishlar kiritish maqsadida har besh-yilda qaytadan ko'rib chiqilishi shart.

2.4. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilishda davlat, muassasa va jamoa nazorati

Mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan davlat nazorati va tekshiruvini davlat organlari mehnat kodeksining 223- va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 28-moddalarida belgilangan talab asosida amalga oshiradi.

223-modda. Mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan nazorat qilish va tekshiruv o'tkazish

Mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan davlat nazorati va tekshiruvini davlat organlari amalga oshiradilar.

Mehnatni muhofaza qilishning me'yor va qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoat tekshiruvini kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari amalga oshiradilar.

28-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari quyidagi huquqlarga ega:

nazorat va tekshiruv vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, tushuntirishlarni, axborotni tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan so'rash va olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirishlardan o'tkazish yoki tekshirishda ishtirok etish;

tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarini bartaraf qilish haqida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni taqdim etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish haqida taqdimnomalar kiritish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablarini buzganlikda aybdor shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan hamda xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tashkilotlarning faoliyatini yoki asbob-uskunalardan foydalanishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib qo'yish;

qurilishi, rekonstruksiyasi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiya ishida ishtirok etish va ular mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmagan taqdirda tegishli xulosalar berish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi hamda ishlab chiqarishda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi da'volar yuzasidan sudda ekspert sifatida ish yuritish.

Mehnat bo'yicha davlat texnik inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvi qonun hujjatlariga muvofiq

boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshiriladi.

6-modda. Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlariga muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni tarmoqlari bo'yicha mehnat muhofazasi talablarini bajarilishi ustidan nazoratni quyidagi davlat idoralari amalga oshiradi:

Tog' texnika nazorati — sanoat va qishloq xo'jalik korxonalarida bug' qozonlari, 0,07 MPa dan yuqori bosimda ishlaydigan idishlar, yuk ko'tarish mexanizmlari va qurilmalarini ishlatish qoidalarini bajarilishini va gaz ta'minot tizimi qurilishini, ishlatilishini va boshqalarni nazorat qiladi.

Sanitariya nazorati — respublikamiz davlat, sanitariya nazorati ishlab chiqarishda kasalliklarni kamaytirish, tashqi muhitning (suv havzalari, tuproq va atmosfera havosi) ifloslanishining oldini olishga, mehnat sharoitini sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan sanitariya-gigiyena, sanitariya-epidemiologik chora-tadbirlarini o'tkazilishini nazorat qiladi, shuningdek, kasallanishni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning o'tkazilishini tekshirib turadi.

Energetika nazorati — elektr qurilmalarining texnik holatini, ularga xizmat ko'rsatishda xavfsizlikni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o'tkazilishini nazorat qilib turadi.

Yong'in xavfsizligi nazorati — yangi qurilayotgan va ta'mirlanayotgan korxona, tashkilotlar va aholi yashaydigan joylar uchun muhandislik texnikaviy yong'inga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, ishlab turgan korxonalarda yong'inga qarshi profilaktik rejim tashkil qilish, yong'inni oldini olish va o'chirishga keng jamoatchilikni jalb qilish ishlarini olib boradi.

Korxona nazorati – mehnat muhofazasiga doir ishlarni tashkil qilish va unga umumiy rahbarlik qilish, korxonalarda o'rinbosarlardan biriga, jamoa xo'jaliklarida rahbarlar zimmasiga yuklatiladi. Xo'jalikda mehnat muhofazasiga doir barcha tashkiliy

ishlarni mehnat muhofazasi bo'yicha muhandis yoki bosh muhandis o'tkazadi.

Jamoat nazorati — bu ishni mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi organlari tomonidan mehnat muhofazasi bo'yicha saylangan vakil olib boradi. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil, ish joylarida, mehnat xavfsizligi holatini qarshilik ko'rsatilmagan holda tekshirish, aniqlangan kamchiliklar va qoida buzilganliklari bo'yicha takliflar kiritish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish huquqlari mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 31-moddasida keltirilgan.

31-modda. Kasaba uyushmalarining, xodimlar boshqa vakillik organlarining mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash borasidagi huquqlari

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari mehnatni muhofaza qilish sohasida vakillikni, shuningdek xodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradi.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o'zi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etgan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

tashkilotlarning rahbarlaridan va boshqa mansabdor shaxslaridan mehnat sharoitlari va muhofazasi to'g'risida, shuningdek ishlab chiqarishdagi barcha baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklari haqida axborot olish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etish;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan hollarda ishlarni to'xtatib turish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishga oid talablarning buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ish beruvchiga takliflar kiritish;

mehnatni muhofaza qilish holatini o'rganish, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish;

ishlab chiqarish obyektlarini va ishlab chiqarish vositalarini sinash hamda foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalar

ishida mustaqil ekspert sifatida ishtirok etish, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi majlislarida ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarni buzganlikda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar faktlarini yashirganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi talablar bilan tegishli organlarga murojaat qilish;

mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun hamda xodimlarning sog'lig'i va mehnati muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari cheklangan boshqa hollarda xodimning huquqlarini himoya qilib sudga murojaat etish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa shartnomalarida va kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlar buzilganligi, shuningdek mehnat sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq mehnat nizolarini ko'rib chiqishda ishtirok etish.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etilgan shaxsga o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun har haftada kamida ikki soat ish vaqti ajratiladi va bu vaqt uchun ish joyi (lavozimi) bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari mehnatni muhofaza qilish sohasida ijtimoiy sheriklikni amalga oshiradi, bosh kelishuvlar, tarmoq va hududiy (mintaqaviy) jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari tuzishi mumkin.

Kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o'zi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil etgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ma'muriy jamoat nazorati — mehnat muhofazasini boshqarish tizimida ish joylarida sharoitning va mehnat xavfsizligining holatini ma'muriyat va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan nazorat qilishning shaklidir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos tomonlariga qarab ma'muriy jamoat nazorati O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligi tomonidan 1996-yil 14 avgustda 273-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi namunaviy nizom talablariga binoan uch bosqichda amalga oshiriladi:

- mehnat muhofazasi bo'yicha vakillar har kuni ish boshlanishidan oldin, zarur bo'lganda ish kuni davomida nazorat ishlarini amalga oshiradi. Aniqlangan kamchiliklar tekshiruvchilar ishtirokida shu zahotiyoq tekshirish natijalari jurnalida yoziladi va u hudud boshlig'ida saqlanadi;
- ikkinchi bosqichdagi nazoratni hudud boshlig'i va mehnat muhofazasi bo'yicha vakil boshchiligidagi komissiya oyida kamida 2 marta o'tkazadi. Komissiya tarkibiga hududning texnik xizmat boshliqlari, korxonaning mehnat muhofazasi bo'limi muhandisi va hududga biriktirilgan tibbiy xodim kiradi.
- nazoratning uchinchi bosqichi korxonaning rahbari yoki bosh muhandisi va kasaba uyushmasining vakili rahbarligidagi komissiya yordamida-yilning har oyi yoki choragida (4 -12 marta) amalga oshiriladi.

O'tkazilgan nazoratlar asosida kamchiliklar ro'yxati tuzilib, ularni bartaraf etish uchun tadbirlar ishlab chiqiladi va amalda joriy qilinadi.

2.5. Mehnatni muhofaza qilishga oid qoida va talablarni buzuvchi shaxslar javobgarligi

Davlat qonunchiligi mehnat muhofazasi qoida va me'yorlarining buzilishi uchun qat'iy javobgarlik belgilaydi. Baxtsiz hodisaning og'ir-yengillik darajasiga qarab javobgarlikni biror turi qo'llaniladi. Mehnatni muhofaza qilish talab va qoidalarini buzganlik uchun, gunohkor shaxs yoki ish beruvchning javobgarligi mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning, quyidagi moddalarida belgilab qo'yilgan:

32-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun javobgarlik

Mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga javob bermaydigan, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab

chiqarganlik va yetkazib berganlik iste'molchilarga yetkazilgan zararning o'rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan ishlab chiqarish vositalarini, shaxsiy himoya vositalarini va jamoaviy himoya vositalarini, shu jumladan chet ellardan olingan shunday vositalarni sotish, tarqatish va reklama qilish taqiqlanadi hamda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

33-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi

Ish beruvchi xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli uning hayoti va sog'lig'iga o'zi yetkazgan zararning o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplashi shart.

Xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan jabrlanuvchi tomonidan kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi har oylik to'lovdan, shuningdek xodimning bir-yillik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lovidan hamda xodimning sog'lig'i shikastlanishidan kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlarni (agar u davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj deb topilgan bo'lsa, ushbu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek jabrlanuvchining qayta tayyorgarligi va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishi uchun xarajatlar va boshqa xarajatlar) kompensatsiya qilishdan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida xodim vafot etgan taqdirda, zararning o'rni qoplanishi huquqiga ega bo'lgan shaxslarga boquvchining vafoti bilan bog'liq holda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har oylik to'lovlar amalga oshiriladi, shuningdek vafot etgan xodimning o'rtacha-yillik ish haqining olti baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la

beriladigan nafaqa to'lanadi va dafn etish xarajatlarining o'rni qoplanadi.

Voyaga yetmagan xodimning sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda zararning o'rnini qoplash uning avvalgi ish haqidan kelib chiqqan holda, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

34-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda qoplash

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda zararning o'rnini qoplash bo'yicha tegishli to'lovlarni to'lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasida bo'ladi. Zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi talablar ham unga taqdim etiladi.

Xodimning mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan, qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning mablag'lari mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda tegishli summalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi. Mazkur summalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham davlat tomonidan to'lanadi.

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda tegishli to'lovlar ularni jabrlanuvchiga to'lash uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kapitallashtirilishi kerak.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki mavjud bo'lmaganligi yoki yetarli bo'lmaganligi sababli to'lovlarni kapitallashtirish mumkin bo'lmagan hollarda tegishli summalar jabrlanuvchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi.

36-modda. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Intizomiy javobgarlik. Xodimlarga ichki mehnat tartib-qoidalarda ko'rsatilgan talablarni bajarmaganliklari uchun ma'muriyat oldida javob berish mas'uliyati yuklanadi. Xodimlarga mehnat intizomini buzganligi uchun, ish bilan ta'minlovchi Mehnat kodeksi talablaridan kelib chiqqan holda quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashda haqli:

181-modda. Intizomiy jazolar

Xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llanishi taqiqlanadi.

Xodimning korxonaga yetkazgan moddiy zararini ish haqidan jarima asosida ushlab qolish Mehnat kodeksining 164-moddasiga rioya qilgan holda, ish bilan ta'minlovchi tomonidan amalga oshiriladi.

164-modda. Mehnat haqidan ushlab qolish

Umumiy qoidaga ko'ra, xodimning yozma roziligi bilan, bunday rozilik bo'lmagan taqdirda esa, — sudning qaroriga asosan mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkin.

Quyidagi hollarda xodimning roziligidan qat'iy nazar, mehnat haqidan ushlab qolinadi:

1) O'zbekiston Respublikasida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish uchun;

2) sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;

3) ish haqi hisobiga berilgan avansni ushlab qolish uchun, xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoki boshqa joydagi ishga

o'tganligi munosabati bilan berilgan bo'lib, sarf qilinmay qolgan va o'z vaqtida qaytarilmagan avansni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagi xatolar natijasida ortiqcha to'langan summani qaytarib olish uchun. Bunday hollarda ish beruvchi avansni qaytarish yoki qarzni to'lash uchun belgilangan muddat tamom bo'lgan kundan yoxud haq to'lash noto'g'ri hisoblab chiqaril-gan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan avans yoki qarzni ushlab qolish haqida farmoyish berishga haqlidir. Agar bu muddat o'tib ketgan bo'lsa yoki xodim xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoxud boshqa joydagi ishga o'tganligi munosabati bilan berilgan avansning ushlab qolinishini asossiz yoki miqdorini noto'g'ri deb hisoblasa, u holda qarz sud tartibida undiriladi;

4) hisobidan xodim ta'til olib bo'lgan ish-yili tugamasdan turib mehnat shartnomasi bekor qilinganda, — ta'tilning ishlanmagan davrga tegishli kunlari uchun. Ana shu kunlar uchun haq mehnat shartnomasi ushbu Kodeks 89-moddasining to'rtinchi qismida, 100-moddasi ikkinchi qismining 1 va 2-bandlarda, 106-moddasining 1 va 2-bandlarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, shuningdek o'qishga kirganligi yoki pensiyaga chiqqanligi munosabati bilan bekor qilinganda ushlab qolinmaydi;

5) xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun, agar yetkazilgan zararning miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa;

6) ushbu Kodeksning 181-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan jarimani undirish uchun.

Ish haqini har gal to'lash vaqtida ushlab qolinadigan haqning umumiy miqdori xodimga tegishli bo'lgan mehnat haqining ellik foizidan ortib ketmasligi lozim.

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqlanadi.

Ma'muriy javobgarlik — mehnat muhofazasini nazorat qilib turuvchi mansabdor shaxslar tomonidan belgilanadi. Ma'muriy boshqaruv xodimlariga mehnat muhofazasi qoidalari va me'yorlarini buzganliklari uchun jarima solinadi. Jazo berishda amaldagi qonunchilik me'yorlariga qat'iy rioya qilish lozim.

Jinoiy javobgarlik — mehnat muhofazasiga doir qoidalar buzilishi natijasida, odamlar bilan baxtsiz hodisalar ro'y bersa yoki

boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, qoidani buzgan shaxslar ozodlikdan mahrum qilish yoki lavozimidan bo'shatish kabi jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksida mehnatni muhofaza qilish va boshqa qoidalariga rioya etmaslik yuzasidan javobgarlik nazarda tutadigan:

257-modda. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish

Texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini shu qoidalarga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lsa, —eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh-yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch-yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir-yildan uch-yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

muayyan huquqdan mahrum qilib, ikki-yildan besh-yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Moddiy javobgarlik — ishchi va xizmatchilarning aybi bilan korxonaga moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, ular shu zararni Mehnat kodeksi talablaridan kelib chiqqan holda to'lashga majburdirlar.

185-modda. Mehnat shartnomasining bir tarafi boshqa tarafga yetkazgan zararni qoplash majburiyati

Mehnat shartnomasining bir tarafi (ish beruvchi yoki xodim) mehnat sohasidagi vazifalarni bajarishi munosabati bilan boshqa tarafga yetkazgan zararini ushbu Kodeks va mehnat to'g'risidagi boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan qoidalarga muvofiq qoplaydi.

Mehnat shartnomasi yoki unga qo'shimcha ravishda tuzilgan yozma shakldagi kelishuvda, shuningdek jamoa shartnomasida mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi aniqlashtirib qo'yilishi mumkin. Bunda shartnoma bo'yicha ish beruvchining xodim oldidagi javobgarligi ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan kam, xodimning ish beruvchi oldidagi javobgarligi esa nazarda

tutilganidan ko'p bo'lmasligi kerak. Zarar yetkazilganidan keyin mehnatga oid munosabatlarning bekor qilinganiga mehnat shartnomasi taraflarini moddiy javobgarlikdan ozod qilishga sabab bo'lmaydi.

186-modda. Moddiy javobgarlikning yuzaga kelishi shartlari

Mehnat shartnomasining bir tarafi o'zining g'ayrihuquqiy, aybli xulq-atvori (harakati yoki harakatsizligi) natijasida boshqa tarafga yetkazgan zarari uchun, basharti ushbu Kodeksda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, moddiy javobgar bo'ladi.

Taraflarning har biri o'ziga yetkazilgan moddiy zararning miqdorini isbotlab berishi shart.

Zararni qoplash ma'muriyatning buyrug'i bilan xodimdan yozma rozilik olingan holda, ish haqidan ushlab qolish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yozma rozilik bo'lmagan yoki xodim rozilik bermagan taqdirda ish haqidan ushlab qolinmaydi va zararni qoplash masalasi ma'muriyatning arizasiga ko'ra hokimiyat xalq sudi tomonidan hal qilinadi.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qaysi hujjatlar asosida kafolatlanadi?
2. Xalqaro mehnat tashkilotining vazifasi va vakolatlari nimadan iborat?
3. Mehnat munosabatlari to'g'risidagi xalqaro me'yoriy hujjatlarni aytib bering.
4. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning birinchi marotaba tasdiqlangan va amalga kiritilgan sanasini ayting.
5. Amaldagi mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilindi?
6. Amaldagi mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi qachon qabul qilingan va mohiyati nimadan iborat?
8. Ishchilar va o'n sakkiz yoshga to'lmagan yoshlarni ish kuni necha soatdan iborat?

9. O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan yoshlarning mehnatini muhofaza qilish nima?

10. Ayollar mehnatini muhofaza qilish va imtiyozlar berish to‘g‘risidagi qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarni aytib bering.

11. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST) nima?

12. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi turlarini aytib bering?

13. O‘zbekiston Respublikasidagi mehnat muhofazasini nazorat qiluvchi tashkilotlarni bilasizmi?

14. Ma’muriy va jamoat nazoratlari qachon va kim tomonidan o‘tkaziladi?

15. Ma’muriy va jamoat nazorati turlarini o‘tkazish vaqtini aytib bering?

16. Mehnat muhofazasi talab va qoidalari buzilgandagi javobgarlik turlari nimadan iborat?

17. Intizomiy javobgarlikni yuzaga kelish sabablarini tushuntirib bering.

18. Moddiy javobgarlikda qo‘llaniladigan jazo mohiyati nimadan iborat?

19. Jinoiy turdagi javobgarlik qachon va kim tomondam qo‘llaniladi?

20. Ishchi tomondan yetkazilgan zararni qoplash deganda nimani tushinasiz?

3-§. ISHLAB CHIQARISHDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNI TASHKIL ETISH

3.1 Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etishda rahbar va mutaxassis xodimlarning huquqi, vazifalari va majburiyatlari

Respublika hududida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan har qanday yuridik maqomga ega bo'lgan korxonalar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14 avgustda 273-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida Namunaviy nizom" talablari asosida amalga oshirilishi shart.

Vazirliklar, korporatsiyalar, uyushmalar, manfaatdor tashkilotlar, ishlab chiqarish birlashmalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Markaziy (Respublika) kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda ular tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

Uyushmalarning barcha darajalarida mehnat muhofazasini boshqarishdagi asosiy vazifalari, bu ish joylarida mehnat xavfsizligini ta'minlashga, inson salomatligi va ish samaradorligini saqlashda va qonunchilikka rioya etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, sanitariya-gigiyena va tashkiliy choralarni tizimli ravishda amalga oshirishdan iboratdir.

Korxona boshlig'i o'z vazifalari va amaldagi me'yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan vazifalarini bajarilishini ta'minlash maqsadida, o'ziga yuklagan mas'uliyatni, bajaradigan ish turiga qarab korxonadagi bo'lim o'rtasida bo'lib berishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza

qilish to'g'risida"gi qonunining 16- moddasida belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

16-modda. Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish

Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratiladigan budjet mablag'lari;

ish beruvchining o'z mablag'lari;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarining mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mehnatni muhofaza qilish uchun budjet mablag'lari tegishli (respublika va mahalliy) budjetlarda alohida qayd bilan ajratiladi, bu mablag'lardan boshqaruv organlarining, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlarning ta'minoti, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, mehnatni muhofaza qilishga oid davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni bajarish uchun foydalaniladi.

Har bir ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larni qonun hujjatlarida, jamoa shartnomasida, shuningdek jamoa kelishuvlarida yoki boshqa ichki normativ hujjatlarda belgilanadigan miqdorda ajratadi. Xodimlar ana shu maqsadlar uchun biror-bir chiqim qilmaydilar.

Tashkilotlar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamg'armani o'zining tijorat faoliyati va boshqa faoliyatidan olinadigan foyda (daromadlar), shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tashkil etishga haqlidir.

Mehnatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mablag'lardan boshqa maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin emas.

Mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag'lar ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamg'armalarni tashkil etish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi ishtirokida belgilanadi.

Mehnatni muhofaza qilish uchun korxona tomonidan mablag' ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamg'ar-

malarni tashkil etish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008-yil 12 noyabrdagi 245-sonli "Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda mehnatni muhofaza qilish jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi qarori asosida tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqqan holda tashkillashtiriladi.

Nizomda belgilangan talab va qoidalardan keib chiqqan holda, jamg'arma mablag'lari qat'iy ravishda:

tashkilotda mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash va muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqishga;

ish o'rinlarini mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari va normalari talablariga muvofiq jihozlashga;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga;

mehnat shart-sharoitlarini yaxshilashga hamda xavfsiz va samarali mehnat qilish sharoitlarini yaratishga, xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish (malakasini oshirish)ga;

ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olishga;

kasb kasalliklarining oldini olishga;

mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini normativ-huquqiy hujjatlar va mehnatni muhofaza qilishni targ'ib qilish vositalari bilan ta'minlashga;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, yig'ilishlar va ko'rgazmalar o'tkazishga;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etishga;

mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirishga;

tashkilotning ichki normativ hujjatlari bilan belgilanadigan mehnatni muhofaza qilishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

Mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari va ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag'lar miqdori jamoa shartnomasida ko'rsatilishi lozim. Agar bunday shartnoma tuzilmagan bo'lsa - ish beruvchi kasaba uyushmasi qo'mitasi, yoki xodimlar-

ning boshqa vakillik organi bilan tuziladigan shartnomaga keltirilishi shart.

Tashkilotning mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining istiqboldagi va-yillik rejalarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, chang bosganlik, zaharli gazlar bilan ifloslanganlik, vibratsiya, shovqinni, boshqa xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini, yong'in-portlash xavfini, og'ir qo'l mehnatini kamaytirish (bartaraf etish)ni talab qiladigan ishlab chiqarish jarayonini joriy qilish uchun korxona hududidagi bo'lim yoki ish joylari aniqlanilib, zararli va og'ir ishlarda band bo'lgan ishchilar, ayniqsa xotin-qizlar sonini kamaytirish, mehnatning xavfsizroq shart-sharoitlarini yaratishga doir chora-tadbirlar mo'ljallanadi.

Mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlariga:

ventilyatsiya qurilmalari, sanitariya-maishiy qurilmalarni joriy ta'mirlash;

qurilayotgan binolar, inshootlar, montaj maydonlari, xandaqlar, narvonlar va hokazolar yaqinida ish joyini o'rash;

maxsus kiyim-bosh va poyafzal sotib olish, ularni saqlash, ta'mirlash, yuvish, changdan tozalash, quritish, dezinfeksiyalash;

shaxsiy himoya vositalari va yukni ushlaydigan moslamalar sotib olish va ularni sinab ko'rish;

ishchilarni davolash-profilaktika ovqatlari, sut, sovun bilan ta'minlash, sanitariya-maishiy va xizmat xonalari sotib olish va ular tomonidan xizmatlar ko'rsatilishi;

binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni saqlash elementlaridan biri sifatida devorlar, shiftlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalarni rangli bo'yash;

tashkilot hududini obodonlashtirish, shoxobcha yo'llar, piyodalar yo'laklarini asfal'tlash, hududni ko'kalamzorlashtirish kabi tadbirlarni o'z ichiga olishi lozim.

Mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda, shu jumladan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni, boshqa kreditor qarzdorlikni qaytarish uchun foydalanilishi mumkin emas.

Tashkilot rahbariyati Jamg'arma mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalanilganligi uchun qonunda belgilangan tartibda javob beradi.

Korxona rahbari - Mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat siyosati tamoyillariga rioya qilish va amalga oshirishda ichki nazoratni tashkil etadi va vazifalarini belgilaydi, atrof-muhit holatini ekologik xavfsiz ish sharoitlari va sistematik monitoringini ta'minlash, korxonalarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha talablarning umumiy bajarilishini nazorat qilish, ishchilarni maxsus kiyim va poyafzal, shaxsiy himoya vositalari, tibbiy va profilaktik ovqatlanish bilan bepul ta'minlash, ishda kasbiy kasallīklar, baxtsiz hodisalarni tekshirilishini va hisobot berilishini nazorat qilish, shu asosda ishchilarni ishlab chiqarish hodisalari va kasbiy kasallanish darajasi to'g'risida xabardor qilish, baxtsiz hodisa oqibatida zarar ko'rgan yoki kasbiy kasalliklarga chalingan xodimlarning manfaatlarini himoya qilish uchun ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ishchilar, muhandislar va texnik xodimlar uchun normativ hujjatlar, qoidalar, standart yo'riqnomalar va o'quv dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlab chiqarishga fanni va texnologiyani joriy etishni yaxshilash, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash uchun tadqiqotlar tashkil etish va moliyalashtirish, qonun hujjatlarini, davlat nazorat organlari, kasaba uyushma tashkilotlari takliflarini, ish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha kompleks rejalarni hisobga olgan holda ishlab chiqish, ularni amalga oshirishni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish, ularni amalga oshirish uchun moddiy va moliyaviy resurslarni taqdim etish, "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonunning korxonalar va obyektlarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashdagi talablarini nazorat qilish va ta'minlash, ishchilarning kasbiy tanloviga rahbarlik qilish, mehnatni muhofaza qilish tizimidagi mutaxassislarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini ta'minlash, markazlashtirilgan mehnat muhofazasi jamg'armasini tuzish va ulardan foydalanishni nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirishga mas'ul va bajarilishi uchun javogar hisoblanadi.

Korxona hududida va unga tegishli bo'lgan boshqa hududlarda, sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va ta'minlash uchun barcha tashkiliy va texnik ishlarni boshqaradi, yangi samarali

va xavfsiz tehnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga joriy etishni tashkil etadi, texnologik jihozlar va inshootlarni belgilangan tartibda saqlash rejalarini tekshiradi va tasdiqlaydi, mehnat xavfsizligi komissiyasiga rahbarlik qiladi va har chorakda kamida bir marta ustaxonalarda va inshootlarda mehnat sharoitlari holatini tanlab tekshiradi, ishlab chiqarishdagi asbob-uskunalar va xavfsizlikni ta'minlovchi asboblarning soz holatda bo'lishini ta'minlaydi, davlat nazorat organlarining ko'rsatmalari va yo'riqnomalariga amal qiladi va ular tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tezkor choralar ko'radi, rahbarlar va muhandislar tomonidan xavfsizlik qoidalari va sanoat gigiyenasi talablari, buyruq va yo'riqnomalarning bajarilishi, davlat nazorat organlarining ko'rsatmalari va kasaba uyushma tashkilotlari takliflari bilan muvofiqligini nazorat qiladi, yig'ilishlarda har chorakda kamida bir marta ish xavfsizligi masalalarini, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha kompleks rejalarni amalga oshirishni ko'rib chiqadi, xodimlarni kasbiy tayyorgarligini tashkillashtiradi va o'qitish qoidalari talablariga muvofiq xodimlarni xavfsiz ish usullari va texnikasi bo'yicha o'z vaqtida va samarali ravishda o'qitadi, kadrlarni tayyorlashni tashkil etish bo'yicha audit o'tkazadi, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni oldini olish bo'yicha reja asosida xodimlarni o'qitishni nazorat qiladi. Korxonada bajariladigan ish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ishlarni xavfsiz bajarish uchun ko'rsatmalar va mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalarni kasaba uyushma qo'mitasi bilan birgalikda ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ishlab chiqarishga joriy etilishini nazorat qiladi. Muhandislik-texnik xodimlarni va ishchilarni normativ hujjatlar, ko'rsatmalar, ish joylaridagi sanitariya-gigiyenik me'yorlar bilan ta'minlaydi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash va takomillashtirish bo'yicha joriy va istiqbolli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishini, tasdiqlashini ko'rib chiqadi va ularni bajarilishini nazorat qiladi. Sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarni belgilangan qoidalar va talablarga muvofiq o'z vaqtida to'g'ri tekshirish va qayd qilishni ta'minlaydi. Guruhiy yoki yakka holatdagi o'lim yoki og'ir baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etadi, ularni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda qatnashadi, tergov materiallarini tegishli organlarga yuboradi. Baxtsiz hodisalar

to‘g‘risidagi H-I shakldagi dalolatnoma mazmuni bilan tanishadi va dalolatnoma nusxalarini tegishli joylarga yuboradi.

Bosh mexanikning vazifalariga jihozlar va inshootlarni rejali profilaktika qilishni muntazam tekshirishlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘z vaqtida o‘tkazishni ta’minlash, yuk ko‘tarish mexanizmlar va tortish uskunalarini, bosim ostida ishlaydigan qurilmalarni va idishlarni, elektr payvandlash uskunalarini, atsetilen idishlari, kislorodli va kompressor agregatlarini, sinov-nazorat uchun asboblarni o‘z vaqtida sinov jarayonlarini, texnik tekshiruvining bajarilishini ta’minlash kiradi.

Barcha ishlab chiqarish uskunalari va ishlab chiqarish obyektlarining texnik holatini, ishini va o‘z vaqtida ta’mirlanishini nazorat qiladi, mashinalar, uskunalar va asboblarning xavfsizlik qoidalari va sanoat gigiyenasi talablariga javob berishini va texnik hujjatlarni saqlanishini nazorat qiladi. Texnik uskunalar, mexanizmlar va asboblardagi aniqlangan dizayndagi kamchiliklarni bartaraf etish va eskirgan mashinalar, mexanizmlar va qurilmalarni o‘z vaqtida almashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va yangi uskunalarni sinovdan o‘tkazishda qatnashadi. Shamollatish tizimlarining samarali ishlashini ta’minlash va ularni o‘z vaqtida ta’mirlash ishlarini amalga oshiradi.

Bosh mexanik xizmatining ishchilari uchun ishlarni xavfsiz bajarish bo‘yicha yo‘riqnomalarni o‘z vaqtida ishlab chiqishni tashkil qiladi, ishchilarga ko‘rsatmalar tayyorlashda ustaxonalar va xizmatchi xodimlariga yordam beradi.

Mehnat muhofazasi holatining uch bosqichli monitoringini olib boradi. Doimiy faoliyat yurituvchi komissiya tomonidan amalga oshiriladigan korxona obyektlarining kompleks va maqsadli tekshiruvlarida qatnashadi. Korxonaning mavjud ustaxonalari va inshootlarida uskunalarni ishlatish va ta’mirlash, montaj qilish va ishga tushirish ishlarini bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta’minlaydi.

Davlat nazorati va kasaba uyushma organlari xodimlari, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xodimlari va mehnat muhofazasi masalalari bo‘yicha buyruqlari va yo‘riqnomalarining talablarini bajarilishini tashkil qiladi va ta’minlaydi.

Bosh energetik - elektr va issiqlik elektr manbalari qurilmalarini: texnik ekspluatatsiya va xavfsizlik qoidalariga to'liq mos ravishda ishonchli va xavfsiz ishlashini, tarmoqlarni rejali ta'mirlash, profilaktika tekshiruvlari va sinovlarini tashkil etish va o'tkazishni, texnik nazoratni amalga oshiradi va tegishli texnik hujjatlarning saqlanishi to'g'riligi nazoratini, ichki tekshiruvlarni, gidravlik sinovlarni, bug' va issiq suv qozonlarini tekshirish va ta'mirlashni o'z vaqtida bajarilishini, elektr va texnologik asbob-uskunalar bilan ta'minlash qoidalarining talablarga muvofiq, o'z vaqtida tekshirilishini, statik elektr energiyasini yo'qotish bo'yicha zarur choralarni ko'rishni, loyihalashdagi nuqsonlarni bartaraf etish va mexanizmlar va mashinalar eskirgan qurilmalarini o'z vaqtida almashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni, xizmat ko'rsatishga vakolatli bo'lgan xodimlarni tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazish va sertifikatlashni tashkil etadi va amalga oshiradi, ustaxonalar va maydonchalar xodimlarini o'qitishni va ularning texnik ekspluatatsiya va xavfsizlik qoidalarini bilishlarini tekshirilishini, texnikani xavfsiz saqlash va ta'mirlash bo'yicha ko'rsatmalarning o'z vaqtida ishlab chiqilishini tashkil qiladi va ularni ish joylari bilan ta'minlaydi va ushbu ko'rsatmalarni tayyorlashda ishlab chiqarish bo'linmalarining rahbarlariga amaliy yordam ko'rsatilishini, o'rnatilgan qoidalarga muvofiq himoya vositalarini o'z vaqtida sinovdan o'tkazish (tekshirish)ni, xodimlarning uskunalarni ishlatish va korxonaning mavjud hududlar va inshootlarida ta'mirlash, o'rnatish va ishga tushirish ishlarini olib borishdagi xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni, jihozlarni ishlatish, o'rnatish va ta'mirlashda xodimlarni xavfsizlik qoidalari va sanoat gigiyenasi me'yorlariga muvofiq bo'lishini, mehnat muhofazasi holati ustidan uch bosqichli nazoratni amalga oshirilishini, baxtsiz hodisalar va boshqa huquqbuzarliklarni o'z vaqtida tekshirish va hisobga olishni, o'rnatilgan komissiya tomonidan amalga oshiriladigan korxona obyektlarining kompleks va maqsadli tekshiruvlarida ishtirok etilishi, ish joylari va obyektlarni texnik hujjatlar, ogohlantirish belgilari, plakatlar, yozuvlar va yo'riqnomalar bilan ta'minlanishini, Davlat nazorati va kasaba uyushma organlari xodimlari, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xodimlari va mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha buyruqlari va

yo'riqnomalarining talablarini bajarilishini tashkil qiladi va ta'minlaydi.

3.2 Mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil qilish

Mehnatni muhofaza qilish xizmati - «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga asosan, mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan xo'jalik faoliyati sohasi va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, barcha mulkchilik shaklidagi korxonalarda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi yuzasidan nazoratini amalga oshirish maqsadida Mehnat muhofazasi bo'yicha vakil to'g'risida Nizom (Mehnat muhofazasi bo'yicha vakil to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995-yil 18-dekabrda 196-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosida vakolatli shaxs saylanadi.

12-modda. Tashkilotning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari

Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo'lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan tashkilotda yo'l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo'lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati mutaxassislari mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalariga barcha xodimlar

tomonidan rioya etilishini nazorat qilish, tarkibiy bo'linmalarning rahbarlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tashkilot rahbariga taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Korxona kasaba uyushma qo'mitasi ishtirokida bir oy muddat ichida vakolatli shaxslarni ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan va kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishgan holda ish beruvchining hisobidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitishni tashkil etadi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xizmat xodimlriga samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularga mehnat muhofazasi bo'yicha qoidalar, yo'riqnomalar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ko'rsatmalar berish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ishda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'z takliflarini bajarishga ko'maklashish korxona rahbaryati zimmasiga yuklanadi.

Mehnat muhofazasi xizmatining asosiy vazifalari, funksiyalari va huquqlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14 avgustda 273-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida Namunaviy nizom"da quyidagicha belgilab qo'yilgan:

- ishchi xodimlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish huquqiga ega;
- aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish uchun tuzilmaviy bo'linmalar rahbarlariga majburiy ko'rsatmalar berishi mumkin;
- mehnat muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha korxonalar rahbarlariga vakillik qilish huquqiga ega;

- korxonalar va tashkilotlarda mehnat qonunchiligiga, mehnat muhofazasiga rioya etilishi ustidan nazoratni va nazorat qilishni, sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish ishlarining shakllari va usullarini takomillashtirishni ta'minlaydi.

- ishlab chiqarishdagi jarohatlarni va kasbiy kasalliklar va ularning sabablarini tahlil qiladi, boshqa bo'linmalar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, shuningdek ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tashkil etadi;

- tegishli muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan mehnat muhofazasi bo'yicha xavfsizlik standartlari, qoidalarini ko'rib chiqish, ular haqida fikr bildirish va mos keladiganini qabul qilish va amalga joriy etilishi bo'yicha ishlarni tashkil qilish mas'uliyatiga ega;

- yangi loyihalarni amalga oshirish va mavjud ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilishda ko'zda tutilgan xavfsizlik bo'yicha masalalar yechimlarini ko'rib chiqishda, loyiha ekspertizasi xizmati bilan birgalikda ishtirok etish;

- ish joylarini attestatsiya qilish;

- mehnat xavfsizligi bo'yicha ko'rik-tanlovlarni tashkil qilish va o'tkazish;

- o'ta va yuqori darajada xavfli ishlardagi ishchilarni qayta attestatsiyadan o'tkazish;

- rahbar mutaxassislar va muhandis-texnik xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish va sinovdan o'tkazilishini amalga oshiradi;

- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ma'lumotnoma va o'quv materiallarini, takliflarini, xulosalarini va qarorlar loyihalarini tayyorlash. Korxonalarni mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tartibga soluvchi va boshqa me'yoriy hujjatlari bilan ta'minlash va bajarilishini nazorat qilish;

- xizmat vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xodimlarning arizalarini va shikoyatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish, ularga tegishli choralarni ko'rish;

- kundalik faoliyatini tasdiqlangan ish va tadbirlar rejalari hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha statistika hisobotlarini tayyorlash talablariga muvofiq amalga oshiradi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati bevosita korxonaning boshlig'i va bosh muhandisga bo'ysunadi va o'z faoliyatini mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi, mehnat muhofazasi bo'yicha komissiya, shuningdek, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sanoat-texnik nazoratchilari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

3.3. Ishchi xodimlar sog'ligini saqlash

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida ishchi-xodimlar o'z faoliyatini amalga oshirishda, hayoti va sog'ligini saqlash va ish o'rinlarini xavfsiz bo'lishini ta'minlaydigan mehnat sharoitlarini yaratib berish uchun ish beruvchining majburiyatlari nazarda tutilgan talablar quyidagi moddalarda bayon etilgan.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

xodimlarning dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklarini o'tkazish tartibini belgilaydi;

ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha sanitariya qoidalarini, normalarini va gigiyena normativlarini belgilaydi;

mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga beriladigan sutni (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini), davolash-profilaktika oziq-ovqatini, gazlangan tuzli suvni (issiq sexlarda ishlovchilar uchun) berish normativlarini belgilaydi;

xodimni yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazish uchun tibbiy va boshqa ko'rsatkichlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

xodim kasb kasalligiga chalingan deb gumon qilinganda uning mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiyena tavsifini tuzishga doir talablarni belgilaydi;

kasb kasalliklarini aniqlash va xodimlarning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganligi darajasini aniqlash uchun yo'llanma berish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

21-modda. Ishga qabul qilishda va boshqa ishga o'tkazishda mehnatni muhofaza qilishga bo'lgan huquqning kafolatlari

Mehnat shartnomasining shartlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa shartnomalari, shuningdek jamoa kelishuvlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi boshqa ichki normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Fuqarolarni sog'lig'ining holatiga ko'ra o'ziga to'g'ri kelmaydigan ishga qabul qilish va xodimlarni boshqa shunday ishga o'tkazish taqiqlanadi.

Fuqarolarni sog'lig'i va hayotiga yuqori darajada xavf tug'dirishi mumkinligi oldindan ayon bo'lgan ishga qabul qilish hamda xodimlarni boshqa shunday ishga o'tkazish chog'ida ish beruvchi ularni bu haqda ogohlantirishi shart.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazishga muhtoj xodimlarni ish beruvchi ana shunday ishga ularning roziligi bilan, tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yoki muddatini cheklamay o'tkazishi shart.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan kam haq to'lanadigan ishga o'tkazishda xodimlarning avvalgi o'rtacha oylik ish haqi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida belgilangan tartibda va muddatlarda saqlanib qoladi.

24-modda. Majburiy tibbiy ko'riklar

Ish beruvchi o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning va umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxslarning, nogironlarning, shuningdek bir qator kasblar va ishlab chiqarishlar xodimlarining O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

tomonidan belgilangan tartibda dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishini tashkil etishi shart.

Tibbiy ko'riklar tashkilotlarga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, bunday muassasalar mavjud bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi hududiy davolash-profilaktika muassasasi tomonidan o'tkaziladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishi lozim bo'lgan shaxslar boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda ham tibbiy ko'riklarni o'tkazish majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Tibbiy ko'riklardan o'tilishi munosabati bilan xodimlar chiqimdor bo'lmaydilar.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlashga haqli emas.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bo'yin tovlagan yoki ular o'tkazilgan tekshiruvlar natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarmagan taqdirda ish beruvchi ularni ishga qo'ymaslikka haqli.

Agar xodim o'z sog'lig'ining holati mehnat sharoitlari bilan bog'liq holda yomonlashgan deb hisoblasa, u navbatdan tashqari tibbiy ko'rik o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish vaqtida xodimning ish joyi (lavozimi) va o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

33-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi

Ish beruvchi xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli uning hayoti va sog'lig'iga o'zi yetkazgan zararning o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'liq hajmda qoplashi shart.

Xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan jabrlanuvchi tomonidan kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga muvofiq bo'lgan foizlardagi har oylik to'lovdan, shuningdek xodimning bir-yillik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa

to'lovidan hamda xodimning sog'lig'i shikastlanishidan kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlarni (agar u davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj deb topilgan bo'lsa, ushbu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek jabrlanuvchining qayta tayyorgarligi va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishi uchun xarajatlar va boshqa xarajatlar) kompensatsiya qilishdan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida xodim vafot etgan taqdirda, zararning o'rni qoplanishi huquqiga ega bo'lgan shaxslarga boquvchining vafoti bilan bog'liq holda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har oylik to'lovlar amalga oshiriladi, shuningdek vafot etgan xodimning o'rtacha-yillik ish haqining olti baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi va dafn etish xarajatlarining o'rni qoplanadi.

Voyaga yetmagan xodimning sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda zararning o'rnini qoplash uning avvalgi ish haqidan kelib chiqqan holda, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

3.4. Mehnat sharoitlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibi

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27 apreldagi 246-son qarori 4-ilovasining «Mehnat sharoitlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom» ga asosan, ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasida, mehnat sharoitlarining, ish o'rinlaridagi mehnat jarayoni og'irligi va tig'izligining hamda ularning jarohatlanish jihatidan xavfliligini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash, zararli ishlab chiqarish omilini va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmui amalga oshiriladi.

Davlat ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari (keyingi

o‘rinlarda davlat eksperti deb ataladi) tomonidan Nizomda tasdiqlangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ekspertizasi xodimlarning umumiy soni 100 kishidan kam bo‘lgan tashkilotlar bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududiy organlarining davlat ekspertlari tomonidan, va agar xodimlarning umumiy soni 100 va undan ko‘p kishi bo‘lgan tashkilotlar bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi davlat ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilarni baholash davlat ekspertizasining obyekti hisoblanadi:

ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonining omillari, ish o‘rinlarining jarohatlanish jihatidan xavfliligi;

xodimlarning shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlanganligi;

ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish natijalari va xulosalarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligi;

mehnat sharoitlari xavfli va (yoki) zararli ishlar, og‘ir ishlar uchun xodimlarga berilayotgan kompensatsiyalar va kafolatlarning belgilangan mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligi;

ish o‘rinlaridagi mehnat sharoitlarining haqiqiy holati.

Davlat ekspertizasini o‘tkazish uchun:

mehnat sharoitlari bo‘yicha ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish sifatini baholashda - o‘tkazilgan mehnat sharoitlari bo‘yicha ish o‘rinlarining attestatsiyasi natijalari yuzasidan attestatsiya o‘tkazuvchi tashkilotlarning;

mehnatning zararli va (yoki) xavfli sharoitlarida ishlashda hamda ish o‘rnidagi haqiqiy mehnat sharoitlarida xodimlarga kompensatsiya va kafolatlar to‘g‘ri berilayotganligini baholashda - ish beruvchilar, ish beruvchilarning birlashmalari, kasaba uyushmalarining (xodimlarning boshqa vakillik organlarining) murojaatlari asos bo‘ladi.

Mehnat vazirligi va uning hududiy bo‘linmalariga davlat nazorati va tekshiruvi organlarining, shuningdek sudlar murojaat qilgan holatlarda davlat ekspertizasi o‘tkazilishi mumkin.

Davlat ekspertizasi o‘tkazilishida davlat ekspertizasi organlari quyidagilarga majbur:

qonunchilik talablariga amal qilish;

ekspertizaga taqdim qilingan hujjatlar va materiallarning atroflicha, xolisona va kompleks tahlilini amalga oshirish, ularni mehnatni muhofaza qilishning belgilangan talablariga muvofiqligini aniqlash;

davlat ekspertizasini amalga oshirishning mazkur Nizomda belgilangan tartibi va muddatlariga rioya etish, materiallarning kelib tushish navbatini hisobga olgan holda davlat ekspertizasini o'tkazish;

davlat ekspertizasi obyektlarining belgilangan mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligi (nomuvofiqligi) to'g'risida davlat ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosalar tuzish;

davlat ekspertizasi xulosalarida va boshqa hujjatlarda bayon etilgan xulosalarning xolisonaligini va asoslanganligini ta'minlash;

davlat ekspertizasiga qabul qilingan hujjatlarning va boshqa materiallarning saqlanishini va ulardagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi bo'yicha manfaatdor shaxslarning so'rovi bo'yicha bepul tushuntirishlar berish;

mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari sohasi bo'yicha belgilangan muddatlarda davlat ekspertlarining malakasini oshirish.

Mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini o'tkazishda davlat eksperti quyidagi huquqlarga ega:

nazorat va tekshirish vazifalarini bajarish uchun, shuningdek davlat ekspertizasini o'tkazish uchun zarur axborotlarni tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan so'rash va olish;

tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarini bartaraf qilish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish haqida taqdimnomalar kiritish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishga oid talablar va shartlarni buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga muvofiq bo'lmagan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tashkilotlarning faoliyatini yoki asbob-uskunalardan foydalanishni to'xtatib qo'yish;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi hamda ishlab chiqarishda xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi da'volar yuzasidan sudda ekspert sifatida ishtirok etish;

belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarni jalb qilgan holda, zarur bo'lgan holatlarda tegishli kuzatishlar, o'lchashlar va hisoblashlarni amalga oshirish.

Mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat ekspertizasini o'tkazishda quyidagilar tekshiriladi:

ish o'rinlari attestatsiyadan o'tkazilishi lozim bo'lgan ro'yxatda ko'rsatilgan ish o'rinlari (kasblar, lavozimlar) nomlanishining xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari Klassifikatoriga, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlariga mosligi;

attestatsiyadan o'tkazilishi lozim bo'lgan ish o'rinlariga takrorlanmaydigan tartib raqamlarining to'g'ri berilganligi;

instrumental o'lchovlarni o'tkazish uslublarining to'g'ri tanlanganligi;

o'xshash ish o'rinlarining to'g'ri tasniflanganligi (bunday ish o'rinlari bo'lsa);

mehnat sharoitlarini maxsus baholash jarayonida foydalanilgan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayonidagi zararli va (yoki) xavfli omillarni o'lchash vositalarining belgilangan talablarga mosligi;

ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish davomida foydalanilgan o'lchash vositalarining Davlat reyestri ro'yxatida mavjudligi;

ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish davomida o‘lchash vositalarining qiyoslovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumotlarning mavjudligi;

ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish uslublari va xulosalarining qonunchilikda belgilangan ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish tartibi talablariga muvofiqligi;

mehnat sharoitlarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyalarga (MRK) va maksimal ruxsat etilgan (MRD) darajalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi natijalari bo‘yicha belgilangan mehnat sharoitlari klasslari (darajalari)ning to‘g‘ri belgilanganligi;

ish o‘rinlarining jarohatlash xavfliligini baholash natijalariga asosan ish o‘rinlaridagi mehnat sharoitlarining jarohatlash xavfliligi bo‘yicha klasslarning (darajalarning) to‘g‘ri belgilanganligi;

xodimlarning yakka tartibdagi himoya vositalari bilan to‘g‘ri ta’minlanganligi, yakka tartibdagi himoya vositalari bilan ta’minlanganlik darajasining belgilangan meyorlarga muvofiqligi;

ish o‘rinlarining attestatsiyasi natijalariga ko‘ra belgilangan zararli va (yoki) xavfli sharoitlarda ishlash uchun imtiyoz va kompensatsiyalar, imtiyozli pensiya ta’minotini olish huquqining, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish zaruratining to‘g‘riligi;

ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan o‘tkazilgan attestatsiya natijalarining yig‘ma qaydnomalardagi mehnat sharoitlari xaritalaridagi ma’lumotlarga mosligi va ularning to‘g‘ri to‘ldirilganligi;

ish o‘rinlarida mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tavsiya etilgan tadbirlar rejasining to‘g‘ri to‘ldirilganligi va ma’lumotlarning mehnat sharoitlari xaritalaridagi ma’lumotlar bilan muvofiqligi.

3.5. Mehnatni muhofaza qilishga doir hujjatlarni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish

Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14 avgustda 273-sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan “Mehnatni muhofa qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi namunaviy Nizom”ga asosan

korxona quyidagi asosiy hujjatlarni ishlab chiqadi (tayyorlaydi) va saqlaydi;

- mehnatni muhofaza qilish va sanitariya-gigiyena tadbirlari masalalarni o'z ichiga olgan jamoa shratnomasi;
- ish o'rinlari attestatsiya sertifikat kartalari;
- mehnat muhofazasi xizmatining chorakli ish rejalari;
- standartlarni ishlab chiqarishga joriy etish dalolatnomalari;
- ishchi va muhandislik-texnik xodimlarni o'qitish dasturlari, yo'riqnoma va sinovdan o'tkazish dasturlari.

Bundan tashqari mehnat muhofazasiga doir hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2000-yil 12 iyuldagi 267-sonli "Mehnatni muhofaza qilishga doir meyoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish to'g'risida"gi qarorining 2-ilovasida «Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi»da keltirilgan talablardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan hujjatlar ishlab chiqarishdagi barcha xavfsizlik meyorlariga rioya etish, xodimlarni muhofaza qilish va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etishni nazorat qilish, shuningdek mutaxassislarni ushbu sohada nazariy va amaliy ma'lumotlar bilan ta'minlash, korxona va tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalarni hal etishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Belgilangan tartibda kelishilgan Qoidalar mas'ul ijrochilar tomonidan tegishliligi bo'yicha tasdiqlash uchun Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasiga yuboriladi.

Vazirliklar va idoralar tasdiqlangan Qoidalarni huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuboradilar.

Nazorat uchun savollar

1. Korxona va tashkilotlarda mehnat muhofazasi bo'yicha qo'yilgan talablar nimadan iborat?

2. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish masalalariga nimalar kiradi?

3. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish qaysi hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi?

4. Korxona rahbarining mehnat muhofazasini ta'minlash bo'yicha vazifalari nimadan iborat?

5. Mehnat muhofazasi uchun mablag' qaysi manbadan moliyalashtiriladi?

6. Korxona Bosh muhandisining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakolatlari va vazifalari nimadan iborat?

7. Korxona Bosh energetigining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakolatlari va vazifalari nimadan iborat?

8. Korxonada mehnatni muhofaza qilish xizmati qachon va qaysi turdagi meyoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi?

9. Korxona mehnatni muhofaza qilish xizmatini vakolatlari va vazifalari nimadan iborat?

10. Mehnat sharoitlari davlar ekspertizasi nima?

11. Davlat ekspertiza qaysi tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi?

12. Ekspertiza o'tkazishda nimalar tekshiriladi?

13. Ekspertiza o'tkazishda qanday talablar qo'yilgan va qaysi hujjatga asosan?

14. Mehnat muhofazasiga doir hujjatlar turlarini aytib bering.

15. Mehnat muhofazasiga doir qaysi turdagi hujjatlar korxonada ishlab chiqiladi?

16. Mehnatm muhofazasi bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan va ishlab chiqilgan hujjatlar qanday tartibda tasdiqlaniladi?

4-§. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA O‘QITISH VA TARG‘IBOT - TASHVIQOT ETISH

4.1 Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnoma turlari va uni o‘tkazish tartibi

Barcha korxona va tashkilotlar, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, ishchilar, rahbarlar, mutaxassislar, muhandis-texnik xodimlar mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha xavfsiz ish jarayonlarini targ‘ibot-tashviqot qilishlari va unga rioya etishga yo‘l –yo‘riqlar berishlari O‘zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining:

212-modda. Xodimning mehnatni muhofaza qilish meyorlari, qoida va yo‘riqnomalariga rioya etish majburiyati

Xodim mehnatni muhofaza qilish meyorlariga, qoida va yo‘riqnomalariga, shuningdek ma’muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi farmoyishlariga rioya qilishi, olingan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi, insonlar hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf soladigan har qanday holat haqida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida o‘zining bevosita rahbarini (brigadiri, ustasi, hudud boshlig‘i va boshqalarni) darhol xabardor qilishi shart.

215-modda. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish va o‘qitish

Xodimlarga texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong‘in chiqishdan saqlanish va mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari haqida yo‘l-yo‘riqlar berish hamda xodimlarning mehnatini muhofaza qilishning hamma talablariga rioya etishlarini doimiy ravishda tekshirib borish vazifasi ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Ish beruvchi xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qishlarini ta’minlashi va ularning bilimlarini tekshirib turishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quvdan, yo'l-yo'riqdan o'tmagan va bilimlari tekshirilmagan xodimlarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

Va "Mehnatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunning :

25-modda. Xodimlarga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish va ularni o'qitish

Ish beruvchi barcha yangi ishga kirayotgan, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullarini hamda baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga o'qitishni tashkil etishi shart.

Xavfliligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishga ishga kirayotgan yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kirayotgan xodimlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullariga dastlabki tarzda tayyorlash, kasb bo'yicha imtihonlar topshirgan holda bir oy mobaynida stajirovka va so'ngra mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha davriy attestasiya o'tkaziladi.

Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestasiyadan o'tishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'quvdan o'tmagan, yo'l-yo'riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

Moddalarida belgilab qo'yilgan:

Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasiga doir yo'riqnomalarni ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 7 yanvarda 870-sonli raqam bilan ro'yxatda olingan "Mehnat muhofazasi bo'yicha yoriqnomani ishlab chiqish" to'g'risidagi namunaviy Nizom talablari asosida tuziladi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma xodimlar ishlab chiqarish korxonalarida va unga taalluqli boshqa hududlarda ishchilar o'zlariga yuklatilgan ishlarni yoki xizmat vazifalarini bajaradigan boshqa joylarda xavfsizlikni ta'minlashga doir talablarni belgilaydigan normativ hujjatdir. Mehnatni muhofaza

qilish to‘g‘risidagi yo‘riqnomalar, korxonada ishlayotganlar uchun yo‘riqnoma va namunaviy yo‘riqnomalarga bo‘linadi.

Yo‘riqnomalar alohida kasb egalari (elektr dastgohlari, mashinasozlik, mexanik, elektrotexnika, tozalovchi, laboratoriya texnikasi va boshqalar) uchun va ayrim turdagi ishlarni bajarish uchun (balandlikda, montaj ishlarida, ishga tushirishda, ta’mirlash ishlarida, testda va hokazo) ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, portlatish ishlarini olib boradigan xodimlar, elektrotexnika inshootlari va murakkab elektron uskunalarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, yuk ko‘tarish mashinalari, qozon uskunalari, bosimli idishlar va boshqa xodimlar uchun yo‘riqnomalar ishlab chiqarish va atrof-muhit sohasidagi ish xavfsizligi qoidalari, Davlat nazorat organi tomonidan tasdiqlangan maxsus qoidalar, ko‘rsatmalar va talablar asosida ishlab chiqiladi.

Yo‘riqnomalar mazmuni va tarkibi, faqatgina ish xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan va ishchilar o‘zlari bajaradigan talablarni o‘z ichiga olishi kerak.

Namunaviy yo‘riqnomalar, mehnat munosabatlari va muhofazasiga oid qonun hujjatlari, mehnat muhofazasi standartlari, soha va sanoat normalari va qoidalari, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa normativ-huquqiy, texnikaviy va tashkiliy-uslubiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Yo‘riqnomalarni mazmuni va tarkibiy qismini qonunchilikga mosligi korxona rahbari (ish beruvchi) tomonidan o‘rganiladi.

Yo‘riqnomalarda keltirilgan talablarni ishchilar tomonidan bajarish va amal qilish majburiydir. Ushbu talablarni bajarmaslik ishlab chiqarish intizomini buzilishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Yo‘riqnoma talablarini bajarilishi yuzasidan doimiy ravishda nazoratini amalga oshirish korxona rahbari va uning tarkibiy bo‘linmalari xizmatchilari va rahbarlari va mehnatni muhofaza qilish xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Yo‘riqnomalar o‘tkazish vaqti, joyi va maqsadiga ko‘ra kirish va ish joyida o‘tkaziladigan yo‘riqnoma turlariga ega. O‘z navbatida ish joyida o‘tkaziladigan yo‘riqnomalar dastlabki, davriy, joriy va navbatdan tashqari turlarga bo‘linadi.

Kirish yo‘riqnomasi. Barcha ishga kiruvchilar, boshqa korxonalardan xizmat safariga jo‘natilganlar (ish malakasi va

stajidan qat'iy nazar) amaliyot o'taydigan talabalar kirish yo'riqnomasidan o'tishlari shart. Kirish yo'riqnomasi mehnatni muhofaza qilish xizmati bo'yicha mas'ul xodim yoki shu vazifa yuklatilgan boshqa xodim boshchiligida maxsus jihozlangan xona yoki burchaklarda yakka yoki guruh tartibida o'tkaziladi. Agar ishga qabul qilish bevosita tarmoqdagi ish joylarida amalga oshirilsa, kirish yo'riqnomasini shu tarmoq boshlig'i tomonidan o'tkazilishi shart. Kirish yo'riqnomasida jarohatlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish, yong'in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo'yicha tafsilotlar maxsus tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi va maxsus jurnallarga rasmiylashtirilib boriladi.

Ish joyida o'tkaziladigan dastlabki yo'riqnoma. Kirish yo'riqnomasidan o'tgan ishchi-xodim, ish joyida faoliyatini boshlashdan oldin dastlabki yo'riqnomadan o'tishlari lozim. Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomadan maqsad - har bir ishchi-xodim va mutaxassisni to'g'ri va xavfsiz ish usullariga o'rgatishdan iboratdir. Yo'riqnoma berish jarayonida, ishchiga u ishlaydigan uskunada bajariladigan texnologik jarayon, uning harakat mexanizmlari, konstruktiv xususiyatlari, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar, ish joyini sanitariya- gigiyena talablariga mos holda tashkil qilish va shu kabi masalalar tushuntiriladi.

Yo'riqnoma o'tkazish ishchining bevosita rahbari bo'lgan ustaga yuklatiladi. Ayrim zarur hollarda bu yo'riqnoma tegishli mutaxassislar (mexanik, energetik, texnolog) ishtirokida o'tkaziladi. Xodimlarga elektr xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma o'tkazish va malaka guruhi berish xo'jalik bosh energetigi zimmasiga yuklatiladi. O'tkazilgan yo'riqnoma to'g'risidagi ma'lumotlar hudud boshlig'ining maxsus jurnalida qayd etiladi va yo'riqnoma olgan shaxs o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Davriy yo'riqnoma. Ishlab chiqarishda faoliyatni xavflilik darajasiga va bajarilish takroriylilgiga qarab, ishchi-xodimning malakasi va ish stajidan qat'iy nazar, har olti oydan ko'p bo'lmagan muddatda, yoki har mavsumda, yoki-yilida bir marotaba o'tkazib turiladigan yo'riqnoma davriy yoki mavsumiy deb yuritiladi. Yo'riqnomalarni davriy yoki mavsumiy tarzda o'tkazishdan asosiy maqsad – ishchi-xodim va mutaxassislarni mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga doir bilimlarini yangilab va to'ldirib turishdan

iboratdir. Turli sabablar bilan (ta'til, kasallik, xizmat safari va sh.o'.) ishchilarga o'z muddatida o'tkazilmagan yo'riqnoma, keyinchalik o'tkaziladi. Davriy yo'riqnoma o'tkazilganligi haqidagi ma'lumot, maxsus jurnalga yozib rasmiylashtirib qo'yiladi.

Ish joyidagi navbatdan tashqari yo'riqnoma quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- texnologik jarayonlarda o'zgarishlar yuzaga kelganda;
- bo'lim yoki hududlarda baxtsiz hodisa yoki halokat yuz berganda;
- faoliyat yoki mehnat muhofazasiga doir yangiliklar va o'zgarishlar yuzaga kelgan hollarda;
- ishlab chiqarish intizomi, qoida va yo'riqnomalarning talablari buzilishi aniqlangan hollarda.

Joriy yo'riqnoma quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- ishlab chiqarish hududlarida gaz yoki elektr payvandlash ishlari amalga oshirilishi zarurati tug'ilgan paytda;
- uch metrdan ko'p bo'lgan balandlikda montaj yoki tozalash ishlari amalga oshirilish zarurati tug'ilganda;
- ish kuni davomida xavfli va zararli ishlarni bajarishdan oldin.

Joriy yo'riqnoma bolim yoki hudud rahbari tomonidan o'tkazilgandan keyin, maxsus shakldagi xavfi yuqori bo'lgan ishni bajarish uchun ruxsat beruvchi dalolatnoma tol'diriladi.

4.2 Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish

Ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligining targ'iboti, ishchi xodim va mutaxassislarni ijtmoiy muhofazasi va sog'lig'ini saqlashiga qaratilgan muhim va zarur tadbirlardan biri hisoblanadi. Targ'ibotni amalga oshirish tadbirlari korxona rahbarlari va mutaxassislariga, tarmoq rahbarlari zimmasiga yuklanadi. Mehnat xavfsizligini targ'ibot qiluvchi ma'lumotlar elektron variantdagi taqdimotlar, animatsiyalar, videroliklar, chop etilgan yo'riqnoma, qo'llanma va talabnomalar, ko'rgazmali vositalar, broshyuralar hamda eslatmalar shaklida bo'lishi talab etiladi.

Ishchi xodimlarni o'qitish, bilimlarini oshirish va qayta tayyorlash ham xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitlarini targ'ibot

turlaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Mehnati muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mehnati kodeksi”ning 37, 52, 58, 61, 68, 212 va 215-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14 avgustda 272-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash to‘g‘risida namunaviy Nizom” talablari va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27 apreldagi 246-son «Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi qarorining 3-ilovasi «Mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunchilik asosida davlat nazorat organlari tomonidan belgilangan tartib va muddatlarda korxonalarning barcha xodimlari, shu jumladan menejerlar, kasb-hunarlari va ish turlari bo‘yicha o‘qitish, yo‘riqnoma olish, qayta tayyorlash va bilimlarini sinash (attestatsiya)dan o‘tishlari shart. Sinovdan muvaffaqiyatli o‘tmagan xodimlarni korxona rahbari ishga qo‘ymaslikka haqli hisoblanadi va ular qayta tayyorlanishga yuboriladi.

Ishga yangi qabul qilingan xodimlarni mustaqil ishlashlariga, faqatgina mehnat muhofazasiga oid yo‘riqnomalardan o‘tgandan keyin, kasbga taalluqli mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlari tekshirib ko‘rgandan keyin ruxsat beriladi.

4.3. Mutaxassis va ishchi xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish

Ishchilarning bilimini tekshirish. Boshlang‘ich yo‘riqnoma va ishlab chiqarishdagi ko‘nikmalaridan so‘ng, ishchi-xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoidalari va talablari bo‘yicha bilimlari sinovdan o‘tkazilishi shart. Sinovlar boshlang‘ich, davriy va navbatdan tashqari turlarga bo‘linadi. Bilim sinovlarini o‘tkazish korxona rahbariyati tomonidan tayinlangan hudud yoki bo‘lim boshlig‘i raisligidagi komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda, maxsus shartlar asosida mexanik, energetik muhandislar yoki boshqa mutaxassislar komissiya tarkibiga kiritilishi mumkin va asosiy ish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni sinash bilan birga,

ishchi-xodimning boshqa sohadagi bilimlari ham sinovdan o'tkazilishi mumkin.

Dastlabki bilimlarni tekshirgandan so'ng, xodimga bilimlari tekshirilganligi tog'risida tegishli yagona shakldagi sertifikat beriladi.

Bilimlarni sinash, ish joylaridagi boshlang'ich yo'riqnoma dasturlaridan kelib chiqqan holda, bo'lim rahbarlari va mutaxassislari tomonidan tuzilgan savolnoma asosida amalga oshiriladi. Barcha ishchi-xodimlarning bilimlari har bir ish-yilida tuzilgan jadval asosda davriy ravishda o'tkazilishi lozim. Sinovdan o'tkazish jadvallari har-yili ish joyi ustasi tomonidan tuziladi va hudud boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Navbatdan tashqari bilimlar sinovi, ishlab chiqarish jarayoniga o'zgarishlar kiritilganda, yangi turdagi uskunalar va mexanizmlar joriy etilganda, yangi qoidalar va yo'riqnomalar joriy etilganda, korxona rahbariyati, davlat nazorat organlari talabi yoki buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

Xodimlarning bilimlarini sinash natijalari, korxonadagi maxsus "Xodimlarning bilimlarini tekshirish" jurnalida ro'yxatga olinib va bir vaqtning o'zida sertifikatda ham aks etishi lozim. Bilimlari sinovdan o'tayotgan shaxsga, sinov natijalariga ko'ra mustaqil ishlashga qabul qilish imkoniyati to'g'risida xulosa ham beriladi. Agar ishchining sinov natijalariga ko'ra bilimi qoniqarsiz deb baholansa, unga mustaqil ishlashga ruxsat etilmaydi va ikki haftadan kechiktirmasdan qayta sinovdan o'tkazilishi lozim.

Ishchi-xodimning bilimlarni qayta sinashga kelmasligi, asosli sabablarsiz tekshirishga tayyor emasligi mehnat intizomining buzilishi deb hisoblanadi. Ushbu qoidabuzarliklarni sodir etgan xodimlar uchun korxona ichki mehnat qoidalariga muvofiq intizomiy choralar ko'rish mumkin.

Rahbar va mutaxassislarni o'qitish va bilimlarini tekshirish. Mehnatni muhofaza qilish sohasida rahbar va mutaxassis xodimlar bilimini oshirish uchun boshqaruv organlari va korxonalarda Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi qoshidagi mehnat nazorati va Respublika aholi bandligi ilmiy markazi mutaxassislari bilan maxsus kurslar, seminarlar va ma'ruzalar tashkil etiladi.

Lavozimga tayinlanayotgan xodimlar, ularga ishonib topshirilayotgan bo'lim va hududlarda ish sharoitlari va mehnat muhofazasi holati, ishchilar va xodimlarni zararli va zaharli ishlab chiqarish omillari ta'siridan himoyalash vositasi, kasbiy kassaliklar va jarohatlanishlar tahlili va ularni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha rahbarlik hujjatlari va kasbiy majburiyatlari bilan tanishishlari lozim.

Mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha rahbar va mutaxassislar bilimlari, korxonalar va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy bo'linmalarning doimiy ishlaydigan ekspert komissiyalari tomonidan tekshiriladi.

Komissiya tarkibi yuqorida ko'rsatilgan tashkilot rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi. Sinov komissiyalari ishini ularning rahbarlari boshqaradi. lozim bo'lganda, ko'p xodimlarga ega bo'lgan korxonalarda, bir nechta sinov komissiyasi bo'lishi mumkin. Bunday hollarda sinov komissiyasi rahbarlari sifatida, ushbu korxonaning mehnatni muhofaza qilish boshliqlari va korxona rahbarining o'rinbosarlari tayinlanadi.

Komissiya tarkibi yuqorida ko'rsatilgan tashkilot rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi. Boshqaruv organlari va korxonalarning tekshiruv komissiyalariga ularning rahbarlari rahbarlik qiladilar. Bilimi tekshirilishi lozim bo'lgan xodimlar soni ko'p bo'lsa, unda korxona mehnatni muhofaza qilish xizmati boshlig'i va korxona rahbari o'rinbosarlari raisligida qo'shimcha sinov komissiyasi tashkil etilishi mumkin.

Sinovlarni tashkil etish va o'tkazish davlat mehnat tashkilotlari rahbarlari, korxonalar rahbarlari va sinov komisssiyasi raislari zimmalariga yuklatiladi. Sinov tasdiqlangan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi. Sinov o'tkazish jadvali, sinov o'tkazilishidan bir oy oldin, sinov komissiyasining barcha a'zolariga yuborilishi shart. Sinovdan o'tuvchi, sinovni o'tkazish sanasi va joyi haqidagi ma'lumot 15 kundan kechikmay ogohlantirilishi kerak. Uch kishidan kam bo'lgan komissiya tomonidan sinov o'tkazishga ruxsat etilmaydi.

Sinov komissiyalari tarkibiga kiradigan korxonalarning rahbarlari va mutaxassislari, avvalambor o'zlari Ozbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va

Toshkent shahar bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmalari qoshida tuzilgan komissiyalarda sinovdan o'tgan bo'lishlari lozim.

Rahbarlar va mutaxassislarning mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi bilimlarini tekshirishning quyidagi turlari belgilanadi: boshlang'ich, davriy va navbatdan tashqari.

Vakolatli lavozimga kelgan rahbar va mutaxassislar, faoliyatini boshlagan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan tegishli sinov komissiyasida, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha dastlabki sinovidan o'tgan bo'lishlari shart. Rahbar va mutaxassislar bilimini tekshirish kamida uch-yilda bir marta amalga oshiriladi.

Navbatdan tashqari sinov o'tkazish tartibi alohida ro'yxatga olingan hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin, ularning ro'yxati ushbu sinovni talab etgan organ tomonidan belgilanadi.

Sinov natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va u sinov komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

Sinov natijalari bayonnomasi mehnat muhofazasi xizmatida yoki xodimlar bo'limida kamida 6 yil davomida saqlanadi.

Boshqarish organlarida va ishlab chiqarish xavfi yuqori bo'lgan korxonalarda mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan shaxslarga sinovga raislik qiluvchi (komissiya raisining o'rinbosari) va sinov komissiyasi a'zosi - Davlat nazorat organining inspektori tomonidan imzolangan sertifikatlar beriladi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha sinov natijalaridan qoniqarsiz baho olgan shaxslar o'z mansab lavozimida, sinovni bir oydan kechiktirmay qayta topshirish sharti bilan qoldiriladi. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha sinovni yana o'tmagan shaxslarga nisbatan o'z vazifalariga muvofiq masalalarni hal qilish uchun korxonaning attestatsiya komissiyasiga o'tkaziladi.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi bilimlarni tekshirishni tashkil qilish va o'tkazishni nazorat qilish mehnatni muhofaza qilish idoralari rahbarlari va xizmatlari bilan bog'liq.

Nazorat qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi, Mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ekspertizasi

bo‘yicha davlat inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmasi organlari zimmasiga yuklatilgan.

Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi sinovlardan bosh tortgan rahbar va mutaxassislar ishdan bo‘shatiladi va ularga tegishli qonunchilik meyorlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar qo‘llaniladi.

4.4. Baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularni hisobga olish tartibi

Korxona va tashkilotlarda Ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilish talablari va qoidalari, xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong‘in xavfsizligi va boshqa turdagi meyor va xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik, ishchi-xodimlar va mutaxassislarning turli darajadagi jarohatlanishiga, zaharlanishiga va kasb kasalliklariga olib keladi.

Inson tanasining teri yoki ayrim qismlariga tashqi mexanik, kimyoviy va elektr ta’siri natijasi shikastlanish va tanaga jismoniy zarblarni ta’sir ko‘rsatishi natijasida lat yeyishi, terining kesilishi, suyak sinishi va chiqishi, kuyish, sovuq urishi, elektr toki urishi va inson hayot faoliyati buzilishiga olib keladigan boshqa cheklanishlar jarohatlanish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo‘qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o‘tishi zarur bo‘lsa, baxtsiz hodisa deb hisoblanadi va “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning:

26-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlarning o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi, shuningdek kasb kasalliklari belgilangan tartibda tekshirilishi hamda hisobga olinishi shart.

Fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha ishlar bajaruvchi (xizmatlar ko‘rsatuvchi) shaxslarga nisbatan ham ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar hamda sog‘lig‘ining boshqacha

tarzda shikastlanishi, kasb kasalliklari belgilangan tartibda tekshirilishi va hisobga olinishi shart.

va Mehnat kodeksining

222-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni hisobga olib borish va tekshirish

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni o'z vaqtida tekshirishi va hisobga olib borishi shart.

Jabrlanuvchining talabiga binoan tekshiruv tugagan kundan e'tiboran uzog'i bilan uch kun ichida ish beruvchi shu baxtsiz hodisa to'g'risida dalolatnoma berishi shart.

belgilangan talablari asosida hisobga olinadi va tekshiriladi.

Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa deb yuritiladigan barcha turdagi jarohatlanish, shikastlanish, zaharlanish va o'lim holatlarini tekshirish va hisobga olish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6 iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi Nizom talablariga asosan olib boriladi.

Ishlab chiqarish jarayonida, korxona va tashkilotlar hududida sodir bo'lgan tabiiy o'lim, o'zini o'zi o'ldirish, jabrlanuvchining o'z salomatligiga qasddan shikast yetkazishi, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir qilish chog'ida shikastlanishi holatlari (sud tibbiy ekspertiza xulosasi yoki tergov organlarining ma'lumotlariga ko'ra) tekshirilmaydi va hisobga olinmaydi.

Tekshirish va hisobga olishga korxonada va uning tashqarisida ish vaqtida yuz bergan quyidagi baxtsiz hodisalar kiradi:

- jarohatlanish;
- zaharlanish;
- kuyish;
- cho'kish;
- elektr toki va yashin urishi;
- o'ta issiq yoki o'ta sovuq harorat ta'siri;
- portlash, falokat, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalarning buzilishi natijasida hamda sudralib yuruvchilar, hayvonlar va hasharotlar tomonidan jarohatlanishlar;

- tabiiy ofatlar (yer qimirlashi, o'pirilishlar, suv toshqini, to'fon va boshqalar) natijasida salomatlikning boshqa xil zararlanishlari;
- kasb kasalliklari (sog'liqni saqlash vazirligi o'rnatgan va tasdiqlagan ko'rsatmalar bilan tekshiriladi);
- agar mehnat qobiliyatini 1 ish kunidan kam bo'lmagan holda yo'qotilsa H-1 shakldagi dalolatnoma 4 nusxada to'ldiriladi va bu dalolatnomaning bir nusxasi tekshiruv materallari bilan birgalikda 45-yil arxivda saqlanadi);
- ish bilan ta'minlovchi topshiriq bermagan bo'lsa ham, lekin korxona manfaatlarini ko'zlab qandaydir ishni amalga oshirayotganda;
- avtomobil, temir yo'l, havo yo'llari, dengiz va daryo transportida, elektr transportida yo'l harakati hodisasi natijasida;
- korxona transportida yoki, shartnomaga muvofiq o'zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotganda;
- ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlarda ishlatish huquqi berilganlik haqida ish beruvchi farmoyishi bor bo'lganda;
- shanbalik (yakshanbalik) o'tkazilayotganida, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, korxonalarga otaliq yordami ko'rsatilayotganda;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobilyati tibbiy xulosaga muvofiq kamida bir kunga yo'qotilsa.

Ish bilan ta'minlovchi jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga davlat tilida yoki boshqa maqbul tilda rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisa to'g'risidagi H-1 shakldagi dalolatnomaning bir nusxasini taqdim etadi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organi 10 kun muddat ichida baxtsiz hodisaning kelib chiqishi sabablarini o'rganib chiqadi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va meyorlari, mehnat xavfsizligi andozalari buzilishini aniqlaydi, zarur deb hisoblasa, ish beruvchidan H-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki qayta tuzishni talab qiladi. Ish beruvchi bu talablarni bajarmasa, korxona kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa vakillik organi, shuningdek jabrlanuvchi yoki

boshqa manfaatdor shaxs davlat mehnat texnika nazoratchisiga murojaat qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'lgan quyidagi baxtsiz hodisalar bo'yicha maxsus tekshirish olib boriladi:

- bir vaqtning o'zida ikki va undan ko'p xodimlar bilan yuz bergan guruhiy baxtsiz hodisalar;
- o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar;
- oqibati og'ir baxtsiz hodisalar.

Guruhiy o'lim bilan tugagan yoki oqibati og'ir baxtsiz hodisa to'g'risida ish bilan ta'minlovchi darhol keltirilgan sxemaga binoan quyidagilarga:

- Davlat mehnat texnika nazoratchisiga;
- mutasaddi xo'jalik organiga;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga;
- viloyat va shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasiga;
- baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi prokuraturaga;
- baxtsiz hodisaga uchragan xodimni yuborgan tashkilotga;
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga;
- «O'zsanoatkontexnazorat» Davlat qo'mitasining mahalliy organiga va agar baxtsiz hodisa nazorat ostidagi korxonada yuz bergan bo'lsa, viloyat kasaba uyushmalari kengashiga xabar berishi kerak.

Jarohatlanganlarga korxona tomonidan to'lanadigan pulning miqdori jabrlangan odamning o'rtacha oylik ish haqiga bog'liq, uni kasbiy qobiliyatini yo'qotganlik darajasi tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (**TMEK**) va kasaba uyushmasi qoshidagi mehnatni muhofaza qilish komissiyasi xulosasini hisobga olgan holda ma'muriyat tomonidan belgilanadi. Faoliyat bilan bog'liq kasallik tufayli, belgilangan nogironlik nafaqasining miqdori mehnat kodeksining 34-moddasi talablari asosida amalga oshiriladi:

34-modda. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda qoplash

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda zararning o'rnini qoplash bo'yicha tegishli to'lovlarni to'lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasida bo'ladi. Zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi talablar ham unga taqdim etiladi.

Xodimning mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan, qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning mablag'lari mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda tegishli summalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi. Mazkur summalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham davlat tomonidan to'lanadi.

Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda tegishli to'lovlar ularni jabrlanuvchiga to'lash uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kapitallashtirilishi kerak.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki mavjud bo'lmaganligi yoki yetarli bo'lmaganligi sababli to'lovlarni kapitallashtirish mumkin bo'lmagan hollarda tegishli summalar jabrlanuvchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat tomonidan to'lanadi.

Xodim vafot etgan hollarda, ish bilan ta'minlovchi marhumning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga, shuningdek o'n olti yoshga to'lmagan yoki vafot etgan kunga qadar undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandiga, shuningdek ota-onasiga, umr yo'ldoshiga yoki oilaning boshqa a'zosiga, agar u ishlamasdan marhumning uch yoshga yetmagan bolalari yoki nevaralarining parvarishi bilan band bo'lsa, zarami to'lash mehnat kodeksining 194-moddasi talablari asosida amalga oshiriladi:

194-modda. Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori

Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma

tuzilmagan bo'lsa, —ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Bunda xodimning soglig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori jabrlanuvchining-yillik ish haqidan, xodimning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqaning miqdori esa, marhumning olti-yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lishi mumkin emas.

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilishi, ularni mehnat jamoasida muhokama qilinishini ta'minlashi va ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va joriy etilishiga mas'ul va javobgardir.

Barcha sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni, yuzaga kelish joyi, vaqti va sababariga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

- Ishlab chiqarish jarayonida, ish joyida ish vaqtida jarohatlanish;
- Ish vaqtida, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan jarohatlanish;
- Ishlab chiqarish va ish vaqti bilan bog'liq bo'lmagan jarohatlanish.

Birinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ma'muriyat tomonidan buyurilgan ishni bajarishi davomida, ish joyida, sexda, korxona maydonida, yuk ortish va tushirish yoki yuklarni boshqa joyga ko'chirish vaqtida olgan jarohatlar turi kiradi.

Ikkinchi turdagi jarohatlanishga, ishchining korxona transport vositalarida, ishga borib kelishi vaqtida, xizmat safari vaqtida, korxona ma'muriyati topshirig'i bilan boshqa joylardagi ishlarni bajarganda olgan jarohat kiradi.

Uchinchi turdagi jarohatlanishga maishiy holatlarda, spirtli ichimlik ta'sirida bo'lgan paytda, davlat mulkini o'g'irlash vaqtida, uy sharoitida vujudga kelgan jarohatlanishlar kiradi.

Birinchi ikki turdagi baxtsiz hodisa - jarohatlanishga ma'muriyat javobgar hisoblanadi va jarohatlanish vaqtida yo'qotilgan ish kunlari uchun haq to'lanadi. Agar jarohatlanish ishchining mehnatni muhofaza qilish qoida va meyorlariga amal

qilmasligi natijasida kelib chiqqan bo'lsa, unda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa uchun ishchi va ma'muriyat xodimi birga javobgar hisoblanadi. Baxtsiz hodisa uchun moddiy to'lov miqdori ma'muriyat xodimi va ishchining aybdorlik darajasiga qarab belgilanadi.

Kasbiy zaharlanish bir smena davomida yuz bersa, uni o'tkir zaxarlanish va agar uzoq muddat davomida odam tanasida zaharli moddalar yig'ilishi natijasida salomatligini yamonlashuviga olib kelsa, *surunkali zaharlanish deyiladi* va u kelajakda kasbiy kasallikni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Baxtsiz hodisalar bo'yicha tekshirish, hisobga olish ishlarini ish beruvchining buyrug'iga ko'ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida tuzilgan komissiya olib boradi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

Komissiya:

uch kun ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarini buzishga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlab so'roq qilishi, imkoni bo'lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

baxtsiz hodisa sabablarini yo'qotish chora-tadbirlari ko'rsatilgan H-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.

Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko'radi va tekshirish tugab bo'lgandan keyin, tasdiqlangan H-1 shaklidagi dalolatnomani uch sutka davomida jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga, tekshirish materiallari bilan birga korxona mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga, davlat mehnat texnika nazoratchisi va yuqori turuvchi boshqaruv organiga yuboradi.

H-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisalar korxona tomonidan hisobga olinadi va daftarda qayd qilinadi.

Baxtsiz hodisalarni sodir bo'lish holatini oldini olish maqsadida, ularni kelib chiqish sabablari bir necha usullar yordamida tahlil qilinadi va aniqlanadi. Jumladan:

-statistik usul. Bu usul ishlab chiqarish korxonalarida statistik hisobga olingan baxtsiz hodisalar materiallarini chuqur o'rganishga asoslangan. Statistik usulda tahlil, baxtsiz hodisalarni kamaytirish borasida chora-tadbirlar ko'rish uchun amaliy ma'lumot beradi va ishlab chiqarishda jarohatlanishni ta'riflovchi takrorlanish (chastota) koeffitsiyenti, jarohatning og'irlik koeffitsiyenti o'rtacha ko'rsatkichini olish imkoniyatini beradi.

Takrorlanish (chastota) koeffitsiyenti (K_t) 1000 ishchi hisobiga ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarish korxonalariga to'g'ri keladigan baxtsiz hodisalarning o'rtacha miqdorini ko'rsatadi. Uni quyidagi tenglama orqali aniqlash mumkin:

$$K_t = B_h x 1000 / I_s$$

Bunda:

B_h – tekshiruv vaqtidagi baxtsiz hodisalar soni;

I_s - baxtsiz hodisalar sodir bo'lgan vaqtlardagi ishchilarning o'rtacha soni.

Baxtsiz hodisaning og'irlilik koeffitsiyenti (K_o) ni, har bir jarohatlanish tufayli o'rtacha yo'qotilgan ish kunlari miqdorini aniqlash uchun quyidagi tenglamadan foydalanamiz:

$$K_o = K_s / B_h$$

Bunda:

K_s — baxtsiz hodisaga uchraganlar tomonidan yo'qotilgan ish kunlari soni;

B_h — shu davr ichida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar soni.

Yuz bergan baxtsiz hodisalarni tahlil qilish va sabablarini o'rganish maqsadida, baxtsiz hodisalarni turlari bo'yicha guruhlash usulidan foydalangan holda takrorlanishini (chastota) aniqlash mumkin.

-topografik usul. Bu usulda ma'lum ish uchastkalarida baxtsiz hodisalarning takrorlanishi haqida ko'rgazmali ma'lumot olinadi. Statistik usul asosida shikastlanish ishchi va xizmatchilar orasida qanday taqsimlanganligi baholanadi. Baholashda ishchining yoshi,

staji, kasbi, jinsi, mutaxassisligi, ish vaqti, ish turi va boshqa omillar e'tiborga olinadi. Statistik usulda aniqlanishicha asosiy baxtsiz hodisalar kechki smenada, kam malakaga ega bo'lgan xodimlar va yoshi katta bo'lgan xodimlar (50%) bilan sodir bo'lishi aniqlandi.

-monografik usul. Bu usul baxtsiz hodisa yuz bergan ayrim hudud yoki korxona bo'limlarini har tomonlama chuqur o'rganishga asoslangan. Asosiy diqqat-e'tibor texnologik jarayonlarning cheklanishiga, ishlab chiqarishning xavfli lahzalariga va mehnat sharoitining sanitariya-gigiyenik holatini o'rganishga qaratilgan. Korxonada yuz bergan baxtsiz hodisalar, avariyalar, kasb kasalliklarining kelib chiqish sabablari aniqlanadi va to'plangan tahliliy ma'lumotlar kelib chiqishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga tahlil natijalari, qurilayotgan yoki loyihalanayotgan o'xshash korxonalarda aynan xuddi shunday baxtsiz hodisalar kelib chiqmasligi uchun, ogohlantirish va jarayonlarni o'zgartirish, mukammalashtirish chora-tadbirlarini ko'rishda katta ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan usullar yordamida o'tkazilgan tahlil natijasida baxtsiz hodisalarni kelib chiqishining quyidagi sabablari aniqlangan:

-tashkiliy sabablar;
-texnikaviy sabablar;
-sanitariya-gigiyenik sabablar;
-ruhiy-jismoniy sabalar.

Nazorat uchun savollar

1. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitishni tashkil etish tartibini aytib bering.
2. Rahbarning mehnat muhofazasini ta'minlash bo'yicha vazifalari nimadan iborat.
3. Yo'riqnoma nima? Tarif bering.
4. Kirish yo'riqnomasi qachon va kim tomonidan o'tkaziladi?
5. Ish joyidagi yo'riqnoma qachon va kim tomonidan o'tkaziladi?
6. Yo'riqnomalar qanday rasmiylashtiriladi?

7. Mutaxassis va rahbar xodimlar bilimlarini tekshirish qanday amalga oshiriladi?

8. Ishchilarni bilimini tekshirish qay tarzda amalga oshiriladi?

9. Baxtsiz hodisa nima?

10. Jarohat va kasb kasalliklari nima va u qanday aniqlanadi?

11. Baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibini aytib bering.

5-§. ISHLAB CHIQARISHDAGI XAVFLI VA ZARARLI OMILLAR

5.1. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasining umumiy tushunchasi va talablari

Ishlab chiqarish sanitariyasi - ishlab chiqarish korxonalari hududlarining tozalik holatini talab darajasida saqlash va obodonlashtirish, ishlab chiqarish binolari va xonalarini sanitariya-texnik qurilmalari (ventilyatsiya, isitish, yoritish), holatini yaxshilash, xavfli va zararli ish o'rinlarini shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash, zararli mehnat sharoitlarida ishlaydigan ishchi-xodimlarni parhez taomlar bilan ta'minlanishini, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va hamda kasb kasalliklarini oldini olish, shuningdek mehnatni ilmiy tashkil qilish va ishlab chiqarish estetikasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga doir muammolarni o'rganadi, chora-tadbirlar ishlab chiqadi va bajarilishini nazorat qiladi.

Shu bilan birga ishlab chiqarishga jalb etilgan ishchi-xodimlarning shaxsiy gigiyenalari masalalariga, ya'ni ishchi-xodimlarning umumiy ovqtalanish joylaridagi talab va qoidalarga rioya etishi, ovqatlanishni faqatgina belgilangan joylarda amalga oshirilishini, iste'mol suv manbaini xavfsizligi, ish joylaridagi ust-bosh kiyimlarini gigiyena talablariga moslik holatini, ish joylarini doimiy ravishda toza tutilishini hamda boshqa shunga o'xshash masalalrni ham o'z nazoratiga oladi. Shaxsiy gigiyena qoidalarini bajarish va rioya qilish nafaqat shaxsiy masala bo'lib, balki bu jamoaviy ijtimoiy ahamiyatga molik masala ekanligini jamoaga singdiradi.

Mehnat gigiyenasi – gigiyenaning bir bo'limi bo'lib, unda kishining faoliyati davomida ishlab chiqarish jarayonini va muhitining inson organizmiga ta'sirini o'rganadi hamda ishchi –xodimlarning mehnat sharoitlari va mehnat qobiliyatining yuqori xavfsiz va zararsiz darajasini ta'minlash uchun, qulay mehnat sharoitlarini yaratishga hamda atrof-muhit omillari ta'sirini o'rganishga qaratilgan gigiyena

standartlari va chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqadi va amalga joriy etilish ustidan nazorat qiladi.

Har qanday ish joyidagi mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasiga va ish o'rinlarida yaratiladigan sanitariya-gigiyena sharoitlariga bog'liq. Jismoniy mehnat jarayonida, asosan, odam mushaklariga, aqliy mehnatda esa asabiy-ruhiy tomondan zo'r keladi. Texnika rivojlanib, ishlab chiqarish jarayonilari mukammalashgan sari jismoniy mehnat o'rnini aqliy mehnat egallay boshladi va aqliy mehnat jarayonlarini ko'proq o'rganishga ehtiyoj tug'ildi. Ishlab chiqarish jarayonining sanitariya-gigiyena sharoitlari deganda ishlovchi kishining atrofidagi butun vaziyat, jumladan, unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar, chang, shovqin, titrash, ionlashtiruvchi nurlar, shuningdek, havo harorati, namligi, harakatning tezligi, xonalar yoki boshqa ish joyining yoritilishi, mikroorganizmlar ko'p-kamligi va boshqa(lar) tushuniladi. Kishini sog'lig'ini saqlashga tegishli choralar ko'rilmasa, ushbu omillarning har biri yoki bir nechtasi ishchi-xodimning salomatligiga ziyon yetkazib, turli darajadagi jarohatlanishlar, kasallanishlar va kasb kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mehnat gigiyenasi fanining asosiy vazifasi kishilar sog'lig'i uchun xavfli va zararli bo'lgan omillar salbiy ta'sirining oldini olishga qaratilgan.

Ishlab chiqarishdagi zararli omillar – ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni natijasida yuzaga keladigan zararli moddalar va muhit omillari majmuidan iborat bo'lib, ularning ta'siri natijasida ishchi-xodimning ishlash qobiliyatini pasayishga, vaqtinchalik yoki doimiy nogironlikga, kasbiy kassaliklarni kelib chiqishiga, turli yuqumli va boshqa kasalliklar yoki jarohatlanishlarni paydo bo'lishiga sababchi bo'ladigan holat.

Ishlab chiqarishdagi xavfli omillar – kun davomidagi faoliyatini amalga oshirishda, ishlab chiqarish muhiti va jarayonida o'tkir kasallik yoki jarohatlanishni yuzaga keltiruvchi holatga aytiladi. Ba'zi bir turdagi zararli omillar, ta'sir etish vaqti va yuzaga keltiruvchi oqibatlariga ko'ra xavli omillarga ham aylanishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli omillar o'z xususiyatlariga ko'ra fizikaviy, kimyoviy, biologik, fiziologik, ruhiy (psixologik) va psixofiziologik turlarga ega.

Fizikaviy turdagi xavfli va zararli omillar sifatida ish joylaridagi yuqori va past harorat, nisbiy namlik va havo harakat tezligi, elektromagnit nurlanishlar (ultrabinafsha, infraqizil, lazer, mikroto'lqinli, radiochastotali nurlar), statik va elektr magnit maydonlari, ionlashtirilgan nurlanish, ishlab chiqarish shovqini, titrash (mahalliy va umumiy), infra va ultratovushlar, aerozollar, fibrogenik chang, yoritilganlik darajasi, ultrabinafsha nurlanishning yetarli darajada bo'lmasligi yoki yo'qligi, atmosfera bosimining keskin oshishi yoki pasayishi, mashinalar va mexanizmlarning harakatlanishi misol bo'ladi.

Kimyoviy turdagi xavfli va zararli omillarga mavjud barcha turdagi kimyoviy modda va elementlarni gaz, aerozol va chang holatidagi miqdorini ish joylaridagi muhitda ruxsat etilgan miqdordan yuqori bo'lish holatini ko'rsatib o'tish mumkin.

Biologik xusiyatli xavfli va zararli omillar deb, patogenli mikroorganizmlar va ularning metabolik mahsulotlari, oqsil dorilari, makroorganizmlar (o'simliklar, hayvonlar va boshqalar) mavjudligi va yuzaga kelish holati va miqdorini ruxsat etilgan meyordan oshib ketishiga aytiladi.

Ish muhitidagi xavfli va zararli omillar deb, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan jismoniy va ruhiy zo'riqishlar, madaniy va ijtimoiy masalalarni yuzaga kelishi oqibatida hissiyot va aqliy zo'riqishlarning yuzaga kelishi, statik zo'riqish, ish jarayonidagi tana a'zolarini monoton ravishda harakatlari hamda ish joylari muhitini bir xillilik holatiga aytiladi.

5.2. Gigiyenik meyorlar va ularning miqdori

Mehnat sharoitlarining gigienik meyorlari (REK, RED, MD) - 8 soatlik, kunlik (dam olish kunlari bundan mustasno) lekin haftada 40 soatdan oshmagan ish vaqti, uzoq muddatli ish jarayoni davomida, amaldagi tekshirish usullariga asoslangan hozirgi va kelajak avlodlar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan ishlab chiqarishdagi zararli omillari darajasidir.

SanQvaM 0294-11 "Ish joyidagi havo tarkibidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyasiining gigiyenik meyorlari"ga asosan, REK - ko'p moddalar uchun bir marotabalik

bo'lib, yuqori kumulativ moddalar uchun REK ning maksimal miqdori ularning o'rtacha miqdori birgalikda keltiriladi.

Zararli moddalarning kishilar organizmiga ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha:

- 1 - moddalar o'ta xavfli;
- 2 – yuqori xavfli moddalar;
- 3 - o'rtacha xavfli moddalar;
- 4- past xavfli moddalar sinflariga va ta'sir etsh xususiyatiga ko'ra:

O - havodagi tarkibini avtomatik nazorat qilishni talab qiluvchi yuqori ta'sirli xususiyatga ega bo'lgan moddalar;

A - ishlab chiqarish muhitida allergik kasalliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan moddalar;

K - kanserogenlar;

F – aerozollar, asosan fibrogen xususiyatli moddalar turlariga bo'linadi.

Gigiyenik tasnif - ish sharoitlarining gigienik tasnifi deganda, ishlab chiqarish muhiti omillarining xavfliligi, mehnat jarayonidagi jismoniy zo'riqish va tarangligining ko'rastkishlar miqdori bo'lib, ularning REK (ruxsat etilgan konsentratsiya, ПДК), RED (ruxsat etilgan daraja, ПДУ), MD (maqbul daraja, ДУ) miqdorlari, har qaysi faoliyat turi uchun ishlab chiqqan va amaldagi SanQvaM lar asosida blgilanadi.

Ish joylari sharoitining zararlilik darajasi ГОСТ 12.1.005-88 va SanQvaM 0294-11 ga muvofiq, zararli moddalar gigiyenik meyorlarining oshib borish darajasiga qarab belgilanadi. Ish joylaridagi havo tarkibida bir vaqtning o'zida bir nechta zararli moddalar (davlat sanitariya nazorati xulosasiga binoan) mavjud konsentratsiyasining (K_1, K_2, ..., Kn) haqiqiy nisbat miqdori birdan oshmasligi lozim va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\frac{K_1}{REK_1} + \frac{K_2}{REK_2} + \ldots + \frac{Kn}{REKn} \leq 1$$

Agar bir modda ikki va undan ko'p o'ziga xos ta'sir darajasiga ega bo'lsa (kanserogen, mutagen, allergen, qo'zg'atuvchi

xususiyatni beruvchi, fibrogenik ta'sir, keskin yo'naltirilgan ta'sir etish xususyatiga ega bo'lgan moddadir), ish sharoitlarini baholash yanada yuqori darajadagi talablar asosida (zararlilik ta'sir darajasidan bir pog'ona yuqori) amalga oshiriladi.

5.3. Ishlab chiqarishdagi zararli omillar turlari, xususiyatlari va ularning inson organizmiga ta'siri

Chang. Chorvachilikda faoliyatini amalga oshiradigan ishchi-xodimlar doimiy ravishda turli xususiyatga ega bo'lgan zaharli bo'lmagan mineral yoki organik changlar muhitida bo'lib, tomoq, ko'z, nafas olish yo'li va o'pkaning kasallanishiga chalinishlari mumkin. Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida ish joylarida xavfli va zararli bo'lgan omillar miqdori meyor talablari "ГОСТ 12.1.005-88 Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны (с Изменением N 1)" da keltirilgan (5.1-jadval).

Is joyidagi havo tarkibidagi changlar o'zining fizik, kimyoviy va biologik xossalariga qarab, kishilar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli kasalliklarni kelib chiqishi, ishlash qobiliyatining pasayishi va kasb kassaliklarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Boshqa turdagi xavfli va zararli omillarning ish joyidagi ruxsat etilgan miqdori SanQvaM 0294-11 ga keltirilgan. Shu bilan birga, kishilarning ish joylarida o'z faoliyatini samarali amalga oshirishlari uchun, havo tarkibidagi kislorodning miqdori muhim omillardan biri hisoblanadi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumonlarga asosan, tabiiy havo tarkibida kislorodning miqdori 17% gacha kamaysa kishilarni nafas olishi qiyinlashib, tomir urishi tezlashadi, 11-13% ga tushganda gipoksiya holati va 7-8% gacha kamayganda o'lim darajasiga olib keladi. Tabiiy holda havoning tarkibiy qismi 5.2-jadvalda o'z aksini topgan.

Shovqin. Turli chastota (Gs) va kuchga (dB) ega bo'lgan tovushlar jamlanmasi **shovqin** deb yuritiladi. Shovqin darajasi dB-detsibel va tig'izligi (chastotasi)-Gerslarda o'lchanadi. Barcha turdagi mashina va mexanizmlar ishlayotgan joylarda, detallarni o'zaro ta'siri natijasida shovqin yuzaga keladi. Ish joylarida yuzaga keladigan shovqinlar darajasi, tig'izligi va davomiyligiga qarab,

kishilarni sog'lig'iga turlicha ta'sir ko'rsatib, turli kasallanishlar va jarohatlanishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

5.1-jadval

ГОСТ 12.1.005-86 bo'yicha ish joylari havosi tarkibidagi ayrim zararli moddalarning ruxsat etiladigan meyori (REK), mg/m³

Moddalar	REK mg/m³	Xavf daraja-jasi	Mod-da holati	Organizmga ta'sir turi
Ammiak	20,0	4	b	-
Benzin	100,	4	b	-
Chang:	0			
don		3	a	A,f
un va yog'och	4,0	4	a	A,f
paxta	6,0	4	a	A,f
Mineral o'g'itlar				
Superfosfat	5	3	a	-
Sulfoammiakli o'g'itlar	25	4	b-a	-
Fosforantlar	6	4	a	0
Kaliy xlorid	5	3	a	-
Kaliy sulfat	10	3	a	-
Pestitsidlar				
Gensaxlorbutadiyen	0,00	1	b	-
Geterofos	5	1	b-a	-
Karbofos	0,02	2	b-a	-
Metafos	0,5	1	b-a	-
Ftalofos	0,1	2	b-a	-

Eslatma; b-bug' yoki gazlar; a-aerozol; b-a- bug' va aerozollarning aralashmasi; 0-ta'sir qilish mexanizmi o'tkir yo'naltirilgan moddalar. A-ishlab chiqarish sharoitida allergik kasalliklarni keltarib chiqarishi mumkin bo'lgan moddalar; f-fibrogenli ta'sir etadigan aerozollar.

5.2-jadval

Tabiiy havoning tarkibiy qismi

Tabiiy havo tarkibidagi gazlar	Havodagi miqdori, %	Gazlar nomi	Havodagi miqdori, %
Azot	78,09	Vodorod	0,00005
Kislorod	20,55	Ksenon	0,000008
Karbonat angidridi	0,03	Ozon	0,000001
Argon	0,93	Metan	0,0002
Geliy	0,0052	Is gazi	0,0001
Neon	0,0018	Radon	6.10^{-18}
Kripton	0,0001		

Shovqinning turlari, tasnifi va ruxsat etilgan darajasi to‘g‘risidagi ma’lumot va talablar hamda o‘lchash usullari SanQvaM 0325-16 “Ish joylarida shovqinning ruxsat etilgan darajasi” hamda davlatlararo Mehant xavfsizli standartlar tizimi ГОСТ 12.1.003-2014 Система стандартов безопасности труда ССБТ. Шум. Общие требования безопасности va ГОСТ 12.1.050-86 ССБТ. Методы измерения шума на рабочих местах da keltirilgan.

Insonning jismoniy va biologik imkoniyatlari 16 Gs dan 20000 Gs oralig‘ida bo‘lgan tovush va shovqinlarni sezish imkoniyatiga ega. 16 Gs dan kichik va 20000 Gs dan yuqori bo‘lgan chastotadagi tovush va shovqinlarni kishi eshitmaydi va his etmaydi. Bu tovushlar infra va ultra tovushlar deb yuritiladi.

Kundalik faoliyat davomida ko‘p uchrab turadigan 50-60 dB miqdordagi shovqinlar, inson asab tizimiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, asabni zo‘riqishi, stress holatlarni kelib chiqishi, qon bosimining oshishi, yurak kasalliklarini kelib chiqishi va oshqozonni kasallanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bunday turdagi shovqinlar aqliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning mehnat samaradorligini keskin tushib ketishiga sabab bo‘ladi.

Shovqin darajasi 85—90 dB bo‘lgan ish joylarida ishlayotgan har qanday kishining birinchi navbatda yuqori chastotadagi tovushlarni eshitish qobiliyati susayadi. Uzoq vaqt kuchli shovqin

ta'sirida ishlagan odam tez toliqib, befarq, hatto kar bo'lib qolishi, ya'ni kasb kasalligiga uchrashi mumkin. Bundan tashqari, yuqori darajadagi shovqin muhitida uzoq vaqt davomida bo'lgan shaxslarda asabiylashish, toliqish jarayoni tezlashadi, hissiy reaksiyalari susayib, jarayonlardagi mexanizmlar signallarini eshitish, ko'rish yoki nazorat qilish qobiliyati keskin pasayib ketib, natijada turli jarohatlanish va baxtsiz holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

120 dB dan yuqori darajaga ega bo'lgan shovqinlar kishining eshitish a'zolariga jiddiy jarohat yetkazishi mumkin. Ayniqsa, shovqin darajasi 145 dB ga yetganda quloq pardalari jarohatlanib, kishi umrbod nogiron bo'lib qolishi mumkin.

Zararsiz va oddiy shovqinlar darajasi 40 detsibelgacha bo'lib, adabiyotlardagi ma'lumotlarga asosan, belgilangan darajadagi miqdordan yuqori bo'lgan shovqin darajasi va jadallik, kishining umrini 3-12-yilgacha qisqartirishi, yosh organizmning o'sish tezligini 15-57% gacha kamaytirishi mumkin. Sanoat korxonalarini loyihalashtirishdagi sanitariya meyorlari, qurilish qoidalari va meyorlaridagi talablarga binoan, ishlab chiqarish korxonalarining xonalari va ularning hududlarida ruxsat etilgan shovqin meyori ish turiga qarab 50 -80 dB dan ko'p bo'lmasligi belgilab qo'yilgan.

Ish beruvchi ishchilarga shovqin ta'sirini kamaytirishni ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi. Birinchidan, shovqinni kamaytirish bo'yicha tegishli tadbirlarni ishlab chiqish orqali gigiyena standartlariga rioya qilinishini va ishchilarga shovqin ta'sirining xavfini kamaytirishni ta'minlashi maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- xodimning eshitish qobiliyatini yo'qotish xavfini baholash;
- xavfning maqbul darajasini hisobga olgan holda ish joylarini loyihalash;
- past shovqinli mashinalardan foydalanish;
- shovqin va titrash tarqalishiga to'sqinlik qiladigan materiallar va inshootlardan foydalanish;
- shovqin ta'siriga nisbatan sog'lom va muntazam tibbiy ko'rikdan o'tishni talab etmaydigan shaxslarni jalb qilish;
- ishchilarni mashinadan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;

- shovqin ta'siridan himoyalanish uchun qabul qilgan choralarga rioya qilmagan xodimga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazolash turidan xabardor qilish;

- mashina va mexanizmlarni shovqin chiqarish xususiyatlarini muntazam monitoringini o'tkazish;

Agar ishlab chiqarish jarayoni ish joyida shovqinni gigiyenik meyor darajasiga tushirishga yo'l qo'ymasa, shovqinga qarshi shaxsiy himoya vositalarini qo'llash tadbirlarini amalga oshirishi lozim.

Titrash (vibratsiya). Uskuna va mashinalarning ayrim qattiq, mo'rt detallari va asoslarining gorizontal, vertikal yoki aylanma yo'nalishi bo'ylab tebranishiga titrash deb aytiladi. Ishlab chiqarishda ish joylarining **titrash** (vibratsiya)larining miqdori amaldagi SanQvaM № 0326-16 "Ish joylarida titrash", SanQvaM № 0175-04 "Ish joylaridagi ish sharoitining shovqin va titrash xavfsizligini aniqlash va baholash" va davlatlararo mehnat xavsizligi stadartlar tizimi standarti ГОСТ 12.1.012-2004 "Система стандартов безопасности труда. Вибрационная безопасность" asosida hisoblanadi, tekshiriladi va ruxsat etiladi.

Titrash natijasida asab va yurak-tomir tizimi zararlanishi mumkin, kapillyar tomirlarning spazmalanishi sodir bo'ladi, hushdan ketishga va gipertoniyaga moyillik kuzatiladi, qonda o'zgarishlar, umumiy holsizlik yuz beradi. Titrashlar, ayniqsa, ayollar organizmiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Titrashlarning jadalligi ularning amplitudalari va chastotalariga bog'liqdir.

Sanitariya qoidalari va meyorlariga asosan, titrashli ishlarga bog'liq bo'lgan joylarda 18 yoshga to'lmagan yoshlar va homilador ayollarning ishlashiga ruxsat etilmaydi.

Insonni titrashdan himoyalash maqsadida, mashina va uskunarni masofadan turib avtomatik boshqarish, har xil yumshatgichlar (prokladkalar) o'rnatish, prujinalar o'rnatish, harakatlanuvchi mashinalar uchun pnevmatik shinalar, yumshoq o'tirg'ichlar, haydovchilar uchun yumshoq o'rindiqlar va gidravlik amortizatorlar o'rnatish usul va vositalaridan foydalanadilar. Titrashni yana ham kamaytirish maqsadida, titraydigan konstruktsiyalarga va detallarga maxsus mastika qatlami surtiladi. Titrashdan himoyalanish uchun

qatlamli rezinali oyoq kiyimlari, paralonli qo'lqoplardan foydalaniladi.

Titrash turli xildagi vibrometrlar (VR-1, qo'l vibrometri) hamda shovqin va titrashlarni o'lchaydigan (IShV-1) priborlari orqali o'lchanadi.

Titrashlarning jadalligi ularning amplitudalari va chastotalariga bog'liqdir. To'lqin amplitudasi qancha katta bo'lsa, ruxsat etilgan chastota shuncha oz bo'ladi va aksincha, agar ruxsat etilgan chastota katta bo'lsa to'lqin amplitudasi oz bo'ladi.

Titrovchi qurilmalar bilan ishlovchi, bir soat ishlagandan keyin 10-15 daqiqadan tanaffus qilishi, ishlab chiqarish gimnastikasi bilan shug'ullanishi kerak. Meyordan ortiq titrovchi qurilmalar bilan ishlash man etiladi. Titrashli joylarda ishlovchi barcha ishchilar davriy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tib turishi kerak.

Rentgen nurlar. Chorvachilik ishlab chiqarishida, chorva hayvonlari kasalliklarini diagnostika qilish va davolash ishlarini samarali tashkil qilishda ultra tovushlar, rentgen va boshqa nurlanuvchi qurilmalardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, rentgen nurlari yordamida amalga oshiriladigan jarayonlarda nurlanishlarni belgilangan meyordan oshib ketishi, xizmat ko'rsatuvchi xodim sog'lig'i uchun xavfli va zararli muhitni keltirib chiqaradi. Rentgen nurlari - gamma nurlariga juda o'xshash, sun'iy rentgen trubkalari orqali hosil qilinadi, rentgen trubkalari elektr energiya orqali ishlagani uchun bu nurlarni yoqish va o'chirish mumkin. Rentgen apparatlari qo'llanish maqsadiga qarab ikki xil – diagnostik va terapevtik uskunalar ko'rinishida tafovutlanadi. Ularda nur manbai – rentgen trubkasi. Diagnostik va terapevtik rentgen trubkalari tuzilishining prinsipial farqi yo'q.

Rentgen nurlari manbalarida 1 rentgen nur chiqaradigan o'zgarishlarga ekvivalent doza - ber (биологический эквивалент рентгена) deyiladi. SI birliklarida ber - Zivert (Zv) deb aytiladi. 1 Zv = 100 ber. Agar ish joylaridagi nurlanishning-yillik miqdori 170 mBer dan oshib ketsa, bu inson hayoti uchun xavfli hisoblanadi.

Rentgen nurlanishi natijasida qon tarkibi o'zgaradi, asab tizimining ishlash faoliyati buziladi, doimo uyqu bosadi yoki uyqusizlik kuchayadi, ter bosadi, bosh og'riydi, xotira pasayadi, ko'z xiralashadi, teri quriydi, soch to'kila boshlaydi.

Rentgen nurlar salbiy ta'sitridan xodim va atrofdagi kishilar sog'lig'ini himoyasi, amaldagi SanQvaM №0029-94 "Radiatsiya xavfsizligi bo'yicha sanitariya qoidalari va meyorlari", SanQvaM № 0194-06 "Rentgen xonalari, apparatlarini o'rnatish va ishga tushirish hamda rentgen tadqiqotlarini olib borishga oid" gigiyenik talablar asosida meyorlashtirilishi shart.

Ishlab chiqarishda ish beruvchi tomonidan, nurlanish xavfini oldini olish maqsadida 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslarni nurlanish manbalari bilan ishlashga qat'iy ruxsat etilmaslik, ayollar homiladorlikning butun davri uchun tashqi ta'sir bilan bog'liq bo'lgan mehnat faoliyatini va ochiq manbalar bilan ishlashda - bolani ovqatlantirish davridan ozod qilish, yangi xodim ishni boshlashdan oldin, boshlang'ich tibbiy ko'rikdan o'tayotganida, qon tarkibini tekshirish asosidagi tavsiyanoma bo'yicha ishga qabul qilinishi lozim.

Xodim ish joyidagi radiatsiyaviy xavfsizlik va shaxsiy gigiyena bo'yicha bilimlarni o'rganishi va sinovdan o'tilishi, davriy ravishda (yiliga kamida 1 marta) tibbiy ko'rikdan o'tishi shart va ushbu ma'lumotlar maxsus jurnalda qayd etilishi lozim.

Nurlanish uskunalari mavjud ish joylarida quyidagi tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish, nurlanishdan zararlanish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi:

- radiatsiya hududida faoliyat davomiyligi vaqtini qisqartirish;
- jarayonni to'liq avtomatlashtirish;
- jarayonni masofadan turib boshqarish;
- nurlanish yuzaga keladigan manbalarni qaytargich ekranlar bilan jihozlash;
- manipulyatorlar va robotlardan foydalanish;
- shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;
- radiatsiya xavfi borligi to'g'risidagi ogohlantiruvchi belgilar o'rnatish;
- ish joylarini nurlanish darajasini doimiy kuzatib boruvchi umumiy yoki shaxsiy nazorat asboblari bilan jihozlash,

Ultrabinafsha nurlar. Quyosh nuri spektri tarkibiga kiradigan ultrabinafsha nurlarning bakteriotsid ta'siri, gigiyenik jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ultrabinafsha nurlar ta'siri ostida bakteriyalarning rivojlanishi sekinlashib, bu nurlar yetarlicha uzoq

ta'sir ko'rsatishi natijasida ularni nobud bo'lishiga olib keladi. Sun'iy ultrabinafsha nurlanishning bakteriotsid ta'siridan havoni, suvni, sutni va boshqalarni zararsizlantirish uchun foydalaniladi.

Quyosh nurlariining spektrial tahlili natijalariga ko'ra ultrabinafsha nurlar 1% ni tashkil etadi. Shu sababli xonalarga tabiiy ultrabinafsha nurlar tushib turishini ko'paytirish uchun maxsus oynalardan foydalaniladi.

Ultrabinafsha nurlarni yuzaga kelishiga, quyoshdan chiqayotgan nurlar, plazmali payvandlash uskunasi, cho'g'lamli va gaz razryadli yoritgichlar, lazerli hamda elektr gaz payvand qurilmalari manba sifatida xizmat qiladi. Utltrabinafsha nurlardan (tabiiy, sun'iy) issiqxonalarda o'simliklarning o'sishini jadallashtirish maqsadida, veterinariya-sanitariyasi binolari va laboratoriyalarida havoni tozalash (dezinfeksiyalash), chorvachilik komplekslarida chorva mollari va mo'ynali hayvonlardan olinadigan mahsulot sifati va miqdorini oshirish maqsadida keng foydalaniladi.

Ammo, ultrabinafsha nurlarning belgilangan meyordan oshib ketishi natijasida teri ostidagi kuyishlar, ko'zning o'tkir shikastlanishi, terining keksayishi, xatarli o'smalarning rivojlanish ehtimolini oshiradi, havo tarkibidagi kimyoviy moddalar changi va gazi fotosfera reaksiyalarini rivojlanishi bilan organizmning nurga nisbatan sezuvchanligini oshiradi.

Shu sabali ultrabinafsha nurlar bo'lishi talab etiladigan yoki ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari natijasida yuzaga keladigan ish joylarida, inson sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lgan ruxsat etilgan meyorlari SanQvaM №0142-03" Ishlab chiqarish muhitida ultrabinafsha nurlanishning sanitariya qoidalari va meyorlari" hamda davlatlararo standartda - ГОСТ 12.4.308-2016 Система стандартов безопасности труда "Средства индивидуальной защиты глаз. Очки для защиты от лазерного излучения" belgilab qo'yilgan.

Infraqizil nurlar. Infraqizil nurlar asosan qizigan metall materiallardan, elektr yoyi, alanga, qizdirgichlar, cho'lg'amli yoritgichlar va tabiiy holda, quyosh nurlari spektri tarkibidan (59% ni tashkil etadi) ajralib chiqadi. Ushbu turdagi nurlarning salbiy ta'sir etish holati, ularning ta'sir etish miqdori va vaqti belgilangan meyordan oshib ketishi natijasida, og'ir oqibatlarga olib keladi.

Jumladan kishilarni teri to‘qimalariga o‘tib, tana haroratini oshiradi, terining qizarishiga va meyoridan ortiqcha tanadagi suvni bu’g‘lanishga, terining yuza qismini kuyishiga, ko‘z to‘r pardasining shikastlanishiga va ayrim hollarda oftob urishiga olib keladi.

Ammo belgilangan darajadagi infraqizil nurlar inson tanasi uchun xavfsizdir. Infraqizil nurlarni kishi organizmiga foydali ta’sir qilish natijalari:

- moddalar almashuvini tezlashtiradi;
- teri to‘qimasini tiklaydi;
- qarish jarayonini sekinlashtiradi;
- ko‘p miqdorda yog‘ tanadan ajraladi.
- tana harorati ko‘tarilishi natijasida, kapillyarlar kengayadi;
- tana bo‘ylab qon aylanishi yengillashadi;
- organizmni turli omillar ta’siriga barqarorligi, immuniteti oshadi.

Zararli miqdordagi infraqizil nurlar ta’siridan himoyalanishda jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan keng foydalaniladi.

Jamoaviy himoya usullari sifatida: infraqizil nur chiqaruvchi manbalar yuzasini issiqlik himoyalovchilar bilan to‘sish, manbalarni yoki ish joylarini himoya pardalari bilan to‘sish, ish joylarini harakatlanadigan havo qatlami bilan himoyalash yoki kichik dispersli suv pardalari bilan to‘sish, umumiy shamollatish va havoni namlatish uskunasi (konditsioner) bilan namlashni qo‘llash mumkin.

Infarqizil nurlanish ta’siriga qarshi himoya vositalari ish joylarida 0,14 Vt / m^2 dan oshmaydigan issiqlik yo‘lagini hosil qilishi, issiqlik manbai ichidagi haroratda 100°C gacha bo‘lganda yuza qismidagi harorat 35°C dan va 100°C dan yuqori bo‘lganda 45°C dan ko‘p bo‘lmasligini ta’minlashi lozim.

Konstruktsiaysi jihatidan issiqlikdan himoyalovchi materiallar quyuq surtiladigan (mastik) vosita, mustahkam zichlikdagi o‘rovchi ip-gazlamali, mineral tolali, asbestli, (brezent, asbest) materiallardan bo‘lishi mumkin.

Infraqizil nurlardan himoyalanish uchun, shaxsiy himoya vositalari sifatida paxta, zig‘ir mato, qo‘pol matolardan tayyorlangan himoya kiyimlaridan foydalaniladi. Yuqori darajadagi infraqizil nurlanishdan himoyalanish uchun, kiyimlar ustki qismiga

yupqa metall qatlami qoplangan matolardan foydalaniladi. Ekstremal sharoitlarda (yong'in o'chirish, va hokazo) ishlash uchun maxsus yuqori issiqlikdan himoyalovchi xususiyatlarga ega kostyumlardan foydalaniladi.

Ishlab chiqarishda, mexanizm va mashinalardan ajralib chiqadigan infraqizil nurlanishlar xavfsziligini ta'minlash va nazorat qilish SanQvaM №0208-06 "Ishlab chiqarish uskunalari uchun texnologik jarayonlarni va gigiyenik talablarni tashkil etish sanitariya qoidalari" talablari asosida amalga oshiriladi.

Ionlashtiruvchi nurlanish – har qanday nurlarni havo muhiti bilan o'zaro ta'siri natijasida, turli qutbli ion zaryadlarini hosil qilishiga olib keladi. Bu zaryadlarni zaryadlangan yoki zaryadlanmagan zarrachalar oqimi hosil qiladi.

Muhit sharoitga qarab bevosita va bilvosita ionlashtiruvchi nurlanish manbalari mavjud. Ionlashtiruvchi nurlanishning manbalari bo'lib, radioaktiv elementlar va ularning izotoplari, yadro reaktorlari, zaryadlangan zarralar tezlatgichlari, rentgen qurilmalari, yuqori kuchlanishli o'zgarmas tok oqimining manbalari, yer osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlovchi, ulardan foydalanuvchi, ularni saqlovchi va ularni tashuvchi korxonalar va boshqalar xizmat qiladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishlar ishlab chiqarishda detallarning yemirilganligini, payvand chokining sifatini aniqlashda, urug'ga ishlov berishda, biologik tadqiqot ishlarida, tuproqni analiz qilishda, chorvachilik binolarida havoni sun'iy ionlashtirish evaziga chorva mahsuldorligini oshirish va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

Aholi ko'p qismining nurlanishi tabiiy nurlanish manbalaridan yuzaga keladi. Jumladan yer qobig'idan ajralib chiqadigan radon gazlarida, koinotdagi nurlardan va kimyoviy moddalardan radiy, toriy, uran elementlari yadrolarining o'z-o'zidan parchalanishi natijasida hosil bo'ladi.

Har qanday ionlashtiruvchi nurlanish organizmda ichki va tashqi biologik o'zgarishlarga olib keladi. Insonning organizmiga ionlashtiruvchi nurlanishning ta'sir ko'rsatishi oqibatida, hujayralardagi suv molekulalarini yo'q qilishga olib keladi. Ionlashtiruvchi nurlanishni organizmga ta'sir qilish darajasi radiatsiya dozasi darajasiga, davomiyligiga, radiatsiya turiga va tanaga kirgan radionuklidga bog'liq.

Nurlarning organizmga yutilgan dozasi rad va Gr (Grey) (SI sistemasida) larda o'lchanadi. 1 Gr = 100 rad. 1 rad – 1 g to'qimada 100 erg nurlanish yutilishiga teng. To'qimalarda yutilgan doza muhitning kimyoviy tarkibi, zichligi va nurining turiga bog'liq holda havo dozasidan farq qiladi. Butun terining bir marotaba, ya'ni katta qismining 0,25-0,5 g miqdorida nurlanishi qon tarkibining o'zgarishiga, 0,1 g dan ortiq qismi nurlansa butun organizmda jarohatlanishning rivojlanishiga va ish qobiliyatini yo'qolishiga olib keladi. Agar 2-4 g miqdorida nurlansa, davolab bo'lmaydi, 6-10 g dan yuqorisi 100% o'limga olib keladi.

Kishilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli miqdordagi ionlashtiruvchi nurlanishlarning gigiyenik meyorlari SanQvaM № 0134-03 "Ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan o'g'itlar va xomashyo (mahsulot va konsentrat)larda tabiiy radionuklidlarning maksimal ruxsat etilgan kontsentratsiyasi" va xavsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunida belgilab qo'yilgan.

Elektromagnit nurlanish. Qishloq xo'jaligida yuqori quvvatli elektr uzatish tarmoqlari, yuqori quvvatli radiostantsiyalar, transformatorlarga yaqin joylarda ishlaydigan ishchilar, elektromagnit maydonlari ta'sirida bo'ladilar. Elektormagnit maydoni ta'sirida asosan jigarda, qora taloqda va markaziy asab tizimida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bunda bosh og'riydi, uyqu buziladi, arterial bosim oshib, kishi o'ta toliqadi.

Elektromagnit nurlanishdan himoyalanishda, ikki qavatli to'siqlardan foydalaniladi. Birinchi qavat atom massasi kam bo'lgan metaldan (alyuminiy, karbolit, organik oyna) yasaladi va nurlarni yo'nalishida bo'ladi, ikkinchi qavat nisbatan og'irroq (qo'rg'oshin, volfram) metallardan tayyorlanadi.

Elektomagnit maydonlari xavfli ta'sir darajasini yuzaga kelishini oldini olish va nazorati SanQvaM №0165-04 "Ish joylarida sanoat chastotasi (50 Gts) bo'lgan uzluksiz magnit maydonlarining kuchlanishi(induksiaysi)ni ruxsat etilgan qiymatlarining sanitariya meyorlari" talablari asosida amalga oshiriladi.

Elektromagnit nurlanishlardan shaxsiy himoyalanish vositalari sifatida ekranlashtiruvchi kostyumlar, kombinezon, bosh kiyim,

qo'lqop, poyabzal, maxsus tok uzatuvchi yoki metallashtirilgan matolar ishlatiladi.

Ultra yuqori chastotali elektr qurilmalriga xizmat ko'rsatuvchi shaxslar-yiliga bir marotaba va o'ta yuqori chastotali elektr qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi shaxslar olti oyda bir marotaba meditsina ko'rigidan o'tishlari shart.

5.4. Shaxsiy himoya vositalari

Ishlab chiqarishda yuzaga keladigan xavfli va zararli omillardan ishchi-xodim sog'ligini saqlash hamda xavfsiz faoliyatini ta'minlash dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib, 2016-yil 22 sentabrda qabul qilingan "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunning 18-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan:

18-modda. Xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash

Mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, ularni berish normalari, ular bilan ta'minlash tartibi va shartlari jamoa shartnomalari hamda kelishuvlarida belgilanadi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishuvga ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.

Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va zararsizlantirish ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Barcha himoya vositalari ishlatilishiga qarab jamoa himoya vositalari va shaxsiy himoya vositalariga bo'linadi. Ishning xavfsizligini mashinalarning konstruktsiyasi, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish, arxitektura-rejalashtirish yechimlari va jamoa himoya vositalarini qo'llash bilan ta'minlashning iloji bo'lmagan taqdirda shaxsiy himoya vositalari qo'llaniladi.

Himoya vositalari texnik estetika, ergonomika talablariga javob berishi, himoya samaradorligi yuqori, ishlatilishda qulay, texnologik jarayonda bajarilayotgan ish turiga mos bo'lishi kerak. Shu ish uchun mo'ljallangan va qabul qilingan tartibda tasdiqlangan texnik hujjatlari bo'lmagan shaxsiy himoya vositalarini qo'llash taqiqlanadi. Ular vazifasi, ishlash muddati ko'rsatilgan yo'riqnoma hamda saqlash va ishlatish qoidalari bilan ta'minlanadi.

Shaxsiy himoya vositalari (ShHV) vazifalariga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- himoyalovchi kostyumlar (pnevmokostyumlar, namdan himoyalovchi kostyumlar, skafandrlar);
- nafas a'zolarini himoya qilish vositalari (gaz niqoblar, respiratorlar, havo shlemlari, havo niqoblari);
- korjomalar (kombinezon, yarim kombinezon, kurtka, shim, kostyum, xalat, plash, po'stin, fartuk, nimchalar);
- maxsus poyabzal (etik, qo'nji kalta etik, botinka, qo'njli botinka, tufli, kalish, bo'tilar);
- qo'llarni himoya qilish vositalari (qo'lqoplar);
- boshni himoya qilish vositalari (kaska, shlem, shapka, beretka, shlyapalar);
- yuzni himoya qilish vositalari (himoya niqoblari);
- ko'zni himoya qilish vositalari (himoya ko'zoynaklari);
- eshitish a'zolarini himoya qilish vositalari;
- ehtiyot moslamalari (ehtiyot kamarlari, dielektrik gilamchalar, qo'l changaklari, manipulyatorlar, tizza, tirsak va yelkani ehtiyot qilish moslamalari);
- himoyalovchi dermatologik vositalar (yuviladigan pasta, krem, moylar).

Shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash, ularni o'z vaqtida almashtirish va ta'mirlash vazifalari korxona ma'muriyati zimmasiga yuklatiladi.

Ishlab chiqarishdagi zararlarning xarakteriga moslab shaxsiy himoya vositalari uchun material tanlanadi va tikiladi. Maxsus korjoma ishlovchilarni tashqi muhitning salbiy ta'siridan saqlashga mo'ljallangan. Korjoma kiyganda kishi tanasining havo almashish funksiyasi buzilmasligi, ishchi o'zini qulay his qilishi va ish sharoitida xavfsiz bo'lishi zarur, u kishining erkin harakatiga

to‘sqinlik qilmasligi va aylanib turuvchi qismlarga o‘ralib ketishi mumkin bo‘lgan osilib yoki chiqib turuvchi qismlari bo‘lmasligi kerak. Maxsus korjoma pishiq, yengil tozalanadigan va badanni qichitmaydigan matolardan tikiladi.

Quloqlarni shovqin ta’siridan himoyalash uchun quloq tiqini va shlemlardan foydalaniladi. Shuningdek, quloqni shovqindan himoyalovchi vositalar g‘ovakdor yoki quyma rezinadan, plastmassa, qayishqoq plastinkalar, har xil tolali matolardan tayyorlanadi. Quloq qopqoqlari quloqning tashqi qismlariga kiyiladi yoki shlem yordamida mahkamlab qo‘yiladi. Shovqindan himoyalovchi shlemlar faqat sovuqdan emas, balki shikastlanishlardan ham saqlaydi. Shovqinga qarshi plastik qalpoq (kaska)dan boshni mexanik shikastlanish va yuqori chastotali tok ta’siridan himoyalanish uchun foydalaniladi.



5.1-rasm. Ishlab chiqarish jarayonidagi xavfli omillar ta’siridan himoya va xavfsizlik vositalari:

1-3-bosh qismni homoyalash vositalari; 4-7- ko‘zni himoyalash vositalari; 8-10-yuz-ko‘z qismini himoyalash vositalari; 11-14- eshitish a’zolarini himoya vositalari; 15-18-oddiy, vibratsiya, kimyo va issiq harorat uchun qo‘lqoplar; 19-21-maxsus poyabzallar; 22-24-xavfsizlikni ta’minlovchi vositalar.

Changli sharoitda ishlovchi ishchilar paxta ipidan to‘qilgan satin xalatlar, o‘ta changli xonalar, masalan, chang kameralarini, filtr xonalarini, shaxta, chang yerto‘lalarini tozalaydigan ishchilar, chang o‘tkazmaydigan matodan to‘qilgan kombinezonlar bilan ta’minlanadi. Harakatlanib turuvchi mexanizmlar yaqinida turib ishlovchilarga (operatorlar, moylovchilar, ta’mirchi-chilangarlar va sh.k.) paxta ipidan to‘qilgan belbog‘siz ichki cho‘ntakli kombinezonlar beriladi.

Qo‘l teri qatlami qo‘lqoplar, to‘qima qo‘lqop, kaftlik, panjaliklar, shuningdek himoyalovchi «Серригель», «Айро», «ИЕР-1», «ИЕР-2» va boshqa pastalar; «Силиконовые», «Плёночный» kremlar va «ФЕЯ», «СОЖ», «РАЛЛИ» pastalari, ДНС-АК-sovun va boshqa vositalar bilan himoyalanadi.

Hozirgi paytda kislota va ishqorlar ta’siriga chidamli sintetik tolalar (lavsan, nitron) jun tolalari bilan aralashtirilgan holda yoki faqat sintetik tolalardan to‘qilgan matolar keng qo‘llaniladi.

Kislota bilan bevosita ishlovchilarga rezina shimdirilgan ko‘krak fartuklari, qo‘llariga kiyish uchun dag‘al jun qo‘lqop, ishqor bilan ishlovchilarga paxta ipidan yoki brezentdan tikilgan kostyum va ko‘krak fartuklari beriladi. Shuni aytish kerakki, ishqorlar jundan to‘qilgan matolarni yengil parchalaydi, shuning uchun ularni ishqor bilan ishlashga qo‘llab bo‘lmaydi. O‘ta nam xonalarda ishlovchi ishchilarga paxta tolasidan to‘qilgan, namiqmaydigan (suvni o‘ziga tortmaydigan) kostyum va ko‘krak fartuklari, qo‘lga kiyish uchun rezina qo‘lqoplar beriladi. Maxsus poyabzal ishchining oyoqlarini har xil zararli modda va xavflardan saqlashga mo‘ljallangan.

Nafas olish a’zolari himoya vositalari. Havo orqali ta’sir qiluvchi xavfli va zararli ishlab chiqarish omillaridan odam nafas olish a’zolarini himoya qiluvchi moslamalar to‘rt xil bo‘ladi:

- Gazniqoblar;
- Respiratorlar;
- Havo shlemlari;
- Havo niqoblari;

Bular kishini ish joyidagi havoga aralashgan har xil iflosliklardan (bug‘, gaz, aerozol, changlar) va kislorod etishmasligidan samarali himoya qilishi kerak. Ularni tanlashda sexdagi havo muhitining tarkibi hamda holatini, ishlab chiqarish

jarayonini va boshqa mehnat sharoitlarini hisobga olish kerak. Nafas a'zolarining himoya vositalari ishlash prinsipi bo'yicha filtrlovchi va ihotalovchi turlarga bo'linadi:

Filtrlovchi turdagi shaxsiy himoya vositalari sex havosida kislorod miqdori yetarli (18 % dan ko'p) bo'lganda va zararli moddalar miqdori kam bo'lganda qo'llaniladi.

Ixotalovchi himoya vositalari zararli moddalar sex havosida chegaralanmagan va kislorod yetarli miqdorda bo'lmagan hollarda ishlatiladi.

O'z navbatida filtrlovchi himoya vositalari vazifasiga ko'ra, aerozollardan himoyalovchi va universal turlarga bo'linadi. Ixotalovchi himoya vositalari konstruksiyasi bo'yicha - shlangli, nafas olish uchun havoni toza hududdan olib beruvchi va avtonom turlarga bo'linadi.

Filtrlovchi respiratorlar ham gazniqoblar singari sex havosidagi aerozol, bug' va gazlarda kislorod miqdori 18 % dan kam bo'lgan hollarda ishlatiladi. Gazniqoblar uch turli bo'ladi: aerozollar va gazlardan himoyalovchi hamda universal. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida, asosan changlardan himoyalovchi turlari ishlatiladi.

Ishlatish muddati bo'yicha respiratorlar bir marta ishlatishga yaraydigan («Lepestok», «Kama», «U-2K») va ko'p marta ishlatiladigan turlarga bo'linadi.

Filtrning ishga yaroqsiz bo'lib, to'lib qolganligi, nafas olishning qiyinlashganidan bilinadi. Yengil va o'rta og'irlikdagi ishlarda nafas olishga qarshilik 100 Pa dan, og'ir ishlarda esa 70 Pa dan boshlab seziladi. Bunday holat yuzaga kelganda filtrlar almashtiriladi yoki changdan tozalanadi (regeneratsiya qilinadi). Buning uchun filtrga o'tirib qolgan changni silkitib qoqib tashlanadi, yaxshi tozalanmasa, qarama-qarshi tomondan siqilgan toza havo yo'naltirib tozalanadi, bunda ham yaxshi samara bermasa, uni yangisiga almashtiriladi.

Filtrlovchi respiratorlar vazifasiga ko'ra changga qarshi, gazga qarshi va universal xillarga bo'linadi. Respiratorlar yarim yuzniqob va filtrdan tuzilgan. Ular bir necha rusumlarda ishlab chiqariladi. Og'ir ishni bajarishda va chang miqdori ko'p bo'lganda changga qarshi F-62Sh, og'ir va o'rtacha og'irlikdagi ishlarda hamda chang miqdori ko'p bo'lganda U-2K, chang miqdori kam bo'lganda esa «Lepestok» respiratorlaridan foydalaniladi.



5.2-rasm. Nafas olish a'zolarini himoyalovchi respirator turlari

«Lepestok» va «Kama» turdagi respiratorlar, yuqori dispersli, kichik va o'rta zaharli moddalar miqdori 200 MRK (meyoriy ruxsat etilgan kontsentratsiyasi) gacha bo'lgan zaharli ximikatlardan saqlanish uchun ishlatiladi. U-2K niqobini havodagi chang kontsentratsiyasi 200 mg\m^3 gacha bo'lgan yengil ish sharoitida qo'llash mumkin va havoda metafos va fosfomid bilan ishlaganda qo'llab bo'lmaydi.

«Astra», «RPG» va RU respiratorlari kichik va o'rta toksik zaharli kimyoviy moddalardan, sement, ohak, paxta changidan va havoda uchraydigan yuqori dispersli changlardan himoya qiladi va 15 MRK gacha va havo tarkibidagi kislorod miqdori 18% dan kam bo'lganda ishlashga moslashtirilgan va A, V, G, va KD rusumli patronlar bilan ta'minlanadi.

Nafas olish a'zolarini atrof-muhitdan butunlay ajratib qo'yish vositalariga shlangli gazniqoblar, kislorodli va havoli nafas olish apparatlari kiradi.

Nafas olish a'zolarini himoyalash vositalaridan ish minta-qasidagi havoda zararli moddalar miqdori yo'l qo'ysa bo'ladigan kontsentratsiyadan ko'p bo'lgan hollarda foydalanish kerak. Nafas olish a'zolarini himoyalash uchun filtrlovchi yoki ixotalovchi (germetiklangan) vositalardan foydalaniladi.

Filtrlovchi vositalar sanoat filtrlovchi gazniqoblari va filtrlovchi respiratorlarga bo'linadi. Sanoat gazniqoblari nafas olish a'zolarini, shuningdek, ko'zlar va yuz terisini gaz, bug'lar va changdan himoyalaydi.



5.3-rasm. Nafas olish a'zolari va yuz qismini himoyalovchi gazniqoblar turlari:
1-ППФ – 95 filtrli gazniqob; 2-PFSI-98 filtrli sanoat gazniqobi; 3-КИП-8 kislorodli himoyalovchi asbob; 4-КЗУ himoyalovchi universal patron; 5-ПФМ-1 gazniqobi; 6-ГП-5 fuqaro gazniqobi; 7-PSh rusumli (20 m gacha) shlangli gazniqob; 8- ГДЗК rusumli gaz-tutundan himoyalovchi asbob.

Kuchli ta'sir etuvchi kimyoviy moddalar bilan ishlaganda sharoitga qarab-filtrlovchi, kislorodli-himoyalovchi yoki shlangli gazniqoblardan keng foydalaniladi. Filtrlovchi sanoat gazniqoblaridan, ish joyi havosi tarkibida zaharli moddalar miqdori 16% dan oshganda foydalaniladi. Shlangli gazniqoblardan esa, kislorod miqdori tanqis bo'lgan joylarda, atmosfera havosida yuqori kontsentratsiyaga ega bo'lgan zaharli kimyoviy moddalar bo'lganda, ma'lum chuqurlikda toza havo yoki bosim oshgan holatlarda tozalangan havo yetkazib berish uchun va havo uzatiladigan shlangalar uzunligi 10 metrgacha bo'lganda maxsus havoni so'rib oluvchi va 10 metrdan oshsa havo majburiy

haydaladigan xillari mavjuddir. Hozirda bu gazniqoblarning PSh-1, PSh-2 rusumlari mavjud.

Shaxsiy himoya vositalari foydalanish muddati va turiga qarab, har bir foydalanishdan keyin tekshiriladi va hisobdan chiqariladigani yo'q (utilizatsiya) qilinadi, foydalanishga yaroqlilari belgilangan tartib asosida zararsizlantiriladi va saqlash uchun topshiriladi.

Rezina korjomalar, oyoq kiyim, qo'lqop, fartuklar 3-5% li kalsiyli soda aralashmasi yoki xlorli ohak bo'tqasi bilan ishqalanadi va suvda yuvib tashlanadi.

Gazniqob va respiratorlarning old tomonini dezinfeksiya qilishda, paxta tamponi spirtga botirib artiladi. Zararsizlantirish bo'yicha ishlar har bir ShHV foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi talablari asosida bajariladi.

ShHVni tozalash va yechish ma'lum tartibda olib borilishi kerak. Rezina qo'lqop qo'ldan yechilmasdan oldin 3-5% li soda aralashmasida yuviladi va suvda chayiladi, so'ng etiklar yechiladi, kombinezon (yoki himoyalanish kostyumi), himoya ko'zoynagi, respirator (gazniqob), boshqatdan rezina qo'lqop zararsizlantiruvchi eritma va suvda yuviladi, so'ng ular yechiladi. Maxsus kiyimlar changdan tozalanadi, ochiq havoda 8-12 soat quritiladi va shamollatiladi. Barcha ShHV lari har bir jarayondan keyin zararsizlantirilishi shart.

Nazorat uchun savollar.

1. Sanitariya nimani o'rganadi?
2. Ishlab chiqarishdagi gigiyenik meyorlar va ularning miqdori kim tomonidan belgilanadi?
3. Ishlab chiqarish gigiyenasiga ta'rif bering.
4. Xafli omillar nima?
5. Zararli omillar nima?
6. Gigiyenik meyor nima?
7. Gigiyenik meyorlar ruxsat etilgan ko'rsatkichlar birligi nima?
8. Zararli omillar turlarini aytib bering.
9. Xavfli omillarni qaysi turlarini bilasiz?

10. Chang omili kishi sog'lig'iga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

11. Changdan himoyalanish qanday amalga oshiriladi?

12. Shovqin nima va uning zararli oqibati nimadan iborat?

13. Titrash nima va uning yuzaga kelish sabablari nimadan iborat?

14. Nurlanish turlarini aytib bering.

15. Rentgen nurlanish ta'sirida qanday oqibatlar kelib chiqishi mumkin?

16. Shaxsiy himoya vositalari nima va qachon ishlatiladi?

17. Vazifasiga ko'ra qaysi turdagi shaxsiy himoya vositalarini bilasiz.

18. Nafas olish a'zolari himoya vositalari turlarini aytib bering.

19. Shaxsiy himoya vositalarini zararsizlantirish tartibini aytib bering.

6-§. ISHLAB CHIQARISH BINOLARIGA XAVFSIZLIK BO‘YICHA QO‘YILADIGAN TALABLAR

6.1. Chorvachilik binolari uchun xavfsizlikning umumiy talablari

Chorvachilik binolarini, veterinariya inshootlarini, yem-xashak omborlarini, yem tayyorlaydigan bo‘linmalarni va boshqa ishlab chiqarish inshootlarini botqoqlik joylarda, yer osti suvlari yaqin joylashgan hududlarda, oldin mol go‘ngi saqlangan joylarda, shuningdek quyonchilik va parrandachilik xo‘jaliklari bo‘lgan joylarda qurish maqsadga muvofiq emas. Chorvachilik va boshqa turdagi hayvonlarni parvarishlaydigan har qanday hududning maydoni quyidagicha bo‘lmog‘i kerak:

- maydon tekis bo‘lishi va suvlar oqib ketishi uchun nishabligi 3° dan ko‘p bo‘lmasligi;
- tabiiy suv manbalari, mavjud yo‘llar va elektr ta’minot tarmoqlariga yaqin joylashgan, ammo botqoq hudud yoki jarliklar bilan chegaradosh bo‘lmasligi lozim;
-sanitariya-himoyalanish doira chegarasiga yaqin va aholi yashaydigan joy relyefidan pastroq joyda hamda shamol esadigan tomonda bo‘lmog‘i;
- yer osti suvlari yerto‘la, xandak va kuzatish chuqurliklaridan pastroq bo‘lmog‘i lozim.

Bino va inshootlarni loyihalashda ularning o‘zaro zichligi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chorvachilik va ishlab chiqarish obyektlarining bino va inshootlari maqsad hamda turiga qarab, sanitariya-himoyalanish doirasi 25 m dan 200 m chegarasida belgilanadi.

Chorvachilik va parrandachilik komplekslarining barcha hududlari devor bilan to‘siladi va ular uch asosiy hududga, ya’ni, A, B va V hududlariga bo‘linadi:

A-hudud ishlab chiqarish hududidir, unga veterinariya-sanitariya kompleksi ham kiradi;

B- hudud ma'muriy xo'jalik hududidir;

V- hudud esa oziqa saqlash omborlari, dag'al xashak, silos, ildizmevalilar saqlanadigan joydir.

Go'nglarni saqlash uchun fermalardan kamida 50 m uzoqlikda maxsus go'ngxonalar va kamida 300 m uzoqlikda maxsus tozalash inshooti bo'lishi shart.

Veterinariya-sanitariya kompleksi A hududga kiradi. U yerga kasal va yuqumli kasallik bilan kasallangan mollar joylashtiriladi, ya'ni bu karantin sektoridir. Bu sektor berk devorlar bilan mahkamlanadi va eshigi oldida dezinfeksiyalovchi barer o'rnatiladi. Qoramol va naslchilik komplekslari hamda cho'chqachilik fermalaridan 500 m uzoqroqqa karantin binosi quriladi.

Chorvachilik binolari qurilishida o'tga chidamli, issiqlikni o'tkazmaydigan, suv singdirmaydigan, havo va bug' o'tkazmaydigan materiallardan foydalaniladi. Poydevorlar esa namga chidamli va past temperaturalarda muzlamaydigan mustahkam va uzoq muddatlarda ishlaydigan materiallardan tayyorlanadi.

Binoning atrofiga yomg'ir yoki qor suvlarining poydevorga tegmasdan tushib ketishi uchun poydevor tomonga balandlik hosil qilib qalin sementdan yoki asfaltdan 70 sm li yo'lak qilinadi.

Chorvachilik obyektlari hududlarining obodonchiligi sanitariya meyorlari va qoidalari (ШНК 2.09.04-09) talablariga asosan ko'kalamzorlashtirilishi shart. Ko'kalamzorlashtirish maydoni, qurilish maydoni hududning 15-20% dan kam bo'lmagan holda tashkil etilishi kerak. Hududda xizmatchilar uchun dam olish doirasi (bir kishi uchun 1 m^2 hisobida) ajratilgan bo'lishi kerak.

Chorvachilik majmuasi kanalizatsiyasi (chiqindi suvlar oqiziladigan quvurlar) chiqindi suvlar va boshqa ishlab chiqarish zararli chiqindilarini oqizib turish va zarurat tug'ilganda tozalab turish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

Barcha bino va inshootlari yong'in xavfsizligi qoidalari ШНК 2.01.02-04 talablariga mos kelishi va ularda o't o'chirish mashinalari uchun kirish joylari bo'lishi lozim.

6.2. Ishlab chiqarish binolarida mikroiqlim omillari va ularning gigiyenik meyorlari

Ma'lum og'irlikdagi jismoniy mehnat bilan band bo'lgan kishi o'zini yaxshi his qilishi, ya'ni u qizib ketmasligi uchun mikroiqlim sharoitlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Ish joylaridagi mikroiqlim omillarini harorat, nisbiy namlik, havoning tezligi hamda atmosfera bosimi tashkil etadi. Bu sharoitlarni yaratish "Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimini sanitar-gigiyenik normativlari" bilan belgilanadi (6.1-jadval).

Ish joylaridagi namlikning eng maqbul qiymati 40-60 % deb qabul qilingan, lekin turli ishlab chiqarish sharoitlardan kelib chiqqan holda, ya'ni ba'zi bir texnologik jarayonlar talablari nisbiy namlikning o'zgarishiga olib keladi.

Ish joylarida havoning harakati ish sharoitini yaxshilashning muhim omillaridan hisoblanadi. Issiqlik yuqori bo'lgan joylarda havoning harakati organizmdan chiqadigan issiqlikni atrof-muhitga berilishini yaxshilaydi va aksincha, sovuq ish joylarida organizmga salbiy ta'sir qiladi.

Muhitning haroratini ma'lum vaqt davomida qayd qilib borish uchun termograflardan va lahzaviy o'lchash uchun termometlardan foydalaniladi.

Havoning odam uchun sezilarli minimal tezligi 0,2 m/s hisoblanadi. Yilning sovuq paytlarida havoning tezligi 0,2-0,5 m/s, issiq joylarda esa 0,2 -1,0 m/s bo'lishi tavsiya etilgan. Issiq joylarda bu ko'rsatkich 3,5 m/s gacha oshirilishi mumkin.

Mikroiqlimni tashkillashtiruvchi elementlar ko'rsatkichlarini nazorati uchun turli o'lchov uskunalardan foydalaniladi. Havoning nisbiy namligini o'lchash uchun Avgust va Asman aspiratsion psixrometrlari (6.2- rasm) va gigrograflardan keng foydalaniladi.

6.1-jadval

Ishlab chiqarish xonalarining ishchi hududidagi havoning harorati, nisbiy namligi va harakat tezligining maqbul va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan normativlari (O'zR SanQvaN № 0324-16)

Yil davr-lari	Ish toifasi	Harorat, °C					Nisbiy namlik, %		Harakatlanish tezligi, m/s	
		maqbul	yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan				maqbul	ish joy-larida yo'l qo'yi-lishi mum-kin bo'l-gan	maq-bul	ish joyla-rida yo'l qo'yili-shi mum-kin bo'lgan
			yuqori chegara		quyi chegara					
			ish joylarida							
			doi-miy	doi-miy emas	doi-miy	doi-miy emas				
Yilning sovuq davri	Yengil – Ia	22-24	25	26	21	18	40-60	75	0,1	ko'p bo'lma-gan 0,1
	Yengil – Ib	21-23	24	25	20	17	40	75	0,1	ko'p bo'l-magan 0,2
	O'rta og'irlik-da – IIa	18-20	23	24	17	15	40	75	0,2	ko'p bo'lma-gan 0,3
	O'rta og'irlikda – IIb	17-19	21	23	15	13	40	75	0,2	ko'p bo'l-magan 0,4
	Og'ir – III	16-18	19	20	13	12	40-60	75	0,3	ko'p bo'lma-gan 0,5

6.1-jadvalning davomi

Yilning iliq davri	Yengil – Ia	25-27	31	32	24	23	40-60	30 (32°C da)	0,1	0,3-0,5
	Yengil – Ib	24-26	31	32	23	22	40-60	35 (31°C da)	0,2	0,3-0,6
	O'rta og'irlik-da – IIa	23-25	30	31	22	21	40-60	40 (30°C da)	0,3	0,3-0,7
	O'rta og'irlik-da – IIb	22-24	29	30	21	20	40-60	45 (29°C da)	0,3	0,4-0,7
	Og'ir – III	21-23	27	29	20	19	40-60	50 (28°C da)	0,4	0,4-0,7

Yilning iliq davrida harakatning katta tezligi havoning maksimal haroratiga, kichigi esa – havoning minimil haroratiga mos keladi. Oraliq kattaliklar uchun havoning harorati, uning harakatlanish tezligi interpolyatsiya usulida aniqlanishi mumkin; havoning harorati minimal bo'lganda uning harakatlanish tezligi 0,1 m/s dan pastroq qilib - yengilroq ishda bo'lsa hamda 0,2 m/s pastroq bo'lganda-o'rtacha og'irlikdagi va og'ir ishda qabul qilinishi mumkin.



6.1-rasm. Havo almashishini o'lchovchi katotermometr (a), kosachali (b) va ASO-3 parrakli (d) anemometrlar.



6.2-rasm. Havoning nisbiy namligini o'lchovchi Avgust (a) va Asman aspiratsion (b) psixrometrlari



6.3-rasm. Havo nisbiy namligini o'lchovchi gigrograf



6.4-rasm. Haroratni o'lchovchi termograf

Ish o'rinlarida havoning almashish harakat tezligini aniqlash anemometrlar yordamida amalga oshiriladi.

6.3. Chorvachilikda kasb kasalliklari profilaktikasi

Chorvadorlarning turli antropozoonoz xususiyatli kasalliklarga chalinishining oldini olish maqsadida tizimli ravishda meditsina ko'rigi o'tkazilib turilishi shart va zarur.

Kasb kasalliklarining oldini olish uchun yuqumli kasallikka uchragan mollar bilan ishlashda karantin qoidalariga va shaxsiy gigiyenaga rioya qilishning ahamiyati katta. Kasallangan mollar bilan ishlash uchun 18 yoshdan oshgan kishilarga ruxsat etiladi. Bunday ishlarda homilador va emizikli bolalari bor ayollarning ishlashi qat'iy man etiladi. Kasal va yuqumli kasal tarqatuvchi chorva mollari

boqilayotgan joylarda ovqatlanish, suv ichish va sigareta chekish man etiladi. Iste'mol uchun suv idishlari va vositalari, gazli suv qurilmalari ishlab chiqarish binosining ichida bo'lmasligi kerak.

Chorvachilik majmuasi hududidagi kasal mollar bor joylarga boshqa sog'lom mollarning kiritilishi man etiladi. Yuqumli kasalli chorva mollari bilan ishlovchi xodimlar-yilning har bir choragida tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Ishdan keyin albatta qo'lni **lizola** yoki **xloraminli** dezinfeksiyalovchi eritma hamda iliq suv va sovun bilan yuvish lozim. Chorvadorlar va chorva mollarini profilaktika qilish maqsadida binolarni tez-tez dezinfeksiya qilish kerak. Xuddi shuningdek chorvachilik uchun foydalaniladigan barcha vosita va buyumlarni ham dezinfeksiyalash lozim. Kasallangan chorva mollarini izolyatsiya qilish yoki ularni fermadan tashqariga chiqarish kerak. Kasallangan mollar sutini iste'mol uchun chiqarish, agar brutsellyoz kasalligi ehtimoli bo'lsa, ularni sog'ish qat'iyan man etiladi. Binoning ichkarisiga kirishda, hamda bino ichidagi bo'linmalarda dezinfeksiyalovchi barerlar o'rnatilishi shart.

Turli yuqumli kasalliklar o'chog'lari yuzaga kelgan inshootlar va chorvachilik korxonalarida SanQvaM №0280-09 "Epidemik markazlarda oxirgi va joriy dezinfeksiyani tashkillashtirish va o'tkazish uchun sanitariya qoidalari" va SanQvaM №0291-11 "Dezinfeksiya - profilaktik dezinfeksiya faoliyati bilan shug'ullanadigan muassasalar, tashkilotlar, korxonalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun gigiyena talablarii" asosida zararsizlantirish ishlari amalga oshirilishi shart.

Dezinfeksiya - bino va inshootlarning tashqi va ichki muhitidagi mikroorganizm tarqatuvchilarini yo'qotishdir. Chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida dezinfeksiya xonalariga hayvonlar (parrandalar) uchun xonalar, hayvonlarga xizmat ko'rsatuvchi buyum va boshqa uskunalar, korjoma, shuningdek xonalarga yondoshgan yaylov maydonlari, go'ng va go'ng sharbati saqlanadigan o'ralar kiradi.

Dezinfeksiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- Xonaning hamma qismlarini mexanik tozalash;
- Zararsizlantiruvchi vositalar yordamida dezinfeksiyalash.

Profilaktika ishlarini bajarishda joriy yoki yakunlovchi dezinfeksiya aralashmalari tayyorlanadi. Ishlov beriladigan (devor,

shiplar, pol va boshq.) namunaviy chorvachilik xonalari uchun 1 m^2 ga 1 *l* hisobida aralashma sepiladi. Eritmani ushlash muddati 3 soatdan kam bo'lmasligi zarur. Hamma xo'jaliklarda profilaktik dezinfeksiyani-yil mobaynida kamida ikki-uch marta o'tkazilishi shart. Fermadagi hayvonlarni bahorda, yaylovda boqishga va kuzda, ya'ni fermalarga bog'lab boqishga o'tkazilganda har safar xona to'liq hayvondan va parrandalardan bo'shatilib dezinfeksiyalanadi. Dezinfeksiyalashda kimyoviy moddalardan ***10% li kaustik soda va 5% li xlorli ohak*** aralashmalari ishlatiladi. Kaustik soda kasallik tarqatuvchi mikroblarni (oqsil, chuma viruslari), xlorli ohak esa ko'payuvchi mikroblarni (kuydirgi) qirishda juda yaxshi samara beradi.

Dezinvatsiya - gijjalarni hosil qiluvchi lichinka va tuxumlarni tashqi muhitdan qirib tashlashdir. Chorvachilikda dezinvatsiyani dezinfektsiya bilan birgalikda o'tkaziladi. Hayvonlarni ***degelmintlashdan*** keyin joriy dezinvatsiya qilinadi va navbatdagi degelmintlash yana qaytariladi, shuningdek hamma hayvonlar sog'aygandan yoki xonalardan chiqarilgandan so'ng xonalarni yakuniy dezinvatsiya qilinadi.

Dezinvatsiyadan so'ng xonalarning havosi almashtiriladi, oqlanadi, oxur va sug'orgichlar suv bilan yuviladi, hayvon va parrandalar uchun ishlatiladigan buyumlar va asbob uskunalar dezinfeksiyalanadi.

Dezinseksiya - bu chorvachilik (parrandachilik) fermalari va komplekslarida hayvonlarning zararli ektoparazitlarini (bo'g'im oyoqli qurt-qumursqa va kana) qirishdir. Ularga qarshi kurashning asosi veterinar-sanitariya chora-tadbirlaridir. Bahorda profilaktika va doimiy, takroriy dezinseksiya xonalarda, xo'jalikdagi chorva mollari boqiladigan hududlarida o'tkaziladi, hayvonlarga ishlov berish yoki zararli ektoparazitlarni qirib tashlash hayvon va parrandalarni himoyalashdan iborat. Xo'jalikka ektoparazitlarni kirib kelishidan himoya qilishning eng yaxshi usulidan biri bu ektoparazitlar bilan zararlangan hayvonlarni tashqaridan kiritmaslikdir. Qurt-qumursqa va kanalarga qarshi kurashishda ***mexanik*** (kana va pashshalarni tutish), ***fizikaviy*** (harorat), ***kimyoviy*** (dezinseksiyalovchi insektitsidlar) va ***biologik*** (mikrob va parrandalar) usullardan foydalaniladi.

Xonalarni dezinseksiyalashda ko'pincha ***0,5-10% li xlorofos*** aralashmasi (100-150 ml/m^2 hisobida) ishlatiladi. Qurt-qumursqa

lichinka va tuxumlarini qirish maqsadida go'ng saqlanadigan joylarga shu aralashma sepib chiqiladi.

Deratizatsiya - kemiruvchi (sichqon, kalamush) va har xil zararli kasalliklarni tarqatuvchilarni qirib tashlashdir. Zararli kemiruvchilar bilan kurashishning profilaktik chora-tadbirlari shundan iboratki, ya'ni ularga shunday sharoit yaratish kerakki, ular yemlarga, yashash joylariga va ko'payadigan uyalariga yetib borishdan mahrum bo'lsin. Chorvachilik fermalari va hudud, komplekslarda kemiruvchilarga qarshi kurashishdagi chora-tadbirlarining asosi - tozalik va sanitariya talablariga o'z vaqtida rioya qilishdir.

Kemiruvchilarni qirish har xil usullar bilan olib boriladi: mexanik (qopqonlar, tuzoqlar), kimyoviy (dengiz piyozi, margumush, kalamush o'ldiradigan zahar), biologik (itlar, mushuklar) va bakteriologik (kemiruvchilarni qiradigan bakteriyalar chiqaruvchi ekinlar). Kemiruvchilarga qarshi kurashishda hozirgi kunda qo'llaniladigan kuchli ta'sir qiluvchi ikkita preparat tavsiya etiladi: ***fentolasin*** va ***penolasin***. Ular kemiruvchilar organizmida qon quyulishini buzilishiga olib keladi, natijada qon ketishi kuchayadi va kemiruvchilar halok bo'ladi.

6.3. Ishlab chiqarish binolarini yoritish, isitish va havosini almashtirish

Kishining tashqi muhit haqida axborot olib turishi, mehnat qilish qobiliyatini va salomatligini saqlab turishi uchun yorug'lik asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ish joyining yaxshi yoritilmaganligi ishlab chiqarishdagi jarohatlanishga sabab bo'lishi mumkin, asab tizimiga salbiy ta'sir etadi, ko'zni charchatadi. Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining yoritilganligi ko'z toliqishini kamaytiradi, nafas olishni yaxshilaydi, jarohat sabablarini yo'qotadi. Yoritilish manbalariga qarab tabiiy, sun'iy va aralash yoritilish bo'ladi. Ko'pgina binolarda aralash yoritilish tizimi qo'llaniladi. Yorug'lik kuchi kandel(kd)da o'lchanadi. Har qaysi nuqta yuzasining yoritilganligi (Ye) lyukslarda aniqlanadi va lyuksmetrlar orqali hisoblanadi.

Yoritilish manbalariga qarab tabiiy, sun'iy va aralash yoritilish bo'ladi. Sun'iy yoritiladigan ishlab chiqarish xonalarini, sanitariya meyorlariga asosan yoritish talab qilinadi. Xonalarning tabiiy

yoritilganligi yorug‘lik koeffitsiyentidan tashqari tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti (E) bilan ham baholanadi.

6.2-jadval

Turli ish joylarini yoritish darajalari

Ish joyi yoki turi	Illuminatsiya (lx)
Omborxonalar	150
Asosiy hududlar va tashqari hovli	300
Ofis va bino ichi	500
Chizmachilik xonasi, mayda ishlar	700
Tasviriy ishchi (kulolchilik va to‘qimachilik)	1000
Juda nozik ish (ko‘rish ta’mirlash yoki o‘ymakorlik)	1400

Deraza oynalarining holati, yorug‘likning o‘tishiga ta’sir ko‘rsatadi. Binoning ichkarisidagi devorlarning bo‘yalganligi va qurilmalarning ranglari yoritilganlikka ta’sir qiladi. Masalan, oq rangga bo‘yalgan devordan 80% gacha yorug‘lik qaytadi, ko‘k rangli devordan esa faqat 11% yorug‘lik qaytadi. Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy yoritilganligini loyihalash, tabiiy yoritilganlik va yorug‘lik koeffitsiyentlari yordamida olib boriladi.

Sun’iy yoritish uchun cho‘lg‘amli va lyuminessentli (6.5-rasm a,b,d,e,f, g) yoritgichlardan foydalaniladi. Turli xildagi ishlab chiqarish sharoitlari va binolar uchun maxsus elektr yoritgichlar va armaturalar qo‘llaniladi. Portlash xavfi bo‘lgan va gazlari mavjud bo‘lgan xonalar uchun maxsus xavfsizlantirilgan yoritgichlar qo‘llaniladi. Bunday yoritgichlarning usti berkitilgan bo‘ladi. Sun’iy yoritgichlar o‘z vazifasiga ko‘ra ish, halokat va maxsus yoritgichlarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish bo‘linmasiga va ishlarning turiga qarab, asosiy, umumiy hamda aralash yoritgichlar qo‘llaniladi.

Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyentini aniqlash (TYoK) xona ichidagi nuqtaning E_i xuddi shu gorizontal tekislikda joylashgan butun osmonning tarqoq nuri bilan yoritilgan E_m tashqaridagi nuqtaning shu paytdagi yoritilganligiga nisbatan foiz hisobida olingan yoritilganlikdir.

Bir tomonlama yoritilganda xonaninig eng uzoq nuqtasi uchun TYoK ning minimal qiymati meyorlanadi. Turar joy va jamoat binolarida polning yoki poldan 0,8 m balandlikdagi gorizontal

yuzaning yoritilishi aniqlanadi. Shu bilan bir vaqtda havo ochiq bo'lganda tarqoq yorug'lik bilan yoritilishi o'lchanadi.

$$e = \frac{E_u}{E_m} \cdot 100\%$$

Natijalari esa yuqorida keltirib o'tilgan formula bo'yicha hisoblab chiqariladi. Yuqoridan va aralash yoritiladigan binolarda TYoQ ning o'rtacha qiymati meyorlanadi. Buning uchun tekshirilayotgan xonada bir-biridan teng uzoqlikda joylashgan beshta nuqtaning yorug'ligi aniqlanadi. Shu bilan bir vaqtda havo ochiq bo'lganda tarqoq yorug'lik bilan yoritilish o'lchanadi. Keyin har bir nuqta uchun TYoK hisoblab chiqariladi. TYoK ning o'rtacha qiymati ($E_{o'rta}$) quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$E_{o'rta} = \frac{\frac{E_1}{2} + E_2 + E_3 + \ldots . E_n}{n-1},$$

bunda:

$E_1, E_2, E_3 . E_n$ - har xil nuqtalardagi TYoK qiymati;

n - TYoK ning hisoblab topilgan qiymati.

Yoritilganlik asosan yorug'lik koeffitsiyenti (A) orqali xarakterlanadi, bu koeffitsiyent, derazaning andozasiga qarab xonaning ichiga yorug'likning kirishini xarakterlaydi.

Maxsus yorug'lik turiga ya'ni odamlarni profilaktik va terapevtik ta'sir qilish uchun nurlantirish maqsadida ishlatiladigan yorug'lik ***eritem*** nurlanishi deyilib, ishchilarni maxsus xona - fotariylarda yoki labirint koridorlaridan o'tkazilib ultrabinafsha nurlar bilan nurlantiriladi.

Nurlanishning yana bir turi bo'lgan ***bakteritsid (ultrabinafsha)*** yoritgichlari faqat havo, suv, narsalar (idish-tovoqlar, o'yinchoqlar), oziq-ovqat, dorilar kabi atrof-muhit obyektlarini dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi. Odamlarni evakuatsiya qilish yo'laklarida, 50 dan ortiq ishchi-xizmatchilar ishlaydigan ishlab chiqarish xonalariga o'rnatiladi. Bunda yoritilganlik darajasi 0,5 Lk bo'lishi yetarlidir.

Ma'lumki, ko'zga nur to'g'ridan-to'g'ri tushganda ko'z qamashib, ravshanlik katta bo'lganda ma'lum vaqtgacha ko'z oldi qorong'ilashib, obyektlar yomon ko'rinadi yoki ko'rinmay qolishi mumkin. Ana shu holatlarini oldini olish uchun yoritgichlarda qan-

dillardan foydalaniladi. Qandillarning afzalligi shundaki, ishlovchilarning ko‘ziga lampalardan chiqayotgan nurlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishidan saqlaydi.



6.5-rasm. Yoritgichlar tuzilishi va turlari:
a- cho‘lg‘amli; b, d- lyumineesentli; e-svetdiodli; f, g-galogenli.

Yorug‘lik manbalarining ko‘zni qamashtirish xususiyatini kamaytirishi, qandillarning himoya burchagiga bog‘liq. Konstruksiyasi bo‘yicha qandillar ochiq, himoyalangan, yopiq, chang o‘tkazmaydigan, namlik o‘tkazmaydigan, portlash xavfidan himoyalangan turlarga bo‘linadi.

Bino va ish joylarining yoritilganlik darajasi, faoliyat turiga qarab QMvaQ 2.04.17-98 talablari asosida belgilangan. Ish joylari va hududlardagi yoritilganlik darajasining nazorati lyuksometrlar yordamida amalga oshiriladi.

Xona va ish o‘rinlarining yorug‘liligini belgilangan vaqtlarda Yu-16 turdagi lyuksometr yordamida aniqlash mumkin.



6.6 -rasm. IO-16 fotoelektrik lyuksometrning tashqi ko'rinishi:
1 – yarim sfera shakldagi biriktirish halqasi; 2,3,4 – turli yoru'g'likni pasaytiruvchi koeffitsiyentga ega bo'lgan membranalar; 5 - fotoelement; 6 millivolmetr.

ГОСТ 12.1.005-86 talablariga asosan ish joylarida meyor darajasidagi sharoitlarni yaratish uchun, isitish jarayonidan keng foydalaniladi. Ish joylarini isitish mahalliy yoki markazlashgan holda bo'lishi mumkin.

Issiqlikni yetkazuvchi vosita sifatida suv, bug', yoki havo ishlatilishi mumkin. Ma'lumki suv va bug' maxsus bug' qozonlari yordamida va muhitni quvurlar yoki radiatorlar orqali isitiladi. Havoni qizdirish esa kaloriferlarda, issiq suv, bug' va elektr toki yordamida amalga oshiriladi. Mehnat muhofazasi talablaridan kelib chiqqan holda, binolarni umumiy foydalaniladigan hududlarida issiqlik darajasi bir meyorda bo'lishi, yong'in va portlash xavfidan holi bo'lishi kerak. Alohida texnologik jarayonlar amalga oshiriladigan ish joylaridagi harorat va boshqa omillar, kasb turi uchun belgilangan gigiyenik meyorlarda bo'lishi lozim. Binolarni isitish, turli usullarda turli isitish vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Havoning nisbiy namligi va tozaligi markazlashgan havo almashtirgichlar (ventilyatsiya) tizimi yordamida amalga oshiriladi va havoning harakatlanish usuliga ko'ra tabiiy va mexanik shamollatishlar bo'ladi. Tabiiy shamollatishda xonaga havo tabiiy kuchlar -

gravitatsion (issiqlik) va shamol bosimi ta'sirida kiradi. Gravitatsion bosim sovuq va issiq havoning solishtirma og'irliklaridagi farq natijasida yuzaga keladi.



6.7-rasm. Bino va ish joylarini isitish tizimi:
a, b -to'la mahalliy isitish; d-tug'ridan-to'g'ri binoni to'la isitish;
e- mahalliy isitish.

Barcha ishlab chiqarish binolarining havosini tozalab turish tabiiy va mexanik shamollatish usullari yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun binoni loyihalanayotganda derazalar va devorlarda derazachalar, ventilyatsiya kanallari, quvurlar, derazalar, eshiklar o'rnatiladi. Ularning hajmi, binoning umumiy hajmiga nisbatan 2% ni tashkil qilishi kerak. Agar tabiiy ventilyatsiyaning samarasi kam bo'lsa binoning ichki havosini tozalash maqsadida mexanik ventilyatsiyadan foydalaniladi.

Ventilyatsiya tizimiga belgilangan tartib asosida xizmat ko'rsatib turish lozim. Kutilmaganda ventilyatsiya tizimi nosoz bo'lib qolsa texnologik jarayonlarda turli xil gazlar, tutunlar, changlar, issiqlik va suv bug'lari belgilangan miqdordan oshib ketib, ishchi-xodimlarni zaharlashi mumkin. Shu sababli uning samarali ishlashini tez-tez tekshirib turish lozim. Ventilyatsiya qurilmalarining samarali ishlashi

binolar ichidagi havoning harakati, harorati, havo namligi va uning ifloslanish darajasi o'lchangandan keyin aniqlanadi. O'lchash uchun havoning harakati 0,5 m/s gacha bo'lgan joylarda katotermometrlardan, 0,3-1,0 m/s gacha bo'gan hollarda parrakli anemometrlar va 20 m/s gacha bo'lganda kosachali anemometrlardan va UG-2 gazoanalizatorlaridan foydalaniladi.

Ayniqsa, janubiy hududlarda iqlimni issiqligi tufayli, havoning nisbiy namligi 40-50% gacha kamayishi qishloq xo'jaligi texnikalarida ish sharoitlarini ancha og'irlashtirib qo'yadi. Ushbu noqulay vaziyatlarni bartaraf qilish maqsadida qishloq xo'jaligi texnikalarini kabinalarida namlovchi havo sovitgichlari o'rnatilgan bo'lib bu usknalar kabinani toza havo bilan ham ta'minlaydi.



6.8-rasm. Ishlab chiqarish binolarida havoni tozalab beruvchi ejektrli (a), siklon (b) elektrli (d) va ultratovushli (e) filtrlar.

Chorvachilik ishlab chiqarish binolarida havoni isitish, almashishini ta'minlash va konditsionerlash IIIHK 4.02.20-07 «Isitish, ventilyatsiya va havoni konditsionerlash» talablari asosida amalga oshiriladi va loyihalanadi. Ishlab chiqarish binosi ichidagi havoni shamol bosimidan foydalanib tozalash mumkin. Buning uchun deflektorlardan keng foydalaniladi. Deflektorlarni ish prinsipi, asosan ulardagi parraklarni shamol bosimi ostida aylanishi natijasida hosil bo'ladigan so'rish va haydashga asoslangan bo'lib, bino ichidagi iflos havo tortib olinib, shuncha miqdorda toza havo yuboriladi. Havoni tortib olish miqdori deflektorlar parraklarini aylanish tezligi va quvurlarni diametriga bog'liq.

Bajariladigan barcha ish turlarini samaradorlik ko‘rsatkichlari asosan issiqlik balansining ta’minlanganligiga bog‘liqdir. Issiqlik balansi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi

$$T = T_o + T_k + T_n + T_b + T_h$$

T_o - kiyimning issiqlik o‘tkazuvchanligi;

T_k - tana atrofidagi konveksiya;

T_n - atrof – yuzalarga nurlanish;

T_b - tanadan chiqayotgan namlikni bug‘lanishi;

T_h - nafas olayotgan havoni isitish.

Ishlab chiqarishda ba’zi turdagi texnologik jarayonlarni amalga oshirish natijasida havo tarkibiga turli changlar va kichik o‘lchamli zarrachalar ajralib chiqadi va havoni ifloslanishiga olib keladi. Ushbu chang va zarrachalarni atmosferaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tozalanmasdan chiqarib tashlash ham xavfli va zarali hisoblanadi.



6.9-rasm. Mexanik ventilyatsiyalar sxemasi:

1-havo oluvchi qurilma; 2-havo quvurlari; 3-filtr; 4-kalorifer; 5-ventilyator; 6-toza havo oqimi; 7-iflos havoni so‘ruvchi quvur; 8-tozalash qurilmasi; 9-iflos havoni chiqaruvchi qurilma; 10-oqib keluvchi va so‘rib oluvchi tizim; 11 va 12 – havo miqdorini rostlovchi to‘siqlar.

Havo tarkibidagi turli zarrachalar va changlarni atrof muhit va odamlarga ta'sirini kamaytirish yoki yo'qotish maqsadida turli konstruktsiyali filtr qurimalaridan foydalaniladi.

Ayniqsa, keyingi-yillarda havoni tozalab berish uchun ejektorli (a), markazdan qochma xususiyatli siklon (b), turli zaryadli elektrlashtirilgan (d) va ultratovushli (e) filtrlardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan (6.8 - rasm). Shu bilan bir qatorda zaharli gaz va chiqindilarni hamda changni atmosferaga chiqish miqdori viloyat, shahar va tuman sanitariya-epidemiologiya bo'limi va ekologiya idoralari tomonidan rejali ravishda nazorat qilib boriladi.

Nazorat uchun savollar

1. Chorvachilik binolarini qurishga qo'yilgan talablar nimadan iborat?
2. Binolarga gigiyena bo'yicha qo'yilgan talablar nimadan iborat?
3. Davolab bo'lmaydigan kasallikka chalingan hayvonlarni utilizatsiya qilish tartibi nimadan iborat?
4. Binolarda gigiyenik ishlov berish deganda nimani tushunasiz?
5. Dezinfeksiya, deratizatsiya va dezinvatsiya nima?
6. Kasb kassaliklari profilaktikasi nima?
7. Mikroiqlim ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
8. Havoning nisbiy namligi va harakat tezligini o'lchovchi asboblar turini aytib bering.
9. Yoritish turlari, vositalari va ularga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
10. Yorug'lik miqdorini o'lchovchi asbob nima va o'lchov birlilgiga izoh bering.
11. Binolarni isitish usullari va vositalariga ta'rif bering.
12. Havo almashinish tizimi nima uchun kerak?

7-§. QISHLOQ XO‘JALIK HAYVONLARIGA XIZMAT KO‘RSATISHDA XAVFSIZLIK CHORALARI

7.1. Yirik shoxli mollarga xizmat ko‘rsatishda xavfsizlik talablari

Chorva mollarining mahsuldorligini oshirish, ularning sog‘lig‘ini yaxshilash, yem-xashak tayyorlash va veterinariya xizmatini ko‘rsatish chorvadorlarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu masalalarning muvaffaqiyatli hal etilishi keng tarqaladigan kasalliklarga qarshi o‘z vaqtida profilaktika chora-tadbirlarni o‘tkazish, hayvonlarni yaxshi parvarishlashga va boqishga bog‘liqdir. Shuning uchun chorva mollari boqilayotganda gigiyena va mehnat xavfsizligiga rioya qilish, shuningdek diagnostika, davolash yoki profilaktika ishlarini olib borishda ishchi-xodimlar va chorva-hayvonlar sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik qoidalariga rioya etish alohida ahamiyatga ega. Chorva mollarini parvarishlaganda elementar xavfsizlik choralariga rioya etmaslik, xizmat ko‘rsatuvchi chorvador va hayvonlarni jarohatlanishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek zoogigiyena va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik yoki uni bilmaslik kishilarni va hayvonlarni kasallanishga olib keladi. Texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi ishlarini tashkil etish, boshqarish va javobgarlik xo‘jalik rahbarlariga, shuningdek tarmoq bo‘yicha barcha amaliy ishlarni bajarish, bosh zootexnik va bosh veterinar zimmasiga yuklatiladi. Amaldagi talab va qoidaga muvofiq, 18 yoshga to‘lmagan va homilador ayollarni ayg‘ir otlarga, erkak cho‘chqalar va buqalarga xizmat ko‘rsatishi qat’iyan man etiladi. Qolgan turdagi chorva mollarga xizmat ko‘rsatishga, tibbiyot ko‘rigidan o‘tgan va kasaba uyushmasi qo‘mitasining ruxsati bo‘lgan, 16 yoshga to‘lgan o‘smirlarga ruxsat etiladi. Chorva hayvonlari pavarishlanayotgan naslchilik yoki sutchilik korxonalarida, mutaxassislardan boshqa shaxslarning ruxsatsiz bo‘lishlari mumkin emas.

Har qanday hayvonlar bilan minosabatda bo‘ladigan ishchi-xodim va mutaxassislar, har doim ular bilan sekin va erkalash muomalasida bo‘lishlari kerak.

Chorvachilik korxonalarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishlari ustidan davlat nazorati, maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat idoralari tomonidan, jamoatchilik nazorati esa, mehnat jamoalari va kasaba uyushmalari tomonidan saylanadigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi.Mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14 avgustda 273-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida Namunaviy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxonalarda mehnat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni o'rganish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6 iyundagi 286-sonli qarori asosida tasdiqlangan «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida»gi Nizom talablarida belgilangan talablar asosida olib borilishi lozim.

Xodimlar o'z kasblari va ish turlari bo'yicha belgilangan tartibda o'qishlari, yo'l-yo'riqlar olishlari, bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishlari hamda kasbiy-texnik tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishlari shart.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 7 yanvarda 870-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan «Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risida»gi Nizomga muvofiq ishlab chiqiladi, ishlovchilarni shu yo'riqnomalar bilan ta'minlash korxona rahbariyati zimmasiga yuklatiladi. Korxonada tanlov asosida ishga qabul qilinadigan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati bo'lishi lozim.

Chorva hayvonlarga xizmat ko'rsatishda quyidagi xavfli va zararli omillar ta'sir qilishi mumkin:

-harakatlanuvchi mashina va mexanizmlar, ishlab chiqarish uskunalari;

-termik xavf (60^0C dan yuqori bo'lgan suv, bug' va boshqalar);

-yuqori yoki past harorat, havo haroratini ikki tomonlama (yelvizak) bo'lishi;

-ishlash joyida yetarlicha yorug'lik bo'lmasligi;

-belgilangan meyordan ortiq yuk ko'tarish va tashish;

-kimyoviy xavf (kimyoviy moddalar ta'siri, yuvish uchun va dezinfeksiya qiluvchi moddalarni ko'zga, nafas organlariga va terining himoyalanmagan joylariga ta'siri);

-elektr tokidan shikastlanish;

-biologik xavf (brusellyoz, tuberkulyoz, leptospiroz, oqsil, kuydirgi va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan va asov mollar bilan aloqada bo'lish, tajriba o'tkazish mobaynida mikroorganismlarni yuqtirish).

Chorva va hayvonlarga xizmat ko'rsatishga:

-inson va hayvonlarga xos bo'lgan kasalliklar (tuberkulyoz, brutsellyoz, leptospiroz va boshqa yuqumli kasalliklar) bilan kasallangan;

-teri kasalliklari bilan kasallangan;

-tana qismida shilingan va mayda yaralari bor ishchi xodimlar va mutaxassislarni ishga jalb etish ruxsat etilmaydi.

Agressiv, asov va yuqumli kasallik bilan kasallangan mollarga xizmat ko'rsatishda maxsus kurslarni tamomlagan va malakaga ega bo'lgan shaxslarning ishlashiga ruxsat etiladi. Asov mollar boqiladigan kataklarda ehtiyot bo'lishlik to'g'risida ogohlantiruvchi (ehiyot bo'ling, buqa, sigir suzadi, ot tepadi, tishlaydi va boshq.) yozuvlar ilib qo'yilishi lozim. Bu belgi sariq rangli yozuv bilan yozilib, harflarning balandligi 35 mm, kengligi 16 mm va qalinligi 3 mm bo'lishi kerak. Bog'loqsiz (erkin) saqlanadigan mollarni parvarishlash jarayonida ularning harakatini cheklab qo'yadigan to'siqlar, asbob va uskunalardan foydalanish kerak.

Chorva hayvonlar bog'lab boqilganda, bog'lagich (zanjir, arqon va boshq.) mustahkam bo'lishi, bog'laganda chorva bo'ynini siqmasligi kerak. Veterinar ko'rsatmalariga ko'ra suzadigan yirik shoxli mollarning shoxlari kesib tashlanadi.

Yangi ishga qabul qilingan xodimlar 12 - 14 kun mobaynida soha mutaxassislari nazoratida bo'lib, malakalari tekshirilgandan keyin mustaqil ishlashga ruxsat beriladi. Xodim o'z vazifasini bajarishda boshqa kishining yordamiga muhtoj bo'lmasligi kerak. Xodimlar mexanizmlar, mashina va uskunalar bilan ishlaganda, ularni ishga tushirish va to'xtatishda, o'rnatish va o'lchov asboblarini nazorat qilishda, hamda ishlab chiqarish signalizatsiyasidan foydalanishda, xavfsizlik talablariga rioya qilishi zarur. Xodimlar ish jarayonida nosoz texnika va asbob-uskunalardan foydalanmasligi kerak.

Chorva hayvonlariga xizmatchilar:

-ovqatlanishdan oldin va ish tugagandan keyin sanitar va maxsus kiyimlarni yechib, ajratilgan joyga ilib qo'yishi;

-hojatxonaga borishdan oldin sanitar kiyimlarni yechishi va undan keyin qo'lni yuvishi;

-qo'lni 0,2% li xlorli ohak eritmasida chayib, sovun bilan issiq suvda yuvishi va shaxsiy sochiqda artishi kabi shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishlari shart.

Xodim sog'ligi yomonlashganda, harorati ko'tarilganda, terisi kesilganda, yiringli yoki boshqa teri kasalliklari paydo bo'lganda, korxona rahbarini xabardor qilishi kerak.

Sog'ish apparatlarida ishlash, sutga dastlabki ishlov beradigan va ozuqa sexi uskunalarida ishlashga elektr xavfsizligi malakasiga ega bo'lgan xodimlarga ruxsat etiladi. Sigir sog'ilayotganda, uning dumi oyog'iga bog'lab qo'yiladi. Sut sog'uvchilarning shaxsiy o'rindiqlari qulay va mustahkam bo'lishi lozim. Buzoqlar guruhli usul bilan emizilganda yuvosh sog'in sigirlardan foydalanish kerak.

Chorva hayvonlarni oziqlantirish va sug'orish, ozuqa yo'lagi orqali amalga oshirilishi lozim. Yirik shoxli mollar turar joyiga ikki kishi bo'lib kirish, himoyachi (ikkinchi kishi) qo'lida hayvonni qo'rqitadigan jihoz bo'lishi shart (elektr qo'rqitgich, tayoq). Hayvonlar saqlanadigan joylar, kataklar ular yo'q bo'lgan paytida yoki ular bo'lganda ko'chma to'siq bilan ajratib qo'yilgan holda, tozalanishi lozim.

Ayniqsa naslli buqalarga xizmat ko'rsatishda, xavfsizlik ta'minlash qoidalariga rioya etish yuqori darajadagi ehtiyotkorlikni talab etadi. Buqaning turar joyini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni darhol bartaraf etish lozim. Jumladan, buqalarni ikki tomonga tortiladigan boshvog'ining sozligini, zanjirning har bir halqasini butligini, burun halqasi va uni shoxga biriktirilganligini, yo'naltirish tayoqchasi sozligini va buqani saqlash uchun kerak bo'lgan barcha boshqa jihozlar sozligini doimiy ravishda nazoratdan o'tkazilib turishi shart.

Buqani erkalab muomala qilish kerak, ammo harakatlar aniq va keskin bo'lishi lozim. Sekin, noaniq, ishonchsizlik harakatlari buqada odamga hamla qilish refleksini kuchaytiradi. Buqa bilan qo'pol muomala qilish, kun tartibi va yayratish meyorining buzilishi unda qo'rs fe'l va himoya refleksini rivojlantiradi. Buqani barcha

muolajalari sanitar kiyim-kechagida amalga oshirilib, keyin uni maxsus kiyim-kechakka almashtirib olish lozim. Buqani parvarish qiluvchi xodimlar og'riqli muolajalarda qatnashmasligi kerak. Yangi xodimni ishga o'rgatish urug' olish kuni amalga oshirilmasligi kerak. Urug' oluvchi 10 — 12 kundan keyin buqaga qarashi, mazali ozuqalar bilan buqani siylashi kerak.

Juda jahldor, fe'li buzuq buqalarga qarashda (bu to'g'rida ogohlantiruvchi belgilar osilgan bo'lishi kerak) uning ko'zi ustiga to'siq kiydirilib, shoxlarining uchiga yog'och taxtacha bog'lab qo'yish kerak. Buqani binodan olib chiqishda barcha eshiklar berkitilishi, yo'lakda ortiqcha narsalar bo'lmasligi hamda yo'lda yoki yo'lakda qarama-qarshi tomonga boshqa buqalar harakat qilmasligi lozim.

Chorvachilik binolariga kirishda va undan chiqishda darvozani to'liq ochilganligi va eshiklarni ochiq turishini ta'minlovchi moslamani (fiksator) ishchi holatga keltirilganligi nazorat qilinishi kerak.

Chorva hayvonlarga ozuqa tarqatishda, ozuqa tarqatgichni ishga tushirishdan oldin signal berib yoki yoritgich moslamasi orqali ogohlantirish berilishi lozim. Statsionar ozuqa tarqatgichni ishga tushirishda unga belgilangan miqdordan ortiqcha ozuqa va yod narsalarni (yog'och, tosh, metall narsalarni) tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ochiq ozuqa transportyorlariga xizmat ko'rsatishda faqat maxsus jihozlangan ko'priklar orqali transportyorning qarama-qarshi tomoniga o'tish lozim. Ozuqa tarqatgich transportyorning troslishaybali, aralashtirgich va qirg'ich qismiga ozuqa tiqilib qolsa transportyor o'chirilib, yog'och yoki plastmassali moslama yordamida tozalanadi. Bunda transportyorni ishga tushirish pultiga «Yoqilmasin! Odam ishlayapti» degan ogohlantiruvchi belgi osib qo'yilishi lozim. Sochiluvchan ozuqani tarqatishda ish zonasini chang bo'lib ketishdan asrash uchun uskunani germetikligini va ventilyatsion qurilmaning ishlashini nazorat qilib borish kerak. Otaravada ozuqani tarqatishda aravani to'xtatib, yerga tushiladi so'ngra ozuqa tarqatiladi.

Qo'l aravada ozuqani tarqatishda, ozuqani ketma-ket tarqatish va hayvonlar panjarasi, to'siqlari yaqiniga borishda xavfsizlik choralariga amal qilinishi:

-aravaga yuk ortishda uni tekis joyga yaxshilab o'rnatilishi;

-yukni shunday ortish kerakki, qo'l aravani harakatlantirganda u yonboshga ag'darilib ketmasligi;

-qo'l aravasi oxurdan o'tishda, eshikdan kirishda qo'lni jarohatlamasligi kerak.

Buqani turar joyidan bo'yin halqasi bilan birlashtirilgan boshbog'dan ushlab yetaklash tayoqchasi orqali burun halqasidan yengil tortgan holda tashqariga olib chiqiladi. Yetaklovchi tayoqchasiz, burun halqasi orqali yetaklash va buqaning kallasiga yaqin joyda yurish taqiqlanadi.

Buqalarni maxsus maydonchalarda yayratish kerak. Faqat fe'li yaxshi buqalarni guruhlab yayratishga ruxsat beriladi. Yayratish tugagandan keyin buqa o'z joyiga bog'lanadi va ozuqa yo'lagi tomonga ikkita boshvoq bilan bog'lanadi, shundan keyin yo'naltirish tayoqchasi bo'shatiladi. Burun halqasi qayish orqali shoxiga biriktiriladi. Buqa ishchi kiyimi rangiga qarab hujum qilsa, kiyimni almashtirish yoki buqani boshqa joyga o'tkazish yoki qarovchini almashtirish kerak.

Buqalardan urug' maxsus jihozlangan xonalarda olinadi. Urug' olishda osoyishtalik ta'minlanishi va begona shaxslar bo'lmasligi shart. Manejga ikkitadan ko'p buqani kiritish taqiqlanadi. Urug' olishga tayyorlanish paytida buqa tomonga egilish mumkin emas. Manejdan buqani, u to'liq tinchlangandan keyin olib ketish mumkin. Urug'larni muzlatish uchun faqatgina soz Dyuar idishlardan foydalanish lozim. Dyuar idishidan foydalaishda quyidagi texnika xavfsizligi talablari va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya etish talab etiladi:

-dyuar idishida nosozlik yuzaga kelsa, uni azot va urug'dan bo'shatib, uch kun davomida yaxshi havo yuradigan, berk xonada saqlanash;

-dyuar idishlari saqlanadigan joyda begona shaxslar turishi man etiladi;

- suyuq azot bilan ishlaganda yuz niqobi va ko'zni himoyalovchi vositadan foydalanilanish shart;

-qo'lqop katta bo'lib qo'ldan oson yechilishi, shim yoki kombinezon etik ustiga tushirilgan bo'lishi kerak;

-suyuq azot bilan yakka ishlashga ruxsat berilmaydi;

-dyuar idishiga suyuq azotni quyish uchun, rezinali shlanglardan foydalanish va bu paytda shlang har ikkala idish tagiga tegib turishi kerak;

-dyuar idishiga boshqa idishdan suyuq azotni quyishda, keng voronkadan foydalaniladi;

-dyuar idishiga suyuq azotni quyish paytida, uning ichidagi harorat tashqi haroratga teng bo'lsa, kam-kam, sekin quyiladi;

-kutilmaganda suyuq azot to'kilib ketsa, eshikni sekin ochish va xonadan odamlarni chiqarib, shamollatish kerak;

-dyuar idish og'zidan azot quyish paytida qarash taqiqlanadi;

-dyuar idishi og'zi faqat maxsus qopqoq yordamida berkitiladi;

-dyuar idishlarini ko'chirish yoki tashishda ularni tushib ketishi yoki qattiq silkinishidan ehtiyot bo'lish lozim.

Dyuar idishidan foydalanishda quyidagilar man etiladi:

-idish yaqiniga isitish asboblarini qo'yish;

-tayyorlovchi zavod sertifikatisiz azotni ishlatish;

-dyuar idishidan boshqa suyuqliklar uchun idish sifatida foydalanish;

-idish ichini organik kelib chiqishga ega eski latta bilan artish (faqat sun'iy tola va parolondan tayyorlangan cho'tkalar yordamida yuvishga ruxsat etiladi).

Yaylovda mollarni boqishdan oldin, yaylovni begona jismlardan (sim, tosh, tikanli butalar va hokazo) tozalash, chuqurlarni va eski quduqlarni ko'mish yoki o'rab qo'yish kerak. Mollarni sug'orish joylarini ko'zdan kechirish va tayyorlash lozim. Suv berish idishi keng, biroz pastga qaratilgan bo'lishi, botqoqsiz, cho'kmaydigan va yorilishdan saqlangan bo'lishi kerak. Mollarni yaylovda boqishda guruhlarni bir jinsli va bir yoshli qilib podaga ajratish lozim. Go'sht yo'nalishida boqiladigan mollar podalarida emizadigan sigirlar va sut ichirish davridagi buzoqlar bo'lishi mumkin. Yaylovdagi umumiy podada naslli buqalarni boqish taqiqlanadi.

Yirik shoxli mollarni yozgi davrda yaylovda saqlaganda naslli buqalarni buqaxonada yoki molxonadagi alohida joyda bog'langan holda saqlash lozim. Yozgi yaylovda naslli buqa uchun alohida joy yoki stanok ajratiladi. Bu joyda oxur va sug'orish idishi bo'lishi kerak, buqa u yerda bog'loq yoki bog'loqsiz saqlanadi. Quyosh nurlaridan va yog'ingarchilikdan saqlanish uchun maxsus bostirma-shiypon

tayyorlanadi. Mollarni boqishda ularni boshqarish uchun charmdan yasalgan qamchidan foydalaniladi. Qamchi o'rniga turli xil kesadigan, qadaladigan va o'tkir narsalar, kalta tayoqlar, rezina shlang va boshqa asboblardan foydalanish mumkin emas. Mollarni yaylovda boqish uchun kamida ikki kishi bo'lishi va o'rgatilgan, tishlamaydigan otlardan foydalaniladi. Mollarni erkin suv ichirish uchun suv oxurlari mavjud bo'lishi kerak. Suv oxurlaridan suv oqmaydigan, tuzatilgan holatda foydalaniladi. Suv oxurlarini turli iflosliklardan tozalashda tozalagichlardan foydalaniladi. Suv oxurlarini mollar yo'q vaqtda suv bilan to'ldirib qo'yish lozim. Harakatlanadigan suv oxur, suv ichirish vaqtida to'xtatilishi lozim.

Sigirlarni sog'ishdan oldin sog'ish apparatlarining sog'ishga yaroqliligini va to'g'ri yig'ilganligini tekshirib ko'rish kerak. Sog'ish uskunalaridan foydalanishdan oldin uning yaroqliligi tekshirib ko'rilishi lozim. Shisha naychalarida teshik va yorilgan joylari bo'lmasligi kerak. Sigirlarni sog'ish tinch muhitda amalga oshirilishi lozim. Sigirlarga muloyim va ishonchli munosabatda bo'lish kerak.

Sigirlarni sog'ishdan oldin qo'lni tirsakgacha albatta iliq suvda sovin bilan yuvish va toza shaxsiy sochiq bilan artish hamda maxsus sanitariya kiyimlarini (xalat, oq ro'molcha va boshqa) kiyish lozim. Sog'ish apparatini yaroqsiz holatga kelganlarini almashtirish lozim. Vakuum darajasini va vakuum o'tkazgichni tekshirib ko'rib, zarur hollarda ularni talab darajasiga keltirish kerak. Sog'ish apparatini vakuum o'tkazgichiga ulaganda sut chelagining qopqog'i zich yopilganligiga ishonch hosil qilinishi kerak. Pulsator faoliyatini ishlashi aniqlik bilan tekshirib ko'rilishi va uning ishlashi sog'ish apparatining texnik hujjatiga muvofiq bo'lishi lozim. Sigirning yelini sog'ishdan oldin ko'z bilan ko'rib chiqilishi, yelin va so'rg'ichlar iliq suv bilan artilishi va uqalash o'tkazilishi lozim. Yelinni sog'ishga tayyorlash sigirlarda og'riq hissini paydo qilmasligi kerak. So'rg'ichlarda yoriqlar kuzatilganda, ularga vazelin yoki antiseptik vositalar surkalishi lozim.

Yilning past haroratli sovuq kunlarida sog'ish stakanlari iliq suvda isitilishi kerak. Sigir sog'ishni boshlashdan avval, sog'ish chelagi uning yon tomoniga qo'yilishi va sog'ish apparati vakuum o'tkazgichiga ulanganidan so'ng vakuum krani ochilishi lozim. Sog'ish stakanlarini yelin so'rg'ichlariga kiygizishda sigirning orqa oyoqlari va dumi bilan urishidan ehtiyot bo'lish lozim. Bunda notinch sigirlar boylangan

joyning tepasida maxsus ogohlantiruvchi belgilar bo'lishi kerak. Sut idishlari maxsus aravachalarda tashilishi lozim. Agar ular qo'lda tashiladigan bo'lsa, ikki kishi ko'tarishi talab etiladi. Sigirlarni sog'ish jarayonida ozuqa tarqatish, go'ng chiqaruvchi transportyorni ishlatish man etiladi. Sigirlarni mashinada sog'ishni amalga oshirishda asbob-uskunalarda nosozlik kuzatilsa, texnik xodimga murojaat qilish kerak. Sog'ish uskunasining tipiga qarab sog'ish apparatlari, sut o'tkazgich quvurlar, sut jihozlari ulardan foydalanish yo'riqnomalari talablariga binoan yuvilishi lozim. Sigirlarni qo'l bilan sog'ishda ular oyog'i, dumi va shoxi bilan shikast yetkazishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Sigirlarni qo'lda sog'ishda sog'uvchilarning bo'yiga mos keladigan o'tirg'ichlardan, sigirlarni oyoqlarini va dumini xavfsiz holatga keltiradigan moslamalardan foydalanish lozim.

Har bir sigir sog'ib bo'lingandan keyin qo'l sovun bilan yoki dezinfeksiya eritmalari bilan yuvilishi lozim.

7.2. Erkak cho'chqalarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlik qoidalari

Erkak cho'chqalarni parvarish qilishda mehnatni muhofaza qilish xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazorati shunga maxsus vakolatlangan davlat organlari tomonidan, jamoat nazorati esa mehnat jamoalari va kasaba tashkilotlari nomidan ular tomonidan saylanadigan mehnat muhofazasi bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi. Korxonalarda kasbiga ko'ra saralash o'tkazilishi lozim bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati bo'lishi lozim. Agressiv, asov va yuqumli kasallik bilan kasallangan erkak cho'chqalarga xizmat ko'rsatishda (keyingi o'rinlarda xavfli bo'lgan ishlarni bajarishda deb yuritiladi) maxsus kurslarni bitirgan shaxslarning ishlashiga ruxsat etiladi.

Erkak cho'chqalarni parvarish qilishda o'rnatilgan kun tartibiga rioya qilinishi lozim, bu narsa ularning osoyishta fe'l-atvorli, yuvosh bo'lishiga yordam beradi. Erkak cho'chqalarga yaqin kelganda, ohista va osoyishta ovoz chiqarish kerak. Hayvon bilan qo'pol muomala qilish, uning qaysar va jahldor bo'lishiga olib keladi. Jahldor erkak cho'chqalar saqlanadigan qafaslarning tashqi tomoni va boshqa joylarida «Ehtiyot bo'ling, tishlaydi!» degan ogohlantiruvchi yozuvlar

bo‘lishi zarur. Erkak cho‘chqalarga xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarning qafasga kirishi, darvoza va yo‘laklarda turib qolishi, go‘ng yig‘uvchi uzatgich ishlaganda erkak cho‘chqalarni ichkariga kiritish yoki tashqariga chiqarish taqiqlanadi. Erkak cho‘chqalarni bir joydan boshqa joyga ko‘chirish uchun guruhli qafasdan va ko‘ndalang harakatlanuvchi qalqondan foydalaniladi. Guruhli qafasga kirish oldidan temir, faner yoki kartondan tayyorlangan himoya vositasi — silindrsimon moslama kiyish kerak. Bunday silindr polga 6 sm yetmaydigan holatda ishchining beliga mahkamlanadi. Erkak cho‘chqalarni boqish va sayr qildirish kichik guruh yoki yakka tartibda, havo issiq bo‘lmagan vaqtda amalga oshiriladi. Bezovta va asov erkak cho‘chqalar sayrga alohida qo‘yiladi. Erkak cho‘chqalarning o‘tkir tishlari o‘sishi bilan o‘z vaqtida kaltalatiriladi. Maxsus panjarali qafaslarni tozalash ishlari u yerda, hayvonlar yo‘q paytida amalga oshiriladi.

Veterinariya chora-tadbirlarini o‘tkazish uchun erkak cho‘chqalarni bog‘lashda (emlash, axtalash, so‘yish, qon olish) xavfsiz usullarni bajarish talab etiladi. Vazni 100 kg gacha bo‘lgan erkak cho‘chqalarni bog‘lash uchun oddiy yog‘och bochkadan foydalanish qulay usullardan biri hisoblanadi. Bunda bochkaning tagiga 40 sm qalinlikda somon to‘shaladi, u gorizontal holda joylashtiriladi. Erkak cho‘chqa bochka ichiga haydaladi yoki bochka erkak cho‘chqa tomonga olib kelinadi. Erkak cho‘chqa tanasining yarmi kirgandan so‘ng, bochkaning bo‘sh tomonidan ushlab ko‘tariladi va 30 — 40 daraja burchak ostida qiya holatida mahkamlanadi. Erkak cho‘chqalarni yotgan holda mahkamlash uchun erkak cho‘chqa yerga yoki jarrohlik stoliga yotqiziladi. Bu usullarni ikki ishchi bajarishi shart. Biri erkak cho‘chqaning orqa oyoqlaridan, ikkinchisi quloqlaridan ushlab, so‘ngra yon boshiga ag‘daradi. Erkak cho‘chqaning oldingi va orqa oyoqlari diagonal bo‘yicha yoki uchala oyoqlari birgalikda arqon bilan bog‘lanadi.

Erkak cho‘chqani yelkasi bilan katta tog‘oraga qo‘yish mumkin, bu holda oldingi va orqa oyoqlari alohida juft qilib bog‘lanadi, buning natijasida arqonning bir uchi oldingi oyoqdan orqa oyoqqa qo‘yiladi, ikkinchi uchi orqa oyoqdan oldingi oyoqqa tugun bilan mahkamlanadi. Arqonning ikkala uchi ham birga ushlanib, biror-bir to‘siqdan tashlanadi va imkoni boricha yuqoriga ko‘tariladi. Orqa oyoqlarining biriga sakrovchi bo‘g‘im yuqori qismidan arqondan iborat

harakatlanuvchi tugun tashlanib, uning bo‘sh uchi 1,5 m balandlikda erkak cho‘chqa oldingi oyoqlariga suyangan holda tortib joylashtiriladi. Yirik erkak cho‘chqalarni arqonlar tuguni yordamida yuqori jag‘idan mahkamlanadi. Mahkam arqondan harakatlanuvchi tugun yasalib erkak cho‘chqa o‘tkir tishlari orqasidan tashlanib mahkamlanadi. Arqonning bo‘sh uchi bir necha marta daraxtga, to‘singa, stolbaga bog‘lanadi. Buning uchun erkak cho‘chqani bitta ishchi ushlab turadi.

7.3. Kasallangan hayvonlarga xizmat ko‘rsatishda xavfsizlik talablari

Odam va hayvonlar uchun xavfli bo‘lgan brusellyoz, kuydirgi, leptospiroz, oqsil (ovsil), salmonellyoz, tuberkullyoz, tulyaremiya, tenioz, teniarinxoz, exinokokkoz va alveokokkoz, qutirish yuqumli kasalliklar turlari mavjud bo‘lib, u kishilarga havo orqali, hayvolarni og‘iz so‘laklari orqali, ularning mahsulotlarini iste’mol qilish va ba’zida tishlagan vaqtida inson organizmga yuqadi.

Molxonalarda hayvonlarga qarash, kasallikning oldini olish va davolash paytlari inson organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar ro‘yxati bo‘lishi kerak. Kasallangan chorva hayvonlariga xizmat ko‘rsatish uchun, o‘n sakkizga to‘lmagan yoshlar, homilador yoki emizikli ayollar mehnatidan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Chorvachilik fermalari va komplekslarida insonlar va hayvonlar chalinadigan kasalliklar bilan kasallangan shaxslarning ishlashlari taqiqlanadi.

Hayvonlarga xizmat ko‘rsatishda teri kasalliklari bilan kasallangan, shilingan va mayda yaralari bor xodimlar faqat shifokor ruxsati bilan ishlashga ruxsat etiladi.

Agressiv hayvonlar saqlanadigan og‘ilxona yoki bokslar tepasiga ogohlantiruvchi belgi qo‘yilishi shart. Bu belgi sariq rangli yozuv bilan yozilishi lozim.

Bog‘lanmay saqlanadigan hayvonlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida ularning harakatini cheklab qo‘yadigan asbob va uskunalardan foydalanish kerak.

Hayvondan odamga antropozoonoz kasalliklarining yuqish usullari turli xil bo‘ladi. Ayrim kasalliklar hayvonlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarida yuqishi mumkin. Boshqa holatlarda esa, hayvondan

olinadigan mahsulotlar, sut, sut mahsulotlari, jun, go'sht, teri orqali va parrandalar hamda odam va hayvonga hujum qiladigan qon so'ruvchi hasharotlar tomonidan ham bu kasalliklar yuqtirilishi mumkin.

Yuqumli kasallikka chalingan hayvonlarga xizmat ko'rsatishni korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan guruh olib boradi.

Yuqumli kasallikka chalingan hayvonlarni parvarishlash ishlariga profilaktik emlangan, shaxsiy xavfsizlik qoidalari bilan ishlash tartibini biladigan shaxslarga ruxsat etiladi.

Korxona rahbari kasallik aniqlangan taqdirda, darhol veterinariya va meditsina xodimlariga xabar berishi, hamda kasal hayvonni izolyatsiya qilish choralarini ko'rishi shart.

Izolyatsiya qilingan hayvonlar saqlanadigan joyga ruxsat etilgan shaxslardan tashqari boshqa shaxslar kirishi taqiqlanadi. Har bir xonaga kirish yo'lida dezato'shamalar qo'yilib, ular yashiksimon holatda ichiga qirindi bilan to'ldiriladi va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan to'yintiriladi.

Dezato'shama holatini baholash, ularni tashkil qilish, to'shamalarni almashtirish, ularga dezinfeksiyalovchi moddalarni quyish veterinariya xodimlariga yuklatiladi va korxonaga kirish-chiqish, poyabzallarni tekshirish, dezinfeksiya qilish ishlarini nazorat qilish korxona rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Kasallik mavjud bo'lgan korxonalarda ovqatlanish, suv ichish va chekish taqiqlanadi. Ichimlik suvi ishchi xodimlar uchun maxsus bochkalarda qaynatilgan holda saqlanadi.

Xo'jaliklarda yuqumli kasallik bilan kasallangan hayvonlarni sutini sog'ish taqiqlanadi.

7.4. Hayvonlar harakatini cheklash

Buqalar boquvchi va atrofdagilarga xavf tug'dirmasligi zarur. Molboqar shu sohada o'qigan va xavfsizlik qoidalari bo'yicha attestatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak. Attestatsiyani xo'jalik rahbarining buyrug'i bilan tuzilgan komissiya o'tkazadi.

Buqa boqiladigan qo'ralarning balandligi 1,5 m dan kam bo'lmagan metall qo'ra bilan o'ralgan bo'lishi lozim. Buqalar ikkita zanjir bilan bo'ynidan ikki tomonga bog'lanadi. Ularni burnidagi halqasidan bog'lashni man etish kerak. Buqalar burun halqasiga ulangan

no‘xtada, uzunligi 2 m kaltak bilan o‘tlatiladi. Bunday moslama buqani to‘satdan tashlanganda harakatini cheklashini ta’minlaydi.

Buqalarni sigirlar bilan birga o‘tlatish mumkin emas. Buqalardan urug‘ olish uchun maxsus stanoklardan foydalanishadi, bu esa atrofdagilar uchun xavfsizlik sharoitni yaratadi.

Kataklar hayvonlar bo‘lmagan vaqtda tozalanadi. Urchish vaqtida bezovta bo‘layotgan erkak cho‘chqalarga ta’sir ko‘rsatish maqsadida cho‘chqaboqar yonida suvli chelak bo‘lishi zarur. Hayvonlarga xizmat ko‘rsatish uchun kerak bo‘lgan vositalar, albatta, shaxsan ma’lum bir ishchiga biriktirilgan bo‘lishi lozim.

Fermalarning eshiklari yaxshi yopiladigan va ular turgan kataklar ozoda bo‘lishi kerak. Hayvonlarga xizmat ko‘rsatayotganda charm yoki qavilgan qo‘lqoplardan foydalaniladi. Ferma ichkarisidagi hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish uchun maxsus yashiklar va qafaslar bo‘ladi, ulardan bo‘shagandan so‘ng molxona veterinarning topshirig‘i bo‘yicha dezinfektsiya qilinadi. Hayvonlar vagonlarda, samolyotlarda va kemalarda tashilganda qafaslar bir necha qavat qilib devor tomonga joylashtiriladi.

Hayvonlar maxsus ajratilgan xonalarda, ma’lum shaxslar tomonidan so‘yiladi. Kushxona ventilyatsiya, ilgichlar, stellajlar, stollar, yakka qo‘yiladigan stanoklar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak, Shu bilan bir qatorda yetkazib beruvchi va silkituvchi barabanlar, dezvositalar, so‘yilgan hayvonning nimtalangan go‘shti uchun qutilar ham mavjud bo‘ladi. Kushxonada terilarga ishlov berish qat’iyan man etiladi.

Yirik shoxli mollar bir joydan ikkinchi joyga haydab o‘tilganda ko‘pincha jarohatlanadi. Shuning uchun oldindan profilaktika choralarini ko‘rish kerak. Bu choralar quyidagilardan iborat: podalarni jinsiga, yoshiga, nimjon, baquvvatligiga, mahsuldorligiga va bo‘g‘ozligiga ko‘ra maxsus guruhlarga ajratiladi. Podadagi mollar boshi 150 tadan ortmasligi, ular kuniga 15 km dan uzoq yurmasligi kerak. Kunduzi chorva mollariga bir necha marta dam beriladi.

Chorva mollarini bir joydan ikkinchi joyga haydaganda yoki ularni vagonlarda, avtomobillarda, kemalarda va samolyotlarda tashiganda, xodimlar xizmat ko‘rsatish, xavfsizlik hamda yo‘l qoidalariga qat’iyan rioya qilishlari kerak.

Homilador va emizikli ayollarni, shuningdek yoshi 18 ga to'lmagan o'smirlarni, hayvonlarga podachi va kuzatib boruvchi qilib yuborish man etiladi. Hayvonlarni kuzatishdan 4-5 kun oldin maxsus ratsionga o'tkaziladi.



7.1-rasm. Hayvonlar bog'lab boqilganda bog'lagich turlari



7.2-rasm. Yirik shoxli mollarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlik choralari

Ayrim hollarda hayvonlarni ortish va tushirish tunga to'g'ri kelib qolsa, bu holda ortish, tushirish maydonlari kuchli yoritilgan

bo'lishi kerak, shuningdek hayvonlar yuklanadigan maydonlarda yo'l ustiga qurilgan osma ko'priklar va panjaralari bo'lgan maxsus narvonlar bo'lishi shart.

Chorva mollari harakatini cheklovchi usul va uslublar juda ko'p. Ularning harakati no'xta va arqon bilan to'xtatiladi. Hozirda veterinariya amaliyotida hayvonlar harakatini cheklashda har xil bexush qiluvchi vositalardan foydalaniladi. Bularning hammasi hayvonlarga xizmat ko'rsatish va davolash ishlarini qulay va xavfsiz o'tkazilishini ta'minlaydi.



7.3-rasm. Yirik shoxli mollarning harakatini cheklash usullari



7.4-rasm. Yirik shoxli asov mollarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlikni ta'minlash usullari

Yirik shoxli mol veterinar mutaxassis oldiga no‘xta solib yoki shoxi va burun atrofi yoki bo‘yin va burun atrofidan bog‘lab olib kelinadi. Hayvonlarga xizmat ko‘rsatish vaqtida ular harakatini shoxidan cheklash mumkin, ya’ni hayvon bo‘ynining chap yoki o‘ng tomonida turgan holda, ikki qo‘l bilan shoxlarining uchlarini bo‘sh qoldirmay ushlanadi. Bo‘yniga yaqin qo‘l tirsagi bilan bo‘yniga bosiladi hamda hayvonning yelka va kurak atrofiga, odam butun og‘irligini tashlab bosadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning mehnatini yengillashtirish maqsadida, hayvonlarning harakati burun qaychilari yordamida cheklanadi. Bir odam hayvonni shoxidan ushlaydi, ikkinchisi esa molning burniga burun qaychisini siqib o‘rnatadi.

Qo‘y va echkilarga ommaviy veterinariya xizmatlarini ko‘rsatish yoki bonitirovka o‘tkazishda ularni xonalardan chiqish vaqtida darvoza oldida ushlanadi. Ayrim hollarda vaqtinchalik qo‘ralar tashkil qilinadi. Qo‘y va echkilarni yo‘naltiruvchi yo‘lakka (ajratish uzunligi 6-8 m, eni 0,6-0,7 m) kiritib yuboriladi. Ish uchun shu yerni o‘zida uzunligi 1-1,5 m, eni 0,6-0,7 m, balandligi 0,7-0,8 m bo‘lgan stol va ikkita qo‘zg‘aluvchi zina o‘rnatiladi. Bir zinadan qo‘ylar stolga chiqadi, ishchilar ularni ushlab turadilar, zootexnik yoki veterinar tekshiruvidan keyin ikkinchi zina orqali stoldan tushadilar.

Echki va qo‘ylar yotgan holda oyoqlari juft qilib bog‘lanadi, so‘ng kerakli holda yoniga yoki orqasiga yotqiziladi. Taka va qo‘chqorlarni (boshidan) mahkam ushlash kerak, aks holda ular shoxi va peshonasi bilan qattiq zarba berishlari mumkin.



7.5-rasm. Echki va qo‘ylarni harakatini cheklash usullari

Otlarni tekshiruvdan o‘tkazishga no‘xta yoki qayish yugan olib kirgan holda harakatini to‘xtatuvchi vositalardan foydalanadilar.

Otlar tishlashi va tepishi mumkin. Orqa sonlari bilan uradigan otlar o'ta xavfli hisoblanadi. Shuning uchun otlar oldiga xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasdan yaqinlashib bo'lmaydi. Agar otlar yaylovda o'tlab yurgan bo'lsa, ularni o'ziga jalb qilish uchun chaqirish kerak. Otlarni oldiga to'g'ri kelish yaxshi emas, ularning yelka tomonidan birmuncha qiyalab bormoq lozim.



7.6-rasm. Otlar harakatini cheklash usullari

Orqa soni va oyoqlari bilan uradigan otlarni qochirishda harakatini cheklovchi vosita VD konstruksiyasidan foydalanib qochirish shlemi kiygiziladi.

Cho'chqalarning harakati kataklarda bo'sh holda, cho'chqa bolalarini esa maxsus kataklarda cheklanadi. Ommaviy veterinariya chora-tadbirlarini ko'rishda yoki cho'chqalarni saralashda, ularni maxsus ajratish xonalarida guruh-guruh qilib cheklash usuli ishlatiladi.

Cho'chqalarni harakatdan cheklash ularni har xil usullar yoki sun'iy og'riqlarni hosil qilish bilan amalga oshiriladi. Zarur paytda cho'chqalar yiqitiladi. Birmuncha xavfsiz usullardan: Korshunov, Andreyev, Xaake va Peregudov yiqitish usullaridir.

Hayvonni bo'shatish uchun o'ng qo'lni bir tortish bilan uchi bo'sh turgan tasma tuguni ochiladi va navbati bilan oldingi tugun, keyin yo'l qayishi yechiladi. Agar ot bir vaqtni o'zida oldi va orqa oyoqlari bilan ursa, bo'ysundiradigan no'xta ishlatiladi.



7.7-rasm. Cho'chqalar harakatini cheklash usullari:
a-tepa jag' qisich orqali; b-burama yordamida; d-ustun yonida; e-sirpanchiq halqa bilan tepa jag'idan blokdan o'tkazib cheklash.

Teri ostiga ma'lum miqdorda og'riqni qoldiruvchi moddani yuborish (ditilin preparatini) bilan umuman harakatdan to'xtatiladi.

Ditilin hayvonni nafas olishiga ta'sir qilmaydi, 4-6 min ineksiyadan so'ng skelet muskullari bo'shashishiga va hayvonni harakatsizlanishiga olib keladi. Ditilin teri ostiga 1 kg tirik vazni hisobidan yuboriladi. Vaqtinchalik harakatsizlantiruvchi bu preparat hayvonlarga faqat mutaxassisning ruxsati bilan qo'llaniladi.

7.5. Hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga haydash va ko'chirishda xavfsizlik talablari

Temir yo'l vagonlari hayvonlarni chiqarishdan oldin tozalanadi, dezinfeksiyalanadi va tasodifan mixlar, simlar, taxtachalar qolib ketmaganligiga qaraladi. Maxsus narvonlar eni vagon eshigining kengligiga teng bo'lishi lozim. Har bir vagonga bir guruhdagi mollarni chiqarish lozim, ya'ni yosh mollar, sigirlar va buqalar alohida tashiladi, ularning bosh tomoni poyezd yo'nalishiga parallel holda bog'lab qo'yiladi. Har bir vagonda kuzatuvchi bo'lishi kerak.

Mollar maxsus avtomashinalarda tashiladi. Bu avtomashinalariing yon devorlarida qo'shimcha panjaralar bo'lishi kerak, ularning balandligi cho'chqa va qo'ylar uchun 0,8 m, yirik shoxli qoramollar uchun 1-1m,1 m dan kam bo'lmasligi lozim.

Ot va yirik shoxli mollarni tashiydigan avtomashinalar ko'ndalangiga va bo'ylamasiga (hayvonlarni ko'krak balandligida) ustunlarga qotirilgan to'siqlar bilan jihozlanadi. Avtomashinada mollarni haydovchi yoki kuzatuvchi kuzatib boradi. Yurganda mashina

tezligini keskin o‘zgartirish yoki birdan to‘xtatish mumkin emas, aks holda hayvonlar yiqilishi va jarohat olishi mumkin. Mollar tashilganda, odamlarni hayvonlar orasida bo‘lishi qat’iyan man etiladi.



7.8-rasm. Hayvonlarni turli transport vositalari yordamida ko‘chirish

Hayvonlar temir yo‘l, dengiz va yo‘l transportida tashish paytida veterinariya mutaxassislar oldida turgan asosiy vazifalardan biri - bu tegishli qoidalar nazarda tutilgan hollarda, hayvonlarni emlash, kasallikka gumoni bor hayvonlarni boshqa sog‘lom hayvonlar bilan bir transportga yuklash holatlarini oldini olish uchun tegishli chora tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Faqat sog‘lom hayvonlar transportirovkaga ruxsat etiladi. Epizootik vaziyatga qarab, hayvonlar ko‘chirayotganda ularni kuydirgi, cho‘chqa gripi va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi emlash lozim.

Veterinariya qoidalariga muvofiq kuydirgi, manqa, qoramol o‘lati va yuqumli epizootik holat yuz bergan bo‘lsa hayvonlarni so‘yish man etiladi. Bunday hayvonlar maxsus jihozlangan inshootlarda utilizatsiya qilinadi.

Yirik shoxli qora mollarni tashish uchun halqali zanjir bilan bog‘lash imkoniyati bor, cho‘chqa va boshqa hayvonlarni maxsus panjaralar bilan jihozlangan avtomobillarda tashish tavsiya etiladi. Yilning issiq oylarida (may – sentabrgacha) 300 km dan ko‘p bo‘lmagan masofaga usti yopiq va atrofi ochiq panjarali transportlarda tashilishi mumkin.

Hayvonlar avtotransport vositalari va vagonga yuklashdan oldin, yuklanadigan yuzalar veterinariya mutaxassislari tomonidan tekshirilgan bo‘lishi kerak. Hayvonlarni transport vositalariga yuk-

lashda maxsus jihozlangan, ko'chma narvonlardan yoki estakadalari mavjud bo'lgan yuklash maydonchalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qoramollar transport vositalariga yuklanganda ularni bo'ylama joylashtirish maqsadga muvofiqdir va buning afzalligi transport vositalari harakatlanganda hayvonlar muvozanatini barqaror ushlashi mumkin bo'lishi bilan birga ularga ozuqa va suv berish uchun qulay hisoblanadi. Hayvonlarni avtotransportlarda tashishda qoramollar soni 8-12, qo'y va echki 40-50, buzoqlar 12-20, cho'chqalar 20-40 dan oshmasligi lozim. Yoz oylarida, cho'chqalar belgilangan miqdorga nisbatan 10-15% kam orttirilishi tavsiya etiladi.

Yoz oylarida hayvonlar transportirovkasi kechalari yoki ertalab amalga oshirilishi kerak.

Nazorat uchun savollar

1. Yirik shoxli mollarga xizmat ko'rsatish turlarini aytib bering.
2. Yirik shoxli mollarga xizmat ko'rsatishga qo'yilgan xavfsizlikni umumiy qoidalari nimalardan iborat?
3. Asov mollarga xizmat ko'rsatishda qo'yilgan xavfsizlik choralari nimalardan iborat?
4. Erkak cho'chqalardan yuzaga keladigan xavf deganda nimani tushunasiz?
5. Erkak cho'chqalarga xizmat ko'rsatishga qo'yilgan xavfsizlikni umumiy qoidalari nimadan iborat?
6. Asov erkak cho'chqalarga xizmat ko'rsatishda qo'yilgan xavfsizlik choralari nimalardan iborat?
7. Hayvonlarga xos bo'lgan kasalliklar turini aytib bering.
8. Antropozoonoz kasalliklari nima?
9. Kasallikka chalingan hayvonlarga xizmat ko'rsatishda qo'yilgan xavfsizlik talablari nimalardan iborat?
10. Hayvonlar harakatini cheklash nima?
11. Hayvonlar harakatini cheklash usullarini aytib bering.
12. Hayvonlarni bir joydan ikkinchi yoyga ko'chirishda qo'yilgan xavfsizlik choralari nimalardan iborat?

8-§. CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKDA QO‘LLANILADIGAN MASHINA VA DASTGOHLARDAN FOYDALANISHDA XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI

8.1. Texnika xavfsizligining umumiy tushunchalari

Texnika xavfsizligi deganda, ishlab chiqarish vositalari (mexanizm, mashina, uskuna, agregat, moslama, qurilma va b.) dan ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan turli xavfli va zararli omillarning kishilar sog‘lig‘iga ta’siridan himoyalovchi vositalardan foydalanish evaziga qisman yoki butunlay istisno qilingan holatiga aytiladi.

Xavfsizlik texnikasi deganda, faoliyat turidan qat’iy nazar, o‘z vazifasini bajarishda, faoliyatni xavfsiz usullarini qo‘llash evaziga, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xavfli va zararli omillarning kishilar sog‘lig‘iga ta’sirini qisman yoki butunlay istisno qilingan holatiga aytiladi.

Ishlab chiqarishda vujudga kelayotgan va kelishi mumkin bo‘lgan jarohat, shikastlanish va zaharlanishlarni oldini olish tadbirlari ancha murakkab masala bo‘lib, buni hal qilishda muhandis-texnik, tibbiy-gigiyenik, ekologik va boshqa sohadagi mutaxassislar e’tiborini jalb qilinishi kerak bo‘lgan muammodir.

Ishlab chiqarish jarayonida kishilarni hayoti va salomatligiga ta’sir etadigan xavfli ishlab chiqarish omillarini ba’zan yoki davriy ravishda sodir bo‘lish maydoni *xavfli doira* deb ataladi. Xavfli doira mashina va mexanizmning harakatlanuvchi, aylanuvchi qismlarida, yuk yaqinida, ko‘tarib-tushiradigan transport vositalarida qo‘zg‘atiladigan yuk atrofida paydo bo‘lishi mumkin. Ishlovchilarning kiyim va sochlarini uskunalarning harakatdagi qismlari tortib ketish imkoniyatiga ega xavfli doira xavf-xatar tug‘diradi. Juda ko‘p jarohatlar ishchilardagi osilib yotgan kiyimlarni qishloq xo‘jalk mashinalarining to‘silmagan uzatmalar mexanizmlari o‘rab ketishi tufayli sodir bo‘ladi.

8.2. Xavfsizlikni ta'minlash usullari va vositalari

Har qanday ishlab chiqarish sohasida yetkazib beriladigan barcha turdagi mashina, agregat, mexanizm va uskunalar baxtsiz hodisalarning oldini oladigan zamonaviy himoya vositalari bilan jihozlanadi. Ishlab chiqarish jarayonida, uskuna va mashinalarga xizmat ko'rsatishda mehnat xavfsizligi quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi:

- - to'siq;
- - tormoz,
- - blokirovka;
- - saqlash uskunalari;
- -signalizatsiya;
- -shaxsiy himoyalanish vositalari

To'siq vositalari. Xavfli hududlarni himoyalash uchun oddiy, ishonchli va arzon to'siq uskunalari keng qo'llaniladi. To'siqlar doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Masalan, traktor orqa ko'prigining tasmali uzatmalar qutisining korpuslari doimiy to'suvchi uskunalardir. Doimiy to'siqlarning afzalligi shundaki, agregat ishlayotganda ishchi xavfli hududga kira olmaydi. Doimiy to'siqlar siljuvchan va qo'zgalmas bo'ladi. Siljuvchan to'siqlarni olib qo'yish yoki chekkaga surib qo'yish mumkin. Vaqtinchalik to'siqlar korxona, sex va hududdagi ishlarni bajarish vaqtida ishlatiladi. Ularga misol sifatida muhofaza ekranlari, metall to'siqlar, parda va boshqalarni keltirish mumkin.

Sexda payvandlash ishlarini bajarishda atrofdagilarni elektr yoyning kuchli bo'lgan yorug'ligi ta'siridan muhofaza qilishda, qurilish maydonchalari, xandaqlarni to'sishda, boshqa yer ishlarini bajarishda vaqtinchalik to'siqlar ishlatiladi. Himoya to'siqlari panjara to'rlardan iborat bo'ladi. Agar mexanizm ishini ko'z bilan kuzatib turish zarur bo'lsa, bunday hollarda to'siq shaffof material (organik shisha, selluloid va boshq.) dan tayyorlanadi. Bundan tashqari mexanizm va mashinalarning harakatlanuvchi uzatmalarida yechiluvchan himoya to'siqlaridan ham keng foydalaniladi.



8.1-rasm. Himoya to'siqlari turlari:
a) doimiy yoppasiga to'siq; b) metall to'rli yechiluvchan to'siq.

Tormoz qurilmalari. Mashina va uskunalarning harakatlanayotgan (aylanayotgan) elementlarini tez va asta-sekin to'xtatish uchun tormozlash uskunalari ishlatiladi. Bundan tashqari, ular mashinalarni qiyaliklarda tutib turish, ko'tarilgan yukni o'z-o'zidan pastga tushib ketishidan saqlash maqsadlarida ham ishlatiladi.



8.2-rasm. Kolodkali (a), elektromagnitli (b) va mexanik yuritmali (d) tormozlar

Mexanizmlar yoki ularning qismlarini muayyan holatda ishonchli mahkamlashni ta'minlash uchun blokirovka vositalaridan keng foydalaniladi.

Mashina va uskunalar hamda texnologik komplekslarda mavjud talablardan kelib chiqqan holda halokat holatidagi ish rejimiga mo'ljallangan himoya uskunalari bo'lmasa, bunday

mashina ishga yaroqli emas deb hisoblanadi. Himoya uskunalari mashina va uskunalar hamda texnologik komplekslarda nazorat qilish omillari (zo'riqish, bosim, harorat va h.k.) ruxsat etilgan chegaradan oshib yoki tushib ketganda ularning ishini avtomatik tarzda to'xtatadi.

Barcha himoya qurilmalari to'rt guruhga bo'linadi:

- mexanik zo'riqishlardan saqlovchilar (turli xil muftalar, kesilib ketadigan boltlar, shtiftlar va b.);
- mashina qismlarining belgilangan gabaritdan chiqishidan saqlovchilar (yuk ko'tarish mexanizmlarining chetki uzib-ulagichlari, ular mashinaning ish organi yoki mexanizmining siljishini cheklab turadi);
- bosim yoki haroratning ko'tarilib ketishidan saqlovchilar (konstruksiyasi turlicha bo'lgan klapanlar, ular idishdagi bosim ortib ketganida, traktorning gidrotizimida moy, avtomobil va traktorning tormozlash tizimida havo bug'ining harorati, qozon uskunasida suv ko'payib ketganida ochiladi va h.k.);
- elektr toki kuchining ruxsat etiladigan chegaradan ortib ketishidan saqlovchilar (elektr tarmoqlaridagi eruvchan saqlagichlar, avtomatik uzib-ulagichlar, buzilgan elektr uskuna, asbob va boshqalarni tarmoqdan uzib qo'yadi).



8.3-rasm. Suyuq(a) va gazsimon muhit (b, d) saqlagich klapanlari

Zamonaviy barcha turdagi ishlab chiqarish uskuna va texnik vositalarida sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan

xavflardan himoyalash uchun signalizatsiyadan keng foydalaniladi. Vazifasiga qarab signalizatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

➢ ogohlantiruvchi (mehnat xavfsizligiga rioya qilish to'g'risida ogohlantiradi, transport vositalarining harakatini boshqaradi);

➢ halokat haqida (xavfli ish tartibi sodir bo'lganligi to'g'risida) xabar beruchi;

➢ nazoratlovchi (ishlab chiqarish jarayonidagi harorat, bosim, suyuqlik miqdori va boshqalarni nazorat qiladi);

➢ gaplashishga oid (bir mexanizm yoki agregatga xizmat ko'rsatuvchi, bir guruh odamlar bilan operativ, ovozli va ko'rish signallari orqali shartli bog'lanishlaridir).

Tuzilishi jihatdan yorug'lik beruvchi, maxsus ovoz beruchi va turli rangli va belgili signalizatsiyalardan keng foydalanilad. Yorug'lik signalizatsiyalari transport vositalarida xavfsizlik vositasi sifatida keng qo'llaniladi.



8.4-rasm. Turli xavflardan ogohlantiruvchi tovushli va rangli signalizatsiyalar

Bundan tashqari mehnat xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli xil belgilardan ham keng foydalaniladi. **ГОСТ 12.4.026-15** ga asosan mehnat xavfsizligini ta'minlovchi belgilar to'rt guruhga, ya'ni taqiqlovchi, ogohlantiruvchi, buyuruvchi va ko'rsatuvchi belgilar turiga bo'linadi.

Taqiqlovchi belgilar qandaydir harakatni taqiqlaydi va hoshiyalari qizil rangda bo'lib, aylana shakliga ega (ochiq olovdan foydalanishni, transport yoki yo'lovchi harakatini, harakat tezligini taqiqlaydi va boshq.).

Ogohlantiruvchi belgilar oldinda xavf borligi to'g'risida (portlash, o't olish, elektr tokidan jarohatlanish, qandaydir buyumlarning tushib ketishi va boshq.) xabar beradi va uchburchak shaklida bo'lib sariq rangda bo'yaladi.



8.5-rasm. Taqiqlovchi belgilar



8.6-rasm. Ogohlantiruvchi belgilar turi

Buyuruvchi belgilar ko‘k rangli aylana shaklida bo‘lib, belgida ko‘rsatilgan shakl asosida ish jarayonini xavfsizlik vositalaridan foydalangan holda amalga oshirishni buyuradi.



8.7-rasm. Buyuruvchi belgilar

Ko'rsatuvchi belgilar ko'k rangli to'rtburchak shaklida bo'lib, asosan informatsion xarakterga ega belgidir. Ko'rsatuvchi belgilar korxonadagi har xil obyektlarni joylashgan joyini ko'rsatadi.



8.8-rasm. Ko'rsatuvchi belgilar

Bundan tashqari jamoat va ishlab chiqarish binolarida turli xavfli holatlar yuzaga kelganda, ishchi-xodimlarning binoni xavfsiz yo'laklar orqali tark etishlari uchun evakuatsiya, yong'in xavfi tug'ilganda, yong'inni birlamchi o'chiruvchi vositalar joylashgan joylarni ko'rsatuvchi - yong'in xavfsizligi belgilari ham mavjud bo'lib, bu belgilar bevosita yo'laklar yoki vositalar joylashgan joylarda osib qo'yiladi.

Masofadan turib kuzatish va boshqarish shu sharoitlarda olib boriladiki, operatorning ishlab chiqarish doirasida bo'lishi xavfsizlik nuqtayi nazaridan yoki texnologik sabablarga ko'ra mumkinmasligi, shuningdek, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va

avtomatlashtirish sharoitida samarasizdir. Masofadan kuzatish maxsus datchiklar, signalizatorlar, teleekranlar va nazorat-o'lchov asboblari orqali olib boriladi. Masofadan turib boshqarish esa elektr, pnevmatik, mexanik, gidravlik va boshqa uzatmalar orqali olib boriladi. Mikrojarayonlar avtomatik boshqarish tizimlari, elektron-hisoblash mashinalarida bajariladi.



8.9-rasm. Evakuatsiya belgilari



8.10-rasm. Yong'in xavfsizligi belgilari

Ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni bajarishda, tashkil qilishda va loyihalashda ГОСТ 12.3.002-15 va ОСТ 46.0.141-83 quyidagilarni inobatga olish shart deb belgilaydi:

- ishchilarning xavfli va zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dastlabki materiallar, yarim mahsulotlar va chiqindi ishlab chiqarilishi bilan bevosita aloqasini yo'qotish;
- xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud joylarni kompleks avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalash;
- texnologik jarayonlarda nazorat va boshqarish tizimini o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish chiqindilarini o'z vaqtida zararsizlantirish va chiqarib tashlash, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining kishilar organizmi va atrof muhitga ta'sirini kamaytirishga olib keladi. Materiallarni, tayyor mahsulotni va ishlab chiqarish chiqindilarini saqlaganda, xavfli ishlab chiqarish omillarining sodir bo'lishidan himoyalanish kerak.

Uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini uskunalarni to'g'ri joylashtirish va ish joylarini oqilona tashkil qilish bilangina ta'minlash mumkin.

Ishlab chiqarishda ishlashga ruxsat etilgan shaxslarning jismoniy imkoniyatlarini va mehnat xususiyatlarini hisobga olish shart. Xizmat qiluvchi xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq mehnat xavfsizligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishlari lozim.

8.3. Yuklarni ortish-tushirish va tashishda xavfsizlik talablari

Yukni ortish yoki tushirishga qadar yuk ko'taruvchi vositalarning mustahkam va turg'unligi, ularning yuk ko'taruvchanligi, ko'tariladigan yukka muvofiq kelish-kelmasligi, arqon, sim arqon va himoya to'siqlarining holatini tekshirish lozim.

Qishloq xo'jaligida yuklar xavflilik darajasi bo'yicha 5 guruhga bo'linadi:

- kam xavfli (qurilish, sabzavotlar va boshq.);
- yonilg'i (moy, benzin va boshq.);
- issiq va changlanuvchi (asfalt, mum, sement va boshq.);
- agressiv suyuqliklar (kislotalar, ishqorlar va boshq.);
- gazsimon tez portlovchi va o'ta tez yonuvchi materiallar (atsetilen va kislorodli gaz ballonlari, paxta tolasi va mahsulotlari).

Massasiga qarab yuklarni uch toifaga ajratish mumkin:

- ✓ 80 kg gacha;

✓ 80 dan 500 kg gacha;
✓ 500 kg dan og'ir bo'lgan yuklar.

Yuklar ko'pincha qoplarda, savatlarda, karton qutilarga, bochkalarda ortib tashiladi. Ortish usuli tashiladigan yukka va yuk ko'taradigan mashinalar yoki boshqa vositalarning bor-yo'qligiga bog'liqdir. Qishloq xo'jaligidagi jarohatlarning 35% ga yaqini transportda ish bajarganda sodir bo'ladi. Yuklarni qo'lda ortish va tushirish faqat muvaqqat maydonchalarda ruxsat etiladi. Bunday holda erkaklar ko'pi bilan 50 kg, ayollar esa (SanQvaM № 0115-01. Ayollar uchun qo'lda yuklarni ko'tarish va tashishning maksimal ruxsat etilgan sanitariya meyorlari) ko'pi bilan 9 kg, 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar ko'pi bilan 13 kg, o'smir qizlar ko'pi bilan 7 kg yuk ko'tarishlariga ruxsat etiladi.

Chang bo'ladigan yuklarni ortish va tashishda haydovchilar, yuk tashuvchilar, albatta, himoya ko'zoynaklari va respiratorlardan foydalanishlari kerak. Chang bo'ladigan yoki badbo'y hidli yuklar brezent bilan yopiladi. Bochka yoki shunga o'xshash yuklarni ortishda maxsus ponalardan foydalaniladi. Transport harakati vaqtida yuklar siljimasligi uchun tashishga tayyorlangan yuklar arqonlar bilan bog'lab mahkamlab qo'yiladi. Uzun yuklar alohida e'tibor bilan mahkam bog'lanishi lozim. Yonilg'ini avtosisternalarda va metall bochkalarda tashishga ruxsat etiladi. Siqilgan kislorod, atsetilen va boshqa yonuvchi gazlar solingan ballonlarni tashishda ular kuzovlarga yog'ochdan yasalgan uyali maxsus tagliklarga joylashtiriladi va mahkamlab qo'yiladi, bu tagliklar namat bilan o'ralgan bo'lishi kerak. Yonilg'i gaz to'ldirilgan ballonlarni kislorodli ballonlar bilan birgalikda, kislorodli ballonlarni esa moyli moddalar va moylar bilan birgalikda tashish mumkin emas. Hamma ballonlardagi ventillarni shikastlanish va ifloslanishdan saqlash uchun mo'ljallangan qopqoqlari bo'lishi kerak. Yoz kunlarida ballonlar qizib ketmasligi uchun brezent bilan o'raladi.

Avtotsisternalarda va o'ziag'dargichlarda yoki bortsiz platformada, yuk avtomobillarida yuklarni kuzatib boruvchi kishilar haydovchining kabinasida bo'lishi shart. Yarim tirkama va tirkamalarda, kuzov bortlari bilan barobar yoki baland joylashgan va bo'yiga uzun bo'lgan yuklar ustida odamlarni olib ketish qat'iyan man etiladi. Yonilg'i idishlarini yoki gaz ballonlarini tashishda

kuzovda odam bo'lmasligi kerak. Qishda yo'llar berkilib qoladigan sharoitda istisno tariqasida zanjirli traktor agregatlaridagi chanalarda odam tashishga yo'l qo'yiladi.

8.4. Chorvachilik va parrandachilikda fodalaniladigan mexanizm va mashinalar uchun xavfsizlik talablari

Dag'al va boshqa turdagi yemishlarni tayyorlash jarayonidagi texnika xavfsizligi darajasi OCT 46.0.141-83, OCT 46.0.126-82, ГОСТ 46.3.1.176-84 va OCT 46.3.1.177-84 talablariga javob berishi shart.

Dag'al va boshqa turdagi yemishlarni agregatlar yordamida tayyorlashda faqatgina 18 yoshdan kichik bo'lmagan, uskunalar bilan ishlashga guvohnomasi bo'lgan hamda OCT 46.0.126-82 asosida texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma olgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan xodimga ruxsat etiladi. Shu bilan birga yemishlarga kimyoviy eritmalar bilan ishlov berish mutaxassislar nazorati ostida bo'lishiga va texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma olgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan 18 yoshdan kichik bo'lmagan xodimga ruxsat etiladi. Homilador va yosh emizikli bolasi bor ayollar ishlashiga ruxsat etilmaydi

Traktordan harakatga keltiriladigan statsionar silos to'g'ragichlarning yuritmasi sifatida foydalaniladigan traktor shunday o'rnatilishi kerakki, bunda traktor bilan mashina shkivlarining o'qlari o'zaro parallel bo'lishi, uzatma tasmalarining sirg'alib va otilib chiqib ketmasligi uchun ularning markazlari bir to'g'ri chiziqda joylashishi lozim. Kiydirilgan tasma tarang qilib tortiladi va traktor kerakli holatda pona va tirgaklar bilan mahkamlab qo'yiladi. Shkiv aylanayotgan va dvigatel ishlab turgan vaqtda tasmani kiydirish va yechib olish man etiladi. Tasma uch tarafdan panjaralar bilan himoyalab qo'yiladi. Agregat shkivini mashinistning signalidan keyingina harakatga keltirish mumkin.

Mashinani ishga tushirishdan oldin qabul qiluvchi mexanizmning saqlagich qurilmalari va pichoqlarning taroqqa tegmayotganligi tekshiriladi. Avval mashina qo'l bilan aylantiriladi, so'ng dvigatel ishga tushiriladi. Tasodifan pichoqlar o'rtasiga tushib qolgan narsalarni chiqarib yuborish uchun konveyerni orqaga yurgizib

ko‘riladi. Agar oyoqlar kojuxga tegayotgan, mashina titrayotgan yoki uning detallari bo‘sh mahkamlangan bo‘lsa, mashinani ishga tushirish mumkin emas.

Silos massasini traktor bilan shibbalayotgan vaqtdagi xavfsizlik qoidalari. Silos massasini yerda saqlashda u, odatda zanjirli traktor bilan shibbalanadi. Silos bosishda traktor hamma vaqt ko‘ndalangiga yoki bo‘ylama o‘qi bo‘ylab bir tomonga engashibroq harakat qilishi lozim. Silos bostirishga doir barcha ishlarni faqat kunduz kuni bajarish zarur.

Burtda yoki xandaqda silos massasini zichlash uchun faqat bitta traktor ishlashi va xandaqga maksimal tushish burchagi, undan yurib chiqish burchagi, burtga ko‘tarilish va undan tushish burchagi, silos to‘plamining baland bo‘lish burchagi 20° dan oshmasligi kerak, aks holda traktor ag‘darilib tushadi. Silos massasini shibbalayotgan vaqtda burt chekkasiga 1,5 m qolganga qadar yurib kelish mumkin. Zanjirli traktorning turg‘un holatini ta’minlash uchun burt yoki silos to‘plami tepasidagi maydon kami bilan 6-10 m^2 bo‘lishi lozim.



8.11-rasm «Volgar-5» ozuqa maydalagichi



8.12-rasm. КДУ-2 dag‘al ozuqa maydalagichi

Ozuqa maydalagichda ishlash vaqtida texnika xavfsizligi. Ish boshlashdan oldin ozuqa maydalagichning texnik holatini tekshirish, tashqi birikmalarni, ayniqsa yon qopqoqlarining, ko‘rish lyukining birikmalarini taranglash, kesuvchi va maydalovchi barabanlarning

qopqoqlarida ezilgan joy yo‘qligini tekshirish, uzatuvchi konveyerdagi barcha begona predmetlarni olib tashlash, elektr dvigateli va elektr apparatining yerga yoki nolga ulanganligini tekshirish zarur.



8.13-rasm. Ko‘chuvchan sut sog‘ish apparati:
1 - sut sog‘ish stakanlari;2 - havo va kanalizatsiya kanallari;
3 - sutni yig‘ish uchun idish; 4 - nasos; 5 - kollektor (sutni to‘rtta so‘rg‘ich idishidan yig‘ish uchun ishlatiladi); 6 - pulsator.

Sut sog‘ish agregatida ishlaganda texnika xavfsizligi. Sut sog‘ish agregatida ishlashga va unga xizmat ko‘rsatishga uning konstruksiyasini va foydalanish qoidalarini o‘rganib olgan shaxslargagina ruxsat etiladi. Elektr dvigatelini ishga tushirishdan oldin uning yerga ishonchli ulanganligi tekshiriladi. Yerga ulangan simni molxonadagi vodoprovod tarmoqlariga birlashtirish mumkin emas. Sut sog‘ish qurilmasining vakuum yo‘lida izolyatsiya qistirma bo‘lishi kerak. Vakuum qurilmasi va uning magnitli ishga tushirgichi yot narsalar va alangalanadigan buyumlar saqlanmaydigan alohida xonada o‘rnatilishi lozim.

Ozuqa tarqatgichlarda ishlaganda texnika xavfsizligi. Haydovchi ozuqa tarqatgichda ishlashdan oldin uning tuzilishini, uzellarning o‘zaro ta’siri, ekspluatatsiya qilish qoidasi va texnika xavfsizligini o‘rganib olishi lozim.

Haydovchi texnik benuqson yem-xashak tarqatuvchi apparatidangina foydalanishi mumkin. Ozuqa tarqatgichga uning yuk ko‘taruvchanlik qobiliyatidan ortiqcha yuklash mumkin emas. Ozuqani aralashtirishda bunkerni uning 2/3 hajmi qadar to‘ldirish lozim.



8.14-rasm. Mexanizatsiyalashtirilgan ozuqa tarqatgichlar

Agregat harakat qilayotgan vaqtda quvvat olish vali ulangan holatda keskin burilish mumkin emas. Agregatning bo'ylama o'qidan maksimal og'ish burchagi 15° dan ortiq bo'lmasligi kerak. Quvvat olish vali o'chirilgan holatda agregatni ko'pi bilan 45° gacha burish mumkin.

Ko'pgina qishloq xo'jalik mashinalari va qurollarining ish organlari traktorning quvvat olish validan harakatga keltiriladi. Shu sababdan bu mashinalarda ish boshlashdan oldin kardanli val to'sig'ining sozligi, kojux kardanli valga birikmaganligi, to'siq kardanli val bilan birga qo'shilib aylanmasligi tekshiriladi. Statsionar mashinalarning harakatlantiruvchi tasmalari va kardanli vallari ishonchli to'siqlar bilan o'ralgan bo'lishi kerak. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida statsionar mashinalardan asosan mexanizatsiyalashtirilgan g'alla tozalash xirmonlarida va chorvachilik fermalarida foydalaniladi.

Bosim ostida ishlaydigan uskunalardan foydalanishda xavfsizlik talablari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida binolarni isitish, mahsulotlarni qayta ishlashda, idishlarni va veterenariya uskunalarini sterilizatsiya qilishda hamda agregatlarni yuvishda issiq suv va yuqori haroratli suv bug'laridan keng foydalaniladi.

Issiq suv va yuqori haroratli suv bug'larini hosil qilish uchun D-721A, VET-200, VEP-600 va boshqa turli quvvatga ega bo'lgan bug' qozonlari hamda AV-2, SPGK-75, ASh-1 va boshqa turdagi avtoklavlardan foydalaniladi. Bug' qozonlaridan foydalanish ГОСТ 12.2.003-74 umummiy talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Hajmi 1 m^3 va 0,98- 106 Pa bosim ostida bo'lgan idish portlaganda 13164 kVt quvvat paydo qiladi. Shuning uchun bosim ostida ishlaydigan idishlarni loyihalash, tayyorlash va ishlatish «Sanoatkontexnazorat» agentligi talablariga rioya qilgan holda olib boriladi.

Yangi yoki ta'mirdan chiqqan bug' qozonlarini tekshirilgandan va gidravlik sinovdan o'tkazilgandan keyin ishlatishga ruxsat etiladi. Ish bosimi 69 kPa (0,7 kgk/sm^2) dan ortiq bo'lgan bug' qozonlarini «Sanoatkontexnazorat» agentligi tomonidan tekshiriladi va foydalanish uchun ruxsat beriladi. Buning uchun idish yoki apparatning pasporti, qoidaga asoslangan holda montaj qilinganligi haqidagi dalolatnoma, uning soz holatda ekanligi to'g'risida ma'lumotnoma, bosim manbai va ishlab chiqarish muhiti omillari ko'rsatilgan ulanish sxemasi, uni boshqaruvchi ishchining attestatsiyadan o'tganligi to'g'risda ma'lumotnoma kabi hujjatlar talab qilinadi.

Har qaysi qozonga ip o'tkazib tikilgan qozonxona kitobi yuritilib, unda qozonni tekshirish natijalari va undan foydalanishning belgilangan muddatlari ko'rsatiladi.

Foydalanish vaqtida qozonlar davriy ravishda foydalanuvchi tayinlagan komissiya (yiliga bir marta) va «Sanoatkontexnazorat» agentligi (4-yilda bir marta) tekshiradi.

Ish bosimida gidravlik sinashni foydalanuvchi har gal qozonning ichki sirti tozalangandan yoki ta'mirlangandan keyin o'tkazadi. Bundan tashqari, qozon kamida 8-yilda bir marta sinov bosimi bilan 5 daqiqa davomida gidravlik sinaladi. Bu bosim 490 kPa (5 kgk/sm^2) va undan past ish bosimiga mo'ljallangan bug' qozonlari hamda bug'ni o'ta qizdirgichlar uchun ish bosimining 150% ini tashkil qiladi, lekin 196 kPa (2 kgk/sm^2) dan kam bo'lmaydi, 490 kPa (5 kgk/sm^2) dan ortiq ish bosimiga mo'ljallangan bug' qozonlari uchun, shuningdek, har qanday bosimli suv isitish qozonlari uchun sinov bosimi ish bosimining 125% ini tashkil qiladi, ammo undan kamida 294 kPa (3 kgk/sm^2) ga ortiq bo'ladi.

Chorvachilik fermalarida ozuqa bug'lagich qozonidagi bosim 24,5 kPa (0,25 kgk/sm^2) dan oshmasligi kerak. Suv o'lchagich shishasi, manometr, suvli saqlagich bakchasi, chiqarib tashlash nayi yoki richagli saqlagich nosoz bo'lganda ozuqa bug'lagichni ishlatish man qilinadi. Mexanik mustahkamlikka hisoblanmasdan tayyorlangan yoki zarur nazorat-o'lchov armaturasi va chiqarib tashlash moslamalari bo'lmagan ozuqa buglag'ichlarni va har qanday boshqa bug' hosil qilgichlarni ishlatish mumkin emas. Bug'lash tugagach, qo'lqop kiymasdan va bug' beruvchi kranni berkitmasdan ozuqa bug'lagichning qopqog'ini ochishga ruxsat etilmaydi. Ozuqa bug'lagichdagi suv sathi o'z balandligining 2-3 qismidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Qizigan sirtlardan, bug', suv yoki o'txona gazlaridan kuyib qolish xavfi bo'lgan xodim korjomada, maxsus oyoq kiyimida va himoya vositalari (qo'lqoplar, himoya ko'zoynaklari) dan foydalanib ishlaydi.

Issiqlik ishlab chiqaruchi asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatishda «Ehtiyot bo'ling - ishlayapti», «Ehtiyot bo'ling - gaz, olov ishlatilmasin!», «Ochilmasin - odamlar ishlayapti», «Berkitilmasin - odamlar ishlayapti», «Ko'tarilish taqiqlanadi», «Xavfli hudud», «Ko'tarilish joyi shu yerda», «O'tish yo'li shu yerda» kabi ogohlantiruvchi, taqiqlovchi va ko'rsatuvchi ko'rgazma vositalaridan keng foydalaniladi.

Bosim ostidagi ballonlardan foydalanish qoidalari. Katta bosim ostida siqilgan, suyultirilgan yoki eritilgan gazlar bilan to'ldirilgan ballonlarni ishlatayotganda ehtiyotkor bo'lish va «Sanoatkontexnazorat» agentligi tasdiqlagan hamma qoidalarga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Ballonlarning yorilishi bilan bog'liq falokatlar shunisi bilan juda xavfliki, ko'p hollarda ballonlar yaqinida odamlar bo'ladi. Falokatlarga asosan quyidagilar sabab bo'ladi:

- ballonlar tayyorlanish sifatining pastligi;
- ballonlarni gaz bilan meyoridan ortiq to'ldirish;
- ballonlarni tashish va saqlash vaqtida xavfsizlik qoidalarini buzish.



8.15-rasm. Ballonlarni bo'yash va ulardagi yozuvlar uchun ishlatiladigan ranglar turi

Kislorod ballonlarini moy bilan ifloslanishdan va ayniqsa uning ichiga moy tushishidan ehtiyot qilish zarur. Har bir ballonda ventil, aniq ko'rinib turadigan tamg'a bo'lishi lozim. Tamg'ada ballonning raqami, haqiqiy og'irligi, tayyorlangan kuni (yil va oy) hamda ish bosimi, navbatdagi sinash-yili, gidravlik sinov bosimi, ballonning sig'imi ko'rsatiladi. Ishlatilayotgan ballonlar kamida besh-yilda bir marta davriy sinovdan o'tkazilishi lozim. Xlor, vodorod xlorid, oltingugurt kabi gazlar bilan to'ldirilgan ballonlar kamida ikki-yilda bir marta sinovdan o'tkazib turiladi.

Atsetilin balonidan tashqari boshqa barcha ballonlar har 5-yilda bir marotaba 1,5 barobar ishchi bosimdan ortiq bo'lgan bosim ostida sinovdan o'tkaziladi. Atsetilin balloni 3,5 MPa gacha bo'lgan bosim ostida azot gazi bilan to'ldirilib 1 metr chuqurlikgacha bo'lgan suv ostida tekshiriladi.

Agar davriy sinov muddati o'tib ketgan bo'lsa, qoidalarda ko'rsatilgan tamg'alar bo'lmasa, ventillari buzilgan yoki korpusi shikastlangan bo'lsa, ballonlarni gaz bilan to'ldirishi taqiqlanadi. Ballonlar tik holda saqlanishi, ularning ag'anab ketishi, ifloslanishi va qizishiga yo'l qo'ymaydigan qilib to'sib qo'yilishi zarur. Bosim

bilan ishlaydigan idishlarni o‘rnatish va xavfsiz ishlatish qoidalariga ko‘ra, siqilgan gaz ballonlarining qoldiq bosimi 50 kPa dan, atsetilen ballonlariniki esa 50 kPa dan past hamda 100 kPa dan ziyod bo‘lmasligi lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Texnika xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
2. Xavfsizlik texnikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Xavfsizlikni ta’minlash vositalariga nimalar kiradi?
4. To‘siq nima va uning turlari?
5. Blokirovka qurilmasi nima va qayerda ishlatiladi?
6. Saqlagich klapanlarining ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
7. Signalizatsiya qurilmasining xavfsizlikni ta’minlashda tutgan o‘rni.
8. Xavfsizlikni ta’minlovchi belgilar turlari va vazifasini aytib bering.
9. Transport va qishloq xo‘jalik mashinalarining bo‘ylama va ko‘ndalang turg‘unligi deganda nimani tushunasiz?
10. Odamlarni transport vositalarida tashishga qo‘yilgan talablar va qoidalar.
11. Chorvachilikda ishlatiladigan mashina va mexanizmlarga xavfsizlik talablari.
12. Bosim ostida ishlaydigan uskunalardan foydalanishdagi xavfsizlik talablariga nimalar kiradi?

9-§. ELEKTR XAVFSIZLIGI

9.1. Elektr tokining odam va hayvonlarga ta'siri

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish omillaridan biri uni elektrlashtirishdir. Ammo ishlab chiqarish jarayonlarini elektrlashtirish hissasi oshgan sari undan jarohatlanish oqibatlari ham oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra qishloq xo'jaligida sodir bo'layotgan jami baxtsiz hodisalarning 0,5-1,0 % i elektr toki bilan jarohatlanishga to'g'ri kelib, shundan o'lim bilan tugagani 20-40 % ni tashkil etadi.

Elektr tokidan jarohatlanshlar quyidagi hollarda sodir bo'lishi mumkin:

- sim yoki tok o'tkazuvchi ochiq qismlariga kutilmaganda tegib ketishdan;
- himoyalanganlik buzilganligi sababli qurilmalarning metall qismlarida kuchlanish paydo bo'lishi natijasida;
- yuqori kuchlanishli elektr qurilmalaridan yoy orqali elektr tokini ta'sir qilishi;
- tasodifan kuchlanish ostiga tushib qolish;
- elektr uzatuvchi qismlarga katta o'lchamli mashinalarning (avtokranlar, don o'rish va paxta terish kombaynlari) ruxsat etilmagan darajada yaqinlashuvi natijasida.

ГОСТ12.1.009-2017 da belgilangan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar tizimi va vositalari, odamlarning elektr maydoni va statik (turg'un) elektr tokining zararli va xavfli ta'siridan himoyalanishini ta'minlaydi.

Elektr tokining insonga ta'siri natijasida, u organizmga kimyoviy, issiqlik va biologik ta'sir ko'rsatib, qon tarkibidagi moddalar va boshqa organik suyuqliklarni parchalanishiga, terining ayrim qismlarini kuyishiga va organizmda og'riq vujudga kelishi, hujayralar qo'zg'alib terini qichishi, tomir tortilishi va mushaklarning qisqarishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari elektr

toki butun organizmni jarohatlab, asab tizimini, yurak va nafas olish organlarini to'liq yoki qisman falajlashi mumkin.

Elektr tokidan jarohatlanish darajasi tokning kuchi, inson tanasining qarshiligi, kuchlanish qiymati, tok chastotasi va turi, tok yo'li, ta'sir qilish muddati, shuningdek odam organizmining alohida xususiyatlariga bog'liq bolib, xavf yuz berishi mumkin bo'lgan tok kuchini quyidagi jadval asosida baholash mumkin.

9.1-jadval

Inson uchun tok ta'sirining pog'onalari

№	Tok kuchi, Ma	Tok ta'siri oqibatlari	
		O'zgaruvchan tok	O'zgarmas tok
1	*0,5 gacha*	Sezilmaydi	Sezilmaydi
2	*0,6-1,5*	Qo'lda yengil silkinish	Sezilmaydi
3	*2-3*	Qo'llarning qattiq silkinishi	Sezilmaydi
4	*5-7*	Qo'llarning qaltirashi	Qo'llarni qizib borishi
5	*8-10*	Qiyin, ammo qo'llarni ajratib olish mumkin	Qo'llarni qizib borishining kuchayishi
6	*20-25*	Qo'llar birdaniga falajlanib, o'zini o'zi ajratib ololmaydi, nafas olish qiyinlashadi	Qo'llarni qizishining oshishi va mushaklarning qisqa qisqarishi
7	*50-80*	Nafas olish a'zolari falajlanib, yurak fibriliyatsiyasi sodir bo'ladi.	Qo'llarning qizishi, mushaklarning, to'la qisqarishi, nafas olishning qiyinlashishi
8	*90-100*	Nafas olish a'zolari falajlanib va ta'sir vaqti 3s dan oshsa yurak falaji yuz beradi.	Nafas a'zolarining falajlanishi kuzatiladi
9	*300 va undan yuqori*	0,1s dan ko'p bo'lgan vaqtda ta'sir etsa, nafas olish a'zolari va yurak falaj bo'lib, to'qimalarning buzilishiga olib keladi.	O'lim holati



9.1-rasm. Elektr zanjir ta'sirida tushgan insonni tana bo'lab elektr zarayadlarning harakati

Elektr tokidan jarohatlanishda odam tanasining qarshiligi katta ahamiyatga ega. Odam tanasining elektr tokiga qarshiligi keng 100 Om dan 1000 Om oralig'ida o'zgaradi va teri qoplamining holatiga, bog'lanishning maydoni va zichligiga, shuningdek o'tayotgan tokning kuchi va chastotasiga va ta'sir qilish muddatiga bog'liqdir. Charchaganda, kasallanganda, terlaganda, elektr qurilmalari ostida ishlayotganda diqqat-e'tibor boshqa narsaga chalg'iganda organizmning elektr toki ta'siriga qarshiligi keskin pasayadi. Yuragi kasal, terisida qichima kasalligi bor, oshqozoni yara, epilepsiya bilan og'rigan, jigar hamda buyragi kasal va boshqa kasalliklari bor kishilar elektr qurilmalarida ishlashga qo'yilmaydi. Shuning uchun elektr qurilmalariga xizmat ko'rsatish uchun maxsus o'qishdan va tibbiy ko'rikdan o'tganlargagina ruxsat etiladi.

Hayvonlarning organizmiga ham elektr toki, odamlardagi kabi ta'sir qiladi, hamda hayvonlar og'irligining ortishi bilan elektr toki ta'sirining xavfi kamaya boradi. Tok qiymati 100 mA bo'lganda, yurak faoliyatida yoki nafas olishning ishida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Ammo, hayvon tanasining qarshiligi, odam tanasining qarshiligidan ancha kam. Yirik shoxli mollarning oldingi va orqa oyoqlari orasidagi tana qarshiligi 400-600 Om, hayvon yiqilganda esa 50-100 Om gacha kamayadi.

9.2. Elektr tokidan jarohatlanish sabablari va uning oldini olish

Qishloq xo'jaligida, odatda, o'zgaruvchan elektr tokidan foydalaniladi. Ko'pgina qurilma va uskunalar 380 V kuchlanish bilan ishlaydi, yoritish uchun esa 220 va 127 V kuchlanishlardan va qo'l asboblarida 36 V, 42 V kuchlanishlar rostlagichlar orqali ta'minlab beriladi. Elektr xavfsizligi shartlariga ko'ra, elektr qurilmalar 1000 V gacha va 1000 V dan yuqori kuchlanishli qurilmalarga bo'linadi.

Elektr toki urishiga kishining elektr zanjiriga ulanib qolishi (tegib ketishi) sabab bo'ladi. Elektr tokiga ulanib qolishning ikki xil shakli bor



I – bir va ikki fazali tok



II – bir fazali tokga izolyatsiyalangan neytral orqali himoyalanish



III– nol fazani ajratgichga qo'shib qo'yish natijasida



IV – bir fazali tokga yerga ulangan neytral orqali himoyalanish

9.2-rasm. Insonni elektr zanjiriga qo'shilib qolish holatlari sxemasi

Bir yoki ikki fazali tok ta'sirida tushib qolish oqibatida, kishining jarohatlanish darajasi kuchlanish kattaligiga, pol va poyabzalning himoyalash xususiyatiga, ishlab chiqarish xonasidagi muhit sharoitiga, simlarga tekkan paytdagi kishining holatiga bogliq bo'ladi. Tana, qo'llar orqali tok o'tishi eng xavfli hisoblanadi,

chunki tok o'tadigan yo'lda yurak, o'pka, miya va boshqa muhim organlar joylashgan (9.1-rasm)

Elektr o'tkazgichlarning uzilishi natijasida, ularning yerga ulangan elektr qurilmalari korpusiga tegib qolishi yoki to'g'ridan–to'g'ri yerda uzilib yotishi natijasida, inson kuchlanish ostidagi tok oqimi ta'siriga tushib qolish holatini (9.3 – rasm b)) *qadamiy kuchlanish* deyiladi.

Yerning elektr uzatgich bilan tutashuv hududidagi potensial φ maksimal qiymatga, ya'ni o'tkazgich potentsialiga teng bo'lib 20 m dan keyin nolga teng bo'ladi. Qadamiy kuchlanish hududida qadamlar kattalashishi bilan qadamiy kuchlanish miqdori o'sib boradi, shuning uchun qadamiy kuchlanish hududlaridan faqatgina kichik qadamlar yoki ikki oyoqda sakrash usuli bilan chiqib ketish mumkin.



a) b)

9.3-rasm. Qadamiy kuchlanishning hosil bo'lish sxemasi (a) va potentsiallar farqi hisobi(b):

I – kontakt hudud; II- o'ta xavfli hudud; III – xavfsiz hudud.

Insonning elektr tokidan jarohatlanishining boshqa hollariga quyidagilar sabab bo'ladi:

1. Elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

2. Elektr qurimalarining tok bo'lishi mumkin bo'lmagan metall qismlarini kuchlanish ostida bo'lib qolganda tegib ketish natijasida;

3. Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalardan foydalanmaslik natijasida.

Elektr uzatish va energiyadan keng foydalanish samarali va qulay bo'lishi bilan birga, kishilar uchun xavfi yuqori bo'lgan manba hisoblanadi. Elektr energiyasidan foydalanishda ehtiyot choralari ta'minlanmagan bo'lsa, uning ta'siri natijasida o'lim holati yuz berishi mumkin. Elektr qurilmalaridan foydalanish va xizmat ko'rsatish faoliyatini qonun va boshqa meyoriy hujjatlar asosida tartibga solish va unga qat'iy rioya etish kundalik faoliyat davomida noxush voqea va hodisalarni oldini olishga xizmat qiladi. Elektr tizimlari va uskunalar to'g'ri tanlangan va o'rnatilgan bo'lishi hamda ulardan elektr toki urishidan muhofazalangan holda to'g'ri foydalanish zarur. Buyuk Britaniyada taxminan 8% o'limning barchasi elektr tokidan jarohatlanish natijasida yuz beradi. So'nggi bir necha-yil davomida sodir bo'lgan 1000 ta baxtsiz hodisalar tahlili shuni korsatadiki, har-yili taxminan 25 kishi elektr toki ta'sirida jarohatlangan va oqibati o'lim bilan tugagan. Yirik avariyalarning aksariyati ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida sodir bo'ladi.

Elektr qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi vakolatli shaxs – salomatlikni saqlash, va umuman elektr asbob-uskunalari hamda elektr bilan bog'liq ishlarni bajarishda xavfning oldini olish va undan himoyalanish bo'yicha yetarli darajada bilim va tajribaga ega bo'lishi shart.

Elektr manbasi bilan bog'liq mavjud asosiy xavflar:

- Elektr tok urishi va kuyishlar;
- Elektr qurilmalaridagi yong'in va portlashlar;
- Ko'chma elektr uskunalardan foydalanishda bu xavflarni sodir bo'lish ehtimoli yuqoriligi.
- Boshqa o'rta xavflar.

Elektr tok urishi deb, elektr toki inson tanasi orqali oqib o'tganda undagi mushaklarning qisqarishi va tortilib qolishiga aytiladi. Bunda elektr toki zarbasi yanada qattiq bo'lib, teri qismini kuydirib og'riq bilan o'tadi. Shok holatini yuz berishiga yashin

natijasida hosil bo'lgan yuqori kuchlanishli zaryad sabab bo'lishi mumkin. Bunday paytda inson yer uchun jonli o'tkazgich vazifasini o'taydi. Elektr shok ta'siri va jarohatining holati va oqibati ta'sir etadigan elektr toki kuchlanishining miqdori va inson terisining qarshiligiga bog'liq. Agarda teri nam holatda bo'lsa, 220-240V miqdoridagi kuchlanishning insonga bir marotabalik zarbasi natijasi halokatga olib kelishi mumkin.

9.3. Binolarning elektr xavfsizligi bo'yicha tasnifi

Elektr tokidan jarohatlanish, ishlab chiqarish binolari va ish joylarining muhitiga bog'liq bo'lib, namligining yuqori bo'lishi tana qarshiligini kamaytiradi. Ishlab chiqarish muhitiga qarab binolarning elektr xavfsizligi xavfi kam bo'lgan, xavfi yuqori bo'lgan va o'ta xavfli xonalarga bo'linadi.

Xavfi yuqori xonalar pollari tok o'tkazuvchan (metall, tuproqli, betonli), xonalarning namligi (havoning nisbiy namligi 75% dan yuqori) yoki tok o'tkazuvchan changlarning mavjudligi, havo haroratining +30°C dan yuqoriligi, yer bilan ulangan bino va uskunalarning metall konstruksiyalari hamda elektr jihozlarining metall korpuslariga ishchining bir vaqtda tegib qolish ehtimoli borligi bilan xarakterlanadi.

Elektr xavfi o'ta yuqori xonalar deb havoning nisbiy namligi 100% ga yaqin, muhitning kimyoviy faolligining (kislota bug'lari, ishqorlar) yuqori bo'lishi, shuningdek, har ikkala shartlarning bir vaqtda mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shu kategoriyaga ochiq maydonlarda, xonadan tashqarida ishlatilayotgan elektr qurilmalarni kiritish mumkin. Qishloq xo'jaligidagi ko'pchilik xonalar xavfi yuqori xonalarga (poli yer xonalar) yoki o'ta xavfli (molxonalar, cho'chqaxonalar, issiqxonalar va boshqalar) kiradi.

Yerga ulash. Ishlovchilarning elektr xavfsizligini ta'minlash maqsadida elektr qurilmalarining tok yurmaydigan qismlarini yerga ulab qo'yish himoyalovchi yerga ulash deyiladi. Elektr tarmog'i simlari mashina qismlariga tasodifan tegib ketganda yoki uzilib uning ustiga tushganda, himoyalovchi (izolyatsiya) qismi ishdan chiqib chulg'am simlari yalang'ochlanib korpusga tegib qolganda, shuningdek, mashinaning tok yurmaydigan qismlari kuchlanish

ostida qolganda kishilarni elektr toki ta'siridan himoyalash uchun himoyalovchi yerga ulash usulidan foydalaniladi. Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan tarmoqlarda yerga ulagichning qarshiligi 4 Om dan oshmasligi lozim. Yerga ulash simlari yerga ulagichlarga va yerga ulanadigan konstruksiyalarga payvandlab, mashinalar, apparatlar korpusiga esa payvandlab yoki boltlar yordamida mustahkam qilib ulanadi (9.4-rasm. a)).

Elektr qurilmalar bilan xavfsiz ishlashni ta'minlashda texnik va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish katta rol o'ynaydi. Elektr qurilmalariga xizmat ko'rsatishning xavfsiz bo'lishini ta'minlaydigan tadbirlar quyidagilar:

- ❖ himoya to'siqlari o'rnatish va tok o'tkazuvchi qismlargacha belgilangan himoyalovchi masofaga rioya qilish;
- ❖ elektr jihozlarining korpusini himoyalovchi materiallardan tayyorlash;
- ❖ himoya asboblaridan foydalanish;
- ❖ xato operatsiyalarning oldini olish maqsadida, ishga tushirish apparatlarida blokirovkalovchi himoya vositalaridan foydalanish;
- ❖ kommutatsion apparatlar xato yoki o'z-o'zidan ulanib qolganda, ularni tarmoqdan uzib qo'yish yoki ularga kuchlanish berilishiga to'sqinlik qiladigan choralar ko'rish;
- ❖ tarmoqlarda odamlar ishlayotganda «Ulanmasin - odamlar ishlayapti», «Ulanmasin - tarmoqda ishlanyapti»; «Ochilmasin - odamlar ishlayapti» belgilarini osib qo'yish va to'siqlar o'rnatish;
- ❖ yerga ulanishi zarur bo'lgan tok o'tkazuvchi qismlarda kuchlanish yo'qligini tekshirish;
- ❖ yerga ulagichlar o'rnatish yoki ko'chma yerga ulagichlar o'rnatish;
- ❖ ish o'rnini himoyalash va u yerga «To'xta, yuqori kuchlanish!», «Kirma, o'ldiradi!», «Shu yerda ishlang!», «Shu yerdan kiring!» kabi ogohlantiruvchi belgilarni osib qo'yish.

Nolga ulash. Tok o'tkazmaydigan qismlarda kuchlanish paydo bo'lganda undan jarohatlanishning oldini olish uchun bu qismlarga tarmoqning nol simi ulab qo'yiladi, faza simlaridan biri korpusga tegib qolganda, shu faza bilan nol simi qisqa tutashadi va u orqali katta tok otadi. Bu tok eruvchan himoyalagich yoki boshqa himoya

vositasiga avtomatik ta'sir etib, uni ishga tushiradi, ya'ni shikastlangan fazani avtomatik tarzda uzadi. Bu usul odatda nol simi yerga ulangan kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan uch fazali to'rt simli tarmoqlarda qo'llaniladi (9.4-rasm b)).



9.4-rasm. Uskuna va elektr qurilmalarni himoyalovchisini yerga a), b) va nolga d) ulash sxemasi

Bitta tarmoqdan ta'minlanuvchi elektr qurilmalari korpuslarini yerga va nol simga ulash mutlaqo mumkin emas. Chunki, bunda yerga ulangan qurilma fazalaridan birining himoyasi shikastlanib korpusga tegib qolganda uning yerdagi simi orqali katta tok o'tib, yer bilan korpus orasida kuchlanish paydo bo'lib qoladi. Bu tok miqdor jihatdan nolga ulash rejimidagidan kam bo'lganligi uchun himoya vositasini ishga tushira olmaydi.

Ammo bitta elektr uskunasi bir vaqtda nol simga va yerga ulash xavfsizlik nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki, bunda yerga ulab qo'yilgan himoya nol simi yerga qayta ulanib qoladi.

Elektr qurilmalarni kutilmagan va elektr halokat holatida avtomatik tarzda o'chirishni ta'minlash uchun himoyalovchi avtomatik ajratgichlardan keng foydalaniladi. Uzgichlarning ishonchli ishlashi yerga ulash simlari kesimining to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

9.4. Elektr toki ta'siridan himoyalash tadbirlari va vositalari

Qishloq xo'jaligida elektr tokidan jarohatlanishning oldini olish uchun quyidagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ishlab turgan barcha elektr jihozlarini iste'molchilarning elektr qurilmalarini ishlatishda rioya qilinadigan qoidalar va texnika xavfsizligi qoidalari talablariga javob beradigan holatga keltirish;
- mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, elektr qurilmalari bilan ishlash xavfsizligini oshiradigan qo'shimcha tadbirlarni ko'rish;
- elektr asboblarini, tezda almashlab ulashlarni, ta'mirlash ishlarini pasaytirilgan kuchlanishga o'tkazish;
- ishlatiladigan shaxsiy himoyalanish vositalarini takomillashtirish;
- texnika xavfsizligi bo'yicha ishchilar malakasini oshirish va har-yili texnik sinovlarni o'tkazish;
- ishlab chiqarish sexlarining barcha nuqtalarida yer potensiallarining bir xilligini ta'minlash.

Kichik kuchlanishdan foydalanish. Elektr parma, elektr randa, elektr arra kabi asboblarni ishlatish jarayonida, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida past 36 yoki 42 V kuchlanishlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Past kuchlanish (42, 36 va 12 V) manbai sifatida 380-127 V li tarmoqqa ulanuvchi maxsus pasaytiruvchi transformatorlardan foydalaniladi. Transformator korpusida kuchlanish paydo bo'lib qolishi oqibatida odamlarni tok urish xavfidan himoyalash maqsadida transformator korpusi, neytral simi yoki ikkilamchi chulg'amining o'rta nuqtasi yerga ulab qo'yiladi.

Qo'l elektr mashinalarini ГОСТ 12.2.013-87 talablariga muvofiq har olti oyda bir marta megometr yordamida 500 V kuchlanishga tekshirib turish shart. Texnik ishlatish va texnika xavfsizligi qoidalariga asosan barcha elektrlashtirilgan qo'l asboblari, shu jumladan qo'shaloq himoyalanganlari ham megometr yordamida har oyda tekshirib turilishi kerak. Bunday asboblarni ishchining qo'liga har safar berganda undagi himoyalagichda shikastlar bor-yo'qligini va uning korpusga tegish-tegmasligini maxsus stend yoki asboblar (pribor) orqali tekshirish lozim.

Statik zaryadlar va undan himoyalanish choralari. Ma'lumki, ikki dielektrik moddalarni o'zaro ishqalanishi natijasida hosil bo'lgan zaryadlarga statik zaryad deyiladi. Bunday zaryadlar tasmali uzatmalarda tasmaning shkivda ishqalanishi va sirpanishi natijasida, metall quvurlar orqali o'tadigan suyuqliklarning uning devoriga ishqalanishi natijasida va dielektrik suyuqliklarning havo bo'ylab tez harakati natijasida hosil bo'ladi.

Statik zaryadlar odam va yong'in xavfsizligi uchun xavflidir. Elektorstatik zaryadlardan himoyalanishning asosiy chora-tadbirlariga suyuqliklarni ko'zg'atishda (bir joydan ikkinchi joyga yetkazishda) ishlatiladigan uskunalarni, quvur yo'llarini yoki metall sig'imlarni yerga ulash yo'li bilan zaryadlarni yerga o'tkazib yuborish kiradi.

Statik zaryadlarni kamaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish shart:

- dielektrik suyuqliklarni oqizganda, shlangni sig'imning tubigacha tushirish lozim;
- dielektrik suyuqliklarni tashish paytida sig'im yerga osilib sudraladigan zanjir bilan jihozlangan bo'lishi shart;
- tasmali uzatmalarda elektr zaryadlarini hosil bo'lishini kamaytirish maqsadida tasmalarni moylab turish tavsiya qilinadi;
- vaqt-vaqti bilan xonalarning umumiy nisbiy namligini 70% ga chiqarib namlab turish zarur;
- uskunalarda statik zaryadlarning paydo bo'lishini va ularni hosil bo'lish sabablarini yo'qotish tadbirlarini har doim nazorat qilib turish kerak.

Simyog'ochli elektr uzatma tarmoqlaridagi xavfsizlik. Kuchlanish ta'sirida turgan havo tarmoqlariga xizmat ko'rsatish uchun, yoshi 18 dan kam bo'lmagan, maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan va tibbiy xulosaga ko'ra sog'lom, yuqori malakali kishiga ruxsat beriladi. Bunda tarmoq hamma vaqt kuchlanish ta'sirida turibdi deb hisoblab, machtali podstansiyalar hamda ajratuvchi punktlarning tayanchlariga yoki konstruksiyalariga chiqish taqiqlanadi.

Sim uzilganida kuchlanish ta'siriga tushib qolmaslik uchun trassaning chetidan yurish kerak. Uzilgan yoki juda salqilanib qolgan simni ko'rgan har qanday shaxs bu simga odamlarni yaqinlashtirmaslik choralarini ko'rishi kerak. Agar sim yerga tegib qolgan bo'lsa, unga tarmoq kuchlanishi 1-10 kV bo'lgan simga 5 m

masofagacha va 35 va 110 kV kuchlanish bo‘lganda 8 m masofagacha yaqinlashish mumkin emas. Bu narsani mahalliy aholiga tushuntirish va ulardan birini soqchi qilib qo‘yib, uzilgan joy haqida elektr tarmoqlari xizmatining eng yaqin bo‘lgan hududiga xabar berish kerak. Agar sim aholi yashamaydigan joyda uzilgan bo‘lsa xavf haqida ogohlantiruvchi 2-3 ta ko‘rgazmali vositani tayoqlarga mahkamlab, uzilgan joy atrofiga ilib qo‘yish kerak.

Elektrdan himoyalovchi vositalar to‘suvchi va himoyalovchi turlarga bo‘linadi. Himoyalovchi vositalar insonni tok o‘tkazuvchi qismlardan va yerdan izolyatsiyalash uchun xizmat qiladi. Asosiy himoyalovchi vositalarning izolyatsiyasi elektr qurilmalarning to‘liq ishchi kuchlanishini ko‘taradi va ular bilan kuchlanishda bo‘lgan tok o‘tkazuvchi qismlarga tegishga ruxsat etiladi. Yordamchi vositalar o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi xodimga xavfsizlikni ta’minlab berolmaydi, shuning uchun ularni asosiy vositalar bilan birga qo‘llash lozim.

Kuchlanishi 1000 V dan yuqori bo‘lgan elektr qurilmalarning asosiy izolyatsiyalovchi vositalariga izolyatsiyalovchi shtangalar, izolyatsiyalovchi va elektr o‘lchov qisqichi, kuchlanish ko‘rsatkichlari, izolyatsiyalovchi olinadigan ko‘targichlar, narvonlar, maydonchalar kiradi (9.5-rasm). 1000 V gacha kuchlanishga ega bo‘lgan elektr qurilmalarida esa yuqorida ko‘rsatilganlardan tashqari - dielektrik qo‘lqoplar va yonlari izolyatsiyalangan asboblar bo‘ladi.

Kuchlanishi 1000 V dan ortiq bo‘lgan elektr qurilmalardagi qo‘shimcha izolyatsiyalovchi vositalarga dielektrik qo‘lqop, boti, gilamchalar, izolyatsiyalovchi tagliklar kiradi. 1000 V gacha bo‘lgan elektr qurilmalarda esa undan boshqa-dielektrik kalishlar, gilamchalar, izolyatsiyalovchi tagliklar mavjud.

To‘suvchi himoyalovchi vositalar (qo‘lqop, to‘suvchi kataklar, izolyatsiyalovchi qatlamlar, vaqtinchalik ko‘chma yerga ulagichlar, qisqartiruvchi simlar) tok uzatuvchi qismlarni vaqtincha to‘sishga mo‘ljallangan.

Yordamchi himoyalovchi vositalar - (saqlovchi belkuraklar, xavfsizlik arqonlari, temir tutqichlar, himoyalovchi ko‘zoynak, qo‘lqop, movut) kostyumlar, balandlikdan yiqilish ehtimolidan, shuningdek, elektr tokining yorug‘lik, issiqlik, kimyoviy va mexanik ta’siridan saqlaydi.



9.5-rasm. Elektr toki ta'siridan himoyalanish tadbirlari va vositalari

Nazorat uchun savollar

1. Elektr toki deganda nimani tushunasiz?
2. Elektr toki va quvvati o'lchov birligi nima?
3. Elektr toki inson va hayvonlarga ta'siri qanday oqibatlarga olib keladi?
4. Elektr tokining insonga ta'siri jihatdan guruhlanishi nima?
5. Fibrilyatsion holat deganda nimani tushunasiz?
6. Elektr toki ta'siri natijasida inson organizmida qanday o'zgarishlar yuz beradi?
7. Inson qachon va qanday holatlarda elektr toki ta'siriga tushib qoladi?
8. Qadamiy kuchlanish nima?
9. Elektr toki ta'siridan himoyalanish usullarini aytib bering.
10. Statik zaryadlarning yuzaga kelish sabablari va uni oldini olish nima?
11. Yashin qaytargich deganda nimani tushunasiz va uning vazifasi nimadan iborat?
12. Nolga va yerga ulash deganda nimani tushunasiz?
13. Qadamiy kuchlanish nima va undan qanday himoyalanish mumkin?

10-§. YONG‘IN XAVFSIZLIGI

10.1. Asosiy tushunchalar

Ushbu mavzuda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

yong‘in - odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonish;

yong‘in nazorati - yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyat;

yong‘inlar profilaktikasi - yong‘inlar kelib chiqishi ehtimolini istisno etishga va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ogohlantirish chora-tadbirlari majmui;

yong‘indan saqlash xizmati - odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni yong‘inlardan himoya qilish, shuningdek obyektlarda, aholi punktlarida hamda boshqa hududlarda yong‘in xavfsizligini talab darajasida saqlab turish maqsadida belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui;

yong‘in xavfsizligi - odamlarning, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkining, shuningdek atrof tabiiy muhitning yong‘inlardan himoyalanganligi holati;

yong‘in xavfsizligi talablari - yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan ijtimoiy va texnik xususiyatga ega maxsus shartlar;

yong‘in xavfsizligi talablarining buzilishi - yong‘in xavfsizligi talablarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;

yong‘in-texnik mahsuloti - yong‘in xavfsizligini ta’minlashga mo‘ljallangan maxsus texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulotlar, shu jumladan yong‘inni o‘chirish texnikasi va asbob-uskunalari, yong‘inni o‘chirish aslaha-anjomlari, olovni o‘chirish va olovdan himoya qilish moddalari hamda materiallari, maxsus aloqa va bosh-

qarish vositalari, elektron hujjatlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari, shuningdek yong'inlarning oldini olish hamda ularni o'chirishning boshqa vositalari;

yong'inga qarshi rejim - yong'in xavfsizligi talablari buzilishining oldi olinishini va yong'inlar o'chirilishini ta'minlash yuzasidan odamlarning xatti-harakat qoidalari, ishlab chiqarishni tashkil etish va binolarni (hududlarni) saqlash tartibi;

yong'inga qarshi alohida rejim - yong'in xavfi yuqori bo'lgan davrda muayyan hududlarda qonun hujjatlariga muvofiq yong'in xavfsizligining qo'shimcha talablarini belgilash.

10.2. Yong'inning kelib chiqish sabablari va xatarli omillari

Kundalik hayotdagi ijtimoiy, maishiy va ishlab chiqarish jarayoni davomida yong'inni kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

⇒ isitish pechlarini qurish yoki ularni ishlatish qoidalarining buzilishi;

⇒ ishlab chiqarishda yoki uyda olovdan ehtiyotsizlik bilan foydalanish;

⇒ kerosinda ishlaydigan yoritish yoki qizdirish asboblarini noto'g'ri o'rnatish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish;

⇒ yashin yoki statik elektr razryadlar;

⇒ mashinalar va ishlab-chiqarish jihozlarining nosozligi hamda ularni ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik (ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan uchqunlar, elektr qurilmalaridagi qisqa tutashuvlar yoki ularning yerga ulanib qolishi, elektr simlarida zo'riqishning yo'l qo'yilmaydigan darajada ortib isishi, kontaktlari yomon bo'lgan joylarning qizib ketishi va ulardan uchqun chiqishi, bug' qozonlarining portlashi);

⇒ qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yoki yonilg'ining saqlash qoidalariga rioya qilmaslik natijasida o'z-o'zidan yonib ketishi.

Yonish sharti, yonishning turlari. Yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o'zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko'p miqdorda yorug'lik va issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga **yonish** deyiladi. Yonish quyidagi turlarga bo'linadi:

Alangalanish - mahalliy qizish natijasida yonuvchi moddaning (uning bug‘ va gazlarining) turg‘un yonishi. Alangalanishga yonuvchi moddaning alanga yoki cho‘g‘langan jismga tegishi sabab bo‘lishi mumkin.

Chaqnash - yonuvchi modda bug‘i bilan havo yoki kislorod aralashmasining alangaga, elektr uchquniga yoki qizigan jismga tegishi natijasida tez yonib tugashi.

Portlash - moddaning bir holatdan ikkinchi holatga juda tez o‘tishi (portlab yonishi) bo‘lib, bunda ko‘p miqdorda energiya ajralib chiqadi va ko‘p miqdorda siqilgan gazlar hosil bo‘ladi, bu siqilgan gazlar yemirilishga olib kelishi mumkin. Portlashda hosil bo‘ladigan yonuvchi gazsimon mahsulotlar havoga tegib, ko‘pincha alangalanishi va buning oqibatida yong‘in chiqishi mumkin.

O‘z - o‘zidan alangalanish - modda ma’lum haroratgacha qizdirilganda unga bevosita tegmasdan turib sodir bo‘ladi. O‘z - o‘zidan alangalanish harorati moddaning yong‘in jihatidan xavfli xossalarini belgilovchi muhim omildir. Bu holat moddaning o‘zida kechadigan fizikaviy, kimyoviy, biologik jarayonlar ta’sirida va moddaning qizishi natijasida yuz beradi.

Ko‘p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yong‘in hosil bo‘lishi va davom etishi uchun yonuvchi modda (qattiq, suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda vazifasini havodagi kislorod o‘tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho‘g‘langan narsa) mavjud bo‘lishi kerak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15 % dan yuqori bo‘lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi, undan past kontsentratsiyada esa yonish sodir bo‘lmaydi. Bundan tashqari, oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o‘tashi mumkin.

Xavfliligi bo‘yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: yonmaydigan, yonish yoki yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar.

Yonmaydigan modda va ashyolarning yonish yoki yong‘inni uzatish xususiyatlari yo‘q. Masalan, g‘isht, metall, beton va boshqalar. Yonish xavfi mavjud modda va ashyolar havoda yonish va yong‘inni uzata olish xususiyatiga egadir. Masalan, yog‘och,

qog'oz, paxta tolasi, mazut va portlash xossasiga ega bo'lmagan changlar.

Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashyolar, qattiq va suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alangalanib ketish xossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod angidridi, azot kislotasi va boshqalar hamda yonuvchi moddalar bilan aralashganda o'zidan kislorod ajratib chiqaruvchi, qizdirilganda yoki mexanik ta'sir ostida portlovchi birikmalar kiradi. Masalan, paxta yoki tamaki changi bilan selitra aralashganda shu hol ro'y berishi mumkin. Shu bilan birga· havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmalar hosil qiluvchi changlar ham bunga mansubdir. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o'zi yonmaydigan, lekin suv bilan aralashganda parchalanib, gaz ajratib chiqaruvchi va bu gaz havo bilan birikkanda portlovchi birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi (kalsiy karbid).

Portlovchi narsa va moddalar havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, atsetilen) hosil qiladi. Portlash xavfi mavjud moddalarga yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi (kislorod yonuvchi gaz bilan aralashganda portlashga olib keladi). Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta'minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, ballonlarda siqilgan holda saqlanuvchi karbonat angidrid gazi. Portlovchi moddalarga, shuningdek, havo bilan aralashgan holdagi noorganik moddalar ham (alyuminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi.

10.3. Yong'in xavfsizligiga doir asosiy talablar va qoidalar

Vujudga kelishi mumkin bo'lgan yong'inni oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- tashkiliy (ko'ngilli o't o'chiruvchi drujinalari yoki yong'indan muhofazalash drujinalari tuzish, omma orasida tushuntirish ishlari olib borish);
- texnikaviy tadbirlar ishlab chiqish (yong'in yoki portlash jihatidan xavfli xonalarga alohida konstruksiyali elektr jihozlar o'rnatish, nosoz pechlar, mashinalar, elektr jihozlardan, shuningdek, oson alangalanadigan suyuqliklar saqlanadigan yoki ishlatiladigan

joylarda olovdan foydalanishni taqiqlab qo‘yish, yashin qaytargichlar o‘rnatish);

➢chiqqan yong‘inning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida obyektlarni o‘tga chidamli materiallardan qurish;

➢binolar orasidagi yong‘inga qarshi oraliqlarga rioya qilish;

➢yonayotgan binolardan odamlar, hayvonlar va qimmatbaho xo‘jalik buyumlarini muvaffaqiyatli ravishda ko‘chirishga imkon beradigan choralarni ko‘rish (kerakli miqdorda eshiklar, zarur kenglikda yo‘laklar qurish va ularni to‘sib qo‘yishni man etish;

➢yong‘inni o‘chirishni osonlashtiradigan tadbirlarni joriy qilish (yong‘inni o‘chirish uchun narvonlar, yong‘in kuzatish minoralari, suv havzalari va binolarga kelish yo‘llarini qurish, yong‘inga qarshi avtomatlashtirilgan o‘chirish vositalarini hamda signalizatsiyasini o‘rnatish).

Ishlab chiqarish bino va qurilmalarini loyihalashda ko‘zda tutilgan yong‘inga qarshi tadbirlar, eng avvalo, ishlab chiqarish jarayonining yong‘in jihatidan xavflilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Loyihalash meyorlariga muvofiq, ishlab chiqarish jarayonlarida yong‘inni kelib chiqishi xavfi darajasiga ko‘ra oltita toifaga bo‘linadi.

❖ A toifaga bug‘larning chaqnash harorati 28°C va undan past bo‘lgan juda ko‘p suyuqliklar yoki pastki portlash chegarasi havo hajmiga nisbatan 10 % va undan kam bo‘lgan yonuvchi gazlar ishlatiladigan ishlab chiqarish binolari kiradi.

❖ B toifaga benzin, kaltsiy karbid saqlanadigan omborlar, shuningdek, bug‘ining chaqnash harorati 28-61°C va pastki portlash chegarasi 10 % dan yuqori bo‘lgan oson alangalanuvchi suyuqliklar hamda gazlar ishlatiladigan ishlab chiqarish binolari kiradi. Bunday ishlab chiqarishlarga pichan uni tayyorlanadigan va tashiladigan sexlar, tegirmon hamda juvozxonalarning ajratish va to‘kish bo‘linmalari, elektrostansiyalar yoki qozonxonalarning mazut xo‘jaligi, ammiak bilan sovitish qurilmalarining apparat va mashina bo‘limlari kiradi.

❖ D toifaga yonuvchi qattiq moddalar, shuningdek portlash chegarasi 65 g/m^3 bo‘lgan chang yoki tolalar ajratib chiqaradigan moddalarga yoki bug‘larning chaqnash haroratidan yuqori bo‘lgan suyuqliklarga ishlov beriladigan va ular ishlatiladigan ishlab chiqarishlar kiradi. Bunday ishlab chiqarishlar qatoriga: yog‘och

tilish, duradgorlik va omixta yem va ozuqa tayyorlash sexlari, don saqlanadigan omborlar, tegirmonlarning don tozalash bo'limlari, zig'ir, nasha, paxtaga dastlabki ishlov berish sexlari, benzinsiz yonilg'i-moylash materiallari saqlanadigan omborlar, yopiq ko'mir omborlari, elektr taqsimlash qurilmalari kiradi. Benzinda harakatlanadigan transport vositalarini saqlash garajlari ham shu toifaga kiradi.

❖ E toifaga yonilg'i (shu jumladan gaz) yoqiladigan yoki yonilg'idan yonmaydigan moddalarga ishlov beriladigan ishlab chiqarishlar kiradi. Yonmaydigan moddalarga qizdirilgan yoki suyuqlantirilgan holatda ishlov beriladi va bunda nur energiyasi ajraladi. Bunday ishlab chiqarishlarga issiqlik elektr stansiyalaridagi qozonxonalar, temirchilik xonalari, mashina zallari, motor sinash stansiyalari kiradi.

❖ F toifaga yonmaydigan moddalarga deyarli sovuqlayin ishlov beriladigan ishlab chiqarishlar, masalan, yonmaydigan suyuqliklar haydaladigan nasos stantsiyalari, sabzavotlar, sut, baliq va go'sht mahsulotlariga ishlov berish sexlari, biologik yoki texnikaviy usulda isitiladigan issiqxona va parniklar kiradi. Gaz bilan isitiladigan parnik va issiqxonalar bundan mustasno, ular G toifaga taalluqli.

❖ G toifaga kiradigan ishlab chiqarishlarda suyuq fazasiz yonuvchi gazlar va portlovchi changlar shunday miqdorda ishlatiladiki, bunda ular hajmi xona hajmining 5% dan ko'p bo'lgan havo bilan aralashib portlovchi aralashmalar hosil qiladi. Bunda portlash texnologik jarayon shartlariga ko'ra yonishsiz sodir bo'ladi. Bu kategoriyaga, masalan, akkumulyatorlar xonalari, vodorodli yoki atsetilenli ballonlar omborini kiritish mumkin.

10.4. Yong'in haqida xabar berish va o'chirish vositalari

Yong'indan xabar bergichlar yong'inga qarshi kurashishda eng muhim vositachi hisoblanadi. Xabar bergich tizimi quyidagi talablarni bajarishi kerak: mahalliy yong'in muhofazasiga tezlikda va uzluksiz xabar berish, elektr xabar bergich qo'llanilganda elektr zanjirida uzilish ro'y berganda qabul apparatiga avtomatik tarzda xabar berish va boshqalar. Xabar berishni eng ishonchli turi elektr tarmog'i (tizimi) hisoblanadi. Elektr yong'in xabar bergichlar tizimi

yong‘inni aniqlash va uning joyini xabar berish uchun belgilanadi (10.1 va 10.2-rasmlar).



10.1-rasm. Mahalliy yong‘inni o‘chiruvchi avtomatik kukunli yong‘in o‘chirgich sxemasi:

1 - o‘t o‘chirgich; 2 - pnevmatik klapan; 3-Siqilgan gazli ballon; 4-yo‘naltiruvchi quvur; 5-sim arqon; 6 – qo‘lda qo‘shish dastasi; 7 - yengil eruvchi qulf; 8 – sochuvchi jikler.

Elektr yong‘in xabar bergichlar yangi qurilayotgan, qayta qurilayotgan va mavjud sanoat, qishloq xo‘jaligi bino va inshootlariga o‘rnatiladi. Ularning asosiy qismlari: xabar bergichlar yong‘in xabar bergich stansiyasi, elektr toki bilan ta’minlash tuzilmasi va aloqa chizig‘i bo‘ladi. Yong‘indan xabar bergichlar issiqlik (tashqi muhit haroratining ko‘tarilishini sezuvchi); tutunli (yonayotgan mahsulotlarning tutunini sezuvchi); yorug‘lik (alanganing yorug‘lik nurini sezuvchi); kombinatsiyashgan (issiqlik va tutunni sezuvchi); ultratovushli (yonishdagi ultratovush maydonining o‘zgarishini sezuvchi) va boshqa turlarga bo‘linadi.

Elektr yong‘in xabar bergichlar tizimini tanlashda xona va muhitning xususiyatlari, yonuvchi xavfli materiallarning borligi, ularning yonish xarakteri hamda texnologik jarayonlarni hisobga olgan holda tanlanadi. Shuningdek, xabar bergichlarning texnikaviy ma’lumotlarini hisobga olib, ularni ishlatish sharoitlariga moslab

tanlanadi. Nisbiy namligi 80% dan kam bo'lgan va yonish harorati ko'tarilishi mumkin bo'lgan joylarda issiqlikdan xabar bergichlar va portlash xavfi yuqori bo'lgan xonalarni portlashdan saqlash uchun universal turdagi xabar bergichlari qo'llaniladi.





10.2-rasm. Yong'indan xabar beruvchi datchiklar turlari va ularning yong'in xavfsizligi tizimiga ulanish sxemasi

Yong'inni o'chirish uslublari va o't o'chirgich moddalarning xususiyatlariga mos ravishda yong'inni o'chirish vositalari tanlab olinadi. Ular asosiy, maxsus va yordamchi vositalarga bo'linadi.

Yonh'inni asosiy o'chirish moddalari sifatida suv, ko'pik, kukun, karbonat angidrid gazi ko'p foydalaniladi. Ushbu moddalarni sepish uchun avtotsisterna va motopompalar ishlatiladi.

Maxsus vositalar - yong'inni o'chirishda maxsus ishlarni bajarish uchun ishlatiladi. Ularga avtonarvonlar va tirsakli ko'targichlar, yoritish va aloqa avtomobillari, shuningdek operativ avtomobillar kiradi.



10.3-rasm. Yong'inni o'chirishning asosiy vositalari

Yordamchi vositalar - yong'inni o'chirishdagi ishlarni bajarish uchun yetarli sharoit yaratadi. Bularga avto suvquygichlar, yuk avtomobillari, avtobuslar, traktor va boshqa mashinalar kiradi.

Birlamchi o't o'chirish vositalari - yong'in boshlanganda alangani keng tarqalib ketmasligini ta'minlash va o'chirish uchun qo'llaniladi.



10.4-rasm. Yong'inni o'chirishning maxsus vositalari



10.5-rasm. Yengil eruvchan metall qulfli sprinkler kallagi



10.6-rasm. Sprinkler qurilmasining ishlash printsipi:
1 - taqsimlagich quvurlari; 2- bosim signalizatorlari; 3-nazorat va monitoring qilish tizimi; 4- pnevmatik resiver yoki impuls qurilmasi; 5- boshqarish va yurgizish qismi; 6 - suv ochgich; 7 – elektr dvigateli; 8 - nasos; 9 - yong'in signalizatsiyasi; 10 - kompressor.

Bundan tashqari, yong'in tarqalib ketamasligi va o'z vaqtida lokalizatsiya qilish uchun sprinkler qurilmalaridan ham keng foydalaniladi (10.6-10.7-rasmlar). Sprinkler qurilmalari suv quvurlari tarmog'idan iborat bo'lib, imoratni shipiga purkagich-kallaklar (forsunkalar) ga burab mahkamlanadi. Bu tarmoqqa suv quvurlar yoki suvli idishdan nasoslar yordamida beriladi. Qurilmaning asosiy qismi - sprinkler purkagich-kallak hisoblanadi (10.7-rasm). Harorat belgilangan qiymatdan oshib ketganda unga o'rnatilgan oson eruvchi metall erib ketadi va suv yo'li ochiladi. Suv sprinkler kallagiga urilib maydalanib atrofga sochiladi. Kallakdagi o'rnatma 72°, 95°, 141° va 182° haroratga mo'ljallangan. Sprinklerlarni shunday joylashtirish kerakki, har bir kallak 12 m^2 pol yuzasiga va yong'in xavfi yuqori bo'lgan joylarda 9 m^2 yuzaga suv sochilishga mo'ljallangan bo'lishi kerak (10.6-rasm).

O't o'chirgichlar - yong'in boshlanish vaqtida o'chirish uchun qo'llaniladi. O't o'chiruvchi moddalarning tarkibiga qarab o't o'chirgichlar ko'pikli, gazsimon, suyuq, kukunsimon guruhlarga bo'linadi.

Yong'inni o'chirish vositalari ishlab chiqarish binolari joylashgan maydonda maxsus taxtalarga (shitlarda) terib qo'yiladi

(10.13-rasm). To‘siqlar imoratlar orasidagi masofadan 100 m o‘tga xavfli materiallar saqlanadigan joydan 50 m oraliqda qo‘yiladi. Yong‘in o‘chirish vositalari qizil rangda bo‘ladi, undagi yozuvlar esa oq rang bilan yoziladi.

Kimyoviy ko‘pikli o‘t o‘chirgichlar -kimyoviy ko‘pikli va mexanikaviy-havo turlarga bo‘linadi. Kimyoviy ko‘pikli o‘t o‘chirgich OXP-10 yona boshlagan qattiq materiallarni, maydoni 1 m^2 dan oshiq bo‘lmagan turli yonuvchi suyuqliklarni o‘chirish uchun qo‘llaniladi.

OXP-10 o‘t o‘chirgich payvandlangan po‘lat idishdan iborat. Uning usti cho‘yan qopqoq berkitgich tuzilma bilan kavsharlangan. Shtok prujinasiga rezinali klapan qo‘yilgan bo‘lib, qo‘l ushlagich berk vaziyatida kislotali stakan og‘ziga klapanni siqib turadi. Qo‘l ushlagich yordamida klapanni ko‘tarib tushiriladi. O‘t o‘chirgichning purkagichi maxsus membrana bilan berkitilgan bo‘lib, undan zaryad to‘la aralashmasdan chiqmaydi. Zaryadning kislota solingan stakani o‘t o‘chirgichning og‘ziga o‘rnatilgan. O‘t o‘chirgichni ishlatish qoidalari va uning asosiy ma’lumotlari korpusga yopishtirilgan yorliqda bayon etilgan (10.8-rasm).



10.7 -rasm. OXP -10 o‘t o‘chirgichining tuzilishi va undan foydalanish tartibi:

1-korpus; 2-tutqich; 3-stakan (ishqor turadigan); 4-rezinali klapan (stakan og‘zini germetik yopish uchun); 5-stakan kanallari; 6- klapanni holatini o‘zgartiruvchi dastak; 7-klapan shtoki; 8- sepish kanali; 9-yopgich membranasi.

Kimyoviy ko'pik o't o'chirgichlar bir-yilda kamida bir marta qayta zaryadlanadi. O't o'chirgichning ishlash vaqti 50-70 soniya, sochish uzunligi 6-8 m, ko'pik miqdori 40-55 l, kengayish darajasi 6 marta va turg'unligi 40 daqiqa.

OVP-5 va OVP-10 havo-ko'pikli qo'l o't o'chirgichlar turli moddalar va materiallar yona boshlaganda o'chirish uchun belgilangan (10.9-rasm). Uni ishqoriy metallar, moddalar, havosiz yonuvchi jismlar va tok ostida bo'lgan elektr qurilmalarni o'chirishda qo'llanilmaydi. Ularning o't o'chirish samaradorligi bir xil hajmdagi kimyoviy ko'pikli o't o'chirgichlarga nisbatan 2,5 marta ortiq. Neytral zaryadni amaliy qo'llanilishi yong'inni o'chirishdagi o't o'chirgichning atrofidagi jismlar uchun zararsizdir. Chunki yong'in o'chirilgandan so'ng havo-mexanikaviy ko'pik butunlay izsiz yo'qoladi. OVP-5 va OVP-10 bir-biridan faqat korpusning hajmi bilan farq qiladi.

Havo-ko'pikli o't o'chirish asboblari. Havo-ko'pikli o't o'chirish asboblari ishqorli elementlar va elektr uskunalaridan tashqari turli moddalarni o'chirishda ishlatiladi.



10.8-rasm. OVP-10 markali o't o'chirgichlar va ulardan foydalanish tartibi:

1-tutgich; 2-dastak; 3-ko'pik hosil qiluvchi aralashma; 4-purkagich; 5-karnaysimon quvurcha; 6-metall to'r.

OVP-10 havo-ko'pikli o't o'chirish (10.9-rasm) asbobi yong'in yuzalarini 60 karrali ko'pik bilan ta'minlashi mumkin. O't o'chirish asbobining qobig'ida ko'pik hosil qiluvchi qorishma,

stakan ichida esa bosim ostida karbonat kislotasi joylashtirilgan. Bu asbobni ishga tushirish uchun rezinali quvurlar qo‘yiladi (1-holat), dastak halqasi tortilib olinadi (2-holat) va dastak qattiq bosiladi (3-holat), shu bilan birga karbonat kislota solingan ballonchaning membranasi teshiladi. Undan chiqayotgan karbonat kislota asbob qobig‘i ichida bosim hosil qiladi. Natijada, ko‘pik hosil qiluvchi modda sifon orqali karnaysimon og‘izga chiqib, havo bilan aralashib ko‘pik hosil qiladi (4-holat).

Karbonat angidridli o‘t o‘chirgichlarda (OU-2, OU-5, OU-8 qo‘l va OU-25, OU-80 aravachaga o‘rnatilgan ko‘chma) karbonat angidrid (CO_2) o‘t o‘chirgich zaryadi hisoblanadi (10.10-rasm). Ularning tuzilishi bir-biriga o‘xshash. Belidagi son qiymati idishning hajmini litrda ifodalanishini ko‘rsatadi.

O‘t o‘chirgichlar siqilgan gaz bilan to‘ldirilgan bo‘lib, tok o‘tkazmaydi. Shuning uchun ular tok ostida bo‘lgan elektr qurilmalarini va katta bo‘lmagan yong‘inni o‘chirish uchun mo‘ljallangan. O‘t o‘chirgich po‘lat idishning konusli rezbasiga sifon nay bilan latun ventil burab qotirilgan. O‘tni o‘chirishda uni ishlatish uchun ventil maxovikni o‘ng tomonga oxirigacha buraladi. Uning trubkasidan chiqayotgan gaz yonuvchi jismga ventilni ochishdan oldin ro‘para qilinadi.



10.9-rasm. Korbonat angidridli o‘t o‘chirigich va undan foydalanish tartibi:

1-saqlagichli membrana plombasi; 2-zaryad plombasi; 3-maxovik; 4-ventil tomba; 5-ushlagich; 6-kronshteyn tombasi bilan; 7-qor hosil qilib beruvchi nay; 8-ballon; 9-yorliq joyi.

Kukunli o‘t o‘chirgichlar. Sanoatda OP-1 «Sputnik», OP-1 «Turist», OP-2 va OP-10 kukunli o‘t o‘chirgichlar ko‘p ishlab chiqariladi. Ularda zaryad sifatida quruq kukunlardan foydalaniladi. Kukunlar yonish doirasida kislorodni siqib chiqarib alangani mexanik ravishda o‘chiradi.

Ular avtomobillar, ishqoriy tuproq, metallar, tok ostida bo‘lgan elektr qurilmalar, birdaniga tez alangalanuvchi va yonuvchi suyuqlik va gazlarni o‘chirishga qo‘llaniladi. Kukunning kamchiligi - sovitish xususiyati past. Shuning uchun kukun bilan o‘chirilganda qizigan jismlar yana alangalanib yonishi mumkin.

Har bir obyektda albatta birlamchi o‘t o‘chirish vositalaridan tashqari binolar oldida va omborlarda yong‘in o‘chirish vositalari balan jihozlangan maxsus taxtalar bo‘lishi shart. Bunda taxtalarni kerakli jihozlar bilan ta’minlash tashkilotlarining rahbarlariga yoki boshqa javobgar shaxslarga topshiriladi. Yong‘in o‘chirish vositalari va qurilmalarini o‘t o‘chirishga bog‘liq bo‘lmagan ishlarda qo‘llash qat’iy man etiladi. Yong‘in o‘chirish vositalari obyektning maydoni va texnologik jarayonlarga qarab hisoblanadi.



10.10-rasm. OP-1 turdagi o‘t o‘chirgich tuzilishi va undan foydalanish:

1- korpus; 2 -sifonli quvurcha; 3- ishchi gazi uchun ballon; 4- gaz ballon uchun stakan korpusi; 5-membrana; 6- klapan; 7- sepgich tirqishi; 8-shtok; 9- kallak qalpog‘i; 10 -xvostovik ; 11- dastak; 12 - kallak; 13-tiqin.



10.12- rasm. Kukunli o'zi ishlab ketuvchi o't ochirgichlar:
1-metall tasmali korpus; 2 - shishali idish; 3 - portlatgich.

Qishloq xo'jaligi bino va inshootlarining yong'inni o'chirish uchun suv, suv bug'i, ko'pik, inert gazlar, turli kukunlar, siqilgan havo va qattiq moddalar keng qo'llaniladi. O't o'chirish moddalari elektr o'tkazish (suv va boshq.) va elektr o'tkazmaslik (gazlar, kukunlar) xossalariga ega bo'ladi. Shuningdek, zaharli (brometil, freon), kam zaharli (azot, ko'mir kislota) va zaharsiz (suv, ko'pik, kukunlar) turlarga bo'linadi. Shuning uchun ishlab chiqarish obyekti va maydonlarini yong'in o'chirish moddalari bilan ta'minlashda va yong'inni o'chirishda biror uslubni qabul qilganda ularni hisobga olish kerak.

O'zi ishlab ketuvchi o't ochirgichlar, yong'in xavfi yuzaga kelganda insonni bevosita ishtiroki o'ta xavfli bo'lgan joylarda (yong'in tufayli zaharli havoni yuzaga kelishi, portlash, elektr qurilmalardan jarohatlanish) o'rnatiladi. Ular ichki shishali idishda kukun to'ldirilgan, tashqarisidan metalli tasmadan tashkil topgan bo'lib, shishali idishda portlashni hosil qiluvchi modda o'rnatilgan. Agarda harorat yuz gradusga (OCП-1) (ikkiyuz gradusda OCП 2) yetsa, shisha yuzasida o'rnatilgan portlagich portlashni yuzaga keltirib, idishni portlatadi va 9 m^3 gacha miqdorda changli bulut hosil qiladi.

Suv - eng ko'p tarqalgan, oson topiladigan, qulay ishlatiladigan o't o'chiruvchi modda hisoblanadi. U yuqori issiqlik sig'imiga ega bo'lgani uchun olovni o'chirish jarayonida yonayotgan moddalardan juda ko'p issiqlikni oladi. Bir gramm suvni bug'ga aylantirish uchun 2,26 kJ issiqlik sarf qilinadi. Suvning kamchiliklari - issiqlik sig'imidan foydalanish koeffitsiyenti past, elektr

o‘tkazuvchan, chang qatlamiga ta’sir etganda portlovchi xavfli aralashma hosil qiladi. Shu sababli suv ko‘p holatlarda ishlatilmaydi. Ayniqsa, kalsiy karbidga suv tushganda yong‘in sodir bo‘ladi va portlashga xavfli gaz-atsetilen ajraladi, so‘ndirilmagan ohak esa - juda katta issiqlik chiqarib, yonidagi yonuvchi materiallarni yondiradi.



10.1- rasm. Kukunli o‘zi ishlab ketuvchi o‘t ochirgichlarni o‘rnatish joylari va ishlatilishi

Ko‘pincha yong‘inni o‘chirish uchun suv va 3-10% li brometil va boshqa aralashmalardan tayyorlangan eritmalar ishlatiladi.

Ko‘pik sovutkich vazifasini bajarib, ma’lum vaqt ichida kislorodni issiq yuzaga kirishiga qarshi turish qobiliyati ega.

Kimyoviy ko‘pik - ko‘piksimon kukunlarni qo‘llaganda ular generatorlar yordamida hosil qilinadi. Ko‘pik kukun sariq-kul rang ko‘rinishada bo‘lib, kislota va ishqordan iborat. Kislota qismiga odatda mayin maydalangan alyuminiy sulfat, ishqorga esa - maydalangan natriy gidrokarbonat olinadi. Bu ko‘pik neft mahsulotlari, spirt, atseton va boshqa moddalarni o‘chirishda qo‘llaniladi. Kimyoviy ko‘pik hajmi bo‘yicha 80% karbonat angidrid, 19,7% suv va 0,3% ko‘pik hosil qiluvchi moddadan iborat. Ko‘pikning turg‘unligi (to‘la parchalanguncha) 40 daqiqaga yaqin.



10.12- rasm. Yong'inga qarshi «qalqon» va unda asboblarni o'rnatilishi:

1-qum solingan quti, 2- ko'pikli va karbonat angidridli o't o'chirgich (огнетушител), 3-yong'in o'chiruvchi navbatchilarning ish jadvali, 4-boltalar, 5-o't o'chirish shlanglari, 6- konussimon chelak, 7- suv sepish stvoli, 8- yong'in xavfsizligi qoidalari, 9-suv bochkasi, 10-ilgakli changaklar, 11- lom va ilgak, 12- belkuraklar.

Mexanikaviy-havo ko'pik neft mahsulotlarini o'chirishda qo'llaniladi. U suv, havo va ko'pik hosil qiluvchi moddalarni maxsus generator stvollarida va o't o'chirgichlarda tez aralashishi natijasida olinadi. Mexanikaviy havo ko'pik amalda agressiv kimyoviy xossalarga ega emas, kimyoviy ko'pikka nisbatan elektr o'tkazuvchanligi kamroq bo'lgani uchun elektr qurilmalarini kuchlanishi bo'lganda ham (masofadan turib, tizillab chiquvchi ko'pik bilan) o'chirishda qo'llaniladi.

Karbonat angidrid gazi - CO_2, - inert, rangsiz gaz, havodan 1,5 marta og'ir, 0°C da 3,6 MPa bosimda suyuq holatga aylanadi. O't o'chirgichdan purkalganda juda tez kengayadi (500 martagacha) va past (-72°) haroratli, qorsimon massaga aylanadi. Karbonat angidridning asosiy xosslaridan biri shundan iboratki, u erimasdan to'g'ridan-to'g'ri gaz holatiga aylanadi. Karbonat angidrid gazining

elektr neytralligi kuchlanish ostida bo‘lgan elektr qurilmalarni o‘chirishda qo‘llash imkoniyatini beradi. Yonayotgan xonadagi hajmga nisbatan CO_2 aralashmasi 30% dan kam bo‘lmasa karbonat angidrid gazi ishlatilganda yong‘in butunlay to‘xtaydi. Bu gaz yordamida berk imoratlarni o‘chirishda yaxshi natijalar olinadi.

Kukunlar suv bilan reaksiyaga kirishuvchi ishqoriy metallar, alyuminiy organik birikmalar, fosfor, yonuvchi suyuqliklar va boshqa moddalar. Ular suv va ko‘pikdan buziluvchi qimmatli hujjatlar, suratlar va boshqa qimmatbaho materiallarni o‘chirish uchun mo‘ljallangan. Kukunli o‘t o‘chirgichlar PS-1 va PS-2 tarkibi bilan ishlab chiqariladi. Kukun elektr o‘tkazmaydi, odam uchun zararsiz, arzon, tashish va saqlash qulay. Past haroratda muzlamaydi. Juda ko‘p yonuvchi suyukliklarni o‘chirishda qo‘llaniladi.

10.5. Ishlab chiqarishda yong‘inga qarshi tizimlar

Yong‘inga qarshi tizimlar majmuasi MXSTdagi ГОСТ 12.1.004-91, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-sentabrdagi O‘RQ-226-sonli qarori asosida tasdiqlangan «Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizom”ni tasdiqlash haqida” 2013-yil 4 oktabrdagi 272-sonli qarori va «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish obyektlari uchun namunaviy yong‘in xavfsizligi qoidalari» NYoXQ (TPPB) -76 talabalriga binoan yong‘inni oldini olish tadbirlari va yong‘indan himoyalash tashkiliy masalalaridan iborat.

Yong‘inni oldini olish tizimiga tashkiliy tadbirlar va yong‘in xavfi mavjud ish joylarida yong‘indan ogohlantiruvchi vositalar kabi texnik vositalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Yong‘indan himoyalash tizimiga texnik vositalar va tashkiliy tadbirlarni birlashtirgan holda, yong‘indan kishilar va moddiy boyliklar himoyasini tashkillashtirish masalalari kiradi. Ya’ni himoya sifatida yonmaydigan va yong‘inni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaydigan materiallardan binolarni qurish, yonilg‘idan foydalanishda qattiq tartib o‘rnatish, yong‘inni o‘chirishda, o‘chirish vositalarini ta’minlanishi, tutun tarqalishi va atmosferaga chiqaruvchi tizim, jamoa va shaxsiy himoya vositalri bilan ta’minlanishlarni

hamda aholini evakuatsiya qilish tadbirlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin

Yong‘in xavfsizligini ta’minlashdagi tashkiliy masalalar sifatida ishchilar hisobidan yong‘inga qarshi ko‘ngillilar otryadini tuzish, yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan ish joylarida profilaktik ishlarni belgilangan talab asosida o‘tkazib turish, o‘quv va malaka oshirish bilan ishchilarni bilimlarini oshirib borish, amaliy taktik o‘quv mashg‘ulotlarini tashkillashtirish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqish va joriy qilish kabi tadbirlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28 martdagi 89-son qaroririning 2-ilovasi «Ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risida» tasdiqlangan Nizomga asosan ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati tomonidan tasdiqlangan, ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarni dastlabki tayyorgarlikdan o‘tkazish dasturida nazarda tutilgan hajmda zarur yong‘in-texnik bilimlarga ega bo‘lish;

-yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta’minlashda ishtirok etish;

-yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilishi, shuningdek portlash yoki yong‘inga olib keladigan yong‘indan xavfli va boshqa ishlarning olib borilishi holatlari aniqlanganda ular to‘g‘risida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, tashkilot ma’muriyatiga, shuningdek DYoXX mahalliy organlariga xabar berish;

-ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilarga qo‘yiladigan talablarni bajarish;

-yong‘indan saqlash xizmati faoliyatida ishtirok etish;

-tegishli fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi raisi, tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarida navbatchilikni amalga oshirish;

-ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarida navbatchilik qilishning belgilangan tartibiga, tartib-intizomga va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etish;

-yong‘indan saqlash xizmati mulkini asrab-avaylash, yong‘in-texnik vositalari va jihozlarini soz holatda saqlash.

Sababli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan, yong‘in o‘chirishda qatnashgan ko‘ngilli yong‘in o‘chiruvchilar yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashdan ozod qilinadi.

10.6. Davlat yong‘inni nazorat qilish organi

Yong‘inni nazorat qilish respublika Ichki ishlar vazirligining yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasi (keyinchalik – Bosh boshqarma) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimiga kiradi hamda aholi yashash punktlari, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarda yong‘in xavfsizligini ta’minlaydigan hududiy yong‘in xavfsizligi bo‘linmalari faoliyatiga rahbarlik qiladi va muvofiqlashtiradi.

Bosh boshqarma faoliyati negizini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va ko‘rsatmalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Ichki ishlar vazirligi meyoriy hujjatlari tashkil etadi.

Bosh boshqarma faoliyati qonunchilik, adolat, ishni tashkil etish tizimini bir boshidan va umumlashgan holda aholi yashash punktlari, madaniy-maishiy ishlab chiqarish obyektlarida yong‘in xavfsizligini tashkil etishga asoslangan.

Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aholi yashash joylari, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar, ijtimoiy-madaniy, sanoat va boshqa obyekt va kommunikatsiyalarning yong‘in xavfsizligini ta’minlash;

-yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan samarali profilaktik ishlarni tashkil etish, avvalo murakkab va uzoq davom etuvchi, mamlakat xavfsizligiga va iqtisodiyotiga katta zarar keltiradigan yong‘inlarga sabab bo‘ladigan holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, ishlab chiqarish va boshqa obyektlarda yong‘inga qarshi tekshirishlarni sifatli o‘tkazish;

-yong‘inlarni, avvalo strategik muhim obyektlardagi, shu jumladan qo‘poruvchilik-terroristik aktlar va boshqa jinoiy tajovuzlar, tabiiy ofatlar yoki texnogen xarakterdagi favqulodda

vaziyatlar oqibatida sodir bo'ladigan yong'inlarni o'z vaqtida oldini olish va bartaraf etish;

-yong'in xavfsizligini ta'minlashda jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni oldini olish bo'linmalari hamda Davlat boshqaruv idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, Favqulodda vaziyatlar vazirligining avariya-qutqaruv xizmatlari, mahalliy o'z-o'zini boshqaruv idoralari va fuqarolarning "Mahalla posboni" jamoatchilik uyushmalari bilan samarali hamkorlikni tashkil etish;

-yong'in xavfsizligini ta'minlashning samarali meyoriy-huquqiy bazasini yaratish, yuqori malakali yong'in-texnik ekspertizasini tashkil etish, ushbu sohada litsenziyalashtirish va sertifikatsiyalashtirishning muqobil ishlash tizimini yaratish;

-o'z vaqtida yong'inlarni oldini olishda, sodir bo'lgan yong'inlarni yoyilib ketishiga yo'l qo'ymaslikda va bartaraf etishdagi tashkiliy, ma'muriy-huquqiy, profilaktik va tartibotning amaldagi tizimi samaradorligini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish asosida uni takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqish;

-zamonaviy kompyuter vositalari va texnologiyalarini qo'llash orqali, yong'in xavfsizligi bo'linmalari faoliyatini boshqarishning ular xizmat qilayotgan hududlarda samarali dispetcherlik xizmati va axborot-kompyuter tizimini yaratish;

-yong'in xavfsizligi bo'linmalari shaxsiy tarkibining yuqori jangovar tayyorgarligini va ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashni ta'minlash;

-yong'in xavfsizligi bo'linmalari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash tartibini takomillashtirish.

Yong'inni oldini olish va yong'in nazoratini tashkil etish doirasida:

-respublika iqtisodiy tarmoqlari maskanlari, aholi turar joylarining yong'in xavfi holatini tahlil qilish, yong'in xavfsizligini ta'minlash va yaxshilash borasida o'z vaqtida takliflar kiritish hamda ularni tahlil qilish;

-yong'in xavfini tug'diruvchi holatlar yuzasidan o'rnatilgan tartibda davlat idoralari, tashkilotlar rahbarlarini hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar rahbarlarini, ularning tasarrufidagi

maskanlarning yong‘inga qarshi holati haqida xabardor etish va ular tomonidan chora ko‘rishni ta’minlash;

-respublika yong‘in nazorati organlari tomonidan yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilishi yuzasidan ma’muriy chora ko‘rish ishlarini to‘g‘ri bajarilishi yuzasidan nazorat o‘rnatishi;

-yong‘in xavfsizligini ta’minlash borasida standartlarni ishlab chiqishda, meyor va qoidalar hamda meyoriy-huquqiy aktlarni tayyorlashda qatnashish va ularni hayotga to‘la tatbiq etish;

-aholi o‘rtasida, korxonalarda va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashkilotlarda yong‘inga qarshi choralarni tatbiq etishda maqsadli ishlarni amalga oshirish, maskanlardagi yong‘inga qarshi holatni ta’minlashda rahbarlarning javobgarligini oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan, chet el elchixonalari va vakolatxonalari iltimosiga ko‘ra ular joylashgan bino va inshootlarni yong‘inga qarshi holatini tekshirib kerakli maslahatlar berish;

-yong‘inlar bo‘yicha surishtiruv va tergov ishlarida, yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzilishi haqida surishtiruv ishlari o‘tkazishda ko‘mak berish, kerak bo‘lgan holda mustaqil ravishda surishtiruv o‘tkazish.

O‘ta muhim va toifalangan obyektlarda yong‘in xavfsizligini ta’minlash doirasida:

-o‘ta muhim va toifalangan, madaniy - maishiy, sanoat ishlab chiqarish, muvofiqlashtirish obyektlarida yong‘inni oldini olishga va kuchaytirishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

-ko‘rsatib o‘tilgan obyektlarda yong‘inlarni qisqa vaqt ichida qurshab olish va o‘chirish, birlamchi avariya qutqaruv ishlarini tashkillashtirish;

-korxonalar rahbariyati, muhandis - texnik xodimlari, ishchi va xizmatchilariga yong‘inni oldini olishga qaratilgan meyor, qoida va talablarni o‘rgatish;

-korxonalarning yong‘inga qarshi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish, ularni o‘zgartirib borish, birinchi o‘rinda qilinishi lozim bo‘lgan yong‘inni oldini olish choralarini rejalashtirish va bajarilishini amalga oshirish;

-aholi yashash punktlari va xalq xo'jaligi obyektlarini qo'riqlanishini o'rnatilgan tartibda qabul qilish haqidagi ma'lumotlarni tayyorlash;

-strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim obyektlar haqidagi tezkor-xizmat va ma'lumotlarni tayyorlash.

Nazorat uchun savollar

1. Yong'inni kelib chiqish sabalari nimalardan iborat?
2. Yonish, alangalanish, chaqnash, portlash, o'z-o'zidan alangalanish va yong'in deganda nimani tushunasiz?
3. Yong'in xavfsizligi talablari deganda nimani tushunasiz?
4. Bino va inshootlarni o'tga chidamliligi qaysi ko'rastkichlarga asosan baholanadi?
5. Yong'in haqida xabar beruvchi vositalar nima va ularni ishlash prinsipi.
6. Yong'inni o'chirish vositalari turlari va ularni ishlatish.
7. Yong'inni o'chirishda ishlatiladigan moddalar turlari va ularni xususiyatlarini aytib bering.
8. Ishlab chiqarishda yong'inga qarshi choralar deganda nimani tushunasiz?
9. Davlat yong'inni nazorat qilish organlari vazifalari va vakolatlariga nimalar kiradi?

11-§. FAVQULODDA VAZIYATLAR, ULARNING TURLARI VA TAVSIFI

11.1. Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida asosiy tushunchalar

Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko‘ra tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko‘rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko‘lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlariga bo‘linadi.

Favqulodda vaziyatlar - bu muayyan hududda o‘zidan so‘ng odamlarning qurbon bo‘lishi, odamlar sog‘lig‘i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat bo‘lib, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir va ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko‘ra tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko‘rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko‘lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlariga bo‘linadi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o‘tkaziladigan va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfini iloji boricha maksimal darajada kamaytirishga, shuningdek bunday vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda odamlar sog‘lig‘ini saqlab qolishga, atrof tabiiy muhitga yetadigan zarar va moddiy talafot miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish - favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda o‘tkaziladigan hamda odamlar hayoti va sog‘lig‘ini saqlab qolishga, atrof tabiiy muhitga yetadigan zarar va moddiy talafot miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyat hududlarini cheklash va xavfli omillar ta’sirini to‘xtatishga qaratilgan halokat - qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni oldindan prognoz qilish. Favqulodda vaziyat yuzaga kelishining ehtimol bo'lgan sabablarini, uning ilgarigi va hozirgi manbaini tahlil qilish asosida favqulodda vaziyat yuzaga kelishi ehtimolini va rivojlana borishini oldinroq aks ettirish.

Favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lish - atrofdagi tabiiy muhit va potensial xavfli obyektlarning, favqulodda vaziyat manbalari paydo bo'lishini oldindan prognoz qilish va profilaktika qilishning ahvolini kuzatish va nazorat qilishni tashkil etilishiga, shuningdek favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, muhandislik-texnikaviy, ekologiya-muhofaza, sanitariya-gigiyena, sanitariya-epidemiologik va maxsus tadbirlar kompleksidir.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish - muayyan hudud yoki potentsial xavfli obyektda aholini va moddiy boyliklarni favqulodda vaziyat manbalarining shikastlovchi omillari va ta'siridan muhofaza qilish uchun, shuningdek favqulodda vaziyatlarni tugatishda boshqaruv organlari, kuch va vositalarining samarali faoliyatini ta'minlash uchun sharoit yaratuvchi oldindan o'tkaziladigan tadbirlar kompleksi.

Aholini evakuatsiya qilish - favqulodda vaziyat hududlaridan yoki ehtimol bo'lgan favqulodda vaziyat hududlaridan aholini joyoda va transportda uyushqoqlik bilan olib chiqish, shuningdek evakuatsiya qilinganlarni joylashtirish manzillarida turmush kechirishini ta'minlash tadbirlari kompleksi.

Vatanimiz hududlarida tabiiy ofatlarning ko'proq uchrab turishi uning tabiiy tuzilishi bilan bog'liqdir. Har bir tabiiy ofat sodir bo'lish joyi, sababi, ko'lami, u bilan bog'liq bo'lgan moddiy zarar va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtning eng muhim vazifalaridan biri tabiiy ofatlarni hosil bo'lishi va rivojlanishini prognoz qilish, oldindan davlat organlari va aholini yaqinlashib kelayotgan ofatdan ogoh etishdan iboratdir.

11.2. Favqulodda vaziyatlar turlari va ularning xususiyatlari

Respublikamiz hududlarida uchraydigan tabiiy ofatlarning hosil bo'lishida geofizik, geologik, gidrogeologik, atmosfera va boshqa omillar asosiy o'rinni egallaydi. Ular oqibatida hayot xavfsizligi buziladi, insonlar nobud bo'ladi, xalq xo'jaligi obyektlariga turli darajada moddiy zarar yetkaziladi.

Favqulodda vaziyatlarni ularning vujudga kelish sabablari va oqibatlariga ko'ra quyidagi asosiy uch guruhga bo'lish mumkin:

- texnogen va antropogen sabablar tufayli vujudga keladigan favqulodda holatlar;
- tabiiy omillar oqibatida vujudga keladigan favqulodda holatlar;
- ekologik omillar oqibatida vujudga keladigan favqulodda holatlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27 oktabrdagi 455-son qarori ilovasiga asosan texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga quyidagicha tarif berish mumkin:

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar

Ma'lumki so'nggi-yillarda insonlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarning turi va miqdori oshib bormoqa. Bunday favqulodda vaziyatlar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishga, imkon darajada oldini olishga, ayanchli oqibatlarni keltiradigan zararini iloji boricha kamaytirishga va fuqarolarimizni samarali muhofazalash chora-tadbirlarini topishga erishishimiz kerak.

-transport avariyalari va halokatlari-ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan aviahalokatlar;

-yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat

joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temiryo'l transportidagi halokatlar va avariyalar (ag'darilishlar);

-portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZM larning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo'ladigan avtomobil transportining halokati va avariyalari, shu jumladan, yo'l-transport hodisalari;

-odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poyezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariyalar, yong'inlar;

-gaz, neft va neft mahsulotlarining (avariya holatida) otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan magistral quvurlardagi avariyalar.

Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalar - atrof-tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentrasiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalar, yong'in va portlashlar.

Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan obyektlardagi avariyalar-texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan obyektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariyalar, yong'inlar va portlashlar;

-odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o'limiga olib kelgan hamda qidirish-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo'llanishni talab qiluvchi ko'mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariyalar, yong'inlar va jinslar qo'porilishi.

Yonish va portlashlar o'zaro uzviy bogliqligi sababli barcha tashkilotlarda sodir bo'ladigan yong'inlar natijasida portlashlar ham bo'lishi mumkin yoki aksincha portlash natijasida yong'inlar sodir bo'lishi mumkin.

Portlash - bu qisqa vaqtning o'zida chegaralangan hajmdagi, katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir. Portlash, gazlarning qattiq qizishi oqibatida yuqori bosim ta'sirida sodir bo'ladi. Portlashlar asosan yong'in va portlash xavfi bor tashkilotlarda sodir bo'lib, uning oqibatida yong'inlar kelib chiqishi mumkin.

Portlash - suyuqliklarning, portlovchi moddalarning kuch yoki issiqlik ta'sirida o'zi joylashgan hajmga sig'may qolishi tufayli chiqishidir.

Energetika va kommunal tizimlardagi avariyalar - sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TES lardagi, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug'qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti obyektlaridagi avariyalar va yong'inlar;

-aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug'ilishiga olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal obyektlardagi avariyalar;

-atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'lgan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariyalar;

-odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi obyektlar, shuningdek uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi va boshqa hodisalar.

Gidrotexnik halokatlar va avariyalar - suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlari ishining,

aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

Suv omborlaridagi, daryolardagi, kanallardagi gidrotexnik inshootlarning buzilishi, baland tog' ko'llarining urib ketishi natijasida suv bosishi gidrotexnik halokatlar va falokatlarni sodir bo'lishiga olib keladi hamda odamlarni qurbon bo'lishiga, sanoat va qishloq xo'jalik obyektlarini ishini izdan chiqishiga, suv bosgan hududdagi aholining hayot faoliyatini izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Sun'iy to'g'onlar, yuqori diametrli gaz va neft o'tkazgichlar, maxsus neft mahsulotlarini saqlaydigan inshootlarni inson o'z ehtiyojlari uchun barpo etadi.

Markaziy Osiyo hududida quyidagi gidrotexnika inshootlari mavjud: Qayroqqum, Chordara, Toxtagul, Andijon, Karkidon, Tolimarjon, Nurek, Ragun va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 18,9 mlrd. 700 mln. m^3 suv sig'dira oladigan 53 ta suv ombori, daryo suvlarini viloyat va tumanlarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to'g'onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa zarur suv inshootlari mavjud. Harbiy sharoitda yoki favqulodda vaziyat jarayonida ular ma'lum xavf tug'diradilar. Gidrotexnik xavfli inshootda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning shikastlovchi omillari va ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- to'g'onni urib ketgan to'lqinning balandligi 20 m va tezligi 3-100 km/soat gacha;
- to'g'onni urib ketgan to'lqin cho'qqisi va old tomonining yetib kelish vaqti (to'lqin tezligiga va joyning qancha oraliqda ekaniga qarab);
- suv bosish hududining chegaralari (yer yuzasi relyefi qandayligiga qarab);
- suv bosishning maksimal va amaldagi chuqurligi (relyefning qandayligiga, to'g'onni urib ketgan to'lqinning balandligi qandayligiga qarab);
- suv bosish qancha davom etishi (bir necha soatdan bir necha kecha kunduzgacha) dan iborat.

Mahsulot tayyorlashda ishlatiladigan mashinalar, jihozlar, texnologik tizimdagi uskunalar majmuasidagi nosozlik, elektr bilan

ta'minlashdagi nosozlik, binolar, qurilmalardagi nosozliklar tufayli vujudga keladigan voqeaga – halokat (avariya) deyiladi.

Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariyalar - sanitariya - himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo'lgan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo'l qo'yiladigandan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan obyektlardagi avariyalar; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariyalar;

-atrof-muhit va odamlar salomatligi uchun xavf tug'diruvchi radioaktiv chiqindilar to'plagichlardagi, chiqindixonalardagi kollektorlar to'plagichlardagi va zaharli moddalar ko'miladigan joylardagi avariyalar (o'pirilishlar);

-radioizotop buyumlarning yo'qotilishi;

-biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.

Katastrofa - halokat bo'lib, avariyadan farqli holda, halokat qamrovi kengroq va odamlar halok bo'lishiga olib kelgan voqeaga aytiladi. Poyezdlarning o'zaro to'qnashishi, samolyot halokati, sanoat korxonasida sodir bo'lgan halokatlar tufayli atrof - muhitning yomonlashuvi, insonlar qurboni, talafot darajasining ortib borishi - hammasi bu turdagi halokat turiga xos xususiyatdir.

Transport turlarining o'zaro to'qnashuvi, korxonadagi texnologik nosozliklar, moddalarni saqlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar, terrorchilar harakati tufayli sodir bo'ladigan halokatlar natijasida tez ta'sir etuvchi zaharli moddalar atrof - muhitga tarqalishi mumkin. Havo transportidagi falokat va halokatlar; temir yo'ldagi falokat va halokatlar; avtotransportlardagi halokatlar (shu jumladan, yo'l transport hodisalari) ko'rinishi; metropoliten stansiyalarida bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar; magistral quvur tarmoqlarida, neft va gaz burg'ulash maydonlaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan halokatlar.

Misol tariqasida Chernobilda 1986-yili 26 aprelda sodir bo'lgan halokat natijasida vujudga kelgan favqulodda vaziyatni

keltirish mumkin. Ya'ni matbuotda yozilishicha, Chernobil hodisasi tufayli ana shu shaharchada falokatning dastlabki daqiqalarida 30000 kishi hayot bilan vidolashdi. Radiatsiya asorati keyinchalik yana 30 ming kishining o'limiga olib kelgan. Radioaktiv zarrachalar Ukrainaning 11 viloyatiga tarqalgan.



11.1-rasm. Atom elektorostansiyasi tuzilishi:
1- yadroviy zanjirli reaksiya sarkofagi; 2-haydash va so'rish nasoslari; 3-suv ta'minot tizimi; 4-bug' turbinalari xonasi; 5-generator.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar-geologik xavfli hodisalar-odamlar o'limiga, ma'muriy-ishlab chiqarish binolarining, texnologik asbob-uskunalarning, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo'nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar;

-odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirishni talab qiluvchi yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

-gidrometeorologik xavfli hodisalar-odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab

chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to'planishi va sellar;

-aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga (jala, do'l, tuproq, yer osti va suvning neft mahsulotlari, og'ir metallar, pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar bilan ifloslanishi, atmosferaning yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyadan ortiq zararli ingrediyentlar bilan ekstremal ifloslanishi va boshqalar) qarshi muqobil harakat qilish maqsadida meyoriy hujjatlarda nazarda tutilmagan miqdor ko'rsatkichlar favqulodda vaziyatlarning odamlarning hayoti, sog'lig'iga va atrof muhitga ta'sirining aniq darajasiga qarab atrof tabiiy muhitning holatini kuzatuvchi va nazorat qiluvchi vazirliklar va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli rahbar organlari tomonidan belgilanadi.

Jumladan yuzaga kelgan vaziyat natijasida odamlar o'limiga, ma'muriy-ishlab chiqarish binolarining, texnologik asbob-uskunalarning, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo'nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan **zilzilalar,** odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirishni talab qiluvchi **yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlari** va boshqa xavfli geologik hodisalar oqibatlari hisobga olinadi.

Sel - suvning mexanik faoliyatidan yuzaga keladigan murakkab jarayon bo'lib, turli omillarning (iqlim, gidrologik, geomorfologik, geologik va b.) o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Uning tarqalishida mahalliy sharoit alohida o'rin egallaydi. Sel vujudga keladigan yoki sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan joylarni *sel o'chog'i* deb yuritiladi. Sel o'chog'i paydo bo'lishining

asosiy ko'rsatkichi gidrometeorologik sharoit hisoblanadi. Uzoq muddatli jala yog'ishi va muzliklarning qisqa muddatda kuchli erishi oqibatida daryo o'zanlaridagi suv miqdori keskin ko'payib ketadi. Natijada suv bilan aralashgan qum, shagal, dag'al bo'lakli jinslar oqimi paydo bo'lishi natijasida maydonning quyi qismlarida katta kuchga ega bo'lib ko'pgina qo'poruvchilik ishlarini amalga oshiradi. Shu sababga ko'ra sellar ikki guruhga bo'linadi: ***glyatsial-muzlik va qorlarning tez erishi*** va ***jalali - ko'p miqdorda yomg'ir yog'ishi*** natijasida paydo bo'ladi. Ularni paydo bo'lishida joyning geomorfologik tuzilishi va cho'kindi jinslar miqdori ham alohida o'rin egallaydi.

Respublikamizning tog' oldi hududlari va unga tutash tekisliklarida ko'p yomg'ir yogishi natijasida paydo bo'ladigan sellar keng tarqalgan. Yirik qor va muzlik qatlamlari tarqalgan tog'li hududda esa glyatsial turi ko'proq uchraydi. Sel oqimlari harakat xususiyati bo'yicha ***turbulent*** va ***strukturali*** turlariga bo'linadi. ***Turbulent*** sellar o'zan bo'ylab, daryo va soylardagi suv miqdori ortib ketishi natijasida oqim harakati qonuniga muvofiq vodiy yo'nalishi bo'yicha bo'ladi. ***Strukturali sellar*** maydon bo'ylab, turli tosh bo'laklarining butun yonbag'ir bo'yicha yoppasiga bostirib kelishi natijasida bo'ladi.

Har ikkala xususiyatga ega bo'lgan sellar daryo o'zanlari va yonbag'irlarni buzishi bilan birga keng ekin maydonlariga katta miqdordagi oqova oqimini olib keladi. Vatanimizni o'rab turgan tog'lar va tog' oldi hududlari selga xavfli hududlarga kiradi. Ayniqsa, Qashqadaryo, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida ko'proq uchraydi,

Respublikamizning sel xavfi bor joylaridagi aholini xavfsiz joylarga o'tkazish bo'yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Boshgidrometxizmati hamda qishloq va suv xo'jaligi vazirligi xodimlari joylardagi mahalliy hukumat organlari rahbarlari bilan maxsus dasturlar asosida harakat qiladilar.

Toshqin. Tabiiy ofatlar ichida katta talafotlar keltiradigan, aholini og'ir tahlikaga soladigan va qisqa vaqt ichida shiddatli bo'ladigani suv toshqinlaridir. Toshqin - daryolar, soylar, dengizlar, ko'llarda suv sathining keskin ko'tarilishi oqibatida yuzaga kelib, yer yuzasining katta maydonlarini vaqtincha suv bosishidir.

Toshqinlar ko'p holatlarda kuchli jala, harorat ko'tarilishi bilan qor va muzliklarning keskin erishi natijasida havzalardagi suv miqdorining ko'payishidan paydo bo'ladi. Bundan tashqari suv havzalari atrofidagi yonbag'irlarda ko'chki sodir bo'lishi, qoyalardan tog' jinslari o'pirilishi bilan havzadagi suv toshib chiqishi va to'g'onlarning bexosdan buzilib ketishi oqibatida ham sodir bo'lishi mumkin. Toshqinlarning yana bir turi shamolning katta tezligi bilan bog'liq bo'lib, dengiz suvini qirg'oqlarga ma'lum balandlikda bostirib kelishidan paydo bo'ladi. Lekin, toshqinning bu turi mamlakatimiz hududlarida uchramaydi.

Respublikamizning tabiiy tuzilishi, gidrometeorologik sharoiti, muhandis - gidrogeologik inshootlari boshqa tabiiy ofatlar kabi toshqin bo'lib turishi va uning xavfi yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa, bu hodisa suv tarmoqlari atroflarida juda ko'p tarqalgan.

Toshqinlarning hosil bo'lishi, garchan bir xil sababdan bo'lsada, ya'ni ob-havo sharoitining keskin o'zgarishi natijasida meyoridan ko'p yog'ingarchilik bo'lishi, aholi yashash joylari va hududlarga turli ta'sir ko'rsatadi. Bular ichida eng kuchlisi halokatli toshqinlar hisoblanib, ular uzoq muddat yoqqan yomg'ir natijasida yuzaga keladi. Bizning sharoitda toshqinlar bilan birga sellar doim kuzatiladi. Selli toshqinlar odatda qisqa vaqtda paydo bo'lib, asosiy xususiyatlaridan biri shitob bilan suv kelishi oqibatida suv inshootlari atrofini, qirg'oqlarni, ba'zan to'g'on va ko'priklarni yuvib ketadi. Misol tariqasida XX asrning oxirgi-yilida Farg'ona vodiysidagi Shohimardon fojiasini keltirish mumkin. Mazkur fojia qo'shni Qirgiziston mamlakati hududida boshlanib Shoximardonsoy bo'yiga juda katta talafotlar keltirdi. Fojianing asosiy sababi, yoz oylarida harorat keskin ko'tarilishi bilan Qirg'izistonning O'sh viloyati tog'liklaridagi Oqsuv daryosining yuqori qismida joylashgan qor va muzlar erishi oqibatida suv miqdori birdaniga oshib ketib, soatiga 200 m/s (720 km/soat) tezlikda harakat qilishi natijasida Shoximardonsoy va uning quyi oqimlarida sel oqovalariga aylandi.

Zilzila - tabiatda sodir bo'ladigan eng xavfli hodisalardan biri bo'lib, YuNESKO ma'lumotiga ko'ra, zilzila tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy zarar va insonlar halokati bo'yicha tabiiy ofatlarning ichida birinchi o'rinni egallaydi. Zilzilaning hosil bo'lish

sabablari turlicha bo‘lib, hozirgi vaqtda mukammal o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti qachon, qayerda, qanday kuchlanishda yer silkinishi bo‘ladi degan savolga hamon to‘liq javob beraolmayapti.

XX asrda dunyoning turli mamlakatlarda sodir bo‘lgan zil-zilalar qay darajada halokatli ekanligini quyidagi tarixiy ma’lumotlardan ko‘rish mumkin:

- 1920-yilda Xitoyda 180 ming kishi;
- 1923-yilda Yaponiyada 100000 kishi;
- 1948-yilda Ashxobodda 110000 kishi;
- 1952-yilda Rossiyada (Kamchatka) 9000 kishi;
- 1960-yilda Marokkada 12 ming kishi;
- 1968-yilda Eronda 16 ming kishi;
- 1970-yil Peruda 66 ming kishi;
- 1976-yilda Gvatemalada 23000 kishi;
- 1976-yilda Tailandda 242419 kishi;
- 1988-yilda Armanistonda 25 ming kishi;
- 1990-yilda Taylandda 66 ming kishi;
- 1999-yilda Turkiyada 18 ming kishi zilzila oqibatida nobud bo‘lgan.

2000-2010-yillarda zil zila oqibatida, 2003-yilda Eronda 31000 kishi, 2005-yilda Pokistonda 86000 kishi, 2004-yilda Indoneziyada 227898, 2008-yilda Xitoyda 87652 kishi, 2011-yilda Yaponiyadagi 9 balli zil-zila oqibatida yuz ming kishi halokatga uchradi.

1966-yil 26-aprelda Toshkentda yuzaga kelgan 8 balli zilzila qibatida imoratlar ko‘p talafot ko‘rgan. Silkinishlar bir kecha ungacha vaqti-vaqti bilan takrorlanib turgan. Buning oqibatida 78 ıing oila boshpanasiz qolgan. 2 mln m^2 yerdagi turar joylar, 7600 ›‘rinli maktab, 2400 o‘rinli 690 savdo va 84 ta turli korxonalar ziyon ko‘rgan.

Zilzila natijasida imoratlarda yuzaga keladigan talafotlar quyidagicha tavsiflanadi:

1-darajali talofat. Bunda yengil shikastlanish yuz beradi.

2-darajali talofat. Og‘ir bo‘lmagan shikastlanish sodir etiladi. Devorlarda katta bo‘lmagan yoriqlar hosil bo‘ladi.

3-darajali talofat. Inshootlarning og‘ir shikastlanishi yuz beradi, devorlarda katta, chuqur yoriqlar paydo bo‘ladi.

4-darajali talafot. Imorat va inshootlarni ichki devorlarini to'liq buzilishi yuz beradi.

5-darajali talafot. Imorat va inshootlarning to'liq buzilishi sodir bo'ladi.

Imorat va inshootlarning konstruksiyasi va qurilish materiallariga qarab tasniflanishi:

A guruh - xom g'isht, paxsa devorli imoratlar;

B guruh - pishgan g'ishtdan qurilgan inshootlar;

C guruh - temir-beton sinchli va yog'ochdan qurilgan inshootlar.

A guruhga mansub inshootlar 6 ball - yer silkinishida 2-darajali talofat, B guruhi inshootlari 1-darajali t talafot ko'radi. 7 balli yer qimirlaganda A guruhidagi inshootlar 3-darajali talafot ko'radi. 8 ballda - A guruhidagi inshootlar 5-darajali, B guruhidagi inshootlar ham 3-4 darajali, C guruhidagi inshootlar 2-darajali talafot ko'radi. 9 ballda - B guruhidagi inshootlar 4-darajali, V guruhidagi inshootlar ham 4-darajali talafot ko'radi. 10 ballda - B guruhidagi inshootlar 5-darajali, V guruhidagi inshootlar 4-darajali talafot ko'radi. 11 ballda - B guruhidagi inshootlar to'liq qulaydi. Tog' jinslarining tik va gorizontal yo'nalishdagi harakati kuzatiladi. 12 ballda - amalda yer yuzasida tik inshoot qolmaydi.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omillar sifatida;

-quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

-halokatli ko'chkilar — foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo'luvchi yer yuzasining o'pirilishi, siljishi;

-tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'lig'i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

-atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar - havo muhitining quyidagi ingridiyentlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

-oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zararli moddalar;

-katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yig'ilishi;

-radiatsiyaning yuqori darajasi.

Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar - yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqovalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo'lgan chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

-binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi;

-suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin yetishmasligi.

-og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'lig'i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestisidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi sabab bo'ladi.

Barqaror rivojlanishga tahdid soladigan tabiiy ofatlarni yana biri tuproq yemirilishi, yuvilishi oqibatida yer yuzasining biologik xususiyati yo'qolib borishi oqibatida yerlarni cho'lga aylanish jarayonidir.

Yer yuzidagi o'zgarishlar natijasida tuproq qatlami o'z funksiyasini bajara olmasligi ham tabiiy, bu inson xo'jalik faoliyati natijasida sodir bo'lmoqda. Tuproqning inson faoliyati bilan bog'liq yemirilishiga qishloq xo'jaligini kimyolashtirish, o'rmonlarning kesilishi, yo'llarni, kommunikatsiya tarmog'ini qurish, foydali qazilma konlarini qazib olish va boshqa tadbirlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tuproqning yemirilishi yerlarni tabiiy ravishda cho'lga aylanishi XX asrning oxirlariga kelib inqiroziy holatni namoyon etmoqda. Buning asosiy sababchisi yer ichki qismi va yuzasida bo'layotgan o'zgarishlar, harakatlar natijasi bo'lsa-da, ayrim davlatlar hududlarida tabiiy tuproq hosil bo'lish jarayonining juda

sust borayotganligidadir. Olimlarning hisobi bo'yicha 1 sm tuproq hosil bo'lishi uchun kamida 100-yil vaqt kerak ekan. Boz ustiga, yuqorida qayd qilinganidek, insonning iste'molchilik talabi bu jarayonni yanada kuchayib borishiga olib kelmoqda. Tabiiy yemirilayotgan tuproqlar suv va shamol ta'sirida bo'lib, har ikki holatda ham bu jarayon sodir bo'lgan joyda cho'llanish hodisasini ko'rishimiz mumkin. Lekin, yana bir sabab borki, uning ta'sirida tuproq yemirilishi juda sust, deyarli sezilmagan holatda namoyon bo'ladi. Bu yer ichki harakati ta'sirida relyefning ko'tarilishi yoki botiqlik hosil bo'lishi bilan uzviy boglangandir. Bunday jarayon oqibatida tuproqdagi mahsuldorlik sekin-asta kamayib boradi va rivojlanishning ma'lum bosqichiga yetganda shamol yoki suv ta'sirida insonning xo'jalik faoliyati jadallashib ketadi. Respublikamiz tog' oldi adirlarida, tog' etaklarida bunday hodisani ko'proq uchratishimiz mumkin. Masalan: Chotqol-Qurama (Toshkent viloyati), Nurota, Turkiston (Samarqand, Jizzah viloyatlari), Hisor, Boysun (Qashqadaryo, Surxondaryo), Talas - Farg'ona, Turkiston (Farg'ona vodiysi) tog'lari atrofida keng tarqalgan.

Markaziy Osiyo hududlaridagi yer ko'chishi turli shakllari va ko'lami bilan ajralib turadi. Yer ko'chishi, less qatlamlarida tarqalgan bo'lib, yer ostiga singib borayotgan atmosfera yog'inlari ma'lum chuqurlikkacha borib, suv o'tkazmas qatlam(less)da yig'ilib, yer osti suv sathini ko'tarilishiga olib keladi va grunt massasining oqimi yonbag'ir bo'yicha bo'ladi. Hosil bo'lgan yuzaga *siljish yuzasi* deyiladi. Siljish yuzasi ustida turgan yer massasiga gravitatsion (tortish) kuchi ta'sir qilishi oqibatida yonbag'irda tik qoya hosil qilib uzilish paydo bo'ladi va uzilgan bo'lak pastga siljiy boshlaydi. Harakatdagi jinslarning hajmi bir necha 10mln. m^3 larda bo'ladi.

Yer ko'chishi yonbag'rning qiyaligiga, tog' jinsi tarkibiga, atmosfera yog'inlari miqdoriga bog'liq holda rivojlanadi. Yonbag'ir qiyaligi qanchalik katta bo'lsa, ko'chkining tezligi shunchalik katta bo'ladi. Ko'p holatlarda ko'chki ***ekzogen*** jarayonlardan sel, jarlanish, cho'kish hodisalari bilan uyg'unlashib ketadi.

Yer ko'chkilari O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral vositalari davlat qo'mitasi tasarrufidagi "O'zbekgidrogeologiya" ishlab chiqarish birlashmasi tadqiqotchilari tomonidan

o‘rganilib kelinmoqda. Markaziy Osiyo hududlarida tarqalgan ko‘chkilarda iqlim sharoiti bilan uzviy bog‘liq bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, 1954, 1958, 1969, 1978, 1989 va 1998-yillarda atmosfera yog‘inlari meyordan yuqori bo‘lgani uchun ko‘chki jarayonlari ham ko‘p bo‘lgan. Respublikamiz hududlarida ko‘chki jarayoni tarqalgan eng ko‘p ko‘chki maydonlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Namangan viloyatlari hududlariga to‘g‘ri keladi.

Yer surilishi talafotlari tog‘ jinslari qatlamlarini qiya sath bo‘ylab o‘z og‘irligi, gidrodinamik, gidrostatik seysmik kuchlar ta’sirida surilishiga yer surilishi deyiladi. Bunda ham uy-joylar vayron bo‘ladi ekinzorlar tuproq ostida qoladi. Surilish tezligi sekin, o‘rtacha va kuchli xillarga bo‘linadi. Kuchli yer surilishida katta talafot bo‘lib, massa bir necha million ba’zan milliard m^3 ga yetadi. Ohangaron yer ko‘chkisi 700 mln m^3 - 1987-yilda, Tojikistonda Sharora 1991-yilda, Ohangaronda Jigariston yer surilishi sodir bo‘lgan.

Yer surilishining 3 bosqichi kuzatiladi:

1-bosqich surilishning tayyorlanish bosqichi;

2-bosqich tog‘ jinslarini surilishi;

3-bosqich surilishning so‘nggi bosqichi.

Yer surilishini oldindan bilish:

- yoriqlarni hosil bo‘lishi, uylarni devorini yorilishi;
- yer surilishini oldini olish;
- qiya joylarda qurulish ishlari olib bormaslik;
- transportni qiya joylarda tezligini oshirmaslik;
- qiyada o‘sadigan o‘simliklarni muhofaza qilish;
- qiyada sug‘orish va shudgorlash ishlarini olib bormaslik.

11.3. Favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladigan zararlanish o‘choqlari va ularning turlari

Lokal favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq bo‘lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq bo‘lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar Favqulodda vaziyat paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo‘lmaganni

tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi ishlab chiqarish obyekti yoki ijtimoiy maqsadli obyekt hududi tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

Mahalliy favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko'p emas, tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

Respublika favqulodda vaziyatiga favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odam jabrlangan, yoxud 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortiqni tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

Transchegara favqulodda vaziyatga oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud favqulodda vaziyat chet elda yuz bergan va O'zbekiston hududiga daxl qiladigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

Epidemiologik, epizootik va epifitotik favqulodda vaziyatlar.

-o'lat, vabo, sarg'ayma, isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;

-odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar — epidemik toshmali terlama, Bril kasalligi, Ku-isitma;

-zoonoz infeksiyalar — Sibir yarasi, quturish;

-virusli infeksiyalar — SPID;

-epidemiya — alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo'lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo'lgan odamlarning guruh bo'lib yuqumli kasallanishi, bir aholi punktida — 50 kishi va undan ortiq;

-aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo'lib kasallanish — 20 kishi va undan ortiq;

-tashhisi aniqlanmagan bezgak kasalligi — 15 kishi va undan ortiq;

-o'lim yoki kasallanish darajasi o'rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo'lgan vaziyat;

-zaharli moddalar bilan zaharlanish — jabrlanganlar soni — 10 kishi, vafot etganlar soni — 2 kishi va undan ortiq:

-oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish — jabrlanganlar soni — 10 kishi, vafot etganlar soni — 2 kishi va undan ortiq;

-epizootiya — hayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo'lishi;

-epifitotiya — o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishi.

Nazorat uchun savollar

1. Favqulodda vaziyatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Favqulodda vaziyatlarni vujudga kelish sabablari nimadan iborat?
3. Qanday turdagi favqulodda vaziyatlarni bilasiz?
4. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish mumkinmi?
5. Tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyat deganda nimani tushunasiz?
6. Halokat va katastrofalar deganda nimani tushunasiz?
7. Halokat va katastrofalarni vujudga kelish sabablari?
8. O'zbekiston hududida vujudga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar turini aytib bering.

12-§. FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY VA TASHKILIY MASALALARI

12.1. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida

Aholi xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas'uliyatini va jamiyatning huquqiy zaminini belgilovchi hujjatlarning ko'pgina qismi, murakkablashib borayotgan turli xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarning ta'rifi, tasnifi, kelib chiqish sabablari va sodir bo'lgudek bo'lsa, aholi xavfsizligi, inson salomatligini ta'minlashdek muhim tadbirlarga bag'ishlangandir.

O'zbekistonning iqlimi, tabiiy tuzilishi, tabiiy - geologik sharoiti, ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi o'ziga xos turli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi va tarqalishiga sabab bo'ladi. Buni inobatga olgan Vazirlar Mahkamasi mazkur masala bilan maxsus shug'ullanuvchi organ, Respublika Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etdi (1996-yil). Uning asosiy vazifasi: favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ro'y bergan taqdirda bartaraf etish, inson hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir.

Albatta, bu vazifalarni bajarish birgina vazirlik va uning tasarrufidagi tarmoq tashkilotlarining yagona vazifasi bo'lmay, mavjud bo'lgan barcha vazirlik va idoralar o'z faoliyati doirasida qo'shilishlari va buyurilgan farmoyishlarni bajarishlari shart. Shu bois, hukumatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi (1997-yil). Mazkur qarorda har bir vazirlik, idora, tashkilot uchun o'z yo'nalishi bo'yicha aniq funksiyalar belgilab qo'yilgan.

"Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning

asosiy maqsadi - aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdan iboratdir.

"Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida»gi qonun, gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatish, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishda mas'uliyatni belgilab beradi.

«Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi Qonun - Fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgiladi.

"Radiatsiaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonun-radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, shuningdek, atrof - muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Bu qonunlar tom ma'noda hozirgi zamonda aholi va hududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning yagona huquqiy asosini belgilaydi. Ularning amaldagi harakati maxsus qo'llanmalar va davlat standartlari asosida olib boriladi.

Dunyo miqyosida yuz berayotgan favqulodda vaziyatlar, ularning xususiyatlari, favqulodda vaziyatlar manbalari bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlarning faoliyat ko'rsatishi muhofaza tizimlarini tuzish va uni takomillashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasida aholi va hududlarning xavfsizligini ta'minlash borasida asosiy muammolarni hal etish, davlat boshqaruv organlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 23 dekabrdagi 558 -sonli qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakatlar qilish davlat tizimi (FVDT) tashkil etildi va 2011-yil 24 avgustdagi 242-son qaroriga asosan takomillashtirildi.

12.1-jadval

Favqulodda vaziyatlarda aholi va atrof muhitni muhofaza qilishga taalluqli qonunlar va huquqiy-meyoriy hujjatlar

№	Nomi	Qabul qilingan vaqti
	Qonunlar:	
1.	Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida	1999-yil, 20 avgusg
2.	Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida	1999-yil, 20 avgust
3.	Fuqaro muhofazasi to'g'risida	2000-yil, 26may
4.	Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida	2000-yil, 31 avgust
	Vazirlar Mahkamasining qarorlari	
1.	Toshqin, sel oqimlarini oqizib yuborish, ko'chki hodisalari bilan bog'liq bo'lgan halokatli oqibatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida	1994-yil, 12 aprel 201 – sonli
2.	O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarda quturish kasalligiga qarshi tadbirlar to'g'risida	1996-yil, 18yanvar
3.	O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida	1996-yil, 11 aprel 43- sonli
4.	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida	1997-yil, 23 dekabr 558- sonli qarori o'rniga 2011-yil 24 avgustdagi 242-son qarori
5.	O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida	1998-yil, 7 oktabr 427- sonli
6.	Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida	1998-yil, 27 oktabr 455- sonli
7.	Toshqin, sel oqimlari hamda ko'chki hodisalaridan ogohlantirish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlari to'g'risida	2001-yil, 16 mart 132- sonli
	Davlat standartlari	
1.	Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik asosiy tushunchalarning atamalari va ta'riflari	2000-yil, 25 oktabr O'zDst 981:2000
2.	Favquloda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar atamalar va ta'riflar	2000-yil, 25 oktabr O'zDst 982:2000

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24 avgustdagi 242-son qaroriga

2-ILOVA

12.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar davlat boshqaruv tizimi

Davlat tizimining asosiy maqsadi boshqarish organlarini, Respublika va mahalliy boshqaruv, korxona, tashkilot idoralarni kuch va vositalarni birlashtiradi va aholini, hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishini oldini olish va oqibatlarini tugatish masalalarini hal etishga asoslangan. Mazkur tizim vakolatiga atrof - muhitni muhofaza qilish, tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlardan davlat iqtisodiyotiga yetkaziladigan zararni kamaytirish masalalari ham o'rin olgan.

Davlat tizimi 14 ta hududiy, 22 ta funksional va 1 ta axborot - boshqaruv quyi tizimlaridan iborat. Davlat tizimi 3 darajada faoliyat ko'rsatadi, bular Respublika, mahalliy va obyekt darajalaridir. Qayd etilgan har bir darajalarda bo'lishi shart bo'lgan beshta bo'g'inlar mavjud. Jumladan, har bir daraja tarkibida rahbar organlar, kundalik boshqaruv organlari, favqulodda vaziyat oqibatlarini tugatish kuch va vositalari, favqulodda vaziyatni bartaraf etishda zarur bo'ladigan moliyaviy va moddiy vositalar zaxirasi hamda axborot, aloqa va ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimidan iborat.

FVDT o'z ish faoliyatini uchta ish kuni tartibi (rejim) da olib boradi. Kundalik ish faoliyati tartibida barcha tashkilotlar, obyektlar, hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilish amalga oshiriladi, kuch va vositalarni tayyorlashni takomillashtirish, aholini muhofazalanish harakatiga o'rgatish ishlari olib boriladi.

Kuchaytirilgan yoki yuqori tayyorgarlik ish kuni tartibida faoliyat ko'rsatish favqulodda vaziyat yuzaga kelish xavfi tug'ilganda yoki sharoit yomonlashgani to'g'risida ma'lumot olingan taqdirda joriy etiladi.

Favqulodda vaziyat ish kuni tartibida, favqulodda vaziyat sodir bo'lsa, uning oqibatlarini tugatish maqsadi qo'yiladi. Davlat tizimining bunday faoliyat ko'rsatish rejimlariga ko'rsatma berish huquqi Respublika Prezidenti, Fuqaro muhofazasi boshliqlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi raisi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimlari) vakolatiga kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, favqulodda vaziyat sodir bo'lib, uni bartaraf etishda Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar, Mudofaa vazirligi, O'zkimyo, O'zbekiston Havo yo'llari, O'zbekiston temir

yo'llari va boshqa tashkilotlarning bo'limlariga ehtiyoj sezilganda ularni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

12.2. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimiga kiruvchi Boshgidrometereologiya, Sanitariya- epidemiologiya markazi, Seysmologiya instituti, Davlat geologik xavfli hodisalarni kuzatish markazi va boshqa idora va tashkilotlar kundalik faoliyati, favqulodda vaziyatlarni tadqiq qilish, bashoratlash ishlariga yo'naltirilganligi alohida ahamiyatga ega.

Respublikamiz hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish va zarar keltiruvchi omillarini imkon darajasida kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash nihoyatda muhimdir. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirish esa asosan barcha hududiy va funksional quyi tizimlarni tayyorgarlik darajasi, kuch va vositalar bilan to'liq ta'minlashiga va o'zaro yakdillik bilan hamkorlik qilishiga bog'liq. Bular esa O'zbekiston Respublikasini favqulodda vaziyatlarda, ularning oldini olish davlat tizimi va shu tizim tarkibidagi barcha muassasa va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi.

Davlat tizimi tuzilishi, undagi jalb etilishi rejalashtirilgan kuch va vositalar bo'yicha boshqa davlatlarda tuzilgan fuqaro muhofazasi sohasidagi xizmat tizimlaridan ajralib tursa ham, lekin har bir fuqaro hayoti xavfsizligini ta'minlash, moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlab qolishda muhim vazifalarni bajarishda alohida o'ringa ega. Respublikada favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda quyidagicha o'z aksini topgan:

4-modda. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishining asosiy prinsiplari.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi;

oshkoralik;

axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko'rilishi.

Turli holatlardagi favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni qonun asosida ta'minlash va oldini olish tadbirlari quyidagilardan iborat:

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq: "O'zbekiston Havo Yo'llari" milliy aviakompaniyasiga va unga qarashli, "Halokat - qutqaruv va qidiruv xizmati", "Aviatsiya texnikasidan halokatsiz foydalanish va parvozlar xavfsizligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish" vazifalari;

• "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik kompaniyasiga "Temir yo'l transporti vositalaridan halokatsiz foydalanish, tashish chog'ida portlovchi, yong'in xavfi bo'lgan yuklar va KTZM xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish" vazifalari;

• Davlat avtomobil nazorati organiga "Yo'l transport xavfsizligini ta'minlash xizmatiga rahbarlik qilish" vazifasi;

• "O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qo'mitasi"ga, "kon, ruda, kimyoviy, neft va gaz qazish hamda qayta ishlash sanoati va "Toshmetroqurilish" obyektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va xavfsizligi ustidan davlat nazoratiga rahbarlik qilish" ishlari;

• «Neft va Gaz» milliy korporatsiyasiga "ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori xavfliligini o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lgan halokatlar va halokatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish" hamda "idoraga qarashli obyektlarda halokatlarning kelib chiqishi ehtimollarini va oqibatlarini bashoratlash, tarmoqlarning birlashmalari va obyektlarida favqulodda vaziyatlar chog'ida ishlarning barqarorligini oshirish" vazifalari;

• Energetika va elektrlashtirish vazirligiga "energetika tizimiga kiruvchi barcha obyektlardan halokatsiz foydalanishga oid tadbirlar majmuini tashkil etish va amalga oshirish hamda kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda iste'molchilarni hamda birinchi navbatda, favqulodda vaziyatlar

hududlaridagi hayotiy ta'minot obyektlarini elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish" vazifalari;

• Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda iste'molchilarni hamda, birinchi navbatda, favqulodda vaziyat hududlaridagi hayotiy ta'minot obyektlariga xizmat qiluvchi muhandislik himoya qilish xizmatini uzluksiz ish faoliyatini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari yuklatiladi.

Atrof - muhitni, jarayonlarni bir va undan ortiq qismlarini avvaldan tayyorlangan dastur asosida biror maqsadda vaqt bo'yicha uzluksiz kuzatib borishni **monitoring** deb nomlanadi. **Monitoring** bu biosferaga inson faoliyati ta'siri natijasida bo'ladigan o'zgarishlarni ajratib olish imkonini beruvchi kuzatuv tizimidir. Bunday tizimni atrof - muhitda bo'ladigan **antropogen** o'zgarishlar monitoringi deb atalib, tabiatda inson faoliyati bilan bog'liq tabiiy o'zgarishlarni kuzatuv tizimi esa tabiiy o'zgarishlar monitoringi deb ataladi. Ya'ni monitoring mavjud axborotlardan foydalanib atrof-muhitda bo'ladigan antropogen effektlarni ajratib olish imkoniyatini beruvchi tizimlar guruhiga kiradi.

Favqulodda vaziyatlar monitoringi, atrof - muhitni, obyektlarini kuzatuvchi va nazorat qiluvchi mavjud tizimlarning bir qismi bo'lib, ularning tajribalaridan axborot uzatish tizimlaridan va axborotlarni qayta ishlash markazlaridan foydalanilgan holda olib boriladi. Ya'ni favqulodda vaziyatlar monitoringi, atrof-muhit monitoringi (havo ifloslanishi monitoringi, biologik monitoring, kompleks monitoring), yer usti va yer osti suvlari monitoringi (yer osti suvlarini ifloslanishi monitoringi, suvlarni miqdori va sifati monitoringi), litomonitoring (tuproq qatlami va uning sifatini o'zgarishi monitoringi, sug'orish ishlari natijasida ekologik muhitni o'zgarishi monitoringi, shahar hududlarida yer osti suvlarini ko'tarilishi monitoringi, tog' surilmalari monitoringi), seysomonitoring, qor ko'chkilari monitoringlari asosida olib boriladi.

Favqulodda vaziyatlar tasnifiga asosan favqulodda vaziyatlar monitoringi tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar monitoringlaridan tashkil topadi.

12.3. Favqulodda vaziyatlarda aholini himoyalashning asosiy usullari va vositalari

Aholini favqulodda tabiiy va texnogen halokatlar va vaziyatlarda himoya qilish - Fuqaro Muhofazasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Himoyalanish chora-tadbirlari oldindan tuzilgan reja asosida tinchlik vaqtda o'tkazilishi shart va zarur. Himoya vositalarining hajmi va xarakteri alohida rayonlarning va xalq xo'jaligi obyektlarining konkret xususiyati e'tiborga olingan taqdirda belgilanadi. Bunda radioaktiv, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va boshqa texnogen va ekologik holatlar hamda zararlovchi zamonaviy vositalar natijasida vujudga keladigan sharoitlarni ham e'tiborga olish lozim.

Aholini favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanishdagi asosiy usullariga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- aholini himoyalanish inshootlariga yashirish;
- aholini bo'lib joylashtirish;
- aholini shahardan tashqaridagi hududlarga evakuatsiya qilish;
- shaxsiy himoya vositalardan foydalanish.

Aholiga ommaviy zarar yetkazuvchi holatlarda, aholini himoya qilishda:

- ✓ himoya qilish usullariga oldindan, majburiy ravishda o'qitish;
- ✓ favqulodda vaziyatlarda xavf tug'ilganligi haqida Fuqaro Muhofazasi signallari orqali ogohlantirish;
- ✓ oziq-ovqat mahsulotlari, suv, yem-xashak, chorva mollari, ekinlarni radioaktiv moddalar, zaharli moddalar va biologik vositalardan himoya qilish;
- ✓ radiatsiya, kimyoviy va bakteriologik razvedkani tashkil qilish;
- ✓ dozimetrik nazorat hamda kimyoviy va bakteriologik qurollari bo'yicha laboratoriya nazoratini o'tkazish chora-tadbirlari ko'rish.

Yong'inga, epidemiyaga va sanitariya gigiyenaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazish, qishloq xo'jalik obyektlarida ishlash rejimi (tartib-qoidalari)ga rioya qilish, aholini, radioaktiv, kimyoviy,

bakteriologik moddalar bilan zaharlangan hududlar haqida ogohlantirish, zararlanish o'chog'ida qutqaruv hamda shoshilinch halokat-tiklash ishlarini amalga oshirish, odamlarni sanitariya qarovidan o'tkazish; hududlar, inshootlar, texnikalar, kiyim-kechaklar, poyafzal va oziq-ovqatlar radioaktiv moddalar, zaharli moddalar va biologik vositalar bilan zaharlangan hollarda ularga tegishli ishlov berib zararsizlantirish kerak.

Aholini Fuqaro Muhofazasi inshootlarida yashirish. Aholining himoya inshootlarida yashirinishi tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda himoya qilishning eng ishonchli usuli hisoblanadi.

Himoya inshootlari bu aholini radioaktiv, kimyoviy, bakteriologik vositalardan himoya qilish uchun mo'ljallangan maxsus injenerlik inshootlardir. Bu inshootlar o'zining himoya xususiyatlariga qarab:

- radiatsiyadan yashirinish joylari;
- radiatsiyaga qarshi pana joylar;
- oddiy pana joylar turlariga bo'linadi.

Odamlarni yadro qurolining barcha shikastlovchi omillaridan, zarb to'lqinidan, yorug'lik nurlanishidan, o'tuvchi radiatsiyadan (shu jumladan, neytron oqimidan ham) va radiatsiya zaharlanishidan eng yaxshi himoya qilishni ta'min etadigan inshootlar yashirinish joylari bo'lib hisoblanadi. Yashirinish joylari shuningdek, radioaktiv moddalar, zaharli moddalar va biologik vositalardan ommaviy yong'in chiqqan rayonlarda yuqori harorat va zararli gazlardan hamda portlash yuz bergan vaqtda vayron bo'lgan binolarning ostida qolmaslikni ta'minlaydi.

Yashirinish joylari odamlar eng ko'p to'planadigan joylarda, suv bosmaydigan maydonlarda qurilib balandligi kamida 2 m, poli yer osti suv sathidan 50 sm yuqorida bo'lishi kerak.

Pana joy himoya xususiyatlariga, katta-kichikligiga, joylashgan yeriga, qurilgan vaqtiga va filtrlash vositalari bilan jihozlanishiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi; 150 kishilik kichik, 150 dan 450 gacha kishilik o'rta, 450 kishidan ko'p bo'lsa katta yashirinish joyi hisoblanadi. Joylashgan yeriga qarab pana joy binoni o'zida yoki alohida qurilgan bo'lishi mumkin. Pana joylar urushdan oldin, tinchlik vaqtida yoki dushman urush xavfini tug'dirgan vaqtda qurilgan bo'ladi.

Yashirinish joylariga sof ventilyatsiya rejimi bo'yicha tashqi havoni uzatish miqdori havoning temperaturasiga qarab 7 m^3/s dan 20 m^3/s gacha miqdorda, filtrlash-ventilyatsiya rejimi bo'yicha har bir kishiga 2 m^3/s dan 8 m^3/s gacha miqdorda belgilanadi. Har bir yashiringan kishi uchun butun yashirinish muddatiga ichish uchun kamida 6 litr, sanitariya-gigiyena bo'yicha 4 litr suv g'amlangan bo'lishi kerak. Agar yashirinish joylarida 600 va undan ko'proq kishi bo'lsa, har xil yong'inni o'chirish hisobiga 4,5 m^3 hajmda suv kerak bo'ladi.

Yashirinish joylarida yashiringan kishilar uchun sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaratib berish kerak. Yashirinish joylaridagi havoda uglerod oksidi 1% dan, havo namligi 70% dan, harorat esa 23°C dan oshmasligi kerak.



12.1-rasm. Pana joyning sxemasi:
1-himoyalovchi germetik eshiklar; 2-shlyuz kameralar; 3-sanitariya uzeli; 4-odamlar joylashtiriladigan asosiy xona; 5-halokat hollarida chiqiladigan yo'l tuynugi; 6-filtrlovchi-ventilyatsiya kamerasi; 7-meditsina yordami ko'rsatiladigan xona; 8-oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan xona.

Odamlar uchun pana joylarda ikki qavatli skameykalar va so'rilar o'rnatilib, har bir kishini o'tirishi uchun so'rini pastki qismida 0,45x0,45 m, yuqori qismida yotish uchun 0,55x1,8 m hisobidan joy ajratiladi. O'tirish uchun mo'ljallangan o'tirgichlarni

balandligi 0,45 m va yotish uchun moslashtirgan so‘rini ikkinchi qavati birinchi qavatidan 1,1 m balandlikda o‘rnatiladi.

Pana joylarda odamlarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan qismining 20% i yotish uchun ajratiladi.

Aholini bo‘lib joylashtirish va evakuatsiya qilish. Aholini bo‘lib joylashtirish va evakuatsiya qilish - bu favqulodda xavfli vaziyatlarda aholini himoya qilish usullaridan biri hisoblanadi.

12.2-jadval

Gamma va neytron-nurlanishlarini ikki marotaba kamaytirish uchun qurilish materiallari ko‘rsatkichlari



Aholini bo‘lib joylashtirish - bu favqulodda xavfli vaziyatlarda ishlab chiqarish joylarida o‘z ishini davom ettirish uchun qolgan korxonalarning ishchi va xizmatchilarini tashkiliy ravishda transportda yoki piyoda olib chiqish hamda shahar tashqarisidagi hududda joylashtirish demakdir. Bo‘lib joylashtiriladigan kishilar kategoriyasiga, shuningdek, shahar hayot faoliyatini ta’min etuvchi obyektlar xodimlari ham kiritiladi (masalan, kommunal xo‘jalik xodimlari ham shu kategoriyaga kiradilar). Bo‘lib joylashtirilgan kishilar korxonaning (obyektning) ishlab chiqarish sikliga muvofiq vaqti-vaqti bilan shaharga kelib-ketib turadilar.

Evakuatsiya bu qolgan aholini shahardan tashqaridagi hududga transportda va piyoda olib chiqib ketishdir. Bo‘lib

joylashtirilgan kishilardan farqli o'laroq, evakuatsiya qilingan kishilar alohida farmoyish chiqarilguncha shahar tashqarisidagi hududda doimiy ravishda yashayveradilar. Aholini bo'lib joylashtirish va evakuatsiya qilish rejalashtirilayotganda, shaharlardagi har bir korxona, muassasa va o'quv yurtiga shahardan tashqari hududda aholini joylashtirish rayoni belgilanadi. Shahar tashqarisidagi hududda ishchi va xizmatchilarni shunday joylashtirish kerakki, unda ularning xavfsizligi ta'minlansin hamda shaharda o'z ishini davom ettirish uchun kelib ketishlariga zarur sharoit yaratib berilsin.

Aholini bo'lib joylashtirish va evakuatsiya qilishdagi hamma tashkiliy ishlarni fuqaro muhofazasining boshlig'i obyekt rejasiga asosan amalga oshiradi.



a) b) d)

12.2-rasm. Favqulodda vaziyatlarda nafas olish a'zolarini himoya qiluvchi shaxsiy himoya vositalari:
a) ГП-5 gaz niqobi; b) GP-4U gazniqobi; d) R-2 respiratori.

Shaxsiy himoya vositalari. Aholini favqulodda xavfli vaziyatlarda himoya qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlarning birortasi ham shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni istisno qilmaydi. Bu turga kiruvchi himoya vositalari odamni radioaktiv moddalar, zaharli moddalar va biologik vositalardan himoya qilish uchun ishlatiladi.

Himoya vositalari o'z vazifasiga ko'ra nafas olish a'zolari va terini himoya qilish vositalariga bo'linadi. Bundan tashqari filtrlovchi va izolyatsiya qiluvchi vositalarga ham bo'linadi. Filtrlash prinsipi shundan iboratki, bunda inson organizmining hayotiy faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan havo himoya vositalari orqali o'tkazilganda tashqaridan kirgan zaharli moddalar-

dan tozalanadi. Izolyatsiyalovchi turdagi himoya vositalari odam organizmini tevarak-atrofdagi muhitdan batamom izolyatsiya qilib ajratib turadi.

Sanoat yo'li bilan chiqarilgan (filtrlovchi va izolyatsiya qiluvchi) gaz niqob va respiratorlar, shuningdek, eng oddiy himoya vositalari (PTM-1), changga qarshi gaz niqoblar hamda odatda aholining o'z qo'li bilan tayyorlanadigan paxta-doka bog'ichlar odamning nafas olish organlarini himoya qilish vositalari hisoblanadi.

Asosiy filtrlovchi gaz niqoblarga GP-5, GP-5M, GP-4U, gaz niqoblari; DP-6 DP-6M, PDF-7, PDF-D, PDF-Sh bolalar gaz niqoblari va bolalar himoyalash kamerasi (KZD-4) kiradi.

Fuqaro muhofazasi rejasi umumdavlat miqyosida ishlab chiqilib, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatdan muhofaza qilish tadbirlarini barvaqt amalga oshirish, favqulodda vaziyatni oldini olish, ular sodir bo'lgandagi zarar va talafotlarini kamaytirish maqsadida Respublika aholisining, idoralar, hokimiyatlar va obyektlarning harakat qilish rejalari, shuningdek, FVDT hamma darajalaridagi hamkorlik rejalari ishlab chiqiladi.



a) b)

12.3-rasm. Terini himoya qilish vositalari:
a) L-1 yengil himoya kostyumi; b) umumiy qo'shin OP-1 maxsus himoya kiyimi.

Rejalashtirish tinchlik va harbiy harakatlar davrlariga alohida-alohida amalga oshiriladi va rejani mahalliy davlat hokimiyati organlari ishlab chiqadilar. Xodimlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarni rejalashtirishi va muhofaza qilish sohasidagi faoliyatlari bu ularning majburiyatlari hisoblanadi.

Rejalashtirishdan asosiy maqsad favqulodda vaziyat yuzaga kelgan holda, shuningdek tabiiy ofatlar, yirik halokat va halokatlar oqibatlarini tugatishda fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishdan iborat.



a)



b)

12.4-rasm. Radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik favqulodda vaziyatlarda foydalaniladigan birinchi yordam paketi:
(a) va tibbiy quticha (b). 1-og'riq qoldiruvchi vosita; 2-fosforoorganik zaharlarga qarshi dori; 3- bakteriyalarga qarshi ishlatiladigan №2 vosita; 4-radiatsiyadan himoyalanish uchun №1 vosita; 5- bakteriyalarga qarshi ishlatiladigan №1 vosita; 6-radiatsiyadan himoyalanish uchun №2 vosita; 4-qusishga qarshi №1 vosita.

Favqulodda vaziyatlarni sodir bo‘lishini oldini olish maqsadida barcha rejalashtarilayotgan tadbirlarni 3 turga bo‘lish mumkin:

I tur-huquqiy - bu borada turli qonunlarga va meyoriy hujjatlarga muvofiq ravishda olib boriladigan ishlar, binolarning loyihasini tuzishdan tortib, binoni qurib bitkazishda qurilish meyorlari va qoidalariga amal qilishdir, ulardan foydalanish davridagi qoida va tartibga amal qilish tadbirlaridir (yong‘in va portlash ehtimoli bor bo‘lgan tashkilotlar).

II tur-tashkiliy - bu borada aholi va hududlarni - tashkilotlarni ogohlantirish tadbirlari, qolaversa, favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda ularni oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar rejasini tuzishdir.

III tur-muhandislik-texnik ish rejalari - ishlab chiqarish jarayonlarida yong‘in va portlashlar bo‘lishi ehtimoli (xavfi) bor tashkilotlarda xavfli texnologiyalar o‘rniga boshqa xavf tug‘dirmaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga tadbiq qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida»gi qonuniga asosan «Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi» faoliyatini rejalashtirishga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkiliy - uslubiy rahbarlik qiladi, ıamda u O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasining rejasi oyihasini ishlab chiqadi.

Fuqaro muhofazasi tadbirlari hududlarning iqtisodiy, tabiiy va oshqa tavsiflarini, xususiyatlarini hamda favqulodda vaziyat sodir o‘lish xavfi qanchalik realligini hisobga olib, oldindan rejalashriladi va amalga oshiriladi hamda mumkin qadar maksimal darajada muhofaza qilish maqsadida hamma fuqaro muhofazasi rejalariga bir xil talablar qo‘yiladi. Fuqaro muhofazasi rejasini tuzish jarayoni shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘linadi:

✓ birinchi bosqichda ijrochilar tarkibi, ularning tayyorlik darajasi aniqlanadi, bor ma’lumotlar va hujjatlar o‘rganiladi, materiallar umumlashtiriladi, kalendar reja ishlab chiqiladi;

✓ ikkinchi bosqichda reja ishlab chiqiladi va uning hujjatlari tuziladi;

✓ uchinchi bosqichda hamma tadbirlar bir - biriga moslashtiriladi va yuqori tashkilot bilan kelishib olinadi, zaruriyat bo‘lsa, reja tuzatib to‘g‘rilanadi va tasdiqlanadi;

✓ to‘rtinchi bosqichda hamma rejalashtirilgan tadbirlar, reja tasdiqlangandan keyin, tegishli ijrochilarga yetkaziladi.

Tinchlik davrida favqulodda vaziyatni oldini olish va ularni tugatish xatti - harakatlarining rejasi ikki bo‘lim (matn qismi) va to‘rt ilovadan (loyiha qismi) iborat bo‘ladi.

Birinchi bo‘limda yirik ishlab chiqarish halokatlari va tabiiy ofatlar ro‘y berganda viloyat hududidagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitga qisqacha baho beriladi.

Rejaning ikkinchi bo‘limida esa yirik ishlab chiqarish halokatlari va tabiiy ofatlar sodir bo‘lish xavfi tug‘ilganda va sodir bo‘lgandagi olib boriladigan tadbirlar rejalashtiriladi.

Rejaning ilova qismida:

1. Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining favqulodda vaziyatni tugatish qarori (viloyat xaritasi va shaharlarning rejasi);

2. FVDT hududiy kichik tizimining obyektlarda halokatlar va tabiiy ofatlar xavfi tug‘ilganda va ular sodir bo‘lganda o‘tkaziladigan asosiy tadbirlarini kalendar rejasi;

3. FVDT hududiy kichik tizimining obyektlarda halokatlar va tabiiy ofatlar xavfi tug‘ilganda va ular sodir bo‘lganda o‘tkaziladigan tadbirlarini bajarishga jalb qilinadigan kuch va vositalarining hisobi (har bir tadbir haqidagi umumiy ma’lumotlar);

4. Ishlab chiqarish halokatlari va tabiiy ofatlar xavfi tug‘ilganda boshqaruv, xabarlash va aloqani tashkil qilish (sxemasi) beriladi.

Rejalarga har-yili 1 yanvardagi holatga muvofiq-yilning birinchi choragi davomida tuzatishlar kiritiladi. FV yuzaga kelgan taqdirda rejaga darhol aniqliklar va tuzatishlar kiritilishi kerak. Reja ikki nusxada tuzilib, nusxalardan biri obyektning boshqarish punktida, ikkinchisi esa yuqori tashkilotda saqlanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilishning huquqlari qaysi hujjat asosida kafolatlanadi?

2. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi qachon va nima maqsadda tuzilgan?

3. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi nima?

4. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari deganda nimani tushunasiz?

5. Aholini favqulodda vaziyatlar ta'siridan himoyalashdagi asosiy usullarni aytib bering.

6. Pana joylar nima va ularni tasnifini aytib bering.

7. Aholini bo'lib joylashtirish nima va qaysi holatlarda amalga oshiriladi?

8. Aholining evakuatsiyasi nima va qaysi holatlarda amalga oshiriladi?

9. Favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishini oldini olish maqsadida rejalashtirish tadbirlari nimadan iborat?

10.Favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishini oldini olish maqsadida rejalashtirish bosqichlari nimadan iborat?

13-§. BIOLOGIK TURDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN HIMOYALANISH

13.1. Biologik turdagi favqulodda vaziyat turlari va ularning xususiyatlari

Biologik favqulodda vaziyat-muayyan hududda yuqumli kasalliklarni keng tarqalish xavfi, hayvonlar va o'simliklar zararlanishi natijasida turmush sharoiti va inson faoliyatini buzilishiga olib keluvchi holatga aytiladi. Biologik favqulodda vaziyat manbai bu odamlarda, hayvonlarda va o'simliklarda kasalliklarni tarqalishiga sababchi boladigan bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar va riketsilar bo'lishi mumkin.

Hayvonlar yuqumli kasalliklarining tarqalishi epizootiya, panzootiya va enzootiya shaklida yuz beradi.

Epizootiya - aniq bir hududda bir yoki ko'p turdagi qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida kasallikning odatda ushbu hududda qayd qilinadigan darajasidan anchagina katta bo'lgan darajada vaqt va fazoda bir vaqtda rivojlanadigan yuqumli kasallikning tarqalishi.

Panzootiya - qishloq xo'jaligi hayvonlari yuqumli kasalligining katta hududda butun bir mintaqa, bir necha mamlakat va materiklarni qamrab olgan holda bir vaqtda ommaviy tarqalishi.

Enzootiya - tabiiy va xo'jalik iqtisodiy sharoitlari, kasallikning hamma yoqqa tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan aniq bir joy, xo'jalik yoki aholi yashash joylarida qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida bir vaqtda tarqalishi.

O'ta xavfli kasalliklar epizootiyasining shakllanish manbalari sel oqimlari, suv toshqinlari, davlat veterinariya xizmati bilan kelishmay turib yer| ishlarini olib borish, chetdan olib kiriladigan hayvonlar, oziq-ovqat mahsulotlari, yem va boshqa vositalar, chetdan uchib keluvchi yovvoyi parrandalar to'planadigan joylar, o'ta xavfli kasalliklar o'choqlari mavjud joylarda kemiruvchilar va hasharotlar sonining ortishi va biologik terrorizm bo'lishi mumkin.



13.1-rasm Hasharotlar epidemiyasi (hujumi)

Hayvonlarning xavfli yuqumli kasalliklari

Oqsil — juft tuyoqli uy va yovvoyi hayvonlarning virusli kasalligi. Kasallik hayvonlar orasida enzootiya, epizootiya va panzootiya holida tarqalib, qisqa muddat ichida bir necha hududlarga tarqalish xususiyatiga ega.

Cho'chqalarning klassik vabosi - virusli kasallik. U bilan faqat uy va yovvoyi cho'chqalar kasallanadi. Infeksiya manbalari - kasallangan va kasal bo'lib o'tgan cho'chqalar. Vabo-yilning ixtiyoriy vaqtida, ko'proq kuzda uchraydi, Davolash usullari ishlab chiqilmagan. Shu sababli kasallangan hayvon zudlik bilan o'ldirib, yoqib yuboriladi.

Qushlarning psevdovabosi - tovuqsimonlar oilasiga mansub qushlarning virusli kasalligi. Nafas olish, ovqat hazm qilish organlari, markaziy nerv tizimining zararlanishi bilan namoyon bo'ladi. Kasallik manbai - viruslarni barcha ajratmalari, tuxumi va nafasi bilan ajratuvchi kasal yoki kasal bo'lib o'tgan qushlar. Ushbu kasalikka yo'liqish, odatda kuz-yoz davrida yem, suv, havo orqali, 24 soat davomida namoyon bo'ladi. O'lim ko'rsatkichi — 60-90% ni tashkil etadi. Odatda qushlarni davolamay, o'ldiriladi va yoqib yuboriladi.

Yuqumli gepatit - it va boshqa go'shtxo'r hayvonlarning (tulki, bo'ri) virusli kasalligi. Bezgak, shilliq pardalarning shamollashi va jigarning zararlanishi bilan tavsiflanadi.

Qora oqsoq (brutselloz) — uy va ayrim yovvoyi hayvonlarning yuqumli kasalligi bo'lib, odam uchun xavfli yuqumli kasallik hisoblanadi. It va mushuklardan zararlanishi mumkin. Ko'p hollarda, ushbu kasallikni odamlar orasiga tarqalishiga, ularning brutselloza kasaliga chalingan sigir, qo'y, cho'chqalarning mahsulotlarini iste'mol qilish natijasida yuz beradi.

Qoqshol - hayvonlarning ko'plab turlari va odamlarda uchraydigan yarali bakteriyali kasallik. Mushaklarning spazmatik qisqarishi bilan namoyon bo'ladi.

Manqa kasalligi – sap deb yuritilib, zoonoz kasallik turiga mansub bo'lib, yuqumli kasallikni o'tkir va surunkali turiga kiradi. Ushbu kasallik viruslari eshak, tuya, zebra va yirtqich hayvonlarda uchraydi.

Quturish - hayvonlarning ko'plab turlari, ayniqsa it, tulki va boshqalarning o'tkir virusli kasalligi. Markaziy nerv tizimining og'ir zararlanishi bilan tavsiflanadi va inson uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Hayvon tishlab olganda, shuningdek hayvon so'lagining boshqa hayvonlar va odam organizmiga tushishidan yuqadi. Odamlarda quturish kasalligi itlarning tishlashi natijasida kelib chiqishini birinchi marta Aristotel aniqlagan.

O'simliklar kasalliklari

Zararkunanda - qishloq xo'jaligi o'simliklariga va ularning siliga zarar yetkazadigan jonivorlar va hasharotlar turiga aytiladi.

Fitopatogen — o'simlik kasalligi qo'zg'atuvchisi. Moddalar mashinuviga halokatli ta'sir qiluvchi biologik faol modda ajratib, tizimini zararlaydi, to'yimli moddalar kirishiga halaqit beradi. imliklarning fitopatogenga ta'sirchanligi navlarning barqarorligi, rlanish vaqti va ob-havoga bog'liq. O'simliklar kasalliklari va kunandalarning tarqalishi epifitotiya, enfitotiya va panfitotiya a yuz beradi.

Epifitotiya - qishloq xo'jaligi ekinlarining ommaviy nobud i va hosildorlikning pasayashi bilan kechuvchi vaqt va muhit rivojlanuvchi ommaviy kasallik va (yoki) o'simlik mandalari sonining keskin ko'payishi.

Enfitotiya - tabiiy va xo'jalik-iqtisodiy sharoitlari ushbu ning har tomonga tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan, aniq joy,

xo‘jalik, aholi yashash joyida qishloq xo‘jaligi o‘simliklari o‘rtasida yuqumli kasallikning bir vaqtda tarqalishiga aytiladi.



13.2-rasm. O‘simliklar epifitoteyasiga sababchi bo‘ladigan kasalliklar ko‘rinishi

Panfitotiya - bir necha mamlakat yoki qit’a hududida o‘simliklarning ommaviy kasallanishi va qishloq xo‘jaligi o‘simliklari zararkunadalarining keskin ko‘payish holatiga aytiladi .

Kolorado qo‘ng‘izi – zararkunanda hasharot bo‘lib, uning o‘lchami 9-11 mm ni tashkil etadi. Bahorda tuproq ostidan chiqadi va 2-4 mm li tuxumlarini kartoshka bargining orqa tomoniga 18-20 tadan birlashtiradi va 24 kun ichida rivojlanadi. Bir-yil davomida bittadan to‘rttagacha avlod qoldiradi. Natijada hosildorlik keskin kamayib ketadi.

Kartoshka fitoftorozi - zararli kasallik. Tuganaklar hosil bo‘lish davrida ko‘chatlarning bevaqt nobud bo‘lishi va ommaviy chirib ketishi tufayli hosil miqdori kamayib ketadi. Gullash davrida butalarda qora-jigarrang yoki kulrangsimon yog‘li dog‘lar paydo bo‘ladi. Yomg‘irli havoda kasallik tez tarqaladi va bir necha kun ichida barcha ko‘chatlarni shikastlaydi. Kasallik, odatda, yozning ikkinchi qismida kuzatiladi. Hosildorlik 15-20% va undan ko‘proq yo‘qotilishi mumkin.



13.3-rasm Kolorado qo'ng'izining hujumi

Kartoshka parvonasi - yoygan qanotlari kengligi 28-40 millimetrga yetadigan kapalak. Nam maydonlarda tarqaladi. Kapalak o'simlik poyasiga tuxum qo'yishidan o'simlik nobud bo'ladi.



13.4-rasm Kasallangan meva ko'rinishi

Meva bog'larida olma qurti, shira, qalqandorlar uchraydi. Olma qurti urug' mevali daraxtlarga jiddiy zarar yetkazadi. Unga qarshi kurashish uchun kuzda va bahorda daraxtlarning qurigan po'stloqlari, shoxlari qirqilib, shakl beriladi. Qator oralarga ishlov berib, begona o'tlar va o'simlik qoldiqilaridan tozalanadi.

Bahor oylarida bog'larda kalmaraz (parsha), un-shudring kabi kasalliklar rivojlanib, zarar keltirish uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Danakli meva bog'larida esa klyasteriosporioz (teshikli dog'lanish) va barg buralishi kasalliklari hosilga jidday zarar yetkazadi.

Polizchilikda qovun pashshasi Xorazm va Qoraqalpog'istonda uchraydi. U asosan Afg'oniston, Pokiston, Eron, Hindiston va Kavkazda ko'proq uchrab, qovun, tarvuz, bodring va oshqovoqni zararlaydi.

Hayvonlar va o'simliklarning ommaviy kasallanish hollari boshqa favqulodda vaziyatlardan son jihati bilan ajralib turadi. Keyingi-yillarda respublikamizda ushbu favqulodda vaziyatlarning yuz berish ehtimolligi oshib borayotganligi sababli, ulardan muhofazalanish tadbirlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Biologik tusdagi xavfli holatlar quyidagi unsurlar orqali kelib chiqishi mumkin. Zamburug'lar judayam mayda bo'lib, ba'zida yolg'iz hujayralardan tashkil topgan bo'ladi va qo'ziqorin xamirturushlarda uchraydi. Ishbu zamburug'larning rivojlanishi o'simliklarga o'xshamaydi va o'zlarining oziqlarini ishlab chiqara olmaydi, lekin o'lik organik moddalarda, hayvonlarda va o'simlik parazitlarida yashaydi. Zamburug'lar organizmga tushganda allergiya ishlab chiqaradigan manba hisoblanadi.

Zamburug'lar asosan devorlarda, nam joylarda bo'lgan non, pishloq, go'ja va sut mahsulotlarida uchraydi. Ular inson organizmiga foydali bo'lishi bilan bir qatorda, allergiyalarni kelib chiqishiga ham sabab bo'ladi. Astma kasalliklari yoki o'pka kasalliklari bunga misol bo'lishi mumkin.

Bakteriyalar juda ham kichkina organizmlar bo'lib, ular inson tanasidagi hujayra katakchalaridan ham kichkina. Ular inson tanasining tashqi qismida yashab turgan paytida nazoratga olinishi va dorilar bilan yo'q qilinishi mumkin. Hozirgi kunda bakteriayar juda ko'p dorilarga chidamli bo'lib kelmoqda. Bularga uzoq muddat mobaynida xususiyati jihatdan bir xil va yaqin bo'lgan antibiotiklardan foydalanish sabab bo'lmoqda.

13.2. Biologik turdagi favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularning oldini olish

Yuqumli va parazitar kasalliklar — insonga u yashayotgan muhitning biologik omillari ta'sir ko'rsatishi hamda kasallikka chalingan insondan yoki hayvondan sog'lom insonga kasallik yuqishi mumkinligi sababli paydo bo'ladigan va tarqaladigan kasalliklar.

Epidemiya deb ma'lum bir mintaqada odamlarda yuqumli kasallikni odatdagi tartibga nisbatan katta tezlikda tarqalishiga aytiladi. Epidemiya ham favqulodda vaziyatlar kabi o'zining boshlang'ch zararlanish o'chog'iga ega bo'lib, boshlang'ich manba sifatida yuqumli kasallikka chalingan insonlar yoki hayvonlar bo'lishi mumkin.

Ba'zan kasallik tarqalishi pandemiya tusiga kiradi, ya'ni ijtimoiy va gigiyena sharoitida kelib chiqqan holda bir necha mamlakat yoki qit'alarning hududini qamrab olishi mumkin. Kasallanishni yuqori ko'rsatkichi uzoq muddatlarda ba'zi bir hududlarda saqlanib qolishi mumkin. Bu albatta hududdagi iqlim holati va ijtimoiy omillarga bog'liq holda rivojlanadi.

Kasallikning tabiatiga qarab, epidemiya paytida infeksiyalar tarqalishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- suv va oziq-ovqat orqali dizenteriya va ich terlama;
- havodan (gripp);
- yuqadigan - bezgak va tepkili terlama;

Epidemiyalar – insoniyat uchun eng zararli ofatlardan biri bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra yuqumli kasalliklar natijasida halok bo'lganlar soni jang-jadallarga nisbatan ko'proq hisoblanadi. Ta'rixiy ma'lumotlar va solnomalarda keltirilishicha pandemiya millionlab odamlarni halok bo'lishi va katta – katta hududlarni odamlardan bo'shab qolishiga olib kelgan. Ba'zi bir turdagi yuqumli kasalliklar faqatgina insonga xos bo'lib, ular faqat insonlar o'rtasida tarqalgan. Jumladan Osiyo vabosi, Chechak, ich terlama va boshqalar. Ba'zi yuqumli kasalliklar odamlar va hayvonlarga xos bo'lgan kuydirgi, manqa, oyoq va og'iz bo'shlig'i kasalliklari, psitakoz, tularemia va boshqalar.

Ba'zi kasalliklar izlari qadimgi qabrlardan topilgan. Misol uchun, sil va moxov kasalliklari izlari (2-3 ming miloddan avvalgi)

Misrdagi mumiyolarda aniqlangan. Boshqa ko‘p kasalliklar alomatlari va xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Misr va Hindistondan topilgan qadimiy qo‘lyozmalarda tasvirlangan. Jumladan vabo so‘zi birinchi marotaba qadimiy Misr qo‘lyozmasida (4-miloddan avvalgi sivilisatsiyaga tegishli) topilgan .

Epidemiyalarni yuzaga kelishi, o‘ta ayanchli oqibatlarga olib kelgan. Jumladan tarixiy ma’lumotlarga asosan:

-oltinchi asrda Sharqiy Rim imperiyasining bir necha mamlakatlar hududida 50-yil davom etgan epidemiya 100 million kishi halok bo‘lishiga sabab bo‘lgan;

- 1347-1351 yy. - Yevroosiyo ikkinchi vabo epidemiyasi natijasida Yevropada 25 million va Osiyoda 50 million kishi halok bo‘lgan;

- 1380-yilda - Yevropada o‘lat tufayli 25 million kishi vafot etgan;

- 1665-yilda – Faqatgina Londonda vabo tufayli 70 ming kishi halok bo‘lgan;

- 1816-1926 yy. - Yevropa, Hindiston va Qo‘shma Shtatlar mamlakatlarida izchil vabo pandemiyasi 6 milliondan ko‘p aholini qirib tashladi;

- 1831-yilda - Yevropada sil tufayli 900 mingdan ko‘p kishi vafot etdi;

- 1848-yilda – Rossiyda vabo tufayli 700 ming kishi halok bo‘ldi va 1,7 million odamlar kasallikka chalindi;

- 1876-yilda - Germaniyada sil kasalligi tufayli mamlakatning sakkizdan bir qism fuqarosi vafot etdi;

- XIX asr oxiri – kemalarda uchinchi vabo epidemiyasi yuzaga kelib, butun dunyo bo‘ylab 100 dan ortiq portlar yopildi;

Rossiyada -1913-yilda chechak epidemiyasi tufayli 152 ming kishi vafot etdi;

- 1918-1919-yillarda - Yevropada Gripp epidemiyasi sababli 21 milliondan ko‘p kishi halok bo‘ldi;

- 1967-yilda - Chechak epidemiyasi tufayli dunyodagi qariyb 10 million kishi halok bo‘ldi va 2 million nafari kasallandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti aholini ommaviy emlash ko‘lami kompaniyasini boshladi;

- 1980-yilda – sobiq SSSRda chechakka qarshi emlash to'xtatildi;

- 1981-yilda - OITS kasalligi boshlandi (Birinchi marotaba AQSh ning San Fransisko shtatida ro'yxatga olindi);

- 1991-yilda – Dunyo bo'yicha OITS ga chalinganlar soni 500 ming kishiga yetdi;

- 1990-1995 yy. - Dunyo bo'ylab har-yili bezgakdan 1-2 million kishi nobud bo'ldi;

- 1990-1995 yy. – Sil kasalligiga chalinish tufayli har-yili 1-2 million kishi vafot etdi;

- 1995-yilda - Rossiyada gripp bilan 6 milliondan ko'p odamlar kasallangan;

- 1996-yilda 1995-yilga nisbatan Rossiyada OITS bilan kasallanganlar soni 2 barobarga oshdi.

01.01.2014-yildai rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda OITS epidemiyasi aholining OITS infeksiyasi tarqalganligi 100 000 aholi boshiga 14,1 hisoblanadi. 2013-yil davomida yangi ro'yxatga olingan shaxslar 4247 kishini tashkil etib, shundan erkaklar 2279 (53,63%) va 1968-yilda ayollar (46,3%) ni tashkil etgan.

Ba'zida biologik favqulodda vaziyatlar qasddan yuzaga keltirilishi mumkin, ya'ni bunda g'araz maqsadli bir guruh kishilarning terroristik harakatlari natijasida bakteriologik qurollardan foydalanish natijasida yuzaga keladi.

Biologik vositalar odam va tashqi muhitni yalpi zaharlaydi. Biologik vositalar sifatida kasallik chaqiruvchi, bakteriya, virus, toksinlar ishlab chiqaradigan zamburug'lar va rikketsiyalardan foydalanadilar.

Bularning barchasi yuqumlik(infektsiya)lar deyiladi. Zamburug'lar tomonidan kelib chiqadigan kasalliklar *mikoz* deyiladi. Odam organizmiga, hayvonlarga nafas organlari, teri, oziq-ovqat va yaralardan o'tadi. Odam va hayvonlar uchun bir xususiyatli bo'lgan kasalliklar ***antropozoonozlar*** deyiladi. Bularga kuydirgi, mankab botulizm, parranda o'lati va boshqalar kiradi. Bir qancha kasalliklar alohida turlargagina yuqadi. Bular: parranda o'lati, cho'chqa o'lati, vabo, toshma, terlama.

Kasallik qo'zg'atuvchi ayrim mikroblarning bir nechtasi tushishi bilan kasal boshlanadi. Masalan, tulyaremiyada 30-50 ta mikrob tushsa kasallik rivojlanadi. Biologik vositalar inshootlarni, bino va korxonalarni zararlamaydi, faqatgina tirik jonlarni zaharlaydi.

Biologik vositalar qo'llanilganligini quyidagi alomatlar orqali bilsa bo'ladi:

- past ovozda portlash ovozi vujudga kelib tuman yoki tutun paydo bo'ladi;
- samolyot pastlab uchganda tuman yoki tutun hosil bo'ladi;
- odamlar, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar yalpi kasallanib o'ladi.

13.3. Biologik turdagi favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan tadbirlar

Biologik vositalar qo'llanilganda ularni boshqa joyga tarqalmasligi uchun karantin e'lon qilinadi. ***Karantin*** - zararlanish o'chog'idan yuqumli kasalliklar tarqalib ketmasligi uchun, hamda kasallikni tugatish uchun o'tkaziladigan kompleks tadbirlardir. Bu yerga kirish va chiqish mumkin emas. Karantin joylar favqulodda vaziyatning qat'iy nazoratiga olinadi va infeksiyani boshqa joylarga tarqalib ketishini oldini olish uchun maxsus tadbirlar - ***observatsiyani*** amalga oshiradi. Observatsiya o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- kirish va chiqishni nazoratga olish;
- zararlangan o'choqdagi narsalarni zararsizlantirish va olib chiqishni taqiqlash;
- ovqatlar va suv ta'minoti ustidan meditsina nazoratini kuchaytirish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 12 apreldagi 142-sonli qaroriga asosan «Respublika epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasi tarkibini va komissiya to'g'risidagi nizom», O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirining «O'zbekiston Respublikasi hududini karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlardan muhofaza qilish qoidalari to'g'risidagi nizomning 1-ilovasiga o'zgartirishlar kiritish haqida» 2011-yil 24 iyundagi 108-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi

vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining «Tarqalishi oqibatida karantin yoki cheklashlar belgilanadigan hayvonlarning yuqumli kasalliklari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida» Qo‘shma qaror №28 va O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 15 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015-yil 6 avgustda ma’qullangan «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Respublika hududida turli xususiyatli aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan.

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi

aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi – aholi sog‘lig‘ining holati bo‘lib, bunda insonga yashash muhiti omillarining zararli ta’siri mavjud bo‘lmaydi va uning hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar ta’minlanadi;

insonning yashash muhiti — insonning hayot faoliyati shart-sharoitlarini belgilaydigan obyektlar, hodisalar va atrof-muhit omillari majmui;

sanitariya-epidemiologik vaziyat — aholi yashayotgan muhitining va sog‘lig‘ining muayyan hududdagi, ko‘rsatilgan aniq vaqtdagi holati;

sanitariya-gigiyena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar — yuqumli va parazitar kasalliklar paydo bo‘lishining hamda tarqalishining oldini olishga va ularni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, ma’muriy, muhandislik-texnik, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari hamda boshqa chora-tadbirlar;

davlat sanitariya nazorati — aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olishga, ularni aniqlash va bartaraf etishga doir faoliyat;

cheklovchi tadbirlar (karantin) — yuqumli va parazitar kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan ma’muriy, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar;

sanitariya-epidemiologiya xizmati — aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, ortitirilgan

immunitet tanqisligi sindromiga (OITSga) qarshi kurashish markazlarini, dezinfeksiya stansiyalarini, o'lat, karantin va o'ta xavfli infeksiyalarni profilaktika qilish markazlarini, ilmiy-tadqiqot muassasalarini o'z ichiga olgan yagona tizim;

Karantin tadbirlari quyidagilarga taalluqlidir:

qishloq xo'jalik ekinlari, dorivor, o'rmon hamda manzarali ekinlarning urug'lari va ko'chatlariga, o'simliklar hamda ularning qismlari (qalamchasi, piyozi, tugunagi, mevasi va boshqalar)ga, shuningdek zararkunandalarni, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarni olib o'tishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday o'simlik mahsulotlariga;

tirik zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar, nematodlar, kanalar va hasharotlarga;

o'simlik kasalliklarini qo'zg'atuvchi hasharotlar kolleksiyalari va bu hasharotlar keltiradigan zararlarning namunalari, shuningdek gerbariylar va urug'lar kolleksiyalariga;

karantin ostida deb e'lon qilingan chet mamlakatlardan va respublika hududidan kelayotgan, zararkunandalarni, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarni olib o'tishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jalik mashinalari va yerni ishlash qurollari, idishlarning barcha turi, ayrim sanoat mollari, o'rov-qoplov vositalari hamda o'simlikdan tayyorlangan mahsulotlar, yaxlit toshlar, tuproq namunalari, transport vositalariga;

o'simlik mahsulotlarini tayyorlaydigan, g'amlaydigan, qayta ishlaydigan va realizatsiya qiladigan korxonalar hamda tashkilotlarning hududlari va binolari, qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlari, tomorqa, yakka tartibdagi yer uchastkalari hamda dala hovlilar, jamoa bog'lari va polizlari, qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanilmaydigan yerlarga (yo'llar, elektr o'tkazgichlar atrofidagi muhofaza joylariga).

Karantin obyekti aniqlangan hollarda tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat inspektori tavsiyasiga binoan mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan ayrim xo'jaliklar, fermer va dehqon xo'jaliklari, korxonalar, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portlari, qishloq va shaharchalarning hududi nosog'lom deb e'lon qilinib, ularda karantin yoki zarur cheklashlar o'rnatiladi.

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni o'simliklar karantini bo'yicha nosog'lom deb e'lon qilish va ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlari tavsiyanomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsiyanomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Karantin o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng karantin e'lon qilingan xo'jaliklardan urug' va ko'chatlarni karantin sertifikatlarisiz karantindagi zararkunandalardan, o'simlik kasalliklaridan va begona o'tlardan holi bo'lgan boshqa xo'jaliklarga sepish va ekish maqsadida olib chiqish man etiladi.

Karantin o'rnatilgan hududlardan karantin sertifikatlarisiz olib chiqib ketilgan urug'lar, o'simliklar va o'simlik mahsulotlari olib qo'yiladi hamda texnikaviy (sanoat yo'li bilan) qayta ishlash yoki umumiy ovqatlanish korxonalarida foydalanish uchun tayyorlov tashkilotlariga beriladi, zarur hollarda esa zararsizlantiriladi, jo'natuvchiga qaytarib yuboriladi yoki yo'q qilib tashlanadi.

Karantin o'rnatilgan hududdagi (aholi punkti, tuman, viloyat) tomorqa uchastkalaridan qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlari orqaligina olib chiqib ketishga yo'l qo'yiladi, zararlangan mahsulotlar bundan mustasno (ulardan qay tarzda va qanday shartlarda foydalanishni o'simliklar karantini davlat inspektori karantin qoidalariga muvofiq belgilaydi).

Hududda o'rnatilgan karantin yoki cheklash belgilangan karantin tadbirlari o'tkazib bo'linganidan hamda karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar o'choqlari batamom yo'q qilinganidan keyingina o'simliklar karantini bo'yicha tegishli bosh davlat inspektorlarining tavsiyanomasiga binoan karantin yoki cheklashlarni o'rnatgan tuman, shahar, viloyat va Toshkent shahar hokimlari qarori bilan yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsiyanomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

Yuqumli va parazitar kasalliklar o'choqlarida davolash-profilaktika hamda sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari

tomonidan quyidagilarga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan tartibda o'tkaziladi:

yuqumli va parazitar kasal deb gumon qilinayotgan shaxslarni aniqlash, ajratib qo'yish va kasalxonaga yotqizishga, shuningdek ular bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazishga va ularning tibbiy kuzatuvini olib borishga;

yuqumli va parazitar kasalliklarning yuqish yo'llari va omillarini aniqlash hamda ularning insonga ta'sir ko'rsatishining oldini olishga.

Profilaktik emlashlar yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olish maqsadida o'tkaziladi.

Profilaktik emlashlar – Profilaktik emlashlarning milliy taqvimiga muvofiq, shuningdek epidemik ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladi.

Profilaktik emlashlarning milliy taqvimi profilaktik emlashlardan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxslar guruhini, bunday emlashlarni o'tkazish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

Profilaktik emlashlarning milliy taqvimi va epidemik o'rsatkichlar bo'yicha profilaktik emlashlar o'tkazish tartibi 'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan diqlanadi.

Yuqumli va parazitar kasalliklar paydo bo'lishi va tarqali-ing oldini olish, ularning doirasini kamaytirish hamda ularni rtaraf etish maqsadida:

epidemik ko'rsatkichlar bo'yicha dezinfeksiya tadbirlari — avlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlar tomonidan;

profilaktik dezinfeksiya tadbirlari — yuridik va jismoniy haxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida dezinfeksiya stansiyalari tomonidan o'tkaziladi.

Yuqumli va parazitar kasalliklar paydo bo'lishining hamda tarqalishining oldini olish, shuningdek kasb faoliyatiga oid kasalliklarning oldini olish maqsadida bir qator kasb va ishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlari ishga kirish paytida dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan hamda keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'riklardan o'tib boradi.

Xodimlari majburiy tibbiy ko'riklardan o'tkazilishi lozim bo'lgan kasblarning va ishlab chiqarishlarning ro'yxati, bunday ko'riklarni

o‘tkazish tartibi va muddatlari oldindan O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi xabardor qilingan holda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolarni gigiyenik o‘qitish va tarbiyalash ularning gigiyenaga, sog‘lom turmush tarziga, sog‘liqni saqlashga doir bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarni egallashiga qaratiladi va kasalliklarning oldini olish maqsadida o‘tkaziladi.

Fuqarolarni gigiyenik o‘qitish va tarbiyalash belgilangan tartibda:

ta’lim muassasalarida;

faoliyati oziq-ovqat xomashyosini, oziq-ovqat mahsulotlarini va ichimlik suvini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish, bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash, aholiga kommunal va maishiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan kadrlarga ishlashga ijozat berish oldidan, ushbu kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish paytida o‘tkaziladi.

Nazorat uchun savollar

1. Biologik turdagi favqulodda vaziyat turlari va ularning xususiyatlari;
2. Biologik turdagi favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularning oldini olish;
3. Biologik turdagi favqulodda vaziyatlarda amalga oshirilishi shart bo‘lgan tadbirlar.
4. Biologik tusdagi favqulodda vaziyat nima?
5. Biologik tusdagi favqulodda vaziyatlarni kelib chiqishiga sababchi bo‘ladigan omillarni aytib bering.
6. Epidemiya nima?
7. Epizootiya nima?
8. Insonlar o‘rtasida tarqalishi mumkin bo‘lgan yuqumli kasalliklarni aytib bering.
9. O‘zbekiston Respublikasida epidemiologik favqulodda vaziyatlarda aholi va atrof muhitni muhofaza qilish uchun amalga oshirishi lozim bo‘lgan tadbirlar nimalardan iborat?

14-§. JAROHATLANGANLARGA SHIFOKORGACHA YORDAM KO'RSATISH QOIDALARI

14.1. Jarohatlanishlar turlari va jarohatlanganlarga yordam ko'rsatish qoidalari

Inson o'z faoliyati davomida turli xil xavfli va zararli omillar mihiti ta'sirida, kutilmagan favqulodda vaziyatlar va boshqa ijtiomoiy sabablar oqibatida baxtsiz hodisalarga duch keladi. Xavfning turi va ta'sir darajasi yoki baxtsiz hodisaning sababiga bog'liq holda jarohatlanish turi va darajasi ham turlicha bo'lishi mumkin.

Aksariyat hollarda jarohatlanish, zaharlanish va shikastlanishlar kutilmaganda yuz beradi. Shuning uchun jarohatlangan kishiga zudlik bilan dastlabki yordam ko'rsatish juda muhimdir. Buning uchun dastlabki yordamni ko'rsatayotgan kishining harakatlari tez, aniq, to'gri va o'ylab amalga oshirilmog'i lozim.

Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish - o'z-o'ziga va atrofdagilarga birinchi yordam ko'rsatishdir. Fuqarolar kishilarga birinchi yordam ko'rsatishdan oldin, eng avvalo jarohatlarni tushunishi, qanday yordam ko'rsatish usulini va eng avvalo ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib birinchi yordam ko'rsatish mumkinligini anglab yetishlari shart. Jarohatlanganlarga birinchi yordam o'z vaqtida va to'g'ri ko'rsatilishi lozim. U qanchalik tez va malakali amalga oshirilsa, shuncha samarali bo'lishi va kishining hayotini saqlab qolish mumkin.

Jarohat- kishining tashqi yoki ichki organizmini salbiy omillar ta'siri natijasida faoliyatini buzilishi oqibatida uning hayotiga xavf soluvchi holatdir. Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish deganda, bu tanani jarohatlanishi natijasida qon oqishini to'xtatish, ochiq jarohatlarni bog'lam bilan yopish yoki bog'lash, jarohatlangan yoki singan tana qismini shinalar yordamida qo'zgalmas holati (immobilizatsiya)ni ta`minlab berish, sun'iy nafas berish va boshqalar.

Jarohatlanish turlari. Hayotda kishilar o'zlarining faoliyatlari davomida turli baxtsiz hodisalarga uchrashlari va turlicha jarohatlar olishlari mumkin, ya'ni :

- predmetlarning mexanik ta'sir natijasida qon tomirlarini kesilib ketishi;
- issiqlik, kimyoviy yoki elektr manbalaridan jarohatlanish natijasida terining kuyishi, mushaklarni tortilib qolishi, xushdan ketib qolish yoki yurakni to'xtashi;
- zaharli chang va gazlar bilan zaharlanish natijasida nafas olish va ichak-oshqozon a'zolarini zaharlanishi;
- kutilmagan jismoniy zarb yoki zo'riqishdan suyaklarda sinish va chiqish sodir bo'lishi va umurtqa pog'onasini zarar ko'rishi;
- suvga cho'kkanda xushdan ketib qolish, nafas olish yo'llarini to'sib qolinishi va qorin bo'shlig'ida suyuqlikning yig'ilib qolishi;
- quturgan hayvonlarni tishlashi natijasida ruhiy holatini o'zgarishi yoki turli yaralarni paydo bo'lishi;
- sudraluvchi va boshqa zaharli hasharotlar chaqishi natijasida kishilarni bo'g'ilib qolishi, tomir mushaklarining tortilishi yoki o'lim holati;
- issiqlik yoki boshqa kimyoviy moddalar ta'siri natijasida teri ustki qatlamining kuyib qolish holati;
- sovuq muhit ta'siri natijasida, organizmning ochiq joylarini sovuq urib qolishi va boshqa sh.o'.

Jarohatlanganlarga yordam ko'rsatish oldidan qo'yiladigan talablar.

Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishdan oldin quyidagi talab va qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

- hodisa yuz bergan joyga yordamga borishdan oldin, kishi eng avvalo o'zini ruhiy holatini va jismonan sog'lomligini hisobga olishi shart, aks holda jarohatlanganlarga yordam berish o'rniga zarar yetkazishingiz mumkin;
- eng avvalo hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirib jarohatlanishning birlamchi manbaini aniqlash va jarohatlanish sabablarini yo'qotish, ya'ni, kishi zaharli gazlar ta'sirida jarohatlangan bo'lsa, avvalambor jarohatlanuvchini xonadan olib chiqish, elektr toki ta'sirida bo'lsa, elektr tokini tarmoqdan uzish,

ustiga donali yuklar yoki boshqa predmetlar tushib bosgan bo‘sa, yukning ta’siridan xalos etish va boshqa sh.o‘.



14.1-rasm. Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatishdan oldin xavf manbalarini o‘rganish va ularni bartaraf qilish

- jarohatlanganlar necha kishiligi va ularning holatini o‘rganib chiqib, lozim topsa birinchi navbatda kishi hayoti va salomatligiga eng ko‘p xavf tug‘dirayotgan holatni yo‘qotish (masalan, arteriyalar kesilganida qon oqishini to‘xtatish, nafas olish to‘xtab qolgan va yurak faoliyati buzilganda, sun’iy nafas berish yoki yurakni uqalashni boshlash va boshqa sh.o‘.);
- atrofdagilarni yordamga chaqirish;
- hodisa yuz bergan joyda jarohatlangan shaxs uchun xavf soluvchi omillar bo‘lmasa va uning holati qoniqarli darajada bo‘lsa, unda birinchi tibbiy yordamgacha uni qo‘zg‘atmaslik;
- jarohatlangan shaxs xushidan ketganda tashlab ketmaslik;

14. 2. Jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatish usullari

Qon oqqanda birinchi yordam ko‘rsatish. Arteriyadan oqadigan qon och qizil rangli, kuchli qon oqimi bosim ostida beto‘xtov otilib turadi. Bunda birinchi navbatda tomirni barmoqlar bilan qattiq bosib, suyakka siqish kerak. Bog‘lam qo‘yishda quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- teriga bir necha qavat qilib taxlangan doka (dastro‘mol) qo‘yish;
- bog‘lamni qon to‘xtaguncha tortish;
- bog‘lam ostiga bog‘lamni qo‘yilgan vaqtini, 24 soatlik vaqt ko‘rsatkichi bilan varaqasini qo‘yish (masalan, 17 soat 35 daqiqa).



14.2-rasm. Qon oqqanda arteriyalarning va tizza bukishidan siqib qo‘yiladigan joylari:
1-tirsakka oid; 2-nurli; 3-yelkaga oid; 4-o‘mrov-osti; 5-o‘ng uyquga oid; 6-kurak; 7-chakkaga oid; 8-chap uyquga oid; 9-birinchi qo‘l ostidagi; 10-o‘ng songa oid; 11-chap songa oid;12-orqa katta songa oid; 13-oyoq kafti.

Qorin qismi shikastlanganda birinchi yordam ko‘rsatish. Qorinning ustki qismi va bo‘shlig‘ining ichi shikastlanganda bemor sanitariya zambiliga chalqanchasiga yotqiziladi, tizzalar biroz bukiladi. Jarohatni bint bilan yaxshilab bog‘lab qo‘yish kerak. Jarohatlanganga suv berish va yarani suv bilan yuvish mumkin

emas. Ko‘krak qafasi ichida o‘pka, yurak hayot uchun xavfli darajada jarohatlangan bo‘lishi mumkin.

Jarohatning teri atrofiga yod eritmasi surtilgandan keyin uning ichiga havo kirmasligi uchun zich yopishib turadigan bog‘lam qo‘yiladi. Buning uchun jarohat ustiga havo o‘tkazmaydigan material qo‘yib, ustidan 3-4 qavat sterillangan doka yoki bint va paxta qo‘yiladi. Shundan keyin jarohat bint bilan qattiq bog‘lab qo‘yiladi.



14.3-rasm. Oyoq va qo‘llardan qon oqqanda, qo‘l yoki jgut qo‘yish bilan to‘xtatish



1-o‘pka; 2-buyrak usti bezlari; 3-jigar; 4-buyrak; 5-peshob oquvchi; 6-ingichka ichaklar; 7-yo‘g‘on ichak; 8-taloq.



1-jigar; 2-oshqozon; 3-yo‘g‘on ichak; 4-ingichka ichaklar.

14.4-rasm. Qorinning ustki qismi va bo‘shlig‘idagi a’zolarning joylashuvi

Issiqlik, kimyoviy yoki elektr manbalaridan jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish. Kishi issiqlik, kimyoviy yoki elektr manbalaridan biror joyini kuydirib qo'ysa, jarohatlangan joyni kaliy permanganat eritmasi yoki ichimlik sodaning 2% li eritmasi bilan ho'llash lozim. 2- va 3-darajali kuyishlarda terining shu joyiga kaliy permanganat eritmasi surtiladi, quruq sterillangan bog'lam qo'yiladi va darhol shifoxonaga yuboriladi.

Kimyoviy kuyishlarda, tananing kuygan qismini suv bilan kamida 20 daqiqa yuvish kerak. Shundan keyin sodaning 2% li eritmasi yoki borat yoxud sirka kislotalarning 1% li eritmasi bilan ho'llangan nam bog'lam qo'yiladi.

Zaharli chang va gazlar bilan zaharlanganlarga yordam ko'rsatish. Pestitsidlar bilan zaharlanganda, jabrlanuvchini pestitsiddan zaharlangan hududdan ochiq-toza havoga olib chiqish va teriga zarar yetgan bo'lsa, u holda terini suv oqimi bilan yuvish yoki artib tashlash lozim. Agar pestitsid organizmga, oshqozon-ichak yo'lidan o'tgan bo'lsa, zaharlangan shaxsni qustirish uchun iliq suv yoki kuydirilgan magneziya eritmasi beriladi va jabrlanuvchining oshqozon atrofi uqalanadi, so'ngra jabrlanuvchiga xom tuxum beriladi. GXSG va rux fosfidi bilan zaharlanganlarga sut tavsiya etilmaydi. Jabrlanuvchiga ichni yumshatadigan tuz (glauber yoki angliyskiy) berish mumkin. Bunday holatlarda moy va moyli mahsulotlar zahar kuchini yanada oshirib yuboradi. Jabrlanuvchining yuragi xasta bo'lgan hollarda unga efirli valerian tomchisi beriladi. Nafas olish susayganida novshadil spirti hidlatiladi, nafas olish to'xtaganida sun'iy nafas oldiriladi.

Zaharli chang va gazlar ta'siri natijasida zaharlanish kishiga hid sezish va his etish organlarini qo'zg'atadi, shuningdek, umumiy holsizlanish paydo bo'ladi. Zaharlanishni eng birinchi belgilaridan bosh og'rishi, ko'ngil aynishi, boshda og'irlik va quloqda shovqin paydo bo'lishi, bosh aylanishi va yurak urishining tezlashishidir. Zaharlangan odamning zaharlangan muhitda bo'lishining davom etishi uni yana ham holsizlantiradi, uyquga tortadi, nafas olishi uzun-uzun bo'ladi, tomir tortishishi paydo bo'ladi va nafas olish markazining falajlanishidan o'lim yuzaga keladi. Jabrlanuvchida zaharlanish alomatlarini aniqlash bilan uni toza havoga olib chiqish, sovuq suv yoki muz donachalaridan tayyorlangan (latta materialidan) kompressni

boshiga qo'yish va novshadil spirtini hidlatish lozim. Yuzaki sust nafas olishda yoki u to'xtaganda sun'iy nafas oldiriladi.

Suyaklarda sinish va chiqish sodir bo'lganda yordam ko'rsatish. Suyak sinishi yopiq va ochiq holatlarda bo'ladi. Yopiq sinishda singan joydagi teri va yumshoq to'qimalar jarohatlanmaydi, ochiq sinishda esa teri jarohatlangan bo'ladi.



14.5-rasm. Suyaklarda sinish va chiqish sodir bo'lganda yordam ko'rsatish

Birinchi yordam ko'rsatishdan oldin tashqi belgilariga qarab yoki jabrlanuvchining o'zidan so'rab jarohatlangan joyni aniqlash lozim. Singan joy aniqlangandan keyin, avval sog'lom oyoq-qo'llardan, so'ngra jarohatlanganidan kiyim-kechakni yechish kerak. Jarohat atrofidagi teriga yod, spirt yoki atir surtilgandan keyin unga sterillangan bog'lam qo'yib bog'lanadi. Shundan keyin singan joy taxtakachlanadi. Taxtakachning uzunligi singan joyga yaqin ikkita bo'g'imga yetadigan bo'lishi kerak.

Chiqish - suyakning siljishi, og'riq va shish paydo bo'lib teri ko'karadi. Suyak chiqishlarini mutaxassis bo'lmagan tomonidan o'z joyiga solish maqsadga muvofiq emas. Bunda faqatgina malakali tibbiy xodim tomonidan yordam ko'rsatishga ruxsat etiladi.



14.6-rasm Qo'l (a), oyoq (b) va bel (v) singanda taxtakachlash



14.7-rasm. Umurtqa ustuni va bosh qismning o'zaro joylashuvi va tuzilishi



14.8-rasm. Bosh va miya qismi jarohatlanganda bog'ich orqali bog'lash usullari

Tok urgan joyga birinchi yetib kelgan odam avvalo shikastlangan kishini tok ta'siridan qutqarishi kerak. Tok urgan kishini yerga qo'yish yoki ustiga tuproq tashlash qat'iyan man qilinadi.

Tok bilan zararlangan shaxslarga quyidagi tartibda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tavsiya etiladi:

❖ tok ta'siridagi kishini tokli qismlardan ajratish, elektr qurilmani o'chirish yoki o'chirgichdan uzish, simni qirqib tashlash, jabrlanuvchini kiyimidan tortib tokli qismlardan ajratish, quruq tayoq yordamida simni olib tashlash lozim;

❖ jabrlanuvchi tokdan ajratilgandan keyin biror to'shama ustiga yotqiziladi, kiyim tugmalari, kamari yechiladi va sof havodan nafas oldiriladi, novshadil spirti hidlatiladi, betiga sovuq suv sepiladi, badani ishqalanadi va isitiladi;

❖ tok urgan kishini orqasi bilan chalqancha yotqiziladi. Pastki tishlar chiqib turadigan qilib jag'i oldinga suriladi. Shundan so'ng ko'rsatkich barmoqqa bint yoki dastro'mol o'rab og'iz burunlar, yot

jismlar yoki shilimshiqlardan tozalanadi. Bu ishlarni barchasini tez va shikast yetkazmay bajarish lozim;

❖ yurak ishlayotgan bo'lsa sun'iy nafas oldirishni bemor mustaqil nafas ola boshlaguncha davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Shikastlanganni nafas olishi to'xtasa, yurakni massaj qilib qon aylanishini tiklash lozim.

❖ qo'l kaftlarini to'shning qoq o'rtasiga ustma-ust qilib qo'yib bir maromda jadal bosiladi. Bunda yurak to'sh bilan umurtqa pog'onasi o'rtasida saqlanadi va qon yurakdan haydaladi. Massaj qilish va sun'iy nafas berish orasidagi bo'sh vaqtda esa ko'krak qafasi kengayadi va yurak bo'shliqlari qon bilan to'ladi. Massaj vaqtida qo'l kuchidan foydalanmay balki butun gavda og'irligidan foydalanish kerak. Muolaja vaqtida qo'l to'shdan olinmaydi.

❖ 12 yoshgacha bo'lgan bolalar yuragini massaj qilishda qo'lning bir kaftidan, chaqaloqlar uchun 2 barmoq bilan yordam ko'rsatiladi. Agar jarohatlangan odamga bir kishi tomonidan yordam ko'rsatilayotgan bo'lsa, 2:15 nisbatida ish ko'rishni, ya'ni o'pkaga 2 marta jadal nafas berilgandan so'ng ko'krak qafasini bir soniya oralatib 15 marta bosish tavsiya etiladi. Agar yordamni 2 kishi berayotgan bo'lsa, biri yurakni massaj qilsa 2-si sun'iy nafas berishi lozim. Ikkala yordamchining harakati o'zaro kelishilgan bo'lishi kerak. Nafas berish ko'krakni bosish bilan bir vaqtda amalga oshirilmaydi, chunki o'pka yorilib ketishi mumkin.



14.9-rasm. Jarohatlanganlarga sun'iy nafas berishdan oldingi jarayon

Buning oldini olish uchun 1:5 nisbatda ish tutiladi, ya'ni yordamchi 1 marta nafas bersa, ikkinchisi 5 marta yurakni massaj qiladi.

Yurakning tashqi massaji juda oddiy va bemorning hayotini saqlab qolishda yordam beradi. Yurakning massaji vrach kelgunicha yoki odam o'lgunicha qo'llaniladi. Yurak massajini barcha insonlar

bilishi shart. Ayniqsa, avtobus, taksi haydovchilari, DAN xodimlari bilishlari shart.

Sun'iy nafas oldirish «og'izdan og'izga» va «og'izdan burunga» usullarida bajariladi. «Og'izdan og'izga» usuli «og'izdan burunga» usulidan afzalroqdir, chunki burun yo'llaridan shilimshiq va suyuqlikni yo'qotish qiyin bo'ladi. Ba'zi hollarda sun'iy nafas berish vositasi sifatida plastmassali naychalardan ham keng foydalaniladi.



14.10-rasm. Yurakni tashqi massaj qilish usuli

Agar jabrlanuvchining nafas olishi to'xtagan bo'lsa yoki u qiynalib nafas olayotgan bo'lsa, u holda unga sun'iy nafas oldiriladi va yuragi uqalanadi. Sun'iy nafas oldirish, bemor o'ziga kelguncha davom ettiriladi. Bir meyorda nafas olish boshlangach, sun'iy nafas oldirish to'xtatiladi.

Yurakni uqalash - bu bemor ko'krak qafasining pastki uchdan bir qismini bir maromda siqishdan iborat. Bu usul turli sabablarga ko'ra yurak urishi to'xtaganda qo'llaniladi. Buning uchun bemorni qattiq yuzaga, chalqanchasiga yotqiziladi. Yordam ko'rsatuvchi tizzada turib kaftini ko'krakning pastki qismiga qo'yadi. Ikkinchi qo'lining kaftini birinchisining ustiga qo'yib, ko'krak qafasini pastki tomondan bir maromda tez-tez bosadi, bunda faqat qo'lning kuchi emas, balki tanasining og'irligidan ham foydalaniladi. Bosish tezligi daqiqaga 50-60 marta takrorlanishi kerak. Yordam ko'rsatishda ikki kishi qatnashishi kerak - biri yurakni ustidan uqalaydi, ikkinchisi - sun'iy nafas oldiradi.

Dastlab bemorning og'zi ochiladi va zarur bo'lsa dastro'mol, doka yoki har qanday yumshoq mato bilan og'izda suyuqlik qolmaydigan qilib tozalanadi. Yordam ko'rsatuvchi bemorning bosh tomonida tizzada turib, bir kaftini bemorning bo'yni ostiga qo'yadi, ikkinchi qo'lini peshonasiga bosib, boshini iloji boricha orqaga

og‘diradi, so‘ngra barmoqlari bilan bemorning burun-kataklari yonidan siqib og‘iz ochiladi. Boshni orqaga oldirish til tushib ketib, nafas yo‘lini berkitmasligi uchun zarur. Yordam beruvchining o‘zi havo tortib, og‘zini (doka orqali qilish ham mumkin) bemorning ochiq og‘ziga zich qo‘yadi va bemorning ko‘kragi ko‘tarilgunga qadar unga kuchli havo puflaydi. Puflangan havo qaytib chiqishida halal bermaslik kerak. Daqiqaga 12-20 marta havo puflash tavsiya etiladi. Bu davr bemor mustaqil nafas olishi boshlangunga qadar davom ettiriladi.



14.11-rasm. Suvga cho‘kkanlarga yordam berish ketma-ketligi

Suvga cho‘kkanlarga birinchi yordam ko‘rsatish avvalambor o‘pkadagi suyuqlikni haydab chiqarishdan boshlanadi. Ya’ni jarohatlangan shaxs tili og‘iz bo‘shlig‘idan tortib olinib dastro‘mol yoki yopishqoq lenta bilan fiksatsiya qilinib nafas yo‘li ochiladi. Shundan keyingina jarohatlangan shaxs tizzaga qorin bo‘shlig‘i orqali joylashtirilib tananing orqa qismidan pastdan yuqori tomon qo‘lning kaft qismi bilan sekin massaj qilinadi. Qorin bo‘shlig‘idan suyuqlik haydab chiqilgandan keyin, jarohatlanganga sun’iy nafas beriladi.

Quturgan hayvonlarni tishlashi natijasida birinchi yordam ko‘rsatayotganda oqayotgan qonni tez to‘xtatishga harakat qilmaslik

kerak, negaki virus hayvonning so‘lagi orqali o‘tib, bosh va orqa miya hujayralarini shikastlantiradi. Inkubatsion oraliq 12-60 kun davom etadi. Tishlangan joy terisi atrofiga keng qilib bir necha marta dezinfeksiyalovchi aralashma (yod-spirtli aralashma, vino-spirti bilan, kaliy permanganat aralashmasi) yordamida ishlov berilib, so‘ng zararsizlantirilgan bog‘ichni bog‘lab qo‘yiladi.

Ilon chaqishi inson hayoti uchun juda xavfli bo‘lib, u chaqqandan so‘ng og‘riq, qizarish va qon oqishi, og‘izda qurish paydo bo‘ladi, chanqash, uyqu tortish, ko‘ngil aynish, tomir tortishi, so‘z buzilishi, yutilish, ayrim vaqtlarda qo‘zg‘aluvchi qismlarning falajlanishi vujudga keladi. Chaqqan vaqtning birinchi ikki daqiqasi ichida, chaqqan joyidan yuqoriroq qismidan qon to‘xtatadigan jgut, buramalar qo‘yiladi, so‘ng chaqqan joydagi teri qon chiqquncha kesiladi va shu joyda so‘rib tashlash uchun banka qo‘yiladi. Keyin yaraga kaliy permanganat yoki natriy gidrokarbonat aralashmalari yordamida ishlov berilib, boylag‘ich bilan bog‘lab qo‘yiladi. Og‘-riqni qoldirish uchun analgin, amidopirin ishlatiladi va ko‘p suyuq-lik (sut, choy, suv) ichiriladi. Agar vaqtni boy berilsa, hiqildoqda shish paydo bo‘lishi va yurakning urishi to‘xtashi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish vaqtida ari va asalarilar ko‘p chaqishi mumkin. Buning ko‘p marta takrorlanishi o‘limga olib kelishi mumkin. Shuning uchun teridan arilar ignasini sug‘urib tashlab, yara joyiga zararsizlantiruvchi aralashma bilan ishlov berish lozim. Og‘riq va shishni kamaytirish uchun teriga gidrokartizonli surtma surtiladi.

Kuyish termik, kimyoviy va elektrik bo‘lishi mumkin. Kuyishning og‘irligiga qarab ularni quyidagicha sinflash mumkin:

1-darajali kuyishda teri qizarib, shishadi;

2-darajali kuyishda suv pufaklari hosil bo‘ladi;

3-darajali kuyishda teri jonsiz, ya`ni sezish qobiliyatini yo‘qotgan holda bo‘ladi;

4-darajali kuyishda teri qorayadi, muskullar va suyak shikast-lanadi, qurib qoladi.

Kuyganlarga yordam ko‘rsatishda kuygan joylar libosi yum-shoq to‘qima materiallardan bo‘lib, ular kuygan yuza bilan o‘zaro ishqalanmasligi lozim.

Birinchi va ikkinchi darajali kuyishda birinchi yordam ko‘rsatishda kuygan joyni suvga tiqib yoki unga suv quyib sovutish lozim, ammo suv haddan tashqari sovuq bo‘lmasligi kerak. Bunday hollarda hech qachon muz ishlatmang. Zararlangan joyni sovutgach, infeksiya tushushi, havo tegishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda og‘riqni yengillashtirish uchun toza salfetka o‘rang.



14.12-rasm. Birinchi yordam paketi (1), sovuq urganda (2) va kislotadan jarohatlanganda (3) birinchi yordam berish usullari

Kuyish natijasida hosil bo‘lgan pufakchalarni yormang, chunki terining butunligi infeksiya tushishidan saqlaydi. Pufakchalar yuzi yorilgan bo‘lsa, zararlangan joyni sovunlab yuvib, sterillangan bog‘lam bog‘lang. Infeksiya tushishi belgi va alomatlarini nazardan qochirmang.

Uchinchi darajali kuyishda tez yordam chaqirish lozim. Kuygan joyga ho‘llangan sochiq yoki boshqa biror yumshoq mato bosib, ustiga suv quyib, uni doim sovuq tutib turish lozim, aks holda darrov shishib, qurib qoladi. Uchinchi darajali kuyish shok holatiga

olib kelishi mumkin. Agar jabirlanuvchi nafas olishda qiynalayotgan bo'lsa, undan yotib olishini iltimos qiling. Kuyishdan jabrlangan odam, odatda, titraydi. Uning tana haroratini bir xilda tutib turing.

Termik va elektrik kuyishda kuygan joyga qo'l tegizish, maz, yog, ichimlik sodasi surtish, yopishib qolgan kiyim parchasini yulib olish, hosil bo'lgan pufaklarni yorish mumkii emas. Birinchi darajali kuyishda kuygan joyni sterillangan bog'ich bilan bog'lash kerak. Tana og'ir kuyganda, kuygan kishini toza choyshab bilan o'rash, choy ichirish va vrach kelguncha tinchlik berish kerak.

Agar kuygan kishining puls urishi sekinlashsa 15-20 tomchi valeryanka ichirish kerak. Kuygan yuzni sterillangan marli bilan yopib qo'yish kerak.

Ko'z kuyganda 1 stakan suvga 1 choy qoshiq bor kislotasi solib, sovuq holda ko'zga bosish kerak.

Kimyoviy kuyish oqibati ko'pincha kuydiruvchi kimyoviy moddani ta'sir etish vaqtiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli bunday kuyganga birinchi yordam ko'rsatishda dastlab ushbu modda kontsentratsiyasini va ta'sirini susaytirish lozim. Buning uchun kislota yoki ishqor ta'sir etgan joy 15-20 minut toza suvda yuvilishi kerak. Agar kuyish kislota ta'sirida bo'lsa bir stakan suvga bir choy qoshiq ichimlnk sodasi, ishqor ta'sirida bo'lsa bir stakan suvga bir choy qoshik bor kislotasi solingan eritma bilan bog'ich namlanib bog'lanishi kerak.

14.3. Jarohatlanganlarga yordam ko'rsatishda foydalaniladigan vositalar turlari

Jarohatlanganlarga yordam ko'rsatish jarayonini tezlashtirish va ular jarohati og'irlashishining oldini olish maqsadida ishlab chiqarish korxonalarining uskunalari, transport va boshqa texnik vositalarini, korxona va xo'jalik ma'muriyati quyidagi dori-darmonlar to'plami bor tibbiyot aptechkasi bilan ta'minlanishi zarur:

Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun transport vositasining salonida bo‘lishi shart bo‘lgan tibbiy ashyolar ro‘yxati

14-1 jadval

T/r	Tibbiy ashyolar nomi	Chiqarilish shakli (o‘lchami)	Miqdori, avtotransport kategoriyasiga ko‘ra		
			B (M1)	C (N1, N2, N3)	D (M2, M3)
I. Tashqi qon ketishni vaqtinchalik to‘xtatish va jarohatlarga bog‘lam qo‘yish uchun					
1.	Qon to‘xtatuvchi jgut		1 dona	1 dona	3 dona
2.	Nosteril tibbiy dokali bint	5 m x 5 sm	2 dona	2 dona	5 dona
3.	Nosteril tibbiy dokali bint	5 m x 10 sm	2 dona	2 dona	5 dona
4.	Nosteril tibbiy dokali bint	7 m x 14 sm	1 dona	1 dona	3 dona
5.	Nosteril tibbiy dokali bint	5 m x 7 sm	2 dona	2 dona	5 dona
6.	Steril tibbiy dokali bint	5 m x 10 sm	2 dona	2 dona	5 dona
7.	Steril tibbiy dokali bint	7 m x 14 sm	1 dona	1 dona	5 dona
8.	Steril bog‘lam uchun paket		1 dona	1 dona	5 dona
9.	Steril tibbiy dokali salfetkalari	16sm x 14sm kam bo‘lmagan № 10	1 quti	1 quti	3 quti
10.	Bakterisid leykoplastir	4 sm x 10 sm dan kam bo‘lmagan	2 dona	2 dona	5 dona
11.	Bakterisid leykoplastir	1,9 sm x 7,2 sm dan kam bo‘lmagan	2 dona	5 dona	15 dona
12.	Rulonli leykoplastir	1 sm x 250 sm dan kam bo‘lmagan	1 dona	1 dona	3 dona
II. Yurak o‘pka reanimatsiyasi vositalari					
1.	«Og‘iz-vosita-og‘iz» usulida sun’iy nafas o‘tkazish uchun to‘siq vositasi		1 dona	1 dona	2 dona
III. Boshqa vositalar					
1.	Ammiak eritmasi — 10% (novshadil spirti)	flakon	1 dona	1 dona	2 dona

2.	Qaychi		1 dona	1 dona	2 dona
3.	Tibbiy qo'lqoplar	O'lchami «M» dan kam bo'lmagan	1 juft	1 juft	5 juft
4.	Tibbiyot qutichasi		1 dona		

Izoh:

1. Yaroqlilik muddati o'tgan va o'ramiga zarar yetgan dori vositalari hamda tibbiy ashyolar qo'llanilishi taqiqlanadi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11 dekabrdagi 472-son qarori (O'zbekiston Respublikasining Hukumati qarorlari to'plami, 2000 y., 12-son, 75-modda) bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarining 3-ilovasi 7.9-bandi talablariga muvofiq tibbiyot qutichasi transport vositalarini ishlab chiqargan tashkilot tomonidan belgilangan joyga mustahkam o'rnatiladi. Agar transport vositasini konstruksiyasida bunday joy ko'zda tutilmagan bo'lsa, tibbiyot qutichasi oson olinadigan joyda bo'lishi lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Jarohatlanishlar turini aytib bering.
2. Nima uchun sun'iy nafas va yurak massaji bir vaqtda bajarilmaydi?
3. Sun'iy nafas berish usulini aytib bering.
4. Umurtqani jarohatlanish sabablari nimadan iborat?
5. Umurtqasi jarhohatlanganlarga qanday yordam ko'rsatiladi?
6. Suvga cho'kkanlarni suvdan olib chiqish usulini ayting.
7. Suvga cho'kkanllrga qanday yordam beriladi?
8. O'lim belgilarini ayting.
9. O'smir va chaqaloqlar yuragini massaj qilish qanday amalga oshiriladi?
10. Kuyish darajalari nima va kuyganlarga qanday yordam ko'rsatiladi?
11. Sovuq urish darajasini qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi?
12. Kimyoviy vositalardan jarohatlanganlarga qanday yordam ko'rsatiladi?
13. Birinch yordam vosutalarini aytib bering.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.E.Gayupov. “Hayot faoliyati xavfsizligi”. (Lotin alifbosi). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007.

2. О.Кудратов, Т.Ғаниев. Ҳаётий фаолият хавфсизлиги. - Тошкент, «Меҳнат”, 2004.

3. А.Кудратов, Т.Ганиев, У.Юлдашев, Ф.Ё.Ёрматов, Н.Хабибуллаев, А.Д.Худоев. Ҳаётий фаолият хавфсизлиги. – Тошкент: «Алоқачи», 2005.

4. О.Д.Рахимов, У.Йўлдошев. Меҳнатни муҳофаза қилиш. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан нашрга тавсия этилган. – Тошкент, 2002.

5. M. Tojiyev, I. Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublika Oliy va o‘rta maxslus ta’lim vazirligi, -Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni», 2012, 272 b.

6. Habibullayev I.H., Nurxo‘jayev A.Q. va boshq. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. – T.: «Universitet», 2001, 263 b.

7. Безопасность, охрана здоровья и условия труда. Учебное пособие Шведского Объединенного Совета по охране труда в промышленности, разработанное в сотрудничестве с МОТ. - Москва-Пермь: МОТ, 2004, 160 с.

8. Муравей Л.А. Безопасность жизнедеятельности. Учебн. пособие. – М.: Изд. ЮНТИ, 2010.

9. Зайцев В.П., Свердлов М.С. Охрана труда. 2 –е изд., перераб. и доп. – М.: Агропромиздат, 1989, 368 с.

10. Акимов Н.И., Илин В.Г. Қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш объектларида граждан мудофааси. – Т., 1988.

11. O‘zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Qonuni. 22.09. 2016 y.

12. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 21.12.1995.

13. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27 apreldagi 246-son qarori.

14. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida nizom. VMQ 06.06.1997.

15. Положение «О разработке инструкций по охране труда». 16.12.1999.

16. Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestasiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15 sentabrdagi 263-son qaroriga 1-ILOVA.

17. Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimini sanitar-gigiyenik normativlari. 2016 y. O'zR SanQvaN № 0324-16.

18. Yuqumli kasallikka chalingan hayvonlarga xizmat ko'rsatishda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 18 martda 1923-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

19. Sigirlar va nasl buqalarni parvarish qilishda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 1 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1977.

20. Erkak cho'chqalarni parvarish qilishda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 18 iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1970.

21. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27 oktabrdagi 455-son qaroriga ilova.

22. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida 1999-yil 20 avgust, 824-I-son.

23. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi. Vazirlar Mahkamasining 27.10.1998 y. 455-sonli qaroriga ilova.

24. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fuqaro muhofazasi to'g'risida. 26.05.2000 y.

25. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida. 1999-yil 20 avgust.

26. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24 avgustdagi 242-son qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘simliklar karantini to‘g‘risida. 1995-yil 31 avgust.

28. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida. 2015-yil 6 avgust.

29. Respublikada aholi o‘rtasida o‘ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora–tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i. 2015-yil 23.01 № 37.

30. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining buyrug‘i. Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun transport vositasining salonida bo‘lishi shart bo‘lgan zarur tibbiy ashyolar ro‘yxati. 2011-yil 22 iyun.

Xorij adabiyoti

1. Phil Hughes and Ed Ferrett. Introduction to health and safety at work ISBN: 978-0-08-097070-7 Fifth edition 2011.

Internet ma’lumotlari

1. *www.Ziyo.net.uz*
2. *www.Lex.uz*
3. *http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11200:0::NO:11200:P11200_COUNTRY_ID:103538*

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

1-§. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI

1.1. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati..... 4
1.2. Fan haqida asosiy tushuncha va atamalar..... 5
1.3. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorldigi..... 9
1.4. Inson faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhit to'g'risida tushunchalar..... 10
1.5. Fanni o'rganishda «Inson – mashina – muhit» tizimining tasnifi..... 12

2-§. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

2.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa xalqaro meyoriy hujjatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari.... 19
2.2. O'n sakkiz yoshga to'lmagan yoshlar va ayollar mehnatini muhofaza qilishning huquqiy asoslari..... 26
2.3. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi..... 32
2.4. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun va boshqa meyoriy hujjatlar talablariga rioya qilishda davlat, muassasa va jamoa nazorati..... 34
2.5. Mehnatni muhofaza qilishga oid qoida va talablarni buzuvchi shaxslar javobgarligi..... 39

3-§. ISHLAB CHIQARISHDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etishda rahbar va mutaxassis xodimlarning huquqi, vazifalari va majburiyatlari..... 47
3.2. Mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil qilish..... 55

3.3. Ishchi xodimlar sog'ligini saqlash..... 58
3.4. Mehnat sharoitlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibi..... 61
3.5. Mehnatni muhofaza qilishga doir hujjatlarni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish..... 65

4-§. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA O'QITISH VA TARG'IBOT - TASHVIQOT ETISH

4.1. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma turlari va uni o'tkazish tartibi..... 68
4.2. Mehnatni muhofa qilish bo'yicha o'qitish..... 72
4.3. Mutaxassis va ishchi xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish..... 73
4.4. Baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularni hisobga olish tartibi..... 77

5-§. ISHLAB CHIQARISHDAGI XAVFLI VA ZARARLI OMILLAR

5.1. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasining umumiy tushunchasi va talablari..... 87
5.2. Gigiyenik meyorlar va ularning miqdori..... 89
5.3. Ishlab chiqarishdagi zararli omillar turlari, xususiyatlari va ularning inson organizmiga ta'siri..... 91
5.4. Shaxsiy himoya vositalari..... 102

6-§. ISHLAB CHIQARISH BINOLARIGA XAVFSIZLIK BO'YICHA QO'YILGAN TALABLAR

6.1. Chorvachilik binolari uchun xavfsizlikning umumiy talablari..... 111
6.2. Ishlab chiqarish binolarida mikroiqlim omillari va ularning gigiyenik meyorlari..... 113
6.3. Chorvachilikda kasb kasalliklari profilaktikasi..... 116
6.4. Ishlab chiqarish binolarini yoritish, isitish va havosini almashtirish..... 119

7-§. QISHLOQ XO‘JALIK HAYVONLARIGA XIZMAT KO‘RSATISHDA XAVFSIZLIK CHORALARI

7.1. Yirik shoxli mollarga xizmat ko‘rsatishda xavfsizlik talablari..... 128
7.2. Erkak cho‘chqalarga xizmat ko‘rsatishda xavfsizlik qoidalari..... 136
7.3. Kasallangan hayvonlarga xizmat ko‘rsatishda xavfsizlik talablari..... 138
7.4. Hayvonlar harakatini cheklash..... 139
7.5. Hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga haydash va ko‘chirishda xavfsizlik talablari..... 145

8-§. CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKDA QO‘LLANILADIGAN MASHINA VA DASTGOHLARDAN FOYDALANISHDA XAVFSIZLIK CHORA-TADBIRLARI

8.1. Texnika xavfsizligining umumiy tushunchalari va talablari..... 148
8.2. Xavfsizlikni ta’minlash usullari va vositalari..... 149
8.3. Yuklarni ortish-tushirish va tashishda xavfsizlik talablari 156
8.4. Chorvachilik va parrandachilikda foydalaniladigan mexanizm va mashinalar uchun xavfsizlik talablari..... 158

9-§. ELEKTR XAVFSIZLIGI

9.1 Elektr tokining odam va hayvonlarga ta’siri..... 166
9.2 Elektr tokidan jarohatlanish sabablari va uning oldini olish..... 169
9.3 Binolarning elektr toki xavfsizligi bo‘yicha tasnifi..... 172
9.4 Elektr toki ta’siridan himoyalanish tadbirlari va vositalari 175

10-§. YONG‘IN XAVFSIZLIGI

10.1 Asosiy tushunchalar..... 180
10.2 Yong‘inning kelib chiqish sabablari va xatarli omillar. 181

10.3 Yong'in xavfsizligiga doir asosiy talablar va qoidalar.. 183
10.4 Yong'in haqida xabar berish va o'chirish vositalari..... 185
10.5 Ishlab chiqarishda yong'inga qarshi tizimlar..... 197
10.6 Davlat yong'nni nazorat qilish organi..... 199

11-§. FAVQULODDA VAZIYATLAR, ULARNING TURLRI VA TAVSIFI

11.1. Favqulodda vaziyatlar to'g'risida asosiy tushunchalar va atamalar..... 203
11.2. Favqulodda vaziyatlar turlari va ularning xususiyatlari 205
11.3. Favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladigan zararlanish o'choqlari va ularning turlari..... 218

12-§. FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY VA TASHKILIY MASALALARI

12.1 Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida..... 221
12.2 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari..... 226
12.3 Favqulodda vaziyatlarda aholini himoyalashning asosiy usullari va vositalari..... 229

13-§. BIOLOGIK TURDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN HIMOYALANISH

13.1 Biologik turdagi favqulodda vaziyat turlari va ularning xususiyatlari..... 230
13.2 Biologik turdagi favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularning oldini olish..... 245
13.3 Biologik turdagi favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan tadbirlar..... 248

14-§. JAROHATLANGANLARGA SHIFOKORGACHA YORDAM KO‘RSATISH QOIDALARI

14.1 Jarohatlanishlar turlari va jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatish qoidalari..... 254
14.2 Jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatish usullari..... 257
14.3 Jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatishda foydalaniladigan vositalar turlari..... 268
Adabiyotlar ro‘yxati..... 271

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ..... 3

§ 1. СОДЕРЖАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДМЕТА БЕЗОПАСНОСТ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ

1.1 Социально-экономическое значение безопасности жизнедеятельности..... 4
1.2 Основные понятия и определения..... 5
1.3 Взаимосвяз предмета с другими предметами 9
1.4 Понятие о возможной среде деятельности человека .. 10
1.5 Храктеристика системы «Человек - Машина – Среда» при изучении предмета..... 12

§ 2. ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОХРАНЫ ТРУДА

2.1 Вопросы охраны труда в законах Республики Узбекистан и в других международных нормативных документах..... 19
2.2 Правовые основы охраны труда лиц моложе восемнадцати лет и женщин..... 26
2.3 Система стандартов безопасности труда..... 32
2.4 Государственный, ведомственный и общественный контрол при соблюдении законов и других нормативных документов об охране труда..... 34
2.5 Ответственност лиц за нарушение правил и требований охраны труда..... 39

§ 3. ОРГАНИЗАЦИЯ ОХРАНЫ ТРУДА НА ПРОИЗВОДСТВЕ

3.1 Права, обязанност и задачи руководителей и специалистов при организации работ по охране труда.... 47
3.2 Организация службы охраны труда..... 55
3.3 Сохранения здоровья работников и сотрудников..... 58

3.4 Правила проведения нгосударственной экспертизы условия труда..... 61
3.5 Разработка и переработка документов по охране труда. 65

§ 4. ОБУЧЕНИЕ И ПРОПАГАНДА ОХРАНЫ ТРУДА

4.1 Типы инструктажей по охране труда и порядок его проведения..... 68
4.2 Обучение по охране труда..... 72
4.3 Порядок проверки знаний сотрудников и специалистов по охране труда..... 73
4.4 Порядок проведения расследований и учета несчастных случаев..... 77

§ 5. ОПАСНЫЕ И ВРЕДНЫЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ФАКТОРЫ

5.1 Общие понятия и требования производственной санитарии и гигиены труда..... 87
5.2 Гигиенические нормы и их значения..... 89
5.3 Виды и свойства вредных производственных факторов и их влияние на организм человека..... 91
5.4 Средств индивидуальной защиты..... 102

§6. ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К БЕЗОПАСНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗДАНИЙ

6.1 Общие требования безопасности к животноводческим зданиям..... 111
6.2 Микроклиматические факторы в производственных помещениях и их гигиенические нормы..... 113
6.3 Профилактика профессиональных заболеваний в животноводстве..... 116
6.4 Освещение, отопление и вентиляция производственных помещени..... 119

7§. МЕРЫ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ ОБСЛУЖИВАНИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЖИВОТНЫХ

7.1 Требования безопасности при обслуживании крупного рогатого скота..... 128
7.2 Правила безопасности при обслуживании свиней..... 136
7.3 Требования безопасности при обслуживании больных животных..... 138
7.4 Ограничение движение тела животных..... 139
7.5 Безопасност при перегоне и перевозки животных с места на место..... 145

8§. МЕРЫ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ МАШИН И ОБОРУДОВАНИЙ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В ЖИВОТНОВОДСТВЕ И ПТИЦЕВОДСТВЕ

8.1 Общие понятия и требования техники безопасности.. 148
8.2 Методы и средства обеспечения безопасности..... 149
8.3 Требования безопасности при погрузке, разгрузке и транспортировке грузов..... 156
8.4 Требования безопасности к машинам и механизмам используемым в животноводстве и птицеводстве..... 158

9 §. ЭЛЕКТРОБЕЗОПАСНОСТ

9.1 Поражения людей и животных электрическим током 166
9.2 Причины поражения электрическим током и пути его предотвращения..... 169
9.3 Характеристика зданий по электробезопасности..... 172
9.4 Меры и средства защиты от поражения электрическим током..... 175

10 §. ПОЖАРНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ

10.1 Основные понятые..... 180

10.2 Причины возникновения пожара и факторы риска... 181
10.3 Основные требования и правила пожарной безопасности..... 183
10.4 Средства оповещение и тушения пожара..... 195
10.5 Противопожарная система на производстве..... 197
10.6 Государственный орган пожарного контроля..... 199

11§. ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ СИТУАЦИИ, ИХ ВИДЫ И ХАРАКТЕРИСТИКА

11.1 Основные понятия и определения о чрезвычайных ситуациях..... 203
11.2 Виды чрезвычайных ситуаций и их свойства..... 205
11.3 Очаг возникновение вредных зон при чрезвычайных ситуациях и их виды..... 218

12 §. ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В ЧРЕЗВЫЧАЙНОЙ СИТУАЦИИ

12.1 О государственной системе предотвращения и действия в чрезвычайной ситуации..... 221
12.2 Основные принципы обеспечения безопасности в чрезвычайных ситуациях..... 226
12.3 Основные методы и средства защиты населения в чрезвычайных ситуациях..... 229

13 §. ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ СИТУАЦИИ БИОЛОГИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА И ЗАЩИТА ОТ НИХ

13.1 Чрезвычайные ситуации биологического характера и их свойства..... 230
13.2 Факторы вызывающие чрезвычайные ситуации биологического характера и их предотвращения..... 245
13.3 Мероприятия, проводимые при чрезвычайной ситуации биологического характера..... 248

14. ПРАВИЛА ОКАЗАНИЯ ДОВРАЧЕБНОЙ ПОМОЩИ ПОСТРАДАВШИМ

11.1 Виды травм и правила оказания помощи пострадавшим 254
11.2 Методы оказания помощи пострадавшим 257
11.3 Виды средств, используемых при оказании помощи пострадавшим 268
Список использованной литературы 271

CONTENT

INTRODUCTION..... 3

§1. CONTENT AND SIGNIFICANCE OF THE SUBJECT LIFE SAFETY

1.1. Socio-economic importance of life safety..... 4
1.2. Basic concepts and definitions..... 5
1.3. The relationship of the subject with other objects..... 9
1.4. Concepts about the possible environment of human activity..... ... 10
1.5. Characteristics of the system "Human- Machine - Environment" in the study of the subject..... 12

§2. LEGAL BASIS OF THE OCCUPATIONAL SAFETY AND HEALTH

2.1.Issues of occupational safety and health in the laws of the Republic of Uzbekistan and other international regulations..... 19
2.2. Legal framework for occupational safety and health of persons under eighteen years and women..... 26
2.3. Occupational safety standards system..... 32
2.4. State, departmental and public control in compliance with laws on occupational safety and health..... 34
2.5. Responsibility of persons for violation of rules and occupational safety and health requirements..... 39

§ 3. ORGANIZATION OF PROTECTION OF LABOR IN MANUFACTURE

3.1. Rights, duties and tasks of managers and specialists in the organization of occupational safety and health works..... 47
3.2. Organization the services of occupational safety and health..... 55
3.3. Preservation of health professionals and staff..... 58

3.4. The procedure of state examination of working conditions..... 61
3.5. Development and processing of occupational safety and health documents..... 65

§ 4. TRAINING AND AN AGITATION OF THE SAFETY AND HEALTH

4.1. Types of instructing in occupational safety and health and its procedure..... 68
4.2. Occupational safety and health training..... 72
4.3. The procedure for testing the knowledge of employees and specialists of occupational safety and health..... 73
4.4. The procedure for investigating and recording accidents 77

§ 5. DANGEROUS AND HARMFUL PRODUCTION FACTORS

5.1. General concepts and requirements of occupational health and hygiene..... 87
5.2. Hygiene standards and their meanings..... 89
5.3. Composition of air and the effect of harmful substances on the human body..... 91
5.4. Personal protective equipment..... 102

§6. SAFETY REQUIREMENTS FOR PRODUCTION BUILDINGS

6.1. General safety requirements for livestock buildings..... 111
6.2. Microclimatic factors in industrial premises and their hygienic norms..... 113
6.3. Prevention of occupational diseases in animal husbandry..... 116
6.4. Lighting, heating and ventilation of industrial premises.. 119

7§. SAFETY MEASURES FOR SERVICING AGRICULTURAL ANIMALS

7.1. Safety requirements for servicing cattle..... 128
7.2. Safety rules for servicing pigs..... 136
7.3. Safety requirements for the of services of sick animals... 138
7.4. Restriction of animal body movement..... 139
7.5. Safety by driving and transportation of animals from place to place..... 145

8§. SAFETY MEASURES BY THE USE OF MACHINES AND EQUIPMENT USED IN ANIMAL AND POULTRY FARMING HUSBANDRY

8.1. General concepts and safety requirements..... 148
8.2. The methods and tools of the providing the safeties..... 149
8.3. Safety requirement for loading, unloading and shipping. 156
8.4. Safety requirement for machinery used in livestock and poultry farming..... 158

9§. ELECTRICAL SAFETY

9.1. Electrocution of people and animals..... 166
9.2. Causes of electric shock and ways to prevent it..... 169
9.3. Characteristics of buildings for electrical safety..... 172
9.4. Measures and means of protection against electric shock 175

10§. FIRE SAFETY

10.1 Basic Witnesses..... 180
10.2 Causes of fire and risk factors..... 181
10.3 Basic requirements and fire safety rules..... 183
10.4 Fire alarm and extinguishing means..... 185
10.5 Industrial Fire System..... 197
10.6 State fire control authority..... 199

11§. EMERGENCY SITUATIONS, THEIR SPECIES AND CHARACTERISTICS

11.1. Basic concepts and definitions of emergency situations 203
11.2. Types of emergency situations and their properties..... 205
11.3. The focus of the emergence of hazardous areas in emergency situations and their types..... 218

12 §. LEGAL AND ORGANIZATIONAL ISSUES OF PROTECTION OF THE POPULATION IN AN EMERGENCY SITUATION

12.1 On the state system of prevention and action in an emergency..... 221
12.2 Basic principles of safety in emergency situations..... 226
12.3 The main methods and means of protection of the population in emergency situations..... 229

13 §. EMERGENCY SITUATIONS OF THE BIOLOGICAL CHARACTER AND PROTECTION AGAINST THEM

13.1 Emergencies of a biological nature and their properties. 230
13.2 Factors causing biological emergencies and their prevention..... 245
13.3 Activities required in the event of a biological emergency. 248

14. RULES FOR PROVIDING HELP TO THE VICTIMS

14.1 Kinds of injuries and rules for assisting victims..... 254
14.2 Methods for assisting victims..... 257
14.3 Types of funds used in the provision of assistance to victims..... 268
List of used literatures..... 271

HABIB XOLIQOVICH RAZZOQOV
SHAVKAT ALIKULOVICH MAMASOV

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.
Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 14.12.2019.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 17,75. Nashriyot bosma tabog'i 18,0.
Tiraji 300. Buyurtma № 263.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.